

Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

RESPUBLIKA BOLALAR IJTIMOIIY MOSLASHUVI

MARKAZI FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI

BOLALAR VA YOSHLAR IJTIMOIIY

TA'MINOTI VA HIMOYASI

O'QUY QO'LLANMA

Toshkent-2019

UDK: 94(575.1)

Ganiyeva M.X., Latipova N.M., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M. "Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent: 2019 yil.

O'quv qo'llanmada bolalar va yoshlar bilan ijtimoiy ish muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Unda bolalar va yoshlarning ijtimoiy ta'minoti, ijtimoiy ish muammolari, yoshlarga oid ijtimoiy siyosatning asosiy tendensiyalari yoritildi. O'zbekiston va chet el mamlakatlaridagi bolalar va o'smirlar bilan ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlari bayon etilib, uning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda voyaga etmaganlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. O'quv qo'llanma bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ishlayotgan amaliyotchi mutaxassislar – ijtimoiy xizmat rahbarlari, psixologlar, pedagog, mahallalardagi yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilar hamda ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislari, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining "Ijtimoiy ish" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Sabirova U.F.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi

Abdulayev T.U.

Farg'ona davlat universiteti, falsafa fanlari doktori

2019 yil _____ da O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashining yig'ilishida ma'qullangan va chop qilishga tavsiya etilgan. (№ __ bayonnoma).

Учебное пособие создано в соответствии с Государственным образовательным стандартом по направлению подготовки 5520100 – Социальная работа (с семьями и детьми). В учебном пособии особое внимание обращено на проблемы социальной работы с детьми и молодежи.. В нем освещаются проблемы социального обеспечения и защиты детей и молодежи, социальной работы, модели социального обеспечения детей, основные тенденции современной социальной политики в отношении молодежи. Рассматриваются основные направления социальной работы с детьми и подростками за рубежом и в Узбекистане, анализируются ее нормативно-правовая база и организационные стороны социального обслуживания несовершеннолетних. Описаны основные теоретические направления, используемые на современном этапе развития общества, пути формирования профессионализма социальных работников. Пособие снабжено кратким словарём основных понятий и терминов, приложением.

Предназначено для студентов высших учебных заведений, обучающихся по направлению «Социальная работа», а также специалистов-практиков, работающих в сфере социальной защиты детей – руководителям социальных служб, психологам, педагогам, консультантам по работе с молодежью в махаллях и специалистам по социальной работе.

Ўқув қўлланма Давлат таълим стандартларининг 5520100 – Ижтимоий иш (оила ва болалар билан) бўйича тайёрлаш йўналишига мувофиқ равишда тайёрланган. Ўқув қўлланмада боллар ва ёшлар билан ижтимоий иш муаммосига алоҳида эътибор қаратилган. Унда болалар ва ёшларнинг ижтимоий таъминоти, ижтимоий иш муаммолари, болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш моделлари, ёшларга оид ижтимоий сиёсатнинг асосий тенденциялари ёритилади. Ўзбекистон ва чет эл мамлакатларидаги болалар ва ўсмирлар билан ижтимоий ишнинг асосий йўналишлари баён этилиб, унинг меъёрий-ҳуқуқий асослари ҳамда вояга етмаганларнинг ижтимоий қўллаб-қувватланишининг ташкилий асослари таҳлил қилинади. Мазкур ўқув қўлланмада жамиятнинг замонавий ривожланиши босқичида

кўлланилиб келинаётган асосий назарий ёндошувлар тавсифи, ижтимоий иш ходимларининг касбий салоҳияти оширилиши йўллари изоҳи келтирилади. Кўлланма шунингдек асосий тушунча ва терминларнинг қисқача луғати ҳамда иловалар ҳам жой топган.

Олий ўқув юртларининг “Ижтимоий иш” йўналиши бўйича таҳсил олаётган талабалар, шунингдек болаларни ижтимоий ҳимоялаш тизимида ишлаётган амалиётчи мутахассислар – ижтимоий хизматлар раҳбарлари, психологлар, педагог, маҳаллалардаги ёшлар масалалари бўйича маслаҳатчилар ҳамда ижтимоий иш бўйича мутахассислар учун мўлжалланган.

The tutorial is created in accordance with the State Educational Standard in the field of training 5520100 - Social work (with families and children). The tutorial focuses on the problems of social work with children and young people. It highlights the problems of social protection of children and youth, social work, the model of social security for children, the main trends of modern social policy towards young people. The main directions of social work with children and adolescents abroad and in Uzbekistan are considered, and its regulatory and legal framework and organizational aspects of social services for minors are analyzed in the tutorial. The main theoretical directions used at the present stage of the development of society, the ways of forming the professionalism of social workers are described. The tutorial is provided with a short dictionary of basic concepts and terms and applications.

The tutorial intended for students of higher educational institutions studying in the field of "Social Work", as well as practitioners working in the field of social protection of children - heads of social services, psychologists, teachers, youth workers in mahallas and specialists in social work.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida bir qator qonunlar amalga kiritildi. Bular "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlaridir.

O'zbekiston Respublikasi davlat yoshlar siyosatining asosiy maqsadi bolalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy choralar tizimi va uning fuqarolik va kasbiy rivojlanish, ijtimoiy faollikni rivojlantirishdir.

Hozirgi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish, hayotga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu masala davlat tashkilotlari va bir qator mutaxassislar – pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar, huquqshunoslar, tibbiyot xodimlari diqqat-e'tiboridadir. Kuchli ijtimoiy siyosat o'zbek ijtimoiy rivojlanish modelining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi bosqichda ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi – aholining turmush darajasi va sifatini yanada yuksaltirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy jamiyatining ijtimoiy tuzilmasida namoyon bo'lgan aholi turli qatlamlari, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar uchun differensial yondashuvni o'z ichiga olgan bir qator xususiyatlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha qonunlarni amalga oshirishda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning hayotga moslashuvida ishtirok etuvchi barcha mutasaddi tashkilotlarning hamkorlikda ishlashini taqozo etadi. Mana shu tashkilotlar ya'ni, ta'lim muassasasi, davlat organlari, mahalla, va oila o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mavjud bo'lgan muammolarni oldini olishga imkon beradi. Noqobil oilalar va tarbiyasi og'ir bolalarni turar joyi bo'yicha aniqlash, ular

o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va bandligini ta'minlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirishga amaliy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tizimda bolalar va yoshlar alohida o'rin egallab, ular yoshlarning eng o'qimishli, mobil va ijtimoiy jihatdan faol qismidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati nafaqat, bolaning ijtimoiy himoyasiga balki, uning jamiyatga ijtimoiy moslashuvida ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda bolalarning ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy moslashuvi nafaqat davlatning mas'uliyatida balki, butun bir jamiyatning va har bir fuqaroning insoniylik burchidir. Bu siyosat oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalarning intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlarni tubdan yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, yoshlar madaniyatini rivojlanishiga erishishga qaratilgan.

I Bob. Bolalar va yoshlarning ijtimoiy himoyasi va ta'minoti. Ijtimoiy ish amaliyotining asosiy tamoyillari

1.1. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibi

Ijtimoiy himoya – insonning jamiyat va uning turli tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning kafolatlangan minimal turmush sharoitini ta'minlash, hayotini qo'llab-quvvatlash tizimidir.

Ijtimoiy himoya tushunchasi ilmiy ta'riflar sifatida foydalanilganda, ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy ta'minotni ajralmas qismi sifatida qamrab oladi va qo'shimcha ravishda, inson uchun normal yashash sharoitlarini ta'minlaydigan mehnat, sog'liq va atrof-muhitni muhofaza qilish, eng kam ish haqi va boshqalarni kafolatlaydi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish bugungi kunda qonuniy ravishda o'rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kafolatlar va huquqlar, ijtimoiy muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlaydigan hamda aholining turli

qatlamlari va ayniqsa ijtimoiy jihatdan himoyalangan guruhlarining hayotini qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratilganligi sifatida tushuniladi.

Ijtimoiy himoya ob'ektiga barcha aholining guruhlari, shu bilan birga, uning zaif guruhlari – kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, qariyalar, yetim, yolg'iz bolalar, ko'p bolali oilalar, ekologik falokatlar qurbonlari va boshqalar kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni hisobga olishning asosiy yondashuvi, avvalo, ijtimoiy muammolarning ob'ektiv-sub'ektiv xarakterini anglashni, ikkinchidan, nafaqat inson, guruh yoki oila muammolarini hal qilish, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy resurslarni ham o'z ichiga oladi.

Rus olimlari N.V.Malyarova, M.Nesmeyanovlar ijtimoiy himoyaning ikki ma'nosi haqida so'z yuritadilar. Birinchidan, keng ma'noda, inson o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan, u va uning farzandlari uchun sharoit yaratadigan ijtimoiy munosabatlar tizimini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, tor ma'noda davlatning ijtimoiy siyosatini ijtimoiy himoya qilish tushunchasida, ayniqsa qiyin ahvolda bo'lgan va tashqi ko'maksiz rivojlana olmaydigan aholi guruhlari uchun qoniqarli yoki hatto toqatli xayot tarzini ta'minlash uchun ma'muriy choralarni ko'rishda namoyon bo'ladi.

“N.S.Sыгоed” bo'yicha aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uchta bosqichga bo'lingan:

1. Ijtimoiy himoya tamoyillari va uslublari asoslanadigan nazariy va metodologik bosqichi.
2. Ijtimoiy siyosat darajasi yoki ijtimoiy jarayonlarni boshqarish tizimining bosqichi.
3. Aholini to'g'ridan-to'g'ri amaliy qo'llab-quvvatlash darajasi bosqichi.

Ijtimoiy himoya tizimi yoki ijtimoiy infratuzilma tizimi (aholiga ko'rsatiladigan yordam va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar va tashkilotlar) aholi ijtimoiy himoya tizimining uchinchi darajasini tashkil etadi¹.

¹ См. Социальная работа: Словарь-справочник/Под ред. В.И.Филоненко. Сост.: Е.П.Агапов, В.И.Акопов, В.Д. Альперович, А.О. Бухановский и др. – Москва.: «Контур», 1998; Римашевская Н.М. Социальная защита

Ijtimoiy xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari davlatning ijtimoiy siyosati, muayyan mamlakatda sodir bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, demografik holat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning milliy modeli (va shu qatorda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish) quyidagi xususiyatlarda aks ettirilgan. Birinchidan, bozor iqtisodiyotini inson manfaatlariga yo'naltirilganligi, kam ta'minlangan oilalarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga, fuqarolarni ish bilan ta'minlashni tartibga soluvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, 90-yillarning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda ijtimoiy himoyaning maqsadli va manzilli shakli rivojlanmoqda. Uchinchidan, aholining turli qatlamlariga, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarga ko'mak va yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish belgilangan. To'rtinchidan, 2018 yilga kelib, mamlakat aholisining "yosh"i – 30 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlar umumiy aholi sonining 60 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Ijtimoiy xizmatlar ma'nosi ijtimoiy tahlil metodikasida ko'rib chiqiladi. Ushbu toifani keng ma'nosi turli xil ijtimoiy tashkilotlar, guruhlar va jismoniy shaxslar o'rtasida ijtimoiy o'zaro ta'sirni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lib, qiyin hayot sharoitlarida yordam ko'rsatishni aks ettiruvchi amaliy masalalarni echishga qaratilgan. Tor ma'noda ijtimoiy xizmatlar, o'z-o'ziga xizmat qila olmaydigan va doimiy g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlashga muhtoj, qiyin hayot sharoitida odamlarga yordam berishga yo'naltirilgan tashkilotlar va mutaxassislar faoliyatining texnologiyalari va usullari kombinatsiyasi sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasini amalga oshirish doirasida 2014 yil 25 sentyabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi № O'RQ-376 sonli Qonunidir. Ijtimoiy sheriklik sub'ektlari – bu Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridir. Ushbu Qonunning 1-bob 5-moddasida "Ijtimoiy

shiriklik aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning faolligini oshirish, har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo'naltirish kabi sohalarda amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilgan. «Ijtimoiy shirikchilik to'g'risida»gi qonunga muvofiq, ijtimoiy soxani rivojlantiruvchi va xizmat ko'rsatuvchi davlat tashkilotlari, etakchi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari («Mahalla» jamg'armasi, «Sog'lom avlod uchun jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, «Qizil yarim oy jamiyati», «Nuroni» jamg'armasi va Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va uning filiallari, Yoshlar ittifoqi, «Ezgu amal» jamoat fondi va b.) aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami: bolalar va ularning oilalari, ayollar, keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish maqsadida yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Bu tashkilotlar davlat dasturlarining ishtirokchilari va ijrochilari bo'lib hisoblanadi¹.

Aholining tobora rivojlanib borayotgan farovonligi, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitning o'zgarishi, ijtimoiy xizmatlarning yangi turlari va ijtimoiy xizmatlar (ijtimoiy taksilar, dorixonalar, bolalar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari, reabilitatsiya texnik vositalarini ijaraga berish va h.k.) bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

1.2. Bolalarni ijtimoiy himoyasi

Bolalarning ijtimoiy himoyasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, butun mamlakatning kelajagi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog'liq.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish muammolari istalgan vaqtda har qanday jamiyat uchun dolzarbdir. Buning sababi bolalarda jismoniy, aqliy va hayotiy tajribalarining etarli darajada bo'lmaganligi, kattalarning qaramog'iga muhtojligi, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv darajasida esa – ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligidadir. Shuning uchun bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Ижтимоий шериклик тўғрисида»ги №ЎРҚ-376 сонли Қонуни. 2014 йил.

ehtiyojlarini oqilona qondirish, xavflardan himoyalash inson, insoniyat jamiyati va umuman davlatning vazifasi hisoblanadi.

Bolalik tushunchasi o'z navbatida, aniq ijtimoiy muhofaza qilish ob'ektini aniqlash uchun qilinadigan turli bilim sohalarida, o'z ta'rifiga ega bo'lgan o'lchovli yondashuv hisoblanadi. Bola huquqlari Deklaratsiyasi muqaddimasida bola «agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga etishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj» ekanligini e'tiborga olib, Deklaratsiyaning **1-moddasida** “Ushbu Konvensiyada 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga etmagan bo'lsa, bola hisoblanadi” deb belgilangan¹.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasida bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish dasturining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi va ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etadi. Respublikamizda ijtimoiy himoya huquqi bolaning huquqiy maqomini eng muhimlaridan biri bo'lib qoldi.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi – jamiyatda kafolatli hayot sharoitlarni ta'minlash va ularning ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirish uchun barkamol rivojlanishini saqlagan holda turli chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan bir tizimdir.

Bolalikni ijtimoiy himoya qilish uning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy, huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik-pedagogik vositalar, shakllar va usullar yordamida bolaga ko'mak va yordam ko'rsatishdan iborat.

«Bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi» kategoriya sifatida quyidagi asosiy tushunchalarni – ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik farovonligini ta'minlash uchun insonparvarlik tamoyillariga asoslangan izchil, keng ko'lamli tushunchalarni «ijtimoiy», «tizim», «himoya», «bolalik» kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

¹ «Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция». 1-модда

Eng avvalo ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning asosiy guruhlarini: yetim bolalar; ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar; deviant va pedagogik e'tiborsiz oilalar farzandlari; ko'p bolalarni tarbiyalayotgan oilalar, nogironligi bo'lgan bolalar oilalari; aqliy va jismoniy rivojlanishida orqada qolgan bolalar; ishsiz fuqarolarning farzandlari; qurolli mojarolar qurboni bo'lgan bolalar, ekologik va texnogen falokatlar; qochoqlarning oila a'zolari va mamlakatdan ko'chirilgan shaxslar; ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan bolalar hisoblanadi.

Bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish sub'ektlari jamiyat, tashkilot va muassasalar bo'lib, ular quyidagilardir: davlat o'zining tuzilmalari bilan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati shaklida; oilalar va bolalar uchun ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tarmog'i; korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ta'lim muassasalari va boshqarish organlari, shuningdek mehnat jamoalari, kasaba uyushmalaridir.

Zamonaviy jamiyatda mazkur sub'ektlar orasida bolalarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha tajriba va axborotni tarqatadigan ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i alohida o'rin tutadi.

Shu bilan birga, bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy bo'g'ini bolaning ijtimoiylashuvining eng muhim instituti bo'lgan oila bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1992 yil 9 dekabrda ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari konvensiyasi", O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi Qonun, Oila kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Xorijiy ilmiy manbalarda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini turli xususiyatlarini rivojlanishi o'rganiladi. Shunday qilib, rus eksperti O.V.Stepanov quyidagi xususiyatlarni bayon qiladi:

1. Bolalar ijtimoiy himoyasi tizimi barcha ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liqdir;

2. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi jamiyat ehtiyojlari bilan belgilanadi;

3. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va uning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

T.N.Podubnaya ishida tarkibiy elementlarning va butun ijtimoiy himoya tizimining batafsil tahlillari mavjud. Muallif bolalarning ijtimoiy himoyalash samaradorligini ta'minlashning dastlabki shartlari sifatida tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga e'tiborni qaratadi. Ushbu shartlar orasida quyidagilar ajratilgan: bolalar ijtimoiy muhofazasining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatadigan maqsadli, tarkibiy, moddiy, protsessual, metodik va qo'llab-quvvatlash kabilardir.

Maqsadli komponent bolani ijtimoiy himoyalash yo'nalishini va bolalarni himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning yakuniy natijalarini belgilaydi. Maqsadli komponent asosida bolalarning ijtimoiy himoya funksiyalari quyidagilardir:

- bolani davlat va jamiyatning eng yuqori bahosi deb bilishdan iborat **insonparvarlik**;

- har bir bolaning zarur ijtimoiy yordam va ehtiyojlarini o'z vaqtida olishi uchun **himoya qilish**;

- **profilaktika**, bolalarni ijtimoiy jihatdan hulqidagi o'zgarishlar uchun profilaktika vositasi sifatida harakat qilish;

- **ijtimoiy-pedagogik**, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida mutaxassislarning faol mavqeini ta'minlaydi;

- **adaptiv** – bolalar manfaatlari yo'lida tizim moslashuvchan va o'zgartirish qobiliyatini taklif qilishdir.

Tarkibiy komponenti quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy himoya qonunchilik bazasi. Bolalarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish samaradorligi bolalarni ijtimoiy himoyalash sub'ektlarining asosiy majburiyatlari va qonunchilikni ishlab chiqish va

mustahkamlashga, himoya tizimini joriy qilishning mavjud mexanizmlariga bog'liq.

2. Tashkiliy va boshqaruv tuzilmasi. Ijtimoiy himoya tizimining to'g'ri muvofiqlashtirilgan ishi bolalarni ijtimoiy himoya qilish sub'ektlarining funksional majburiyatlarini va vakolatlarini aniq taqsimlanishini ta'minlaydi. Strukturani samarali ishlashi, shuningdek, idoralararo munosabatlar, davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

3. Moliyaviy-iqtisodiy va moddiy-texnika ta'minoti bolalarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash uchun barcha moliyaviy tizimni qamrab oladi. Ushbu mablag'larga byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari daromadlar, jumladan, xayriya va homiylik tashkilotlarining mablag'lari kiradi.

4. Ijtimoiy himoya tizimi sub'ektlarining monitoring tizimi.

Bolalikni zamonaviy ijtimoiy himoya qilish mazmuni, shuningdek, ijtimoiy himoya sub'ektlari uchun majburiy bo'lgan muayyan prinsiplar bilan tavsiflanadi. Ular:

- bolalikni ijtimoiy himoya qilishning asosiy shakllarining universalligi va mavjudligi. Bolalarning ijtimoiy muhofazasiga bo'lgan huquq universaldir, u himoyaga muhtoj bolalarning barchasi uchun qo'llaniladi;

- bolalikni ijtimoiy himoya qilish shakllari va turlari. Bolalikni ijtimoiy himoya qilish pensiya, nafaqa va xizmatlar shaklida naqd pul shaklida, huquqiy shakllarda amalga oshiriladi;

- bolalikni ijtimoiy himoya qilishning birligi va farqlanishi. Barcha bolalar ijtimoiy muhofaza qilinish huquqiga ega, lekin ular turli darajalarda, turli shakllarda va o'lchamlarda bo'ladi;

- kam ta'minlangan oilalar uchun davlat tomonidan tan olinadigan maoshdan kam bo'lmagan miqdorda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish;

- har bir bolaning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqini himoya qilish.

Kasbiy faoliyat tizimi sifatida bolalar muhofazasida ijtimoiy ish 3 ta sohani o'z ichiga oladi:

1) bola va oila darajasida ijtimoiy ish;

2) turli turkumga ega bo'lgan bolalar (yoshi, jinsi, qiziqishlari jihatidan) guruh bilan ijtimoiy ish;

3) jamoatchilik orasida, yashash joylarida ijtimoiy ish.

Shaxs va oila darajasidagi ijtimoiy ish quyidagicha mazmun va mohiyatga ega: individual ishning asosiy maqsadi, individning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi, uni o'rab turgan jamoatchilik orasida ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishdan iboratdir. Masalan, bolaning oila tarkibida jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom o'sishi ota-onalarning ijtimoiy-madaniy mavqei hamda moddiy ta'minlanganligiga, ularning bolalarga yetarli darajada diqqat-e'tiborini ajrata olishlari borasidagi imkoniyatlariga, ta'lim muassasalarining joylashuvi (yaqin va uzoq), mazkur oila qaerda yashayotganligiga bog'liqdir. Sanab o'tilgan barcha vaziyatlarda bola va ularning ota-onalari qonunchilikda belgilangan huquqlaridan foydalanishlarida doimo malakali mutaxassis yordamiga ehtiyoj sezadilar. Ijtimoiy xodim tomonidan bunday oilaga qiyinchiliklarni aniqlash, ijtimoiy resurslar manbaiga murojaat qilish uchun maslahatlar berishi va tegishli joylar tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlari tashkillashtirilishida yordam berishi mumkin¹.

Ko'pincha ijtimoiy xodimlarga noaxloqiy yoki kriminal xarakterga ega bo'lgan bolalar guruhlari (voyaga yetmagan bolalarning jinoyatchilik, daydilik, uyushtirilgan fohishabozlik, noaxloqiy yo'nalishga ega bo'lgan guruhlari va hokazo) bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy xodimning alohida e'tiborga molik faoliyat sohalaridan biri, yashash joyida, jamoatchilik orasida xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

Bu xizmatlar ijtimoiy xizmatlar turining ko'payishi, jamoatchilik munosabatlarining mustahkamlanishi, yashash joyining o'zida iliq va muvaffaqiyatli ijtimoiy-psixologik iqlimning yaratilishi, shuningdek, turli ko'rinishdagi lokal tashabbuslar asosida yordam guruhlarini tashkillashtirishga yo'naltirilgan.

¹ «Введение в социальную работу» хрестоматияси материаллари. Тузувчи: Х. Вулли, Ун-т Тиссайд, Буюк Британия.// «Введение в социальную работу» лойихаси доирасида таржима қилинган ва мослаштирилган//, РБИММ-ЮНИСЕФ. – Тошкент, 2005.

Bu sohada O'zbekistonga xos bo'lgan "mahalla" kabi maxsus jamoatchilik tuzilmasining keng imkoniyat va qadriyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida uning mohiyatini quyidagicha belgilash mumkin. Ijtimoiy ish – individ, oila va guruhlariga ularning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish hamda barkamol tarzda ijtimoiy jihatdan o'zligini namoyon etishda to'sqinlik qiluvchi jismoniy, ruhiy, aqliy, ijtimoiy va boshqa kamchiliklarni bartaraf etishi yoki kompensatsiya qilish maqsadidagi ko'rsatiladigan yordamdir.

1.3. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy vazifalari

Protsessual va metodik qo'llab-quvvatlash bolalarni ijtimoiy himoya qilish usullari va vositalarini tanlash bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga olgan bolalar muammolarini hal qilish uchun idoralararo hamkorlikni yaratish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi ishlar tamoman o'zgacha tus olgan bo'lib, aniq dasturlar va aniq maqsadli loyihalar asosida amalga oshirilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, shuningdek, barcha vazirliklar va idoralar, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari (mahallalar), IIB muassasalari tizimi orqali qariyalar, bolalar va va ularning oilalariga g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Aholining turli toifalariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari. Aholiga ruhiy-pedagogik yordam ko'rsatuvchi markazlar, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitatsiya markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatadigan hududiy markazlar shunday muassasalar jumlasiga kiradi.

Haqiqatdan ham mamlakatda manfaatli ta'minlash sohasida oxirgi yillarda o'tkazilgan islohotlar tufayli ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. 2008 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni bolalarni himoya qilish sohasida asosiy xujjat hisoblanadi. Mazkur qonun bola huquqlari bo'yicha BMT Deklaratsiyasida

mavjud bo'lgan bolaning barcha huquqlarini ta'minlaydi. Kadrlar tayyorlash masalasiga kelsak, 4-moddada bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan¹.

O'zining demografik xususiyatalari va ko'p yillik an'analari tufayli O'zbekiston bugungi kunda aholining 60 foizdan ortig'ini bolalar va yoshlar tashkil etadigan mamlakat hisoblanadi. Bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko'rsatish uchun safarbar etilgan vazirliklar va idoralarning keng tarmoqli tizimi orqali bolalar himoya qilinadi. Mamlakatimiz fuqarolarining azaldan alohida g'amxo'rlik va ko'makka muhtoj bo'lgan toifasi sifatida bolalar manfaatlarini ta'minlash ushbu faoliyatning asosiy tamoyili hisoblanadi. Shu munosabat bilan bolalarni himoya qilish tizimida ijtimoiy ishning rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda nihoyatda muhim chora hisoblanadi, chunki ushbu sohaning aynan shu kasbga o'qitilgan xodimlarga bolalik davrida bolaning manfaatlarini aks ettirishlari uchun vakolat va huquqlar berilgan bo'lishi kerak.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash g'oyat mas'uliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilmfan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, sog'lom e'tiqodli, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida bir qator qonunlar amalga kiritildi. Bular "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi hamda

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2008 йил.

“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlaridir.

Yoshlar – aholi yoshining katta ijtimoiy guruhini tashkil etadigan, ijtimoiy rivojlanish va shaxs sifatida shakllanishi jarayonida, ijtimoiy hayotda ma’lum bir chegaralangan xarakatlarga va imtiyozlarga ega bo‘lgan qatlamdir.

Hozirgi kunda dunyoda kuchli raqobat, qarama-qarshilik, ziddiyatlar, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xatarlar kuchayib, keskin tus olganligini inobatga olib yoshlarga oid davlat siyosatini xalqimizning mentalitetini, bozor iqtisodiyoti, umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlagan holda, yoshlar ijtimoiylashuvidagi muammolarni hal qilish zarur.

Yoshlar inson mamlakat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadigan va uning rivojlanishiga ta’sir etadigan ijtimoiy hayotning to‘laqonli sub’ekti bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlar bo‘yicha davlat siyosatining 429-XII-son 20.11.1991 yil O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari” to‘g‘risidagi qonun o‘z kuchini yo‘qotib, 2016 yil 15 sentyabrda O‘RQ – 406 sonli **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.** Ushbu qonun yoshlarning ijtimoiy, xuquqiy madaniyatini yuksaltirish, faolligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish zamirida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta’minlash, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yurt istiqboli uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan tashabbuskor, shijoatli avlodni tarbiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan. 2017 yil 30 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ishtirokida bo‘lib o‘tgan “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati 4 qurultoyida “Kamolot” tugatilib, O‘zbekistonda Yoshlar ittifoqini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi hamda 2017 yil 5 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Yoshlar ittifoqi respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni olib borishi belgilandi.

2004 yilda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan **Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi** O'zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim bo'g'in hisoblanadi. Markaz faoliyati bolalarning barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari (ota-onalar g'amxo'rligidan ayrilgan bolalar, nogironligi bo'lgan bolalar, ijtimoiy va huquqiy xatar guruhidagi bolalar, shafqatsiz va beparvo muomalaga duchor bo'lgan bolalar ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lgan voyaga yetmaganlar, iqtidorli bolalar) muammosini chuqur o'rganish, bolalarning muammolarini hal qilish yuzasidan maqsadli majmuaviy dasturlarni ishlab chiqish va ularning yuzaga kelish havfini pasaytirish; davlat dasturlari va maqsadli guruhlarga taaluqli jamoatchilik loyihalarini bajarish monitoringi, shuningdek, bu tadbirlarini amalga oshirish samaradorligini ko'tarish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; bolalarni ijtimoiy moslashtirish sohasida mahalliy va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va boshqalarga qaratilgan. Mazkur faoliyat davlat, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar ishtirokida amalga oshiriladigan davlat loyihalari, hamkorlik loyihalari, shuningdek, bolalar va ota-onalarga xizmat ko'rsatish orqali to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi. Markaz bolalarni himoya qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, bolalar va oilalarga ko'rsatiladigan xizmatlar tartib-taomilini hamda sifatini sezilarli darajada ko'tarish, bolalar muassasalarining kadrlar salohiyatini oshirish imkonini beradigan bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- bolalar manfaatlarini ta'minlashda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish va ularni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritish yuzasidan taklif berish;

- bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimining har xil sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlash, amalga oshirilayotgan islohotlar monitoringini olib borish;

Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi

- bolalar manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish va ularni kamolotga yetkazish sohasida zamonaviy yondashuvlar, yo'nalishlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy amaliyotga tadbiiq etish maqsadida ilmiy-metodik bazani shakllantirish;

- bolalar muassasalari mutaxassislarini bolalar bilan ishlashning yangi metodlari va yondashuvlariga o'qitish hamda oilalari ijtimoiy qo'llab-quvvatlash funksiyalari;

- yangi ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish orqali bolalarga va oilalarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishdan iboratdir.

II Bob. Bolalar ijtimoiy ish ob'ekti.

2.1. Bolalarni ijtimoiy ishning ob'ekti sifatida o'rganish

Agar bola himoyalanganlik tuyg'usi bilan yashasa, u o'ziga ishonishni o'rganadi.

Agar bolani qabul qilishsa, u sevishni o'rganadi.

Agar bolani tan olishsa, u o'zining oldiga maqsadlar qo'yishni o'rganadi.

Agar bolani ma'qullashsa, u o'zini sevishni o'rganadi.

Agar bola do'stona muhabbat ichida yashasa, u biladi, yashash uchun eng qulay joy bu – oila.

T.Djinot

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (1989 yil, O'zbekiston Respublikasining 1992 yilda BMT konvensiyasini ratifikatsiya qilinishi), "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunni qabul qilishda xalqaro va davlat ijtimoiy-huquqiy standartlarini qabul qilish, (2008 yil) davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirishga yordam berdi. Bolalar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 18 yoshgacha bo'lgan bolalar umumiy aholining 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar esa 64 foizni tashkil etadi. Shu munosabat bilan davlat siyosatining ustuvor vazifasi bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, bolalarni kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash,

bolaning huquqlarini kafolatlash uchun huquqiy asosni takomillashtirish, davlat organlari faoliyati va ularning mansabdor shaxslari tomonidan bolalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va eng yaxshi shart-sharoitlar yaratish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Jamiyat, to'liq bo'lmagan oilalar farzandlari (yolg'iz onalar), xatar guruhiga kiruvchi, oiladan mahrum bo'lgan bolalar, yetim bolalar, imkonyati cheklangan, og'ir xastalikdan azob chekuvchi farzandlari bo'lgan oilalarni jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishini keng qamrovli qo'llab-quvvatlash strategiyasini olib borishi kerak.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirdi:

- oila, onalik va bolalikning manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari rivojlangan xalqaro amaliyotlardan foydalanishni hisobga olgan holda yaratildi va takomillashtirildi;

- oilani mustahkamlash, onalar va bolalarning moddiy farovonligini ta'minlash, bolalar va o'smirlar o'rtasida uy-joysiz qolishning oldini olish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratildi;

- sog'lom yosh oilani shakllantirish, unga g'amxo'rlik qilish, bolaning tug'ilishi va bolaga davlat tomonidan barcha tibbiy xizmatlari, yuqumli kasalliklarga qarshi emlashni tashkil etish beminnat yordam asosida olib borilmoqda;

- jamiyatning oila, onaga va bolaga nisbatan etnik normalar va munosabatlar qoidalari hamda tizimi shakllantirildi;

- mamlakat bo'ylab umumiy ta'lim dasturi amalga oshirilmoqda, unga asosan, bolalarning 11 yillik bepul umumiy ta'lim olishi ta'minlanadi;

- nogironligi bo'lgan bolalar, yetim bolalar, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan muhofazasi ta'minlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarni tahlil qilish «bolalik»ning falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, pedagogik ko'p qirrali tushuncha ekanligini ochib berishga imkon berdi.

Tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, turli sohalardagi «bolalik»ning batafsil tahliliga asoslanib, bolalik tushunchasini talqin qilishda yagona yondashuv belgilandi.

Falsafa, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, huquqshunoslik sohasidagi muammolarni kompleks tahlil qilish «bolalik»ni zamonaviy tushunchasini ochib beradi:

1. Falsafiy nuqtai nazariga ko'ra: «Bolalik» – shaxs sifatida rivojlanishning boshlang'ich bosqichi, shaxsning hayot yo'lida ijtimoiy va biologik omillarning o'zaro muvozanatli ta'siridir. (T.V.Karsavskaya, B.D.Muranov, N.V. Savenko, N.A. Mashinskaya, T. Popkova)

2. Etnografik nuqtai nazariga ko'ra, bolalik «yosh» ko'rsatkichi bilan belgilanadi va quyidagi o'zaro bog'liq elementlar: me'yoriy yosh mezonlari; yoshdagi stereotiplar; yoshlik jarayonining ramziyligi, yoshga mansub turli marosimlar va yosh subkulturasini kuzatiladi. Bolalar g'amxo'rlik ob'ekti hisoblanadi. (I.S.Kon, I.P.Suxanov, V.V.Dolgov va boshqalar).

3. Demografik nuqtai nazaridan, «bolalik» mustaqil o'rganish ob'ekti xisoblanmaydi. «Bola» atamasi statistik (nikoh, ajralish, tug'ilish, o'lim va o'rtacha umr ko'rish, yosh tarkibi va h.k.) ko'rsatkichlarini aniqlash, oilaning reproduktiv funksiyalarini o'rganish va jamiyatda ayollarning mavqeini tahlil qilish uchun ishlatiladi.

4. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan «bolalik» mustaqil o'rganish ob'ekti xisoblanmaydi. Bolalik oilalarning turmush darajasi ko'rsatkichlari, oila jon boshiga daromadlar nisbati, bolalar nafaqalari miqdori, bolalar uchun mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, bolalarni tug'ilishini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini belgilash hisobga olinadi.

5. Sotsiologiya nuqtai nazaridan bolalar, jamiyat ijtimoiy tuzilmasining mustaqil ijtimoiy va demografik qismidir. «Bolalik dunyosi» - «... o'z tiliga,

tuzilishiga, funksiyalariga, hatto urf-odatlariga ega avtonom sotsial-madaniy hayot, o'ziga xos bir subkulturadir» (I.S.Kon). «Bolalik maydonchasi» - bu «doimiy jismoniy o'sish, aqliy va ijtimoiy normalarning rivojlanishi, bolaning jamiyatda o'z taqdirini belgilash, bolalar va o'smirlarning his-tuyg'ularini rivojlantirish manzili bo'lib xisoblanadi» (A.A.Juravleva). (L.V.Kasava, A.Kovaleva, I.S.Kon, A.Juravlyova va b.)

6. Psixologiya nuqtai nazaridan "bolalik" murakkab, mustaqil organizm, jamiyatning ajralmas qismi, insonning rivojlanishi, jismoniy va shaxs sifatida shakllanishining dastlabki bosqichidir. Bolalik davrini belgilash, bolani bilim qobiliyatini rivojlantirish va uning atrofidagi dunyo bilan bo'lgan munosabatlarning rivojlanishi birinchi o'rinda turadi. (E.Erikson, Z. Freyd, P.P. Blonskiy, L.S. Vygotskiy, V.V.Davydov, L.F.Obuxova va b.)¹.

7. Pedagogik nuqtai nazaridan, zamonaviy pedagogikaga asoslanib, "bolalik" tushunchasida uch hil yondashuv mavjud:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv: bola shaxs sifatida rivojlanuvchi, o'zini anglab, baxolay oluvchi, individuallikka ega bo'lgan sub'ekt hisoblanadi. (N.I.Alekseev, E.V.Bondarevskaya, V.V.Serikov va b.)

- Madaniy yondashuv: bolalik - bu inson hayotining o'ziga xos subkulturasi bo'lib, o'ziga xos madaniy rivojlanishi va o'zgarishiga qodir sub'ekt. Uning ijtimoiylashuvi va madaniy identifikatsiyasi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berilishi zarur. (E.V.Bondarevskaya, T.I.Vlasova, A.A.Grekov va b.)

- Antropologik yondashuv: bolalik - inson madaniyati va hayotining noyob xodisasidir, biridan-biriga o'tuvchi (ijtimoiydan madaniyga, madaniydan ta'limga va b.) turli xil hodisalarning ochiq tizimidir. (B.M.Bim-Bad, L.L.Redko, E.N.Shiyanov, V.N.Gorovaya, L.V.Lidak, L.F. Savinova va b.)

8. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan: bolalik-madaniyat fenomenidir. Bolalik - odamning biologik tizimdan biosotsial tizimga o'tishining ilk bosqichidir (E.M.Muxranova). «Bolalik submadaniyati» – jamiyatda tadbiiq etiladigan va

¹ Блонский П.П. Педология. – М., 1934.; Виготский Л.С. Собр.соч. в 6-ти т. – М., 1982, т.4.; Эльконин Д.Б. Психология игры. – М., 1978.

qo'llaniladigan o'ziga xos qadriyatlar, e'tiqodlar, an'analar va urf-odatlar to'plamidir. (A.A. Pilipenko, I.G. Yakovenko).

9. Huquqiy nuqtai nazaridan: bola voyaga yetmagan, 18 yoshga to'lmagan shaxsdir.

Ushbu yondashuvlar asosida bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodning muammolarini hal etishda barcha kuchlarini birlashtirish ko'zda tutiladi.

Bolalikni ijtimoiy himoya qilish jamiyat va uning rasmiy tuzilmalari tomonidan kafolatlangan turmush sharoitlarini ta'minlash, bolaning hayot taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash va uyg'un rivojlanishi uchun tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy, tibbiy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik faoliyat sifatida tushunilishi kerak.

2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va o'smirlar toifalari

Bolalik davri – vaqt doirasida (tug'ilgandan 18 yoshgacha) bo'lgan davr tushuniladi. Bola organizmining muhim funksiyalarining shakllanishi va rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida shakllanishi (bilim, malaka, ko'nikma, qadriyatlar, ijtimoiy tajribalarni faol egallashi) shu davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu davrda bola davlat va jamiyatning alohida g'amxo'rlik va yordamiga muhtoj.

Bolalik – davlatning munosib ijtimoiy siyosati va uning barcha darajalarida amaliy tadbiri bilan belgilanadigan integral ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushuniladi. Bolalik – bu inson hayotining asosiy qadriyatidir, shuning uchun alohida yondashuvni, parvarishni va himoya qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan «bolalik» tushunchasini besh jihatdan ko'rib chiqilishi kerak:

Birinchi jihati – jamiyatda bolalik tushunchasi har bir bolaga taaluqlidir. (O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi). Har bir bola o'z oilasida yashash va tarbiyaga olishga, o'z fikrini bildirish, ism va familiyaga ega bo'lish, mulki va o'z huquqlarini himoya qilish huquqiga ega.

Ikkinchi jihati rivojlanish etaplariga bog'liq:

- go'daklik davri (1 yoshgacha),
- maktabgacha bo'lgan davri (1-6-7 yosh),
- kichik maktab yoshi (6-7-10 yosh),
- o'rta maktab yoshi (11-15 yosh),
- katta maktab yoshi davrlari (16-18 yosh).

Uchinchi jihati – og'ir hayotiy sharoitda qolgan (yetim bolalar, nogiron bolalar, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar, majburiy muhojirlarning oila farzandlari, kam daromadli, ijtimoiy nafaqadagi bolalar, ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan va boshqa toifadagi) bolalarga yordam ko'rsatishning ustuvorligini belgilaydi.

To'rtinchi jihati – bolaning ijtimoiylashuvi sharoiti, jamiyatning va oilaning moddiy farovonligi darajasi, xususan, tibbiy xizmat olish va ta'lim olish darajasi; bolaning ushbu yoki boshqa ijtimoiy guruhlariga, e'tiqodlarga tegishliligi.

Beshinchi jihati – iqtidorli bolalarni himoya qilish, iste'dodlarini rivojlantirish, ularni rag'batlantirishga qaratilgan. Ular kelajakda jamiyatning progressiv qatlamini tashkil etadi.

To'g'ri rivojlanish uchun bolaga zarur bo'lgan omillar:

1. Salomatlik. Bola yetarli jismoniy qo'llab-quvvatlash va sog'lig'i haqida qayg'urishlariga muhtoj. Ota-onalar yoki bolaga homiylik qilayotgan boshqa katta yoshdagilar uning jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlashlari, buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:

Sog'lom ovqatlanish – bolaning ovqati me'yorida bo'lishi va uning o'sishi hamda rivojlanishi lozim bo'lgan barcha elementlarga – vitaminlar, minerallar, oqsillar, uglevodlar, yog'lar va shu kabilarga ega bo'lishi lozim.

Tibbiy xizmat – bola vaqtida emlashlarni olishi, tibbiy ko'rikdan o'tishi (ayniqsa, kasal bo'lganida yoki biron joyi og'riyotganligini ma'lum qilganida) lozim. Shuni unutmaslik lozimki, agar bola nimadandir o'ng'aysizlik sezmasa yoki biron joyi og'rimasa, norozilik izhor qilmaydi.

Jismoniy makon – jismoniy makonni shunday shakllantirish lozimki, bolaning harakatlanishiga hech narsa to'siq bo'lmasin, hududni bemalol o'zlashtira olsin.

Bolalarning jismoniy va aqliy yuklamasini uning yoshiga mos bo'lishini nazorat qilib borish. Bolaning uyda og'ir mehnat qilishiga (og'ir buyumlarni ko'tarish, dim yoki chang xonada bo'lish, sovqatish va shu kabilar) hamda televizor yoki kompyuter yonida uzoq o'tirib qolishiga (bu uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi) yo'l qo'yimaslik lozim.

Zararli odatlar – tamaki, alkogol, narkotik va shu kabi vositalarning inson tanasiga salbiy ta'siri to'g'risida bolani xabardor qilish lozim.

Jinsiy ta'lim – katta yoshli bolalarga ularning yoshiga mos ravishda jinsiy rivojlanish haqidagi ma'lumotlar taqdim qilinishi lozim. Bu bolaga tushunarli shaklda, ehtiyotkorlik bilan taqdim qilinishi, bunda ayblovchi va qo'rqituvchi ko'rsatmalardan qochgan holda amalga oshirilishi lozim.

Tug'ma omillar – bolaga g'amxo'rlik ko'rsatishda uning turli kasalliklarga tug'ma moyilligini e'tiborga olish, uning uchun sog'lom muhitni yaratish va tug'ma omillar ta'sirini kamaytirishga harakat qilish lozim (masalan, bolaning ajdodlarida allergiyaga moyillik mavjud bo'lsa, uni

ovqatlantirishda allergik reaksiyani yuzaga keltiruvchi mahsulotlardan foydalanmaslik lozim).

2. Ta'lim. Kattalar bolaning tug'ilganidan boshlanadigan aqliy rivojlanishiga ko'maklashishlari lozim. Bolada o'ynash va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishish imkoniyati mavjud bo'lishi, kitoblarga ega bo'lish, malaka va qiziqishlarni rivojlantirish, muvaffaqiyatni his qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Bola quyidagi faoliyat turlari orqali rivojlanishini unutmazlik kerak: o'yin; o'qish; qo'shimcha ta'lim, to'garaklar. Bugungi kunda davlat organlarining 3 yoshdan boshlab barcha bolalar ta'lim bilan qamrab olinishi haqidagi qarorlari maqsadga muvofiqdir.

Kattalar bolaning o'qish jarayoni va erishayotgan muvaffaqiyatlariga qiziqish ko'rsatishlari hamda uning ma'lumot olishga bo'lgan har qanday ehtiyojini qondirishlari lozim.

3. Hissiy va xulq-atvor rivojlanishi. Bog'liqlik – ota-onalar barqaror mehri shakllantirish orqali bolada boshqalarga ishonishni, o'zini xavfsiz his qilishni hamda har tomonlama rivojlanishini ta'minlashlari lozim.

4. Hissiyotlarini namoyon qilish – ota-onalar bolaga o'z hissiyatini namoyon qilishda haqqoniy va ochiq bo'lishni, hatto salbiy holatlarda (g'azablanish, asabiylashish, xafa bo'lish, g'am va shu kabilar) ham ta'minlashlari lozim, shuningdek bolani hissiy qo'llab-quvvatlashlari va salbiy hissiyotlarni yengib o'tishni o'rgatishlari lozim.

5. O'ziga xoslikni rivojlantirish. Bolada o'zining shaxsiy individuallik, takrorlanmaslik, qadrilik tuyg'ularini shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. O'ziga xoslik insonning o'z oilasi, vatani, millati, dini, yoshi, jinsi, oilaga mansubligi, oila tomonidan qabul qilinishi, tegdoshlari va butun jamiyat tomonidan qabul qilinishida shakllanadi. Oxir-oqibat o'ziga xoslik bolaning o'ziga munosabati va o'zining qobiliyatiga, shakl-shamoyiliga va bahosiga, o'z-o'ziga ijobiy munosabatning mavjudligiga bog'liq. Kattalar bolaning o'ziga yaxshi munosabatda bo'lishini qo'llab-quvvatlashlari, qobiliyatlarini rivojlantirishlari hamda individual xususiyatlarini qadrlashlari, bolani etuk inson bo'lib voyaga etishiga yordam beradi.

6. Oila va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlar. Oila va oilaviy muhit – bolaning rivojlanishi uchun eng qulay joydir. Faqat oila muhitida bola o'zgalarni tushunishni, unga hamdard bo'lishni, o'zini boshqaning o'rniga qo'yib ko'rishni, aka-uka va opa-singillar bilan muloqot orqali tengdoshlari bilan munosabatga kirishishni o'rganadi. Bunda bola bilan ota-ona o'rtasida barqaror ijobiy munosabat mavjud bo'lishi va u o'zini sevishlarini, uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishlarini his qilib turishlari muhim. O'zgalar qanday qabul qilayotganligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish bolaning atrofdagilarda qanday tasurot

qoldirayotganligini, o'zining tashqi ko'rinishi, xulq-atvori yoki boshqa biron bir xususiyati atrof-muhit tomonidan qanday qabul qilinayotgaligini tushunishidir.

Bola o'z-galar muhitida o'zini qulay his qilishi uchun kiyimiga, yoshiga, jinsiga, madaniyatiga, diniga mos kelishi, shaxsiy gigiena talablariga javob berishi lozim. Bolani turli holatlarda o'zini tutishga o'rgatish kerak.

7. O'z-o'ziga xizmat ko'nikmasi. Bolaga mustaqil bo'lishida ko'maklashish uchun, unda quyidagi hayotiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim:

- ovqatlanish va ovqat tayyorlash ko'nikmasi;
- kiyinish va kiyimga qarash malakasi;
- o'ziga qarash ko'nikmasi – gigienik ko'nikmalar, uyni toza saqlash;
- turli insonlar bilan muloqotga kirishish va jamoat joylarida o'zini tutish ko'nikmalari shakllanishi hayotida yuz beradigan turli vaziyatlarda katta ahamiyatga ega.

Bola bilan ijtimoiy ish olib borishda albatta uning yoshiga va psixologik yondashuvga asoslanadi. Bunda quyidagi usullar:






- Loyihaviy usullar: ekspressiv, to'g'ri va nisbiy o'yinli terapiya, verbal texnika (hikoyalar aytish, psixodrama, simvoldrama va b.);
- Isbotga tayangan amaliy usul: kognitiv va xulqqa tayangan terapiya;
- Art-usullar (rasm chizish, musiqa, ganchkorlik, raqs, ertak, jismoniy mashqlar terapiyasi);
- Bolalarga nisbatan zo'ravonlik oqibatida inqiroz intervensiyasi usuli;
- Individual yoki guruhli terapiya;
- Oilaviy terapiya (tizimli yoki strategik);

Ijtimoiy xodim tomonidan bolalar bilan ishlashda bu usullardan tashqari kuzatuv usuli, so'rov, anketa olish, intervyu, baholash, grafik usullari, suhbat, test usuli, oila tarixini o'rganish, "Ekoxarita" texnikasidan ham foydalanish mumkin.

Ekoxarita yoki ijtimoiy tarmoq kartasi – bolani qurshab turgan oilaning va bu oila yashaydigan jamiyat resurslaridir. Ekoxarita oila resurslarini aniqlash, u bilan ish olib borishda uning kuchli va zaif tomonlarini baholash uchun tuziladi.

Ekoxaritani tuzish uchun mijozlar atrofida haqiqatda oilaviy muammolarni hal qilishda yordam ko'rsatishlari mumkin bo'lgan, ammo oila turli sabablarga ko'ra ularga murojat etmagan insonlar (qarindoshlari, qo'shnilari, hamkasblari) borligini aniqlab olish kerak. Bu oilaga yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar – o'qituvchilar, ijtimoiy xodimlar, shifokorlarga ham taluqli – ular odatda bir-birlariga ishora qiladilar, ammo hech qachon uchrashmaydilar. J.Stanton va M.Stanton (Stanton, Stanton, 1984) har qanday ijtimoiy tizim yoki individ, uni o'zlari uchun qulay va odatiy yo'nalishga moyilliklarini va bu ko'pincha keskinlik va oilaviy nizolar sababi bo'lishini ta'kidlaydilar¹.

Oila ekoxaritasi tuzilishi jarayonning o'zi genogramma va sotsiogrammalar uchun odatiy belgilar va texnikalariga asoslanadi. Quyida ushbu texnika uchun xos belgilar keltirilgan.

erkaklar	
ayollar	
yaqin aloqalar	
bo'sh aloqalar	
nizoli munosabatlar	

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar bola «zuvalasini» shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar dastlab oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi. Ammo hayotda hamma narsa biz o'ylaganimizcha bo'lmaydi. Har xil sabablarga ko'ra oilada nuqson bilan tug'ilgan yoki tug'ilganidan so'ng ortirgan ya'ni jismoniy yoki

¹ Экокарта: составление карты семейной системы. <http://soc-work.ru/publ/35-1-0-52>

psixik rivojlanishi zaiflashgan alohida ehtiyojga ega bolalar ham uchrab turishi hech kimga sir emas.

Oilada alohida ehtiyojli bola tug'ilganda, ota-onalarning hayotga bo'lgan qarashlari, o'zlariga va boshqalarga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shuning uchun alohida ehtiyojli bolalarning reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyasi haqida gapirilganda, nafaqat shu bolalarning ehtiyojlarini, balki oilaning ham ehtiyojlarini e'tiborga olish zarur: ularning ko'pchiligi majmuaviy ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'ladi.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar jamiyatimizning ma'lum bir qismini tashkil etar ekan, ulardagi iqtidor, salohiyatdan oqilona foydalanish, mamlakatimizning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu degani alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga yangicha nigoh bilan qarab, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish kerak.

Bugungi kunda alohida ehtiyojli bolalarning jamiyat hayotida o'z o'rnilarini topishlari uchun keng sharoitlar yaratilgan. Bu o'rinda bolaning jamiyatga uyg'unlashuvida albatta oilaning o'rnini juda katta. Chunki, oila bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilsa, jamiyat ham uni shundayligicha qabul qiladi. Ispaniya davlatida Daun sindromiga ega bo'lgan Pablo Pineda ismli odam o'zining shaxsiy televideniesiga ega bo'lgan va kinolarda asosiy rolni ijro etgan shaxs. Undan intervyu olinganda bu yutuqlarga u oilasi uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilib, oddiy bolalar qatori tarbiyalashgani, onasi tomonidan yil o'n ikki oy u bilan suhbat tufayli erishganini aytib o'tadi. Demak, bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rnini beqiyosdir.

Ota-onalarning vazifasi – o'z jigarlarini tushunish, ularning go'dakligidan boshlab ulg'aygunlariga qadar nimaga muhtoj ekanliklarini, boshqalardan nimalari bilan farqlanishlari va bolaning eng zarur ehtiyojlarining kattalar tomonidan e'tiborsiz qoldirilishi qanday natijalarga olib kelishini bilishlaridan iborat. Ota-onalar bolaning ichki olamini, uning hissiyotlari va kechinmalarini bilish malakasini o'zlashtirishlari zarur. Bolani individual ehtiyojlari va xususiyatlariga e'tiborlarini kuchaytirishlari bolaning rivojlanish va uning shaxs sifatidagi

shakllanish jarayonida pedagogik nuqsonlardan qochish imkonini beradi. Xudbinlik, tajovuzkorlik, qaysarlik kabi xislatlar bola tug'ilganida bo'lmaydi, aksincha noto'g'ri tarbiya natijasida singdiriladi.

Ota-onalar bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga o'rganishlari va uni o'zlarining stereotipli tasavvurlari hamda istaklariga moslashtirib qayta o'zgartirishga urinmasliklari lozim. Barcha ota-ona o'z bolasining hissiy olamini tushunishi va his qilishni o'rganishi kerak. Ushbu jarayonda hamkorlikdagi tajriba muhim, ya'ni birgalikdagi ijodiy faoliyat, birgalikda mehnat qilish, uyda va tabiat qo'ynidagi birgalikdagi hissiy kechinmalar bolada uning yaqinlariga kerakligi hamda ularning hayotida daxldorligi tuyg'usini uyg'otadi. Bola o'zini shaxs sifatida tan olishlarini xoxlaydi. Shunga qaramay, bola va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar har doim ham do'stona bo'lavermaydi. Shunda mutaxassislarning yordamiga tayanish zarur.

Shu bilan birga, alohida ehtiyojga ega bo'lgan farzandalarni tarbiyalayotgan oilalar xam oz emas. Bunday bolalarni tarbiyalash oiladan katta mas'uliyat talab etadi. Jamiyatda ota-onalarning bunday bolalariga bo'lgan munosabati turlichadir. Masalan: ota-onalar bolalarining o'zgacha ekanliklaridan uyalishadi, odamlardan berkitishadi, yoki bo'lmasa bolani ortiqcha ehtiyot qilishadi. Bunday holatda bola o'z qobig'ida o'ralib oladi, o'zidan ko'ngli to'lmaydi. Ba'zi ota-onalar bolani turli usullar bilan "davolash"ga harakat qiladilar, ammo bu "davolash"lar bolaning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hech qanday yordam bermaydi. Ba'zi ota-onalar bolalariga nisbatan "bajara olmaydi", "qila olmaydi" kabi fikrlar bilan xulosa chiqarib, ularni aqliy, jismoniy rivojlanishini rag'batlantirmaydilar. Lekin shunday ota-onalar borki, bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilib, turli xil qarashlar va gap-so'zlarga e'tibor bermay, bolani hamma joyda bo'lishida, turli tadbirlarda ishtirok etishiga harakat qiladilar. Bu holatda bola o'ziga bo'lgan ishonchni his qiladi, o'zini boshqa bolalar kabi qabul qiladi.

Bugungi kunda nafaqat ota-onalarni, balki ta'lim sohasidagi mutaxassislarni ham, aqliy yoki jismoniy rivojlanishda ortda qolgan, BSF, Daun sindromli yoki boshqa tashhislari bilan bo'lgan bolalar sog'lom bolalar qatori oddiy maktabda

o'qiydimi yoki yo'qmi, degan savol o'ylantiradi. Albatta, davlat organlari mutaxassislari ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishi zarur. Bolalar katta bo'lgani sari otalar maxsus (korreksion) ta'lim kerakligini tushunib etishadi. Biroq bu oilani stress holatidan chiqarmaydi. Bu oila, ba'zi bir ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, o'z hayoti davomida bir qator quvonchli va qayg'uli kechinmalarni boshidan kechiradi. Agar oilani jamiyat va atrofdagilar ijtimoiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlasa yuqoridagi holatlar yengil kechadi. Ayrim mutaxassislar tomonidan oiladagi bu krizis holatga ko'pincha to'g'ri baho berilmaydi, buning oqibatida esa bola hayotga, jamiyatga moslashmaydi¹.

Alohida ehtiyojga ega bolaning bolalar jamoasi bilan munosabatini uning axloqiy tuyg'ularini, tasavvurini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bolaning oiladagi o'rni, birgalikdagi mehnati, o'z-o'ziga xizmat qilishi, uy ishlarida, maktabda va oromgohlarda ijtimoiy foydali mehnat jarayonida ishtirok etishi uning axloqiy xislatlarini, ma'naviy xususiyatlarini shakllantirishda va tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Har qanday rivojlanishda turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalash, o'z vaqtida tegishli mutaxassislarga murojaat qilish, muolaja, reabilitatsiya va ta'lim-tarbiya ishlari uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Bolani shaxs sifatida tan olish u bilan o'zaro aloqani o'rnatishdir. Uning oilasida o'zaro iliq munosabatlar muhitini yaratish bola rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Shundagina u o'ziga ishongan holda olamga kirib keladi.

Yana shuni ta'kidlash zarurki, farzand tarbiyasi va parvarishida bola tug'ilgandan boshlab ota-ona bir xilda mas'uldir. Eng yomoni agar bola "o'zgacha" tug'ilsa ulardan biri, asosan onalar, tarbiya bilan bog'liq barcha tashvishlarni o'z zimmasiga oladilar, otalar esa qarshilik ko'rsatishmaydi. Tabiiyki, barcha aybdorlik hislarini ham ona o'z zimmasiga oladi va bola tarbiyasining azob-uqubatlarini o'zi tortadi. Alohida ehtiyojli bola tug'ilgandan so'ng shifokorlar ham ona, ham otaga psixolog yordami kerakligini unutib

¹ Психологическая помощь родителям в воспитании детей с нарушениями развития / Под ред. Савиной Е. А. – Москва: ВЛАДОС, 2008.

qo'yishadi. Bugungi kunda bunday vaziyatlar uchun tug'ruqxonalarda deyarli psixolog yordami tashkil etilmagan.

Go'dakning ijtimoiy rivojlanishida ota-onaning jismoniy va hissiy muloqoti muhimdir. Oilada onasi bilan va keyinchalik oila a'zolari va boshqa insonlar bilan bo'ladigan muloqot bola xulqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Alohida ehtiyojli bolaga ham ta'lim berishni 5 yoshdan emas, balki tug'ilishi bilanoq boshlash lozim. Qachondir bola ulg'ayib, ota-onasining qaramog'isiz qoladi. Biror nuqsonga ega bo'lishiga qaramasdan egallagan bilim, malakalar unga mustaqil, qaram bo'lmasdan jamiyatda boshqa odamlarga qo'shilgan holda, mustaqil yashashiga zamin yaratadi.

O'yinlar bolaning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi, lekin hamma ota-onalar ham farzandlari bilan to'g'ri o'ynashni bilishmaydi. Agar o'yin sharti qiziqarli bo'lib bolaga yoqsa, unda bu o'yinni bola faol va xohish bilan bajaradi. Bordi-yu o'yin shartlari zerikarli bo'lib, bolaga yoqmasa yoki qiyinlik qilsa, uni bajarish murakkab bo'lgan ishday qabul qiladi, natijada bajarishi uchun biror narsa va'da qilishga to'g'ri keladi. O'yin davomida ota-ona va bola bir xilda zavqlanishi kerak.

Bolani tarbiyalashda mutaxassis tomonidan ota-onalarga quyidagi qator qoidalarga rioya qilish kerakligi haqidagi ko'rsatmalar beriladi:

- bolaga beriladigan vazifa qiziqarli bo'lsa, u javob berishga tayyor bo'ladi. Masalan, bolaga mustaqil ovqat yeyishni uning qorni och paytida o'rgatish zarur, qorni to'q yoki o'yinqaroq paytida o'rgatish tavsiya etilmaydi;

- bolani oz-ozdan o'qitish kerak: agar uning zerikib qolganini sezsangiz tezda o'rgatishni to'xtating. Bola qaysarlik qilib, gapingizga kirmasa aslo kuch ishlatmang. Bola bilan janjallashish foyda bermaydi - "ko'rsating, kuting, olqishlang, ko'rsating" qoidasiga amal qilish zarur.

- bolaning intilishini ko'rib, o'ziga kelib olishi uchun vaqt bering, olqishlang, maqtang, kulib qo'ying va h.k.;

- bolaning har bir harakatlariga yaxshi munosabatda bo'ling, uning har bir xatolariga tanbeh bermang, har bir, hattoki, eng kichik harakatlarini ham rag'batlantiring. Shunda u xohish bilan o'rganadi;

- avval birgalikda bajarang, oxirgi qadamda esa bolani o'ziga mustaqil bajarishiga imkon bering. Shu bosqichni yaxshilab o'rganganidan so'ng oxirgidan bitta oldingisiga o'ting. Shunday qilib, bola avval egallagan harakatko'nikmalariga qaytadi va unda o'z kuchiga ishonchni sezadi va o'zi bajara olishidan xursand bo'ladi;

- agar bola qarshiliklar ko'rsatsa, uni qiynamang, yaxshisi mashg'ulotni boshqa vaqtga qoldiring. Siz uni qanchalik majburlasangiz u shunchalik qarshilik ko'rsatishini unutmang. Nima uchun? Chunki bola o'z kuchiga ishonib, sizni o'jarligi bilan jahlingizni chiqarib, bo'ysunishni xohlamaydi. Xafa bo'lganingizni ko'rsatib, uni xursand qilmang. Agar bola ovqat yeyishdan bosh tortsa, uning idishini tinchgina olib qo'ying (unga rahm qilmang, keyingi ovqatgacha hech narsa bermang, o'jarligi sizga emas, o'ziga zararligini tushunsin). Bu vaziyatda qattiqqo'llik qilish kerak. Aniq qoidalar tez va oson qabul qilinadi;

- sizdan sabr va vaqt talab etiladi. Agar farzandingiz kasallik oqibatida alohida ehtiyojga ega bo'lsa va harakatlari yetarli darajada faol bo'lmasa siz esa unga yetarlicha vaqt ajratmasangiz, farzandingiz kutilayotgan vazifani bajarishga ulgurmaydi. Natijada u sizga hech narsani tushunmayotgandek tuyuladi. Bu, ayniqsa, jismoniy nuqsoni bor bolalarga tegishlidir: ularning harakatlari sekin va qiyin, ba'zida bola ularni bajarishga qurbi etmaydi Bunday holatlarda siz oldingizga uzoq va yaqin, aniq maqsadlarni qo'yishingiz zarur. Masalan, BSF (bolalar serebral falaji)da mushak tonuslarining balandligi tufayli bola qoshiqni ushlay olmaydi, demak, o'rganish uchun ko'proq vaqt ketadi yoki bola umuman kelajakda narsa ushlashi qiyin bo'ladi. Bunday holatda siz qoshiq ushlab turuvchi moslama yasab bering;

- agar bolaning qo'l-oyoqlari butunlay ishlamasa, unga sizni tushungan yoki tushunmaganligini ko'rsatishga o'rgating. Masalan, boshini egib "ha" yoki boshini chayqatib "yo'q" deyishi mumkin;

- harakatdan to'xtamang, hattoki farzandingizdagi o'zgarishlar juda qiyin kechsa ham, har bir yutug'ini hisobga oling. Agar siz to'xtab qolsangiz, bolada o'rganishga boshqa imkon bo'lmaydi. Suzishni qanday o'rganganingiz va boshqalar suzishiga qanday havas qilganingiz esingizdami? Vaqti kelib siz ham suzishni o'rgandingiz, nimasi qiyin bo'lganini endi eslay ham olmaysiz¹.

Tabiiyki, bolaning kelajagi haqida ota-ona qayg'uradi. Doimiy ota-onalarni qiynaydigan: "U gapiradimi, u yura oladimi, qachondir ishlay oladimi, bizdan keyin u qanday yashaydi?", - degan savollarga oilaviy shifokor, psixolog, ijtimoiy xodim, pedagoglar va vaqt javob berishi mumkin. Mutahassislar sehrigar emas, lekin bolaning hayotga moslashishi uchun hamkorlikda olib borilgan har bir ish va bolaga ishonch bilan yaxshi natijaga erishish mumkin. Umid qilish maqsad sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Bolangizga qanday yordam berishingiz haqida kerakli ma'lumotlarni o'qing, eshiting, so'rab, surishtiring. Siz uning asosiy o'qituvchisi hisoblanasiz. Mutaxassis sizga yordam beradi, lekin sizning vazifangizni ular bajara olmaydi. Ulardan o'rganing. Shundagina bolangizga mukammal yordamni ta'minlay olasiz. Shuni unutmang, siz birinchi kundanoq bolangizga eng zarur ishni qildingiz, siz unga sevishni, diqqat-e'tiborli bo'lishni, olamni kuzatishni, ta'lim olishga xohishni uyg'otdingiz. Shuning uchun siz bir to'xtamga kelib, bolaning hozirgi holati, uning nimalarga muhtojligi yoki ehtiyoj sezishi mumkinligi haqida o'ylang.

Achinish, tanbeh, qo'rquv, nuqsoni tuzalib ketadi, deb kutib o'tirish ortiqchadir. Aks holda siz va butun oila a'zolaringiz tinchlik va xotirjamlikni yo'qotadi.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun "tartib-qoida" so'zi kerakmas bo'lib tuyular, lekin bu fikr noto'g'ri. BSF yoki boshqa tashhisli bola boshqalar singari jamoa olida o'zini to'g'ri tutishni bilishi shart, aks holda bolalar jamoasi uni qabul qilmaydi. Hattoki, og'ir aqliy nuqsonli bolalarni ham nisbatan o'zini jamoa oldida to'g'ri tutishni o'rgata olish mumkin, bunday bolalar bilan muntazam va tizimli ishlash talab qilinadi.

¹ Тўракулова И.Х. Оилада бола тарбиясининг маънавий асослари. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2014.

Tartib-qoidaga va o'z-o'zini idora etishga o'rganishni ilk yoshlaridan boshlash kerak. "U buni tushunish qobiliyatiga ega emas", deb o'ylamaslikka harakat qiling.

Agar harakat-tayanch a'zolarida kamchiligi bo'lgan bola to'polon qilsa, u tinchlanmaguncha unga orqangizni o'girib oling. Qarshilikka duch kelib u yanada balandroq baqirib, oyog'i bilan uzoq va qattiqroq urishi mumkin. To'polonlarni to'xtatish uchun jismoniy kuch ishlatib uni urish kerak emas, bunda bola bilan bo'lgan o'zaro aloqangiz buziladi, u asabiy, o'jar bo'lib qoladi, chunki sizga taqlid qiladi. U aka-opalari va boshqa bolalar bilan ham chiqishmaydigan va urishadigan bo'lib qoladi.

Qayta tarbiyalash uchun vaqtni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu ishni jamoaviy joyda boshlamang, eng yaxshisi buni uyda qilganingiz ma'qul.

Ota-onalar bolaga har kuni o'zi xohlamagan ishni qilishga qanchalik majburlasalar, bola ularni bajarishdan shunchalik bosh tortadi.

Kasalxonalarda ba'zan xulqining buzilishlari namoyon bo'lgan, masalan, kechalari qichqiradigan, boshini uradigan, qo'llarini tishlaydigan, tebranib turadigan yoki giparfaol bolalarni ko'rish mumkin. Bunday muammolar tibbiy tekshirishni talab etadi, chunki bu tarzda axloq ko'pgina kasalliklarda kuzatiladi, ba'zan esa hech qanday kasalliklari bo'lmasligi ham mumkin.

Ota-onasi diqqat-e'tiboridan chetda qolgan, mehr va muloqotdan, maxrum bo'lgan bola o'zi bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pincha eshitishi, ko'rishi buzilgan, og'ir aqli zaifliklar bo'lgan bolalar kuzatiladi. Stereotip harakatlar – tebranish, boshini chayqash, tilini chiqarish, barmoqlari bilan g'ayritabiiy harakatlar qilish – atrofdagilar bilan muloqotni o'rnini bosadi. Bu harakatlardan bolalar ko'pincha o'zini o'zi tinchlantirish uchun foydalanadilar. Agarda bunday harakatlar turg'un bo'lib qolgan bo'lsa, ularni yo'qotish juda mushkul bo'ladi.

Passiv o'jarlik bolaga biror ishni majburlab qildirish bilan birga unga xadeb tanbeh berish orqali paydo bo'ladi. Uni turli yo'llar bilan to'g'irlash mumkin. Bu holat – tabiiy reaksiyadan qochish, o'z xohishini ko'rsatmaslik, boshini egish, ko'zini olib qochish yoki yumish, qo'lini bukib musht ushlab ushlab orqali ifodalanadi.

Vaziyatni to'g'rilash uchun bolani shoshirmaslik, sabr bilan uning harakatlarini rag'batlantirish zarur.

Bola ustidan hukmronlik qilish emas, uning hissiyot olamini tushunishga harakat qilish kerak. Avval unga oddiy jismoniy muloqotli, so'ngra har xil moslamalardan foydalanuvchi o'yinlarga o'tish, keyinroq esa predmetli o'yinlarga, masalan, koptok bilan mashinalar bilan o'ynashga o'rgatish kerak.

Eshitish va nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar yoki jismoniy yordamga muhtoj bolalar turli yo'llar yoki harakatlar bilan kattalar e'tiborini (baqirish, tebranish, chinqirish, aylanish va b.) qaratadilar. Ko'pchilik xafa bo'lgan bolani tinchlantirishning yo'li u bilan gaplashib ko'rish, qo'lga ko'tarib uni erkalash, krovatiga yotqizib qo'yish deb hisoblashadi. Tabiiyki, bola ko'proq kattalar bilan ijtimoiy muloqotga kirishishga harakat qiladi. Bu holat juda ko'p kuzatuvlarda isbotlangan bo'lib, bolalar kattalarga har bir soniyada e'tiborlarini qaratishadi: ovozi, ko'zi bilan kattalar ko'ziga qarab muloqot o'rnatishi, qo'llarini ushlab, tizzalariga chiqib olishi va b. bilan namoyon bo'ladi. Agar bola harakatlana olmasa, chaqira olmasa, boshini aylantira olmasa, ba'zida sizga nazar tashlay olmasa – unga e'tibor qaratish kerak bo'lgan vaqtda har gal baqiradi.

Albatta, har doim bolani kuzatib o'tira olmaysiz, lekin u chiqarayotgan har bir tovushlariga e'tibor berib, unga javob bering, bu uni qiziqtiradi va sizni chaqirishni o'rganib oladi. Agar siz uning past ovozlariga e'tibor bermasangiz, unda yanada balandroq baqirishga to'g'ri keladi.

Bola bilan "ku-ku yana" (berkinib paydo bo'lish) o'yinini, so'ngra unga shiqildoq o'yinchoqlar berish, qog'oz o'yinchoqlar, predmetlar bilan olamga qiziqishini uyg'otish lozim.

Bola hayotining birinchi yilida ota-onasi bir xilda qarashlari, vaqti-vaqti bilan uning opa-akalari va boshqa odamlar u bilan vaqtini o'tkazishi juda zarur. Ikki yoshdan o'tgan bolalar uchun ijtimoiy munosabat yanada muhimdir, uning tanishish doirasi kengayib, 3-4 yoshga yetganida maktabgacha ta'lim muassasasiga sizdan ajralishini o'ylamasdan bemalol borishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan bola boshqa bolalar singari ulg'ayadi va jamiyatga intiladi, bu paytda ota-ona, mutaxassislar (pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar) uning quvonch va tashvishlarida ko'makdosh bo'lishi va uning muammolari haqida bolaning o'ziga, boshqa farzandlariga va do'stlariga to'g'ri tushuntirishlari kerak. Bolani savollariga doimo to'g'ri javob berilsa, ochiqchasiga muloqotda bo'linsa, bola o'zini boricha qabul qiladi va kelajakda atrofdagilar bilan muloqotga qiyinchiliksiz kirishadi.

2.3. Bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar qatlamiga kirishining sabablari

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatdagi bolalar muammolarini o'rganish bugungi kunda asosiy tendensiyalarni aniqlashga imkon beradi. Bu tendensiyalar:

- kattalar va bolalar dunyosi o'rtasidagi ziddiyat;
- bolalik dunyosini anglamaslik va tushunmaslik;
- demografik holat, tug'ilishning ko'payishi tufayli bolalar sonining ortishi;
- bolalik oilalarning ta'minlanganlik darajasining pastligi;
- bolalar va o'smirlarning sog'lig'i yomonlashishi, bolalar o'rtasida ijtimoiy ahamiyatga ega va ijtimoiy jihatdan muhim kasalliklarning ko'payishi (giyohvandlik, OIV infeksiyasi va bolalarning tug'ilishdan yoki orttirilgan nogironligi);
- tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ta'lim muassasalari tomonidan bolalarni qamrab olish darajasining kamayishi;
- yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogironligi bo'lgan bolalar, majburiy muhojirlarning farzandlari;
- Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va shafqatsizlik muammolari.

Bolalik ijtimoiy hodisa bo'lib, muayyan davlatning jamiyatidagi roli, o'rni, mavqeini belgilaydi. Bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar qatlamiga kirishining sabablarini tahlil qilinganda asosiy omil "oila"

farovonligining buzilishi bilan bog'likligini ko'rsatmoqda. Oilaning iqtisodiy qiyinchiligi, uy-joy ta'minotidagi qiyinchiliklar, nikohsiz tug'iladigan farzandlarning ko'payishi, nogiron bolalarning tug'ilishi, kattalarning oiladagi javobgarligining pasayishi, majburiy migratsiya muammolari shular jumlasidandir.

Davlat tomonidan ta'minotga va yordamiga muxtoj bo'lgan bolalarning asosiy ko'rsatkichlari: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy, xuquqiylardan iboratdir.

Asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlar: ota-onalarning alkogolizm yoki narkomaniyaga berilishi, asotsial turmush tarzi (ishlamaslik, gadoychilik, o'g'rilik, prostitutsiya); uylarida noqonuniy, kriminal pritonlar tashkil etish, farzandlarini jinsiy tarbiyasini buzish, bola savdosi, oilada ovqat tanqisligi, kichik yoshdagi bolalarni bir necha kun davomida oziq-ovqatsiz, suvsiz qoldirish, bolaning ko'zi oldida qotillik sodir etish, ota-onaning qamalishi yoki psixiatriya klinikalarida davolanishi, bolaga nisbatan zo'ravonlik (urish, og'ir tan jarohati yetkazish, ruhiy, jinsiy zo'ravonlik, och qoldirish va h.); ota-onaning o'limi, boshpanasiz qolish, daydilik, uydan qochish, tengdoshlari o'rtaidagi ziddiyatlar va h.k.

O'z vaqtida o'ziga nisbatan mehr-muhabbatdan, parvarishdan, tushunish va e'tibordan chetda qolgan, doimiy kamsitilgan, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bola kelajakda xavf-xatar domida yashaydi hamda o'zi bilgan yo'llar bilan yashash uchun kurashadi, lekin bu yo'llar qonuniy bo'lmasligi mumkin. Shundan deviant xulq, daydilik, o'g'rilik, gadoychilik va b. kelib chiqadi.

Oila har biri o'ziga xos turli-tuman fe'l atvorli odamlarning kichik jamoasidir. Tomchilar yig'ilib ko'l hosil qilganidek, oilalar jamul-jam bo'lib, jamiyatni hosil qiladi. Biz qaysi maqsadlar sari intilmaylik, har qaysi sohada ishlamaylik, rivojlanmaylik va yuksaklikka erishmaylik, oilada olingan (ota-ona, aka-uka, opa-singil) o'zaro munosabatlar tajribasi har doim biz bilan bo'ladi va bizning tarbiyamizni belgilab turadi¹.

¹ Тўракулова И.Х. Оилада бола тарбиясининг маънавий асослари. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2014.

Aynan shu maskanda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi.

Insoniyat yaralibdiki, doimo uyushib yashab kelgan. Chunki bir joyda uyushib yashash turli xil xavfdan himoyalaniшни osonlashtirgan. Shu sababli ovullar, qishloqlar va shaharlar paydo bo'lgan. Ayniqsa, ishlab chiqarishning o'sishi va mehnatni tashkil etish masalasi kun tartibiga qo'yilishi xalqning bir joyda to'planib yashash istiqbolini yanada rivojlantirdi.

Har bir yosh avlodning ma'naviy yetuk, komil shaxs bo'lib voyaga yetishida musaffo havo, tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda katta rol o'ynaydi.

Mahalla kishilarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatadigan makoni hisoblanadi. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarni, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir-birlariga bo'lgan o'zaro hurmati, muhabbati, mustahkam do'stligi asosida yashaydi, faoliyat ko'rsatadi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topgani kabi, oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Sharq xalqlari, chunonchi, o'zbek xalqi shu narsani biladi, teran ma'no-mazmunini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham, boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir. Insonlar o'rtasidagi bunday bog'liqlik va hamjihatlikning muhim vositasi – mahalladir.

O'zbekistonda turmush madaniyatini yuksaltirish va juda ko'plab muammolarning hal etilishida tarixiy vazifani bajargan mahalla, xalqning xalq

bo'lib maydonga chiqishida eng birinchi omillardan bo'ldi, desak, sira yanglishmagan bo'lamiz. Mahalla birlashtiruvchi kuch bo'lib, Vatanning bir bo'lagi hisoblanadi. Mahallada yutuqlar, kam-ko'stlar ham qo'ni-qo'shnilarga ma'lum.

Bularning barchasi xalqimizni ma'naviy jihatdan yuksaltirgan, uni madaniyatli xalqlar qatoriga ko'targan eng qimmatli milliy belgilardandir.

Oila, jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni sog'lom, barkamol, komil inson qilib tarbiyalab voyaga yetkazish uchun zamin yaratuvchi o'chog'dir.

Bola tarbiyasi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning asosiy o'chog'i esa oiladir. Tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishi bo'lib qolmasdan balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma'lumki, shaxsning qadri uning jamiyatdagi tarbiyasiga bog'liq bo'ladi va tabiiyki bolalarga ilk tarbiyachi ota-ona hisoblanadi. Bolalarni oilada tarbiyalash davomida ularga hayot haqida, odamlarning yaxshiyomon xulqlari, jamiyatda bajaradigan ishlari haqida dastlabki tasavvurlarni berishi lozimdir.

Ota-ona o'zining hulq-atvorida faqat ijobiy fazilatlarni shakllantirsa, bolaning tarbiyasi mukammal va ota-onasi xohlagandek bo'ladi. Tarbiyaning bu shaklida ota-ona o'zining xatti-harakatlarini doimiy nazoratda tutib, boshqa insonlarga va o'zaro oilaviy munosabatlarda ijobiy namuna bo'la olsa, bolaning har tomonlama uyg'unlikda rivojlanishiga asos bo'ladi.

Oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan munosabati oilada muhim rol o'ynaydi. Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida har bir a'zosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning aksi sifatida har bir oila a'zosi ham hulqi, shaxsiy sifatlari bilan oila hayotida muhim rol o'ynaydi. Bu kichik guruhning ayrim a'zolari oila a'zolarining ma'naviy qadriyatlarini shakllanishiga, butun oilaning maqsadi va hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

Oilada olgan tarbiyasiga, duch kelgan muammolariga yoki uning yechimiga qarab, ota-onalar farzandlari oldiga o'z talablarini qo'yishlari mumkin. Ammo bolaga qo'yilgan me'yordan ortiq talab va buyruqlar uning psixologiyasiga ta'sir

ko'rsatib, u o'zining himoya usullarini ishlab chiqadi. Bu holatda bola egoist, yolg'onchi, qo'pol, jirraki, urushqoq va ayrim hollarda ochiq nafrat tuyg'usini namoyon qilishi mumkin. Ota-onalarning bola ustidan hukmronlik qilishi, uning qiziqish va fikrlarini e'tiborga olmasliklari, o'ziga taaluqli bo'lgan masalalarda bolaning fikri inobatga olinmasligi, oxir-oqibat bolaning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Yoshlar o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari va ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi. Afsuski, hamma vaqt ham yoshlarimizning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki u aksariyat hollarda reallikdan tubdan farq qiladi.

Hind afsonalaridan birida yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va ularning reallikka nisbatini qiyoslashga mos keladigan ajoyib bir rivoyat mavjud.

Rivoyatda aytilishicha, tug'ilganidan ko'zi ojiz bo'lgan to'rt nafar ko'rga «Qarshinglarda fil turibdi, sizlar uni umuman ko'rmagansizlar, lekin uni borib ushlab, paypaslab o'rganib chiqinglarda, so'ng fil qanday maxluq ekanligini aytib beringlar», - deyilgan. Ko'rlar borib filni «o'rganib» qaytganlaridan so'ng ulardan fil qanday hayvon ekanligi so'ralganda, ulardan biri: «Fil – badani dag'al, daraxtga o'xshagan hayvon» – debdi, ikkinchisi uni inkor etib: «Yo'q, fil yerdek yumaloq, odamning qulochi yetmaydigan yumaloq bir hayvon» – debdi. Uchinchisi esa, ularni ikkovlarini ham inkor qilib: «Fil ichi teshik uzun, yo'g'on ichakka o'xshaydigan hayvon» – debdi. To'rtinchisi esa: «Fil yoyiq yapaloq katta bargga o'xshagan hayvon» – deb javob bergan ekanlar va ularning har biri o'z fikrini ma'qullayman, o'tkazaman deb bir-birlari bilan janjallashib qolgan ekanlar. Chunki ularning biri filning oyog'iga, ikkinchisi - qorniga, uchinchisi – xartumiga va to'rtinchisi – qulog'iga to'g'ri kelib qolib o'zlarining imkoniyatlari doirasida filni tasavvur qilgan ekanlar. Xuddi shu to'rtta ko'zi ojiz insonlardek yoshlarimiz ham oilaviy hayotni butun borlig'icha, to'la, yaxlit tasavvur qila olmaydilar, buning imkoni ham yo'q. Oqibatda oilaviy hayot haqida turli tasavvurlarga ega bo'lgan yoshlarimiz oila qo'rgudek bo'lsalar, o'z tasavvurlarini reallikka

aylantirish, ya'ni juftiga ham shunday ekanligini uqtirishga harakat qiladilar. Esini tanigandan boshlab ertaklar ruhida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanmasligi mumkin. Ommaviy axborot vositalari orqali, teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, oilaviy hayotni bir yoqlama, faqat ijobiy tomondan talqin qilish hollari ko'p kuzatiladi. Ko'pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar, oila qurish arafasida bo'lar ekanlar aksariyat hollarda o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun o'z ota-onasi munosabatlari va turmushini ideal qilib oladilar. Chunki ular shu oilada tarbiyalanar ekanlar, ota-onasining nizolashib tortishganlarini, bir-birlarini hurmatsiz qilganlarini eslay olmaydilar. Bunday oilalarda ota-onalar ham o'zlarining o'zaro munosabatlaridagi noxush jihatlarini farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Yoki ularning o'zaro munosabatlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan nizoli damlar, bir-birlariga moslashish jarayonlari nikohning boshida, hali farzandlari dunyoga kelmaslaridan oldin bo'lib o'tib ketgan. Bolalar esa ular turmushining faqat yaxshi, tinch-totuv, ahil-inoqlik, bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, ibratli jihatlaridagina xabardor bo'ladilar. Shunday oila qurishni tasavvur qilgan yoshlarimiz, oila qurganlaridan so'ng o'zlari kutgandek turmush kechira olmasalar, nikohning dastlabki eng nozik, murakkab, kiyin, yangi ijtimoiy vaziyatlar, sharoitlar, rollarga moslashish, bir-birlariga moslashish jarayonlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolar oldida esankirab qolib, oila qurishda «adashganliklari»dan shubhalanib qolishlari mumkin. Yoshlar oilaviy hayotida shakllanib boradigan munosabatlar oiladagi kattalarning yordami, to'g'ri maslahatlari, tajribasi misolida rivojlanadi.

Oilada bolalarga nisbatan g'amxo'rlik darajasini ko'paytirib yuborish kabi munosabatlar tizimida ota-onalar bolalarining barcha ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishadi. Bola ehtiyojini qondirishda zarur barcha mas'uliyat va majburiyatlarni ota-ona o'z bo'yniga oladi va bolani o'rniga o'zi bajaradi. Bu holatda bolaning shaxs sifatida rivojlanishi ikkinchi o'ringa tushib qoladi.

Tarbiyaviy harakatlar markazida esa boshqa bir muammo – bola ehtiyojlarini qondirish va turli qiyinchiliklardan saqlash turadi. Ota-onalar bolaning o'rniga barcha muammolarni hal etib va harakatlarni bajarib, bolani real hayotga moslashuvini to'xtatib qo'yishadi. Aynan shu bolalarda jamoaga, hayotga moslashuvi yuzaga kelmaydi.

Hamkorlik – bu oila a'zolarining o'zaro munosabatlar tizimida kelishuvi va hamkorlik asosida umumiy faoliyatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishi hisoblanadi. Aynan shu munosabatlar turi bolaning shaxsiy egoizm xarakteri shakllanishini oldini oladi. O'zaro munosabatlari tizimini hamkorlik turi egallagan oila – rivojlanishning yuqori bosqichidagi jamoaga aylanadi.

Bu borada oiladagi katta yoshli oqil kishilar yoshlarga hayotda ko'prik bo'lmog'i, ularning bosib o'tgan ko'p qirrali hayot yo'li farzandlariga saboq bo'lishi kerak. Ular yoshlarimizni mustaqil, yetuk bir shaxs sifatida qabul qilib, oilaviy hayotning past-balandlari haqida to'la to'kis ma'lumotlar berishi maqsadga muvofiqdir.

2.4. O'smirlik davrining qiyinchiliklari

Mustaqil davlatimizning barcha sohalarida mustaqil va erkin fikrlaydigan, tashabbuskor va fidoiy, atrofdagi insonlar bilan aloqa o'rnatishga qodir, tashqi dunyoga faqat moslashibgina qolmasdan uni ijodiy o'zgartirishni xam o'ylovchi ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatli yoshlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Bu borada mamlakatimizdagi yoshlarni o'zlarini namoyon qilishga, ularning kommunikativ qobiliyatlarini yuksaltirishiga, hayotiy zaruriy bilimlarini va ko'nikmalarni egallashiga, ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va bunga mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlarida katta e'tibor berilmokda.

O'smirlik davri insonni bolalikdan – yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr tahminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish

paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

Ma'lumki, yoshlarning o'smirlik davrida o'zini har tomonlama ko'rsata olishi, ular qobiliyatlari va xususiyatlar uyg'unligining betakrorligi bola faoliyatining ko'pqirraliligi va ayniqsa, ma'naviy etukligini bildiradi. Farzandlardagi bu sifatlar va xislatlarni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Boladagi ko'pgina ma'naviy sifatlarning shaxsiy rivojlanishida oiladagi ma'naviy muhit asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham oilaviy ma'naviy muhit bolaga kelajakda asqotishi mumkin bo'lgan ma'naviy dunyoqarashnigina emas, balki butun umri davomida zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lishga, uning real hayoti muammolarini samarali hal qilishga ma'naviy - didaktik asos bo'la oladi.

Shu sababli, oila faqatgina ota-onaning o'z farzandlarini dunyoga keltirib va o'stiradigan joy emas, balki ularni boshqalar bilan muloqot qilishga, muayyan jamiyatda mazmunli yashashga, xayotiy zaruriy bilimlarni o'rgatishga va shu kabilarga o'rgatadigan joy hamdir. Ushbu jarayonda ota-onalarning ma'naviy yetukligi va intellektual salohiyatligi o'ta muhimdir. Bu oilada ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi mahoratiga bog'liq bo'ladi, chunki ularning bola tarbiyasi borasidagi mahoratning yuqori darajasi insonning barcha bilimlar, malakalar va ko'nikmalar uyg'unligida namoyon bo'ladi va ularning faoliyati bola ma'naviy ahloqining asosini tashkil etadi.

Bola ulg'aygan sari ota-onasining fikri o'zi uchun muhim ekanligini sezadi, atrof-muhitga bo'lgan qarashlari oilaviy an'analar, qadriyatlar, oilada olingan tarbiya orqali shakllanib boradi. Shaxsning shakllanishida oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati muhim o'rin tutadi, ya'ni bola oilada mehr-muhabbatni, hurmatni sezsa yoki bolani oilada o'rni bo'lmasa, oiladagi muloqot faqat janjallar va baqir-chaqirlar ostida bo'lsa, bu holatlar bolaning tarbiyasi va shakllanishida o'z aksini topadi.

Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada

ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlari ko'zga tashlanadi. Yoshlar turmush tarzi – bu eng avvalo, uning real borliq tavsifi, ularning nimalarni bajara olishi mumkinligining tavsifidir. Yoshlarning ichki dunyosi ularning turmush tarziga faol ta'sir ko'rsatadi, shu bois yoshlar psixologiyasini, ichki dunyosini bilmay turib ularning hayot uslublarini bashorat qilib bo'lmaydi.

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Hozirgi o'smirlik o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetishish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Yosh psixologiyasida turli yosh davrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko'rsatkichlariga ko'ra emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro'y beradigan o'zgarishlar, uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga ko'ra ham farqlanadi.

Maxsus psixologik adabiyotlarda o'smirlik davri «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyib boradi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik-balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o'quvchi bilan

o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi¹.

Bular avvalo oilada, maktabda, kattalar va tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda ro'y beradi. Yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. O'smir hulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi va ota-onasini qattiq tashvishga soladi.

Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qaramaqarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. O'smir organizmida ayni shu davrda biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o'zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog'atga yetish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishi bilan boshlanadi. Bu davrda gipofiz bezining vazifalari faollashadi. Uning old qismidan ajralib chiqadigan gormonlar organizm to'qimalarining o'sishi va boshqa muhim ichki sekretiya bezlari (qalqonsimon bez, buyrak usti va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Ularning faoliyati o'smir organizmida ko'plab o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan bo'y o'sishining keskin tezlashishi (bir yilda o'g'il bolalarda 4-5 sm., qizlarda 3-4 sm. o'sishi kuzatiladi), jinsiy balog'atga yetish kuzatiladi. Bu jarayonlar qiz bolalarda 13-15 yoshlarda nisbatan jadal kechadi. Jismoniy rivojlanish va jinsiy yetilishning akseleratsiyalashuvi kuzatiladi. Bo'yning o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining kengayishi – bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o'smirlik yoshiga xos xususiyatlaridir. Shular tufayli o'smirning tashqi ko'rinishi bolaning tashqi ko'rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek o'smirning yuz

¹ Игнатова Т.В. Преемственность и конфликт поколений // Образование и общество. 2005. № 3.

tuzilishi ham o'zgarib, bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O'smir muskullari kattalarnikiga qaraganda tez toliquvchan bo'ladi va davomli kuchlanishlarga dosh berolmaydigan bo'ladi. Shuning uchun sport va jismoniy mehnat bilan shug'ullanishda buni inobatga olish lozim. Turli organ va to'qimalarning o'sishi yurak faoliyatiga ham yuqori talablar qo'yadi. O'z navbatida yurak ham qon tomirlariga qaraganda tezroq o'sadi. Bu jarayon yurak-qon tomir sistemasi faoliyatidagi funksional buzilishlarga sabab bo'lishi, yurak urishining tezlashishi, qon bosimining ortishi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez toliquvchanlik kabilar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'smirlik davrida ichki sekretsiya bezlari faoliyati bilan bog'liq ravishda organizmda keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Shunga ko'ra o'smirlik davri bir tomondan quvvatning keskin ortishi va ikkinchi tomondan patogen ta'sirlarga o'ta sezgirligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun aqliy yoki jismoniy ortiqcha toliqish, uzoq muddatli asabiy zo'riqish, affektlar, kuchli salbiy hissiyotlar (qo'rqish, g'azab, xafagarchilik) endokrin buzilishlarga (menstrual siklning vaqtincha buzilishiga) va nerv sistemasi vazifasining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday buzilishlar ta'sirlanuvchanlikning ortishi, o'zini tuta bilmaslik, parisonxotirlik, ishda mahsuldorlikning pasayishi, uyquning buzilishi kabilarda namoyon bo'ladi. Jinsiy balog'atga yetish va jismoniy rivojlanishdagi o'sish o'smir ruhiyatida yangi psixologik tuyg'ularni yuzaga kelishida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu o'smir uchun juda sezilarli bo'lgan o'zgarishlar bo'lib, ular o'smirning katta bo'lganini his qilishining yuzaga kelishining obektiv manbasi bo'lib xizmat qiladi (uning asosida o'smir o'zining kattalarga o'xshashligini his qiladi). Ikkinchidan, jinsiy balog'atga yetish boshqa jins vakiliga qiziqishni rivojlantiradi, yangi kechinma, hissiyot, tuyg'ularni yuzaga keltiradi. Bu o'rinda o'smir shaxsi shakllanishiga faqat kattalar uchun mo'ljallangan kitoblar va kinofilmlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xo'sh, o'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-

qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. O'smir o'zining qobiliyati va kuchini to'g'ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo'lganligi sababli kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Lekin u o'z xatosini tan olishdan ko'ra kattalar bilan baxslashishni afzal ko'radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go'yoki uni mensimaslik belgisi, atayin qilinayotgan ish bo'lib ko'rinadi. Buning natijasida o'smirning psixik faoliyatida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. U mustaqil, o'zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga e'tibor bermaydi. Ayrim o'smirlar o'zining kattalar safiga qo'shilganligini namoyish qilish uchun turli xil odatlarga o'rgana boshlaydilar. Ota-onalar va pedagoglar o'smirlar bilan alohida ishlab, ularning ko'nglini topishi va xatti – harakatlarini o'z vaqtida to'g'ri yo'lga solishlari lozim. O'smirlik yoshida dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi xususiyatlar shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib topshirishda uning atrof muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim¹.

Umumiy o'rta ta'lim va mustaqil bilim olish faoliyati ta'siri ostida o'smirida analitik-sintetik faoliyat jadal sur'at bilan rivojlana boshlaydi. O'smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aql tanqidiyligining tez rivojlanishidir. Bu esa o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida «anglashilmovchilik g'ovi»ni vujudga keltiradi. Aqlning tanqidiyligi o'smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, o'z galar mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklar topishga, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qat'iy e'tiroz bildirishga urinib, baxslashishga moyil bo'ladilar. Tafakkurning mustaqilligi inson uchun katta ahamiyatga ega. Bu davrda o'smir o'ziga nisbatan ko'proq diqqat-e'tiborni talab qiladi. U o'zini katta odam deb hisoblaydi va shaxsiga nisbatan kattalardek munosabatni talab qiladi. Lekin maktabda, kollej yoki litseyda va uyda uning

¹ Глотов М.Б. Поколение как категория социологии // Социологические исследования. 2004. № 10.

mavqei avvalgidek qolaveradi. Natijada bolada o'smir yoshi inqirozi boshlanadi. O'smirlik yoshi inqirozi emansipatsiya, tengdoshlar bilan guruhlashish va xobbi reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Emansipatsiya reaksiyasi holatida bola kattalar nazoratidan chiqish va mustaqillikka erishishni xohlaydi, unda o'zining «men»i paydo bo'ladi.

Kattalar tomonidan o'tkazilmoqchi bo'lgan kichkina ta'qib ham o'smir xulqining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Tengdoshlar bilan guruhlashish o'smirda o'zaro harakat, jamoa tartibiga bo'ysinish, hurmatga ega bo'lish va o'z xohishidagi mavqega ega bo'lish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'smirda o'z-o'zini baholash xususiyati o'sadi. U tengdoshlarining fikrlarini kattalarning tanqidiga nisbatan ko'proq qadrlaydi.

O'smirlarning qiziqishlarini bilish, ular va kattalar orasidagi bir-birlarini o'zaro tushunishlarini yaxshilaydi. O'smir psixologiyasida paydo bo'ladigan yangi hissiyot bu – o'z-o'zini anglashdir. O'z-o'zini anglash, o'smir yoshining asosiy yakunidir. Bu paytda inson o'zining yangi «men»ini ochadi, kuchli va kuchsiz taraflarini o'rganishga harakat qiladi. O'zini boshqa odamlar bilan solishtira boshlaydi, o'ziga nisbatan qiziqish uyg'onadi, o'ziga mos do'st qidiradi. Qoidaga ko'ra o'smirda o'qituvchi yoki ota-onaga nisbatan jamoaning bolaga bergan bahosi ko'proq ahamiyatga egadir. Bu yoshda bolada tashkilotchilik, ishbilarmonlik va boshqa shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirishga yaxshigina sharoit yaratiladi. V.Suxomlinskiy asosiy shaxs xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi.

1. Bir tomondan johillikka bo'ysunmaslik, uni emotsional qabul qilmaslik, ikkinchi tomondan hayotdagi qiyin holatlarni hal qila olmaslik qobiliyati bilan uyg'unlashadi.

2. O'smir yaxshi bo'lishni xohlaydi, "ideal" ga intiladi, lekin uni to'g'ri tarbiyalashlari yoqmaydi.

3. O'smir o'zini "shaxs" sifatida tan olishlarini xohlaydi. Qandaydir qahramonlik, romantik, noodatiy narsalarni qilishni istaydi. Ushbu jarayonga talabning borligi va o'zida ishonch hosil qilish xohishining mavjudligiga qaramay, o'smir hali bunga qanday erishishni bilmaydi.

4. O'smirda xohishning borligi va kuchning chegaralanganligi qarama-qarshi qo'yilgan. Qiziqishlarning turli-tumanligi va doimiy emasligi mana shundan kelib chiqadi. O'smir o'zining qobiliyatli emasligini bilib qolishdan qo'rqadi. U o'zini juda yaxshi ko'radi, lekin buning ortida yordamga muhtojligi yashiringan.

5. O'smirda romantik hissiyot va dag'al qiliqlar uyg'unlashgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlik davrida iqtisodiy va siyosiy qarashlar, estetik dunyoqarash barqarorlik kasb etadi, o'zligini anglashi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Estetik dunyoqarash bilan bog'liq milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar ham o'smirlarning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda o'smir yoshlarimizning badiiy did, ijodiy tafakkur orqali yaratgan badiiy asarlari, maqolalari, ilmiy chiqishlari, ishlab chiqarishdagi ratsionalizatorlik takliflari xalq xo'jaligini yuksaltirish, fan va texnikani rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda.

Shaxsning har tomonlama, uygun rivojlanishiga mehnat faoliyati salmoqli tasir ko'rsatadi. Jamoa bo'lib amalga oshiriladigan mehnat, birgalikdagi sport va boshqa o'yinlar, ularning keng ko'lamda o'tkazilishi o'tish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi. Jamoa bilan qilingan mehnat yoki o'yin faoliyatida o'smirda yuksak ahloqiy his tuyg'ular vujudga keladi, matonatlik, jasurlik kabi fazilatlar shaklanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

III - Bob. Islohatlar jarayonida yoshlarning ijtimoiy muammolari

3.1. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi sifatida

Sotsiologlarning aksariyati 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni o'zlariga xos bo'lgan hayot, turmush tarziga ega bo'lgan, mehnat va madaniyatning barcha jarayonlarida ishtirokchi va iste'molchi sifatida qatnashuvchi qatlam deb hisoblaydilar. Sotsiologiyada yoshlar odatda quyidagi ijtimoiy-psixologik guruhlarga bo'linadi:

1. Umumta'lim maktablari bitiruvchilari bo'lgan yoshlar;
2. Ishlab chiqarishning turli jabhalarida ishlaydigan, 16-19 yoshdagi yoshlar.
3. 20-24 yoshdagi yoshlar;
4. 25-30 yoshda - yosh ziyolilar yoki yosh mutaxassislar.

Yoshlar jamiyatimizning ajralmas qismi, uning muayyan bir guruhidir. Bu guruh shakllanishi va ijtimoiy joylashishi, shuningdek, muayyan jamiyat doirasida o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinishi kerak.

“Yoshlar” terminining **birinchi mezon** bo'lib – yosh chegaralari hisoblanadi. Yosh chegaralari asosan insonning hayotga tayyorligi xususiyatlari va yoshlarning kattalar safiga kirishi bilan bog'liq.

Turli davrlarda yoshlik va yetuklikning mezoni turli yo'nalishlarda aniqlangan. Misol uchun, Pifagor «bahor», bolalik va o'smirlikni o'z ichiga olgan 20 yoshgacha bo'lgan yosh; «yoz»ni 20-40 yoshgacha, samarali qirollik; «kuz»ni 40 dan 60 yoshgacha davom etadi, deb ta'riflagan.

O'rta asrlarda shakllangan yetuk inson maqomiga erishish uchun yosh chegarasi huquqiy mezonlar va normalar bilan bog'liq edi. Misol uchun, Angliyada «... 23 yoshga yetgunga qadar, inson tafakkuri va fikrlashi, o'z-o'zini boshqarish uchun yetarlicha tajribaga ega emas», faqatgina 24 yoshga to'lgandan keyin,

uylanib oila qurishi va o'zi mustaqil ishlashi, biznesini ochishi mumkin deb hisoblaganlar.

Yoshlarning mustaqil hayotining boshlanishi, ta'lim olishni tugatish va barqaror kasbni egallash, siyosiy va fuqarolik huquqlariga ega bo'lish, otalardan moddiy mustaqillik, nikoh va birinchi farzandning tug'ilishi-bularning barchasi birgalikda to'liq yetuklik, munosib ijtimoiy mavqega ega bo'lish va h.k. ularning ketma-ketligi va har birining ramziy ma'nosi turli xil ijtimoiy qatlamlarda bir xil emasligini ham unutmaslik lozim.

“Yoshlar” terminining **ikkinchi mezon** - yoshlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeidir. Yoshlarni jamiyatda ishlab chiqarish, yoki boshqa turdagi mehnat jarayoniga jalb qilinishidir.

Ananaga ko'ra, «yoshlik» toifasi uchta yosh guruhga bo'linadi: yosh (15-18 yosh), o'rta (19-24 yosh) va katta (25-30 yosh). Har bir yosh guruhi bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Masalan, 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan davrda maktabdagi ta'lim ; 18-21 yoshdan boshlab esa fuqarolik rivojlanish davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda yoshlarning mehnat faoliyatining boshlanishi, o'rta maxsus o'quv yurtlarida yoki universitetlarda o'qishi, harbiy xizmatga tayyorgarlik va chaqirilishi, aksariyat yoshlarning biron bir kasbni egallab, iqtisodiy jihatdan ta'minoti yuqori bo'lgan boshqa davlatlarga o'qishga yoki ishga intilishi kuzatilmoqda. 25-30 yildan beri ijtimoiy taraqqiyotning yaxshilanishi kuzatilmoqda. Ushbu kichik guruh professional va rasmiy pozitsiyada aniq natijalarga erishmoqda, yoshlarning moliyaviy ahvolining o'sishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston yoshlarining demografik tarkibini hisobga olgan holda quyidagi ijtimoiy va yosh toifalarini ajratish mumkin:

1. 0-6 yosh - maktabgacha yoshdagi;
2. 7-10 yosh - kichik maktab yoshi;
3. 10 yoshdan 18 yoshgacha - maktab yoshi;
4. 11-13 yoshda - o'rtacha maktab yoshi;
5. 14-17 yoshda - o'rta maktab yoshi;

6. 18-20 yoshda - yosh fuqarolik davri;
7. 18-30 yoshda - fuqarolik yoshi;
8. 21-24 yoshdagilar - o'rtacha fuqarolik yoshi
9. 25-30 yoshdagilar - katta (yetuk) fuqarolik yoshi;

Uchinchi mezon – yoshlarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyatda ijtimoiy-psixologik o'rnining o'ziga xosligi. Yoshlarning psixologik xususiyatlari bo'yicha, yosh avlod, ijtimoiy gurux sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega. Olimlar, bola 14 yoshga yaqinlashganda asta-sekin o'zining ijtimoiy aloqalarini, ijtimoiy guruhda va jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligini tushuna boshlaydi. 18 yoshga kelib insonning asosiy psixofizik xususiyatlarining shakllanishi tugallanadi. 24 yoshga kelib, insonning jismoniy jihatdan o'sish jarayoni tugab, psixikadagi o'zgaruvchanlik asta-sekin so'nadi.

Psixologik jihatdan yoshlar – bu o'z-o'zini anglash, dunyoqarash, mas'uliyat hissini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan belgilar shakllanishi va o'zini o'zi identifikatsiya qilish davridir.

«Jamiyat» tushunchasini tahlil qilib, «inson», «individ», «shaxs» tushunchalarini mazmuni va o'zaro bog'liqligini ochib, «yoshlik» degani:

1. Muayyan yoshga bog'liq bo'lgan, katta guruh sifatida faoliyat ko'rsatadigan ob'ektiv ijtimoiy hodisa;
2. Tarixiy jarayonning istalgan bosqichida yoshlarning biologik va ijtimoiy tabiati va mohiyati jamiyatning muayyan aniq sub'ekti bo'lib hisoblanadi;
3. Yoshlik davri, boshqa davrlarga o'xshab, ijtimoiy hayotning notekis kechishi, takomillashib borishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi kabi umumiy qonunlarga muvofiq kechadigan qonunlarga bo'ysunadi;
4. Yoshlar jamiyat va ijtimoiy harakatning bir butun ob'ekti va sub'ekti sifatida shakllangan qismi deb tan olinishi va shu bilan birga o'zlari tomonidan yoshlikni tan olmaslik paytidir;

5. Yoshlarning yosh chegaralari, rivojlanish davri va ushbu chegaralar ichida bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos jihatlari - rivojlanishning individual bosqichlarining davomiyligi bilan bog'liq.

I.S.Kon "... yoshlik hayotning muayyan bosqichi bo'lib, biologik jihatdan universaldir, ammo uning o'ziga xos yosh chegaralari, ijtimoiy mavqei va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tabiatda ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega va jamiyatning ijtimoiy tizimiga, madaniyatiga va ijtimoiylashuvi modellariga bog'liq», deb ta'rif bergan.

Yoshlar ijtimoiy ensiklopediyasi insonning yoshlik davri deb o'smirlik davriga (17-21yil), tugatilishning birinchi bosqichiga (21-35 yosh) bog'liq. Hayotning bu bosqichi ijtimoiy va madaniy sharoitlar, tarixiy holat bilan belgilanadi: faol va passiv, to'yingan va monotonli bo'lishi mumkin.

Yoshlik – inson tanlagan kelajakdagi yo'l. Kelajakni tanlash, uning rejalashtirilishi yoshlikning o'ziga xos xususiyatidir; Agar kishi ertaga, bir oyda, bir yil ichida nima yuz berishi haqida oldindan bilgan bo'lsa, bu yashash uchun qiziqarli bo'lmaydi.

Yoshlik – inson o'z taqdirini belgilashi, o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi va muvaffaqiyatga erishish uchun yagona, haqiqiy hayot yo'lini topishi kerak bo'lgan davrdir. Mid bo'yicha: "Ota – bobolarimiz yashagan ijtimoiy tuzilma, yoshlar katta bo'lib voyaga yetguncha o'zgarib, o'tmishdan farq qiladi. Kattalar tajribasi yetarli emas, o'tgan davr ijtimoiy muhitidagi egallash lozim bo'lgan pozitsiyalar bugungisidan farqlangani bois yosh inson bugungi kun jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini, undagi qadriyatlarni, umuman, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniq tasavvur qilishi va moslashishi kerak bo'ladi.

3.2. Yoshlarning ijtimoiy stratifikatsiyasi. Islohotlar jarayonida ijtimoiylashuv jarayonining xususiyatlari

Yoshlarning ijtimoiy stratifikatsiyasi (lot. Stratum – qavat, tabaqa) ijtimoiy tabaqalanishini – o'smirlikdan katta yoshga o'tish davrini o'rganishdir. Ijtimoiy

stafikatsiyada yoshlarning shaxsiy va jamiyatdagi hayotini tasniflash uchun ta'lim olishi, ish bilan bog'liq har qanday o'zgarishlar, oilani shakllantirish va mobilligi nuqtai nazaridan o'rganiladi, ijtimoiy identifikatsiya davridan o'tadi.

Yoshlar guruhi jinsi, kelib chiqishi, ta'lim darajasi, shaxsning ijtimoiy moslashuvi va harakat dinamikasiga qarab farqlanadi. Yoshlarning ijtimoiy stratifikatsiyasini o'rganish turli xil hayotiy tajribalarini o'lchash uchun analitik vosita sifatida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda ma'lum bir maqomga erishish murakkab jarayondir, ayniqsa bu ijtimoiy guruhlarining o'rta sinfida ko'proq namoyon bo'ladi.

Bir avlod ichidagi yoshlar harakatining mobilligi o'ta murakkab avlodlararo mobillik jarayonidan o'tish bilan erishiladi.

Avlodlararo mobillik – turli avlod yoshlari ijtimoiy mavqeining nisbatan o'zgarishi (misol uchun: ishchining o'g'li davlat prezidenti bo'lib tayinlanishi)

Bir avlod ichidagi mobillik (kasbiy jihatdan ijtimoiy o'sishi yoki martabasining ortishi) – tokarlik kasbini egallagan ishchi oliy ta'lim olib injener lavozimiga, keyinchalik ishlab, tajriba orttirib zavod direktori lavozimini egalashiga tushuniladi.

Yoshlar kattalar dunyosiga oilalarining ijtimoiy kelib chiqishi, uyda va maktabda olgan dunyoqarashlari asosida oilaviy identifikatsiyadagi «yuk» bilan kiradilar. Kasb faoliyatiga kirish davrida o'zlarining shaxsiy fazilatlarini tufayli professional mavqega erishadilar va asta-sekin o'zlarining ijtimoiy sinflariga oid identifikatorlarini to'play boshlaydilar. Sotsiologiyada ijtimoiy maqomni o'rganishning asosiy sabablaridan biri, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni va ular ichidagi tengsizliklarni o'rganishdan iboratdir. Yosh insonga yetuk, mustaqil shaxs sifatida tan olinguniga qadar beriladigan ijtimoiy maqom va o'tish davri (uning tug'ilib o'sgan oilasi, olgan tarbiyasi) yetishadigan ijtimoiy maqomi (o'qib, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanib, o'zining oilasini shakllantirgunigacha) bu yoshning o'sish uchun asosiy turtki bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kun zamonaviy yoshlarning ijtimoiy harakatlanishining yuqori darajasi yoshlar tabaqalanishini butunlay o'zgarib ketishiga olib keldi. Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib obro'-e'tiborga ega bo'lishi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bevosita bog'liq. Ushbu ezgu maqsadlar istiqloq yillarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish bo'yicha ma'naviy va sog'lom jamiyatni shakllantirishning qonuniy hamda iqtisodiy asoslarini yaratish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar sonini kamaytirish va o'z navbatida, ko'makka muhtoj aholi ehtiyojlarini to'laroq qondirishga qaratilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini keskin kamaytirishda sog'lom avlodni kasb-hunarli qilib tarbiyalash va ular uchun yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan siyosat alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalar, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz qariyalarning huquqlari davlat himoyasidadir. Shuningdek, uning ko'plab boshqa moddalaridagi normativlari ham aholining ijtimoiy himoyasiga oid mazmun bilan boyitilgan. Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy himoyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yoshlar jamiyatdagi eng qudratli kuch ekanligini va bu kuchdan jamiyat taraqqiyoti yo'lida unumli foydalanish haqidagina emas, balki uning kelajagi haqida o'ylash, yoshlarning zamonaviy bilimlar bilan qurollangan ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lib kamol topishlari haqida g'amxo'rlik qilish nechog'lik muhim ekanligini so'zsiz bugun har birimiz yaxshi anglaymiz.

O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda yoshlarni

ijtimoiy jihatdan himoyalashga e'tibor qaratish hozirgi kun talabidir. Chunki, ertangi kun, yurtimizning ertangi taqdiri shu yoshlar qo'lida.

Har bir yosh avlodning ma'naviy yetuk, komil shaxs bo'lib voyaga yetishida musaffo havo, tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda katta rol o'ynaydi.

Mahalla kishilarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatadigan makoni hisoblanadi. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir-birlariga bo'lgan o'zaro hurmati, muhabbati, mustahkam do'stligi asosida yashaydi, faoliyat ko'rsatadi.

Insoniyat yaralibdiki, doimo uyushib yashab kelgan. Chunki bir joyda uyushib yashash turli xil xavfdan himoyalaniшни osonlashtirgan. Shu sababli mahallalar, ovullar, qishloqlar va shaharlar paydo bo'lgan. Ayniqsa, ishlab chiqarishning o'sishi va mehnatni tashkil etish masalasi kun tartibiga qo'yilishi xalqning bir joyda to'planib yashash istiqbolini yanada rivojlantirdi. Mahalla jamiyatning o'ziga xos turmush tarzi bo'lib, u yerda istiqomat qiluvchi kishilar kim bo'lishidan qat'iy nazar, yoshmi, qarimi uning qonun-qoidalariga bo'ysunadi, bir-birlariga yordam beradi, to'y-maraka, hasharida birga bo'ladi. Shu sababli mahallaning turmush tarzi unda yashayotganlar tafakkurida o'ziga xos iz qoldiradi. Oila esa turli-tuman fe'l-atvorli odamlarning kichik jamoasidir. Tomchilar yig'ilib ko'l hosil qilganidek, oilalar jamul-jam bo'lib, jamiyatni hosil qiladi. Aynan shu maskanda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi.

Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog'liq. Zotan, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topgani kabi, oila ham

mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Sharq xalqlari, chunonchi, o'zbek xalqi shu narsani biladi, teran ma'no-mazmunini yaxshi tushunadi. Darhaqiqat, sharq xalqlari uchun muhim xususiyat xursandchilik kunlari ham, boshga ish tushgan onlarda ham bir-biriga hamdard va hamnafas bo'lishdir. Insonlar, ayniqsa yoshlar o'rtasidagi bunday bog'liqlik va hamjihatlikning muhim vositasi – mahalladir. “Bir bolani yetti mahalla tarbiyalaydi”, – degan maqol bejiz aytilmagan.

Mahalla birlashtiruvchi kuch bo'lib, Vatanning bir bo'lagi hisoblanadi. Mahallada yutuqlar, kam-ko'stlar ham qo'ni-qo'shnilarga ma'lum. Mahalla katta mamlakatning ichidagi kichik bir mamlakatdir, katta davlat ichra kichik davlatdir. Shuning uchun uning boshqaruv tizimi bo'lgani kabi, uning xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy faoliyat mexanizmi ham asrlar davomida shakllangan.

Ma'lumki, oila jamiyatning birlamchi bo'g'inidir. Jamiyat ana shu bo'g'inlardan tashkil topadi. Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir. Oilaning birinchi vazifasi o'zining nasl-nasabini davom ettirish, solih va soliha farzandlarni tarbiyalash, oila a'zolarining tirikchiligini, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishdan iboratdir. Oilada o'smirning ichki dunyosi, o'ziga xos xislatlari shakllanadi. Bu davrda ota-ona, ustozlar ular tarbiyasi bilan uzviy ravishda shug'ullanishlari lozim. Ularning bo'sh vaqtini kim bilan va qaerda o'tkazishini bilishlari, sog'ligi holatini nazoratga olishlari kerak. Shuni ham unutmaslik kerakki, kamolotga eltuvchi yo'l ma'rifat, shunga yarasha g'ayrat shijoatdir. Har bir xalq har bir avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xalq istiqbolini-taraqqiyotini va taqdirini hal etadi.

Yuksak ma'naviyatli va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala, ko'p millatli vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma'naviy merosimizning eng yaxshi an'analari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlari birlashadi, tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi. Xalqimiz irsiyatini boyitish,

ma'naviy jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bo'lmish komil inson shaxsi shakllanadi.

Yoshlarning ma'naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi - mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivoji ta'minlansagina O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rini egallay oladi. O'zbek oilasidagi milliy udumlar, an'analar, qadriyatlar, ajdodlarimizning bola tarbiyasi borasidagi o'g'itlari nihoyatda ibratlidir. Oddiy misol: O'zbek oilalarining aksariyatida katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan buvilar va buvalar tarbiyasi, kichiklarning kattalarga hurmat-ehtiromi, g'amxo'rliqi, ota-onani muqaddas bilishi odatiy fazilatlardan hisoblansa, ikkinchi tomondan, "Ustoz-otangdan ulug'" naqliga asosan ta'lim, ilm bergan kishiga nisbatan yuksak ehtirom saqlanib qolgan. Oila yoshlarni ma'naviy va jismoniy shakllantirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Aynan oilada o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi oliy darajadagi axloqiy-ma'naviy sifatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi.

3.3. Yoshlarda jamiyatdagi jarayonlar mexanizmi va jamiyat institutlari o'rtasidagi ijtimoiy tajribani o'rganishni shakllanishi

Ma'lumki, demokratik davlatda yoshlar o'zining haq huquqlari va ehtiyojlarini aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati orqali ro'yobga chiqara oladilar. Demak, yoshlar jamiyatning kelajagini ta'minlovchi ijtimoiy qatlamga aylanishi uchun bevosita davlatning alohida g'amxo'rligiga muhtojdir. Mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu holatni yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashuvi va qamrovini nihoyatda kengayib borayotganligida kuzatish mumkin. Fikrimizni yanada yorqinroq ifodalaydigan bo'lsak, yurtimizda yoshlar manfaatlarini ro'yobga chiqarish umummilliy davlat siyosatining markaziga aylangan.

Shu bois ham ushbu jarayonlarni mohiyatini jurnalistika, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish tobora dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining turli jihatlarini o'rganish, tadqiq qilish jarayonlari tegishli soha mutaxassisleri tomonidan amalga oshirila boshlandi. Shu bilan bir qatorda, ushbu masalani o'ziga xos jihatlarini jrunalistika va politologiyaning o'zaro uyg'unligiga tayangan holda o'rganish vazifalari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Jumladan, mamlakatimiz OAV faoliyatida yoshlarga oid siyosatning jamiyat hayotiga, xususan, yoshlarimiz tarfakkuriga singdirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirilishi, ularning samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq ko'pgina nazariy masalalarni hal qilish nihoyatda dolzarb mavzudir.

Hozirgi vaqtda davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, davlat o'z chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi.

Ikkinchidan, davlat – suveren hokimiyatning yagona sohibidir.

Uchinchidan, davlat – yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi.

To'rtinchidan, davlat – o'z vazifalari va funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizmdir.

Beshinchidan, davlat – qonuniylik va huquq-targ'ibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan, huquqni muhofaza qilishga ega bo'lgan yagona tashkilot.

Oltinchidan, faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Shu bilan bir qatorda mamlakat istiqbolini belgilovchi yoshlar masalasi uzviylik, muntazamlik, davomiylik, izchillikni talab etadigan siyosiy kategoriyadir. Ya'ni davlatchilik rivojidadagi har bir bosqichda mazkur masala ustuvor ahamiyatga

molik vazifalardan bo'lib qoladi. Chunki yoshlar davlat va xalq istiqbolining asosiy kuch va quvvati uning tamal toshidir.

O'zbekiston yoshlarining ijodiy intellektual zaxirasi, ijtimoiy, siyosiy salohiyati juda katta kuchga ega. Bugungi kundagi bosh vazifa esa – mazkur zaxiralarni rivojlantirish va demokratiya uchun safarbar etishdan iboratdir. Darhaqiqat, istiqbol yillarida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy maqsadlari yoshlarning konstitutsion huquq va erkinliklarini har tomonlama muhofaza qilish hamda ta'minlashga, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirishga, ularning o'z o'rnini topishlari uchun sharoitlar yaratib berishga, yoshlardagi iste'dod va tashabbuskorlikni rag'batlantirishga, yoshlar tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda¹.

Yoshlarning ta'lim, ziyolilik darajasi, intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi va shijoati, o'zgarishlarga tayyorligi jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasini belgilaydi. Shunday ekan, yoshlar va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'langan va uzviylik kasb etgan ijtimoiy-siyosiy voqelik bo'lib, yoshlar ongida hukm surgan kayfiyat va orzular bevosita jamiyatning kelajakdagi rivojlanish omillarini namoyon etadi.

Fuqarolik jamiyatining teng huquqli a'zosi, o'zining haq va huquqlarini qonunlar ijrosining kafolati bo'lgan davlat orqaligina ta'minlay oladi. "Davlat yoshlar oldida ularning fuqarolik huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha javobgar hisoblanadi. Yoshlar esa, o'z navbatida, kafolatlangan qonunlar ijrosi va jamiyatdagi faoliyati bo'yicha milliy taraqqiyot va tarixiy takomil oldida javob beradi".

O'zbekiston Respublikasidagi yoshlar siyosatiga asoslangan sa'y-harakatlar tizimi davlat va oila ustuvorligi, davlat va shaxs, davlat va fuqarolik jamiyati, davlat va milliy xavfsizlik, davlat va mafkuradan, shu bilan birga davlat va ta'lim-tarbiya, davlat va aholi salomatligi, davlat va xotin-qizlar, davlat va yoshlar kabi

¹ Каримов И.А. Концепция дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране/Дальнейшее углубление демократических реформ и формирование гражданского общества – основной критерий развития нашей страны/И.А.Каримов. – Ташкент: Узбекистан,2011.

o'zaro aloqador ijtimoiy-siyosiy voqealarning izchil, hamnafas va bir-birini to'ldiruvchi siyosiy kategoriyalardan iboratdir. Davlat o'z siyosatini amalga oshirar ekan, tabiiy ravishda, yoshlar qatlamini uning tayanchi va istiqbolini belgilab beruvchi asos sifatida qabul qiladi. zero, yoshlar davlatning eng muhim ijtimoiy-insoniy qadriyatlardan hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, «jahon va o'zining amaliyotidan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi». Albatta, mamlakat yangi bosqichiga qadam tashlagan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarni bajarish davlat rahbariyatidan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qiladi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalar tizimini yaratishni talab etardi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda shakllandi.

Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan biri jamiyatdagi barcha toifa kishilarini, xususan O'zbekiston aholisining qariyb 65 foizini tashkil qiluvchi yoshlarni Ona-vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashdir. Bu o'z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo qiladi.

Bu borada respublikada ko'rilgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishi ta'limni gumanitarlashtirish bo'ldi. Bu borada mamlakatda 1991-yil 17-sentabrda e'lon qilingan I.A.Karimovning «Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini, hamda, xalq ta'limi tizimini partiyadan xoli etish to'g'risida»gi Farmoni muhim qadam bo'ldi. Ushbu Farmonda: «Belgilab qo'yilsinki, respublika davlat apparati idoralarida va xalq ta'limi tizimida siyosiy partiyalar va harakatlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga bundan buyon yo'l qo'yilmaydi», – deb alohida ta'kidlandi. Farmonning ana shunday talabidan kelib chiqadigan xulosa shunda ediki, maorif va xalq ta'limini jahon amaliyotiga yaqinlashtirish ma'nosida uni yakka hukmron partiya g'oyalari yo'lini asoslashga xizmat qiluvchi mafkura ta'siridan xoli qilish edi. Darhaqiqat, respublikada avvalgi

kommunistik partiya mafkurasi uchun nazariy, ilmiy bilimlar manbai hisoblanmish ijtimoiy fanlarning oliy ta'lim tizimidagi roli va o'rniga yangicha munosabat vujudga keldi. Masalan, O'zbekiston respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish uchun respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi «Oliy ta'lim islohoti» Dasturini ishlab chiqdi. Ushbu Dasturning muhim qoidasi oliy ta'limni gumanitarlashtirishdan iborat edi. Jumladan, ushbu Dasturda «gumanitar ta'lim berish ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismidir va u o'zbek xalqining ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, o'zbek xalqi milliy ruhining asosi bo'lmish insonparvarlikni tarbiyalashga asoslanadi».

Albatta, yoshlarni yangilanayotgan demokratik, insonparvar jamiyatga munosib qilib tarbiyalash o'z navbatida ular ijtimoiy kafolatini ham ta'minlashni taqozo qiladi. Bu borada O'zbekiston istiqloлга erishgandan so'ng respublikada yoshlarning ijtimoiy kafolati uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosat ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 20 noyabrda bo'lib o'tgan sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Bu qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi belgilanib «Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijtimoiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkon boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan sharoitlar yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir», – deyiladi. SHuningdek, ushbu hujjatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan tashkiliy tadbirlar ham ko'zda tutildi. Qonun esa 1992-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Korxonalar, muassasa va tashkilotlar bu borada aniq amaliy tadbirlar belgiladilar. Respublikada qonunning bajarilishiga katta e'tibor berildi¹.

¹ «Ёшларга оид Давлат сиёсати». Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2016 йил.

O'zbekistonday yoshlar mamlakatida yoshlar siyosati, ularga katta ishonch sifatida qaralishi millat istiqboliga yuksak ishonch borligidan dalolat beradi.

XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan barcha voqealar mafkura poligonlarida bo'ladigan kurashlar yadro poligonlaridagiga nisbatan dahshatliroq ekanini namoyish qildi. Mafkura inson ma'naviy hayotiga ta'sir etuvchi targ'ibotning g'oyat katta axborot va tajribaga ega bo'ladigan mashinasi sifatida gavdalanadi.

Mafkuraviy targ'ibot-tashviqot "psixologik urush" sifatida odamlar aql-zakovati, ularning duyoni tushunish, hayotiy sotsial va ma'naviy niyatlari uchun kurash quroliga aylandi. Mafkura hozirgi hayotga faol kirib borishi bilan birga ijtimoiy hayotdan namoyon bo'layotgan ma'naviy kuchlarni oziqlantirmoqda, o'z sotsial tarbiyaviy salohiyatini doimiy orttirib bergani holda kishilarning ma'naviy turmushiga ta'sir etmoqda.

"Mafkura – ko'p qirrali va murakkab jarayonlardan tarkib topadi, binobarin undan yaxshilik va yomonlik maqsadlarida foydalanish mumkin. Mafkura siyosiy barqarorlikdan manfaatdor kuchlar uchun asosiy hayotni izdan chiqarish quroli, shuningdek siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun foydalanadigan kurash vositasi bo'lishi mumkin. Mafkuraning bunday ta'siri fiziologik va psixologik jihatdan xali shakllanish bosqichida bo'lgan yoshlarga aholining boshqa qatlamiga nisbatan ko'proq, sezilishi tabiiy hol, albatta. Chunki yoshlar ongi, tafakkuri, dunyoqarashida ma'naviy-ruhiy shakllanish jarayoni kechayotgani bois, ularda hayotga qiziquvchanlik, sharoitga moslashuvchanlik, ishonuvchanlik juda yuqori bo'ladi. Bu esa, yoshlarni osongina mafkura ob'ektiga aylantiradi, natijada yoshlar mafkuraning ilg'or rivojlantiruvchilari, harakatlantiruvchilari va kelajak avlodga etkazuvchi vorislariga aylanadi". Yoshlardagi bunday xususiyatlar reaksiya mafkuraviy kuchlarning yoshlar ongi va faoliyatida loqaydlik, beqarorlik urug'ini sochish maqsadlarida juda qo'l kelmoqda.

Siyosiy bo'xtonlarni tarqatish orqali yoshlarning ongi va shuurini zabt etib, qarashlarini ma'qul yo'nalishga o'zgartirib, ulardan har qanday yovuz niyatlarda, hatto o'z xalqi, Vataniga qarshi kurashlarda foydalanishga urinish reaksiya

mafkuraviy kuchlar dasturi samarasini ta'minlamoqda. Bunday mafkuraviy tazyiqning ta'siri va salbiy oqibatlarini ilmiy-texnikaviy inqilob shiddatli sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda aniqlash niyahotda mushkul. Bu yoshlardan mafkuraviy jarayonlarning progressiv va ularni birini ikkinchisidan ajrata bilishni talab etadigan murakkab, alohida o'rganish kerak bo'ladigan jarayondir.

Mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar maqsadini to'g'ri yoritish, uni soxtalashtiruvchilarini fosh etish huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatiga xos bo'lib, u jamiyat a'zolaridan, jumladan, yoshlardan yuksak siyosiy madaniyatni talab etadi. Zero, insonning siyosiy madaniyatini shakllantirmay turib, undan mafkuraviy xurujlarga ma'rifatli javob kutish amri mahol.

Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish orqali, ularga ilmiy, g'oyaviy, mafkuraviy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, jismoniy, ruhiy jihatdan o'stirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish", demakdir.

Shu o'rinda, "Mafkuraviy jarayonlarning progressiv va reaksiyon yo'nalishlarini bir-biridan ajrata bilish va ularning maqsadini aniqlashga yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish orqali erishilsa, o'z navbatida, yoshlarning siyosiy, madaniyatini shakllantirishda progressiv mafkura yuqori natijaga erishish manbai sanaladi. Ana shu jihatdan bu ikkala jarayon doimiy aloqada o'zaro ta'sirda, biri ikkinchisini shakllantirishda davom etadi". Demak, siyosiy madaniyatni shakllantirish mafkuraviy tarbiya samaradorligini oshiradi. Bu esa, siyosiy madaniyatni tobora shakllantirishga ko'maklashadi. Ayniqsa, siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirish, ularning ishonchli vakillari sonini ko'paytirish, saylov jarayonida ularga qo'shimcha huquq va vakolatlar berish, umuman, saylovchilarning huquqini kengaytirishni ko'zda tutadigan bu imkoniyatlar saylov tizimini yanada takomillashtirishga katta hissa bo'lib qo'shiladi, desak hech qanday xato bo'lmaydi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bunyod etilayotgan zamonaviy o'quv maskanlarida yoshlarning chuqur bilim olish, kasb egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Ta'lim jarayoni tubdan o'zgarimoqda. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilim olish salohiyati

inobatga olingan holda, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik usullar joriy etilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, ongini o'stirish, dunyoqarashini boyitishdir. Zero, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularda e'tiqod, vatan tuyg'usini kamol toptirish tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ushbu dasturning o'ziga xos bo'lgan jihati bo'lib hisoblanadi. Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish ko'zga tutilgan.

Hozirda, o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berish borasida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar xalqimizga xos xususiyat bo'lib, milliy tabiatimizning uzviy qismiga aylangan. Har bir oilada, har bir mahallada, eng avvalo, yoshlarning salomatligini ta'minlash, ularga yaxshi bilim berish, ayni paytda yuksak ma'naviy va ahloqiy fazilatlarga ega munosib shaxslar etib voyaga yetkazish azaldan muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida ushbu vazifalar O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va bu esa barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizning jahon maydonidagi nufuzi va raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga bog'liq. Shu sababli iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirishga, yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashini, ijodiy va shaxsiy xususiyatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Respublikamizning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'asis etilgan bo'lib, unga o'qishda, ijodiy va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishayotgan qizlar munosib ko'riladi. San'at sohasidagi yutuqlari uchun eng iqtidorli yosh raqqosalar, musiqachilar va xonandalarga "Nihol" mukofoti beriladi. "Yangi avlod" va "Kelajak ovozi" respublika tanlovlari

o'tkazilmoqda. Shuningdek, bir qator maxsus stipendiyalar ta'xis etilgan. Yoshlar salohiyatini rivojlantirish borasidagi bunday g'amxo'rlik o'z samaralarini berayotir. Bu, jumladan, har yili o'tkaziladigan Respublika innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasida yosh olimlar va talabalar tomonidan taqdim qilinayotgan istiqbolli yangiliklar soni tobora ortib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bandlik masalalari bo'yicha yoshlar mehnatini tartibga solishda O'zbekiston qonunchiligi keyingi paytlarda ayniqsa rivojlandi. Chunki, O'zbekiston – aholi soni jihatdan Markaziy Osiyoda eng katta mamlakat hisoblanib, o'ziga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tug'ilish, tabiiy o'sish darajasining yuqoriligi, aholining yosh tarkibi va boshqa belgilar rivojlanishning progressiv turini shakllantiradi.

Davlat yoshlar siyosati, siyosiy va iqtisodiy o'zgartirishlar sharoitida O'zbekiston demografik xususiyatlari, aholi mentaliteti, yosh avlodning taqdiriga bo'lgan an'anaviy munosabatlari, moddiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillar, yoshlarni jamiyat yangilanish jarayonlariga faol jalb etish zaruratini hisobga oladi.

Bunga esa O'zbekiston tanlagan rivojlanish modeli qudratli siyosiy omil bo'lib xizmat qiladi. U mamlakat hududida tarixan vujudga kelgan jamiyatning ko'p millatli tarkibini saqlash va mustahkamlash, xalqning boy axloqiy va madaniy merosini tiklash, rivojlantirish, an'analar davomiyligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida O'zbekiston fuqarolari - yosh avlodi bularning hammasini munosib merosxo'ri bo'lib, ularni o'zida mujassam etadi.

IV Bob. Ijtimoiy xavfli bolalar bilan ishlash

4.1. «Ijtimoiy xavf» tushunchasi

Ijtimoiy ishda xatar guruhidagi oilalar va bolalar muammosini o'rganishda "xavf" tushunchasi asosiy o'rin egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha madaniy muhit va ijtimoiy jarayonlar o'lchamida sodir etilgan yoki sodir etilish ehtimoli mavjud bo'lgan holat sifatida qayd etiladi. "Xavf" tushunchasi grekcha risikon – jarlik ma'nosini anglatib, asosan quyidagi mazmunda qo'llaniladi: bu – sodir bo'lish yoki sodir bo'lmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan kutilmagan salbiy imkoniyatdir.

Bugungi kunda xavfning turli ko'rinishlari fan va bilim sohalari tomonidan o'rganilmoqda. Psixologiya, iqtisodiyot (iqtisodiy xavflar), mehnat va aholi turmush tarzini himoyalash tizimi, ekologiya, pedagogika va ijtimoiy ish sohasi shular jumlasidandir.

Masalan psixologik lug'atda xavf, sodir etilganda omadsizlik yoki yo'qotish ehtimoli mavjud bo'lgan, o'ziga chorlovchi maqsadga qaratilgan xatti-harakat sifatida qayd etiladi.

Bu termin psixologiyada odatda uch mazmunda qo'llaniladi:

Faoliyatdagi omadsizlik oqibatida vujudga kelgan ko'ngilsiz holatlar natijasi;

Sub'ektga yo'qotish (yutqazish, travma va h.k.) tahdidini tug'diruvchi harakat;

Xatti-harakatning ikki turi o'rtasidagi tanlov: e'tibor jalb etmaydigan, ammo ishonchli; e'tiborni tortadigan, ammo natijasi ishonchsiz, ko'ngilsizliklar keltirib chiqaruvchi.

Sotsiologiyada xavf mavjud emas, balki tarixiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarni idrok etish orqali shakllangan dunyoqarashlar bor degan g'oya mavjud. G.V.Osipovning ijtimoiy lug'atida «xavf» – bu salbiy oqibatlari va natijasi mavhum bo'lgan situatsion xatti-harakat deb ta'riflanadi.

M.A.Gulining ijtimoiy ish lug'atida «xavf» – insonning salomatligi yoki rivojlanishiga muayyan sharoit yoki boshqa shaxslar xatti-harakatlarining salbiy ta'siri sifatida ta'riflanadi.

Ijtimoiy ishda “xavf” – bu mag'lubiyat yoki yetishmovchilik natijasida ijtimoiy ahvoli mo'tadil bo'lmagan shaxslarning vaziyat noaniqligini bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi.

Xavf guruhidagi shaxslar – ijtimoiy ahamiyatni yo'qotish yoki biologik o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan hayotiy qiyinchiliklarni yolg'iz yengib olish imkoni yo'q, ijtimoiy ahvoli barqaror bo'lmagan shaxslar hisoblanadi.

«Xavf guruhiga mansub» bolalar – turli ilmiy tarmoqlarning o'rganish predmeti hisoblanadi.

Psixologiya, pedagogika, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ishda «Xavf guruhi»ga mansub bolalar turkumiga kattalar va tengdoshlari bilan munosabatda nizolar kelib chiqadigan, ta'limda qiyinchiliklarni xis qiluvchi, aqliy rivojlanishi oqsaydigan, ijtimoiy moslashuvi qiyin bo'lgan bolalar kiradi.

Bolalarning xavf guruhiga mansub bo'lib qolishining turli salbiy etiologik ijtimoiy ildizlari mavjud. Asosiy sabablardan biri jamiyat va jinoiy elementlarining inson xayotiga salbiy ta'siriga qarshi bolada voyaga yetmaganligi sababli kurash immuniteti yo'qligidir.

Bolalardagi salbiy omillarni kamaytirish, ularni optimal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishda mutaxassislarining alohida e'tibori va kompleks yondashuvi talab etiladi. «Xavf» so'zi odatda istalmagan holda sodir bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan salbiy voqelik ehtimoli degan ma'noni anglatadi.

«Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida “ijtimoiy himoyaga muhtoj” bolalar tushunchasi qiyin xayotiy vaziyatda qolgan, davlat va jamiyat tomonidan maxsus himoya qilinishi talab etiladigan, shuningdek:

- nogiron odamlar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan;
- yetimlar;

- ota-ona qaramog'isiz qolgan;
- maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan;
- muqim yashash joyi bo'lmagan;
- kam ta'minlangan oilalar farzandlari;
- jinoyat sodir etgan va jinoiy jazoga tortilgan;
- zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli to'qnashuvlar va tabiiy ofatlar qurboni bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi.
- «Xavf ostida»gi bolalar - muayyan noqulay omillar ta'sirida biror bir salbiy vaziyatda qolgan bolalardir¹.

Pedagogik nuqtai nazardan «Xavf ostida»gi bolalar asosan, ruhiy va jismoniy salomatligi qarovsiz, uzoq vaqt davomida tarbiya berilmagan yoki noto'g'ri tarbiyalangan bolalardir.

Noto'g'ri tarbiya shakllanishining asosiy omillari - oilaning past madaniy darajasi, ota-onalarda pedagogik bilimning yetishmovchiligi, bolalar rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olishni istamaslikdir. Bunday bolalar aqliy, shaxsiy, intellektual rivojlanish sohalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar va tengdoshlari bilan yetakchi faoliyat bo'lgan muloqot yetarli darajada tashkilanmagan bo'ladi.

«Xavf ostidagi bolalar» tushunchasiga quyidagilar kiradi:

rivojlanishida muammolari mavjud, ammo klinik va patologik jihatdan sog'lom bolalar;

turli sabablarga ko'ra ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar;
kam ta'minlangan, asotsial oilalar bolalari;

Ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalar farzandlari;

Ijtimoiy, psixologik va ta'limga moslashuvchanligi bo'lmagan bolalar.

Asosiy xavf omili sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

¹ «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

Tibbiy va biologik (salomatlik ko'rsatkichi, irsiy kasalliklar, tug'ilish jarayonida orttirilgan kasalliklar, ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlar, ona kasalligi)

Ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-demografik (ko'p bolali va noto'liq oilalar, voyaga yetmagan ota-onalar, ishsiz oilalar, muhojirlar oilalari, muhojirlar).

Ijtimoiy-psixologik (oiladagi noto'g'ri tarbiya, pedagogik bilimsizlik, oilaviy mojaro, ijtimoiy muhit va boshqalardan begonalashish

Pedagogik (ta'lim muassasalari va ularning psixo-fiziologik xususiyatlariga o'rganish va boshqa bolalarga nisbatan aqliy rivojlanishi darajasi va tayyorgarlik sur'ati, ta'lim uchun motivatsiya yo'qligi,).

Bolalarning deviant xulqli bo'lishiga odatda ota-onalarning o'z bolaliklaridagi muammolari sabab bo'ladi. Asotsial oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda, odatda, o'zgalarni tushunish, xamardlik hissi bo'lmaydi, ba'zan bunday holat emotsional "kar"likni keltirib chiqaradi. Bu esa kelgusida bola tarbiyasida mavjud nuqsonlarni bartaraf etishda mutaxassislar aralashuvi jarayonida bolaning qat'iy qarshilik ko'rsatishiga olib keladi. Bunday bolalarda agressiya yuqori, o'z-o'ziga ishonch past bo'lib, bu ularning xayoti davomida saqlanib qoladi.

Salbiy psixologik omillar bolalar va o'smirlar rivojlanishida deviant xulqni keltirib chiqaradi. Ba'zi bolalarda - bu o'z joniga qasd qilish, jinoyat sodir etishga moyillik, fohishabozlik, giyohvandlikning turli shakllari orqali, boshqa xolda – bu psixiatrik kassaliklar natijasida, uchinchi holatda – kuchli va og'ir patologik holatlarda namoyon bo'ladi. Deviant xulq – bolalarning yoshligidayoq bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasining turli ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi. Masalan: boladagi dezadaptatsiyaning kechishi va tabiatidan kelib chiqib patogen, ruhiy-ijtimoiy va ijtimoiy turlarga bo'lish mumkin.

Patogen dezataptatsiya – markaziy asab tizimining funksional buzilishi natijasidagi asab kasalliklari, ruhiy rivojlanishdagi buzilishlar sababli yuzaga keladi.

Ruhiy-ijtimoiy dezadaptatsiya – bolaning yoshi va jinsining individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, rivojlanishida qaysarlik, to‘g‘ri tarbiya berilmaganligi sababli yuzaga keladi.

Ijtimoiy dezaptatsiya – boladagi o‘tish yoshida vujudga keladigan o‘smirlik inqirozi oqibatida vujudga keladi.

Bolalarning psixik jihatdan o‘shida ta’lim va tarbiya g‘oyatda muhim ahamiyatga ega. Bolalar psixikasining o‘shisi bilan ta’lim va tarbiyaning o‘zaro munosabati haqidagi masalalarni hal etishga urinayotgan nazariyalar hozirda ko‘p topiladi.

Ta’lim va psixik o‘shish bir-biriga yaqin va parallel holda boradi, ya’ni ta’lim-tarbiya bilan psixik o‘shish qadam-baqadam boradi. Bola bilan ishlaydigan o‘qituvchi, biologik omillar bilan emas, balki uning ijtimoiy oqibatlari bilan shug‘ullanadi. Bu bolalarning jamiyatda rivojlanishini va integratsiyasini amalga oshirish demakdir.

4.2. Ijtimoiy xavfli oilalar tipologiyasi

Insoniy qadriyatlar uchun eng muhim va yetakchi omillardan biri oila hisoblanadi. Inson rivojlanishiga biologik, ijtimoiy, hamda boshqa turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Lekin shaxs rivojlanishining asosiy ijtimoiy omili – oila.

Oila nafaqat insonga hayot beradi, balkim u oilada birinchi qadamni tashlaydi, birinchi so‘zlarni aytadi, ijtimoiylashuvdagi dastlabki tajribalarni amalga oshiradi, bu orqali orientatsiyasi va “men”i shakllanadi, o‘z qadriyatlarini o‘rganadi.

“Ijtimoiy xavf” tipologiyasi tushunchasi mavjud bo‘lib, bunga ob’ektiv yoki sub’ektiv sabablarga ko‘ra kiyin hayotiy vaziyatlarda qolgan, davlat tizimidagi ijtimoiy xizmatlar yordamiga va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar kiradi. Bunday oilalar:

qochoqlar va turar joyidan mahrum bo‘lgan oila;

ko'p bolali yoki o'z tarkibida alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan a'zosi mavjud oilalar;

o'z tarkibida alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan farzandi mavjud oilalar;

noto'liq oilalar;

harbiy tez yordam tizimidagi oilalar;

ishsiz oila;

harbiy – pudratchilar oilalari;

notinch hududlarda yashovchi oilalar.

«Xatarli oilalar» muammosi ham nazariy va ham amaliy jihatidan ijtimoiy ish ob'ekti hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda «muammoli oila» yoki «ijtimoiy xavfi oilalar» degan aniq ta'rifi yo'q. Shuning uchun turli manbaalarda “kam ta'minlangan”, “destruktiv», «disfunktional», «ijtimoiy xavfli vaziyatdagi» yoki «asotsial oila» tushunchasini uchratish mumkin. Shunday qilib, pedagogik nuqtai nazaridan «muammoli oila» – past ijtimoiy statusga ega bo'lgan, muayyan hayotiy funksiyasini bajarolmaydigan oiladir. Bunday oilalarda, bolaning ta'lim-tarbiya olishi qiyinchilik bilan amalga oshiriladi.

«Xavf ostidagi» oila – bu farovon bo'lmagan oila bo'lib, unda ikki turdagi xavf mavjud. Birinchi turdagi xavf – bu jamiyat uchun tahdid soladigan xavfdir. Bunday xavf turidagi oila o'zining qadriyatlari, tartib-qoidalari, bolalar tarbiyasidagi o'ziga xos assotsial yo'nalishi orqali jamiyatga tahdid soladi.

Ikkinchi xavf turidagi oilada oila a'zolarining, ayniqsa bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun yetarli sharoit bo'lmaganligi natijasida ijimoiylashuv jarayoni past oilalardir.

M.M.Buyanov fikricha, «... tarbiyadagi deffektlar- oilaning yomon turmush darajasi yoki farovonlik yo'qligi belgisidir. Oilaning farovonlik darajasini moddiy ta'minlaganlik, imkoniyatlar, turmush darajasi emas, balki bolaga bo'lgan munosabat belgilaydi»¹.

¹ Буянов, М.М. Ребенок из неблагополучной семьи: записки дет.психиатра: кн. для учителей и родителей / М.М. Буянов. – Москва: Просвещение, 1988.

L.Ya.Oliferenko quyidagicha ta'rif beradi: "... farovonlik bo'lmagan oilada bola doimiy noqulayliklarni, stress, zo'ravonlik, ezilish, beparvolik, ochlikni boshidan o'tkazadi..."¹

L.S.Alekseeva oilalarning muammo ko'rsatkichlaridan kelib chiqib oilalarni quyidagicha tasniflaydi²:

nizoli oilalar – konstruktiv muloqot bo'lmagan, o'zaro munosabatlar buzilgan oilalar;

pedagogik uquvi bo'lmagan oilalar – bunday oilalarda ota-onalar zarur pedagogik bilimga ega bo'lmagani bois, bolaning tabiiy rivojlanishiga zid bo'lgan tarbiyalash usullaridan foydalaniladi.

axloqsiz oilalar – asosiy axloq normalari va axloq qoidalariga nomuvofiq hayot tarzi, ichkilikbozlik mavjud oilalar;

asotsial oilalar – turmush sharoiti, sanitar-gigiena qoidalari, fiziologik talab normalari mavjud bo'lmagan oilalar.

"Xavf ostida"gi oilalarning yana bir turkumi bo'lib, ularga noto'liq va kam ta'minlangan (disfunktsional) oilalarni misol qilish mumkin. Ular bola tarbiyasidagi vazifalarini kuchli bosim ostida amalga oshiradilar.

Disfunktsional oilalarda zimmasiga yuklangan hayotiy vazifalarni bajarishda, quyi ijtimoiy maqomiga ko'ra, moslashuv imkoniyatlari sezilarli darajada kamayadi, oilada bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchilik bilan, sekin va natijaviylik darajasi past bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Bunday oilada muammolar quyidagi sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin:
ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi inqirozning bevosita oilaga o'tkazgan ta'siri;
qiyin moliyaviy vaziyat;
tarbiyadagi turg'unsizlik va ziddiyatlar;
ota-onalarning asotsial xulqi;
o'zaro beparvolik, oila a'zolari o'rtasida bir-biriga qiziqish yetishmasligi.

¹ Олиференко, Л.Я. Социально-педагогическая поддержка детей группы риска: учеб.пособие / Л.Я. Олиференко и др. – Москва: Академия, 2002.

² Алексеевой Л.С. Неполные семье в трудной жизненной ситуации // Отечественный журнал социальной работы. – 2009. - № 2.

Notinch, farovon bo'lmagan oilalarda, asosan, ota-onalardan birining psixoaktiv (ichkilik, giyohvand moddalar va h.k) moddalarga ro'jo' qo'yganligi ko'p uchraydi. Ichkilikbozlik va giyohvandlikka muhtalo bo'lgan insonlar o'z yaqinlari va oila a'zolariga ziyon yetkazadilar. Bunday oilalarda bolalar hayoti og'ir, chidab bo'lmas holda bo'lib, ular tirik ota-onalari bo'lgan holda ijtimoiy yetimga aylanadilar.

Ota-ona o'rtasidagi doimiy janjal va kelishmovchiliklar, mavhumlik bolalarning zarur hayotiy tajriba orttirmasligi, fikrlash imkonining yetishmasligi chuqur psixologik travmaga olib kelib, hayoti davomida o'z aksini ko'rsatadi.

O'zaro aloqalar, konstruktiv munosabatlar buzilgan oilalarda nikoh tuzilgandan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng er-xotinning oilaviy mojarolarini hal qilishga konstruktiv bo'lmagan holda yoki halokatli tarzda yondashish holati kuzatiladi.

Oila muammosini bartaraf qilish uchun juftlar o'rtasida konstruktiv muloqot o'rnatishdan ko'ra ma'qul chora yo'q. Shuning uchun juftlardagi muloqot o'rnatish qobiliyati va aloqa ko'nikmalari, madaniyatli munosabatlar oila hayotiyliigi va barqarorligini belgilaydi, mojarolarni muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchilik va janjallar guvohi bo'lgan bolalar kelajak hayot uchun salbiy tajribalar orttirib boradi. Kelishmovchiliklar jarayonida bola o'zi haq deb hisoblagan tarafni tanlaydi. Ota yoki onaga nisbatan paydo bo'lgan salbiy munosabat nafratga aylanib, uning murg'ak qalbida chuqur iz qoldiradi. Bu esa bolaning nafaqat ota-onasiga, balki atrofdagilarga nisbatan ham agressiv munosabatda bo'lishiga olib keladi.

Ijtimoiy ishning yana bir ob'ekti bo'lgan noto'liq oila – ota-onalardan birining o'rnini bobo, buvi egallagan yoki bir, bir necha kichik bolalar bilan bitta ota-onadan iborat oilalardir. Ota-onalardan birining yo'qligi tufayli, bir ota yoki ona tomonidan barcha moddiy va kundalik oilaviy muammolar hal qilinib, farzandlarga bir o'zi g'amxo'rlik qilishi talab etiladi.

Ko'p farzandli oila – bir oilada uch yoki undan ko'p bolalar tarbiyalanadigan oila. Katta oilalarda bolalarning fiziologik, ma'naviy va jismoniy rivojlantirishga byudjet resurslari etarli bo'lmaydi. Bunday oilalarda katta farzandlar tez ulg'ayib, ota-onalaridan xissiy jihatdan yiroq bo'ladilar.

V.V.Yustitskis oilaviy ittifoqlarni quyidagicha tasniflaydi: «badgumon oila» «yengiltak oila» va «makkor oila»¹.

«Badgumon oila» – bunday oila a'zolari atrofdagi barcha insonlarga ishonchsizlik, taxlika, xavfsirash hissi bilan munosabat bildirib, qarindoshlar, qo'shnilar, tanishlar bilan yaqin munosabatlar o'rnatmaydilar.

«Yengiltak oila» – bunday oila a'zolari bugungi kun tashvishi bilan yashaydi, kelajakka befarq munosabatda, ertangi kunga qayg'urmaydilar. Ularda aniq rejalar bo'lmaydi, qisqa muddatli xursandchiliklar asosiy qoida bo'lib, hatto kimdir xayot tarzini o'zgartirish istagi bulsada buni qanday qilib amalga oshirish haqida jiddiy o'ylamaydi.

«Makkor oila»larning asosiy xususiyati – bu o'z maqsadlarga erishishda tadbirkorlik, omad va mahorat qo'llay olish, qisqa muddat va kam mehnat, minimal xarajatlar orqali, oson yo'l bilan muvaffaqiyatga erishish qobiliyatidir. Bu oila a'zolari faoliyati qonunga zid, shubhali turda amalga oshiriladi.

4.3. Ijtimoiy xavfli oilalar bilan ishlash

Bugungi kunda oila bilan ishlashning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Ko'pchilik uni oilaviy terapiyaga tenglashtiradi va hatto oilaning barcha yoki bir necha a'zolarini bir butun holda ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan alohida usullar bilan cheklaydi. Biroq hiyla keng ma'noda oilalar bilan amaliy ish olib borish kelajak nuqtai nazaridan belgilanadi.

Oila bilan ishlashni insoniy mavjudotga ularning yaqin va ancha keng muhiti bilan munosabatlari doirasida yondoshish, ularning yordamga bo'lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish sifatida ifodalash mumkin. Bunday yondoshuv

¹ Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. – СПб. 1999.

diqqat markaziga oilani qo'yadi va uni "qiziqishning yagona predmeti" sifatida ta'kidlaydi. Bu aslo alohida inson nimagadir bo'ysunishi kerak degani emas, bu hatto ijtimoiy ishchi butun oila bilan shug'ullanishi lozim degani ham emas. Bu insonni tushunish va unga shu insonning o'zi bir bo'lagi bo'lgan yaqin insonlarining umumiy tizimi kontekstida yordam ko'rsatish mumkin, deganidir. Bunday tizimning eng muhimi, odatda, oila bo'ladi. Oila bilan ishlash faqatgina oila va uning a'zolari, oilaviy turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi muhitni o'rganish bilan cheklanmaydi. U nafaqat oddiy odamlar uchun, balki oila mansub bo'lgan yirik ijtimoiy kuch va tizimlar uchun ham ahamiyatli bo'lgan odam, oila va yaqinlarining o'zaro munosabati birmuncha muhim ekanligini ko'zda tutadi. Shuning uchun u umumiy xarakter kasb etadi.

Oila bilan ishlovchi mutaxassis ko'p vazifalarni bajarishi va turli darajadagi tizimlar bilan ishlashi mumkin. Oila bilan ishlash sog'liqni saqlash, psixik salomatlik, bolalar farovonligi, gerontologiya, huquqiy tizim, mehnat faoliyatini qamrab olgan holda ijtimoiy ishning turli sohalarida olib borilishi mumkin.

Oila muammolari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy ishchi "shaxs va oilaviy muhit"ni asosiy ob'ekt sifatida e'tiborga olsa-da, biroq vaziyatni baholash jarayoni va aralashuvda birinchi o'rinda oila yoki mijozning ijtimoiy muhitini inobatga oladi. Har qanday oilada tarixiy, tuzilmaviy, ekologik, kommunikativ va hatto afsonaviy jarayonlar bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Ijtimoiy ishchilar ba'zi mezonlarga asoslanganicha ushbu holatda qaysi aspektlarga e'tibor qaratish lozimligini va oila bilan ishlash jarayonida bir aspektdan boshqasiga urg'u berishni qachon ko'chirishni tanlashlari mumkin. Biroq ijtimoiy ishchi muntazam ravishda o'z ishining sifati va izchilligini kuzatib borishi zarur.

Oila va ijtimoiy faoliyati sohasidagi E.Auersu-eld (1968, 1971), K.Djermen (1973,1979), E.Xartman (1978), K.Meyer (1970) kabi mutaxassislar va boshqalar ishlab chiqqan ekologik tamoyillar hamda konsepsiyalardan kelib chiqqan bu yondoshuv oila va uning atrof-muhiti bilan o'zaro aloqasi to'g'risida o'zgaruvchan tasavvur yaratishga yo'naltirilgan.

Aralashuv strategiyasida e'tibor asosan atrof-muhitni o'zgartirishga jalb etilishi kerak, oila a'zolari orasida – mavjud imkoniyatlardan foydalanish va yangi imkoniyatlar, brokerlar xizmati, oqlovchilar, shuningdek, oilalarga atrof-muhitdan eng yaxshi tarzda foydalanishga yordamlashadigan mutaxassislarni izlash kabi jihatlari muhimdir. Ijtimoiy ishchilarning ma'lumotlariga muvofiq (E.Pinderxyuz, 1985; B.Solomon, 1976) oxirgi yillarda ko'pchilik oilalar hayotidagi asosiy muammo himoyasizlik, zaiflik hisoblanadi. Oila bilan ekologik ishning asosiy maqsadi oila va uning muhiti orasidagi munosabatda o'zgarish hosil qilish, ya'ni oila a'zolari o'z hayotlarining asosiy sohalari ustidan nazorat va katta hukmronlikka ega bo'lishlari hisoblanadi.

Masalan, ba'zi yomon uyushgan oila ko'pincha xuddi shunday – yomon uyushgan borliq va vaqtda yashaydilar. Mutaxassis oila va uning muhiti orasida turg'un o'zaro munosabat mavjudligini aniqlab, oilaga uning atrofidagi tizimga quyidagi tarzda ta'sir ko'rsatishda yordamlashishi mumkin:

noteng yoki javobsiz munosabatni oshkor etib;

xizmatlar to'g'risidagi muzokaralarni olib borib;

boshqa odamlar va ijtimoiy muhit bilan potensial tarzda murosa qilmaydigan zaif yoki noteng aloqalarni mustahkamlab;

oilaga uni o'rab turgan jamiyat va odamlarning afzalliklaridan foydalanishda yordam berib, masalan, vaqt va imkoniyatni rejalashtirish;

oila va oiladagi kelishuvni muayyan oilaviy tamoyillar asosida mustahkamlash.

O'rganishda yana bir muhim yo'nalish oilada saqlangan avlodlar orasidagi aloqalar tizimi hisoblanadi. Inson va uning bugungi kundagi oilasiga ko'p hollarda shu aloqalar ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqilsa, bu ta'sirlarni o'rganish oilaning bugungi holati va hayotidagi muammolar sababini yuzaga chiqaradi. Keyin avlodlar orasidagi aloqalar va ularning imkoniyatlari oilada ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga safarbar etilishi mumkin. Avlodlar orasidagi aloqalar to'g'risidagi axborot genogramma orqali o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. U oilaning bor tarixi, qondoshlik aloqalari aks etgan oilaviy xarita hisoblanadi. Xarita

mukammal tuzilganda, u bo'yicha oila hayotidagi barcha asosiy hodisalarni kuzatish imkonini beradi.

Genogramma turli avlodlarning e'tiqodlari va qarashlari, hayotiy tamoyillari va oilaning atrof olamga qarashi tizimini aks ettiruvchi so'rovnoma usuli bilan yaratiladi va kengaytiriladi. Etnografik tadqiqotlar usuliga o'xshab so'rovnoma usuli oila a'zolarini o'zlari va o'z olamlarini anglashlarida yordamlashuvchi oilaviy madaniyatni bilish va qo'llab-quvvatlashga undashi lozim. Bunday so'rovnomalar ushbu oilada ustuvor va hatto faqat bu oilaga tushunarli bo'lgan muloqotning o'ziga xos tili hisoblanuvchi oilaviy afsonalar, rivoyatlar, tamoyillar, ba'zi ramziy harakatlar, shuningdek, fikrlash tarzi va e'tiqodlarni diqqat bilan tadqiq etish imkonini berishi mumkin (Dj.Leard, 1984). Garchi tadqiqotning bu aspektlari har qanday oila uchun foydali bo'lsa-da, ular ijtimoiy ishchi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki bu tadqiqotlar orqali hayotiy pozitsiyalar, har bir oilada deyarli turlicha bo'lgan qadriyatlar tizimi to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Er-xotin juftligi, oilalar yoki odamlarning bir butun guruhi bilan ishlovchi ijtimoiy ishchilar ularga tadqiqotchi, ba'zida esa o'z shaxsiy oilalari genealogiyasining eksperti bo'lishlariga yordamlashadilar. Oilalar afsonalar, rivoyatlar, o'z oilasining sirlarini o'rganadilar, tarixiy xatolarni fosh etadilar va h.k. Bu turdagi tadqiqotlar natijasida mijozlar oila ichidagi mavjud munosabatlarni qanday o'zgartirish mumkinligini belgilaydilar. Ijtimoiy ishchi mijozlarga axloqning turli imkoniyatlarini o'rganishda yordamlashadi, oila a'zolari bilan munosabatni o'zgartirishning turli strategiyalarini taklif qiladi, qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi va natijasini kuzatishga ko'maklashadi.

«Ekoxarita» – Attenev (Atteneave, 1976) va Xartmanlar (Hartman, 1979) tomonlaridan taklif etilgan texnika. Uning maqsadi – oilani sxematik tasvirlash va uning ehtiyojlarini hamda boshqa oilalar, ijtimoiy tashkilotlar va institutlar bilan aloqalarini o'rganish.

Ekoxaritani tuzish uchun mijozlar atrofida haqiqatda oilaviy muammolarni hal qilishda yordam ko'rsatishlari mumkin bo'lgan, ammo oila turli sabablarga

ko'ra ularga murojaat etmagan insonlar (qarindoshlari, qo'shnilari, hamkasblari) borligini aniqlab olish kerak. Bu oilaga yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar – o'qituvchilar, ijtimoiy xodimlar, shifokorlarga ham taalluqli – ular odatda bir-birlariga ishora qiladilar, ammo hech qachon uchrashmaydilar. Oilaning tashqi dunyo bilan munosabatlari xaritasini tuzishda mijozlar uchun hissiy muhim, shu jumladan, hozirda yonlarida bo'lmagan insonlar aniqlanadi. Mijozlarda bu emotsional qiyinchiliklar tug'dirsa va «ahamiyatli boshqalar» ro'yxatini tuzishdan ko'ra ancha ahamiyatli boshqa narsadan iborat bo'lsa ham oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'rganilishi mumkin. Agar oila a'zolari ijtimoiy ishchi ularning munosabatlari murakkabligi va chalkashligini tushunayotganligini anglab etsalar, ular o'z hayotlari to'g'risidagi ko'ngillaridagi fikrlarini unga bajonidil aytib beradilar.

Oilaning ekoxaritasini tuzar ekan ijtimoiy ishchi u bilan birlashadi, uning a'zosi bo'lib qoladi, go'yo oila bilan bir umumiy loyiha ustida ishlaydi.

Alohida e'tiborni talab qiluvchi yana bir yo'nalish oila tizimining zamonaviy holati hisoblanadi. Mijozning muammosini aniqlash, ularni yechish lozim bo'lgan muddatlarni belgilash uchun ijtimoiy ishchining tajribasi va nazariy bilimlari bilan bir qatorda, oilaning ehtiyoji, tajribasi, madaniy darajasi, qanday sinfga mansubligi, ijtimoiy xizmatlar bilan aloqasi, oilaning tuzilmasini inobatga olish zarur. Oiladagi o'zgarishlar zaruriy hisoblanadi, agar:

oila yomon uyushgan;

oila va atrof olam yoki oila a'zolari, turli avlod, turli jins vakillari orasida kerak bo'lmagan yoki noto'g'ri chegaralar mavjud;

oilada ierarxiyaning parchalanishi kuzatilsa;

noan'anaviy uchburchak yoki ittifoq yaratilgan, masalan, agar bola er-xotinlik tizimida kattalardan birining o'rnini bosayotgan bo'lsa.

Odatda, oila va er-xotin juftligi muammosiga yechim topishda, oiladagi o'zaro munosabat va muloqotga alohida e'tibor qaratish orqali yordam berish mumkin. Qat'iy tartibli yoki oila a'zolaridan biri ekstremal, shafqatsiz axloqli bo'lgan oiladagi vaziyatni o'zgartirish uchun murakkab yondoshuvlar zarur.

Oila tizimi uning tuzilmaviy, tashkiliy va kommunikativ tomonlarini kuzatish va boshqa usullar yordamida baholanadi. O'z faoliyatining asosiy sohasi oila deb hisoblovchi ijtimoiy ishchilar mijozlar bilan muloqotda oilaviy aloqalarning stereotipiga ta'sir ko'rsatishga xarakat qilar ekanlar, mijozlar bilan rasmiy uchrashuvlarda va uyga tashrif buyurishda ham faol va insoniy bo'lishga intiladilar. Ijtimoiy ishchining muammoga yangicha yondoshuvi oilani tashvishga soluvchi holatga oila a'zolari tomonidan boshqa jihatdan yondashishiga undaydi.

Oila a'zolari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish natijasida oiladagi munosabatlar to'g'risidagi mavjud tasavvurlarni shubha ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan yangi axborot aniqlanadi. Doiraviy yoki tizimlashtirilgan so'rovnoma texnikasi yuzaga kelgan muammolarga munosabatni o'zgartirishga yordamlashadi. Agar dastlab muammoni anglash bir odamning simptomlariga asoslangan bo'lsa, bunday so'rovnomadani keyin oila a'zolarining bir birlariga munosabati va muloqot kabi aspektlar inobatga olinadi, shuningdek, oilada kelishuvga erishishga yordamlashuvchi yo'llar aniqlanadi. Muammo oilaviy o'zaro munosabatlarning murakkab tizimi sifatida ifodalanadi. So'rovnomalar oila ichida o'zaro munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi va kelgusida muammoga hamda oila amal qilgan qoidalarni o'zgartirishga olib keladi. Ijtimoiy ishchi, masalan, oila a'zolariga ushbu oilaning o'ziga xosligidan foydalanganicha ularning hayotlaridan ba'zi sahnalarni o'ynashni taklif qiladi va shu bilan mijozlar shaxsiy tajribalarida o'z oilalarining hissiy muhitini o'rganadilar. O'zaro munosabatlar tizimini o'rganish doiraviy so'rovnomaga javobda ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ishchi o'z mijozlaridan muayyan vazifani mashg'ulot vaqtida bajarishni iltimos qilishlari yoki bu vazifani uyga topshiriq qilib berishlari mumkin. Bu usul, odatda, oilaning tuzilmasi va tashkillashuvini o'zgartirish uchun qo'llanadi.

4.4. Ijtimoiy xavfli oilalar va bolalarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy ish xodimlarining vazifalari

Ijtimoiy ish xodimlari bolalarni himoyalash va oilaga yordam ko'rsatish tizimida turli vazifalar va rollarni bajaradilar. Ushbu mavzuda biz ijtimoiy ish xodimlari kasbiy faoliyatlarini amalga oshiradigan faqatgina ba'zi rollarni ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy ish xodimi – keys-menejer sifatida.

Ijtimoiy ish xodimlari bolalar va ularning oilalariga yordam ko'rsatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi biror-bir tashkilotda ishlar ekanlar ularga biriktirilgan ishlar ma'lum sonini bajarib boradi. Birinchidan, ijtimoiy xodim aniq bir holatni boshqaruvchi keys-menejeri rolini bajaradi: baholaydi va zarur bo'lgan holatlarda boshqa xizmatlarga yo'naltiradi, ularga aralashadi, oilaga kuchli tomonlarini aniqlash hamda resurslarni izlashni amalga oshirishga yordam ko'rsatadi, oila a'zolari va ularning atrofida gilar bilan o'zaro aloqada bo'ladi, ular bilan hamkorlikda harakatlar rejasini aniqlaydi, ularni amalga oshirilishini kuzatib boradi va oilalar bilan ishlash samaradorligini baholaydi. Agar ijtimoiy xodim oilalarda shafqatsiz va e'tiborsiz munosabatlarini boshdan o'tkazgan yoki ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ishlashi kerak bo'lsa, bu holda ularning vazifasi shunday bolalarni himoyalash va qarindoshlari, foster oilalariga joylashtirish hisoblanadi. Agar oilaga joylashtirish shakllarining birortasi ham mumkin bo'lmasa, unda bolalarni institutsional muassasalarga vaqtinchalik joylashtirish bilan shug'ullanadilar. Shunday qilib, keys-menejer sifatida ijtimoiy ish xodimining asosiy vazifasi bola va uning oilasi bilan bog'liq muammo yuzasidan unga qilingan murojaat yoki hodisani, murojaat qilingan kundan to ish tugatilgunga qadar olib borish hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida olib borilishi mumkin bo'lgan ishlar soni ishning murakkabligi va tashkilotning ichki qoidalariga bog'liq bo'ladi.

Keys-menejer rolini bajarib borar ekan, ijtimoiy ish xodimi qator boshqa vazifalarni ham bajarib boradi.

Ijtimoiy ish xodimi – ijtimoiy xizmatlar vositachisi sifatida. Agar baholash amalga oshirilganidan so'ng bolaga/oilaga qo'shimcha xizmatlar (tibbiy, yuridik, psixologik, ta'lim va shu kabilar) ko'rsatilishi zarurligi aniqlansa, ijtimoiy ish

xodim uni tegishli xizmatlarga yo'naltirishi mumkin. Shunday holatda ijtimoiy ish xodimi mijozga yaqin bo'lgan tumanda taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar «bozorini» (turi) yaxshi bilishi kerak. Bu ijtimoiy xodimning qo'li ostida har doim ushbu tumanda faoliyat yurituvchi ijtimoiy xizmat ham davlat, ham jamoatchilik tashkilotlari haqidagi ma'lumotlar bo'lishi kerakligini anglatadi. Misol uchun, agar nogironlikka ega bo'lgan bolasi bor oila bilan ishlash davomida, ota-ona tomonidan faqatgina bolaning ta'lim olishi uchun yetarli ta'minotni amalga oshira olmayotganligi sababli bolani ixtisoslashtirilgan internatga joylashtirmoqchi ekanliklari aniqlansa, unda ijtimoiy ish xodimi ularni, nogiron insonlarga qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi jamoatchilik tashkilotlari bilan bog'lashi mumkin. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar oilaga nogiron oila a'zosini kasbiy ta'lim berish va ishga joylashtirish xizmatlarini ham taqdim etishlari mumkin. Vositachi rolini bajarib ijtimoiy ish xodimi bir tomondan o'z mijozlari uchun jamiyatda mavjud xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Boshqa tomondan u bolalar va ularning oilalariga majmuaviy yordam ko'rsatish maqsadida turli tashkilotlar va xizmatlarning o'zaro aloqalarida o'z ifodasini topuvchi multiagentlik yondashuvini rivojlantiradi, shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini muvofiqlashtiruvchi markaz hisoblanib qoladi¹.

Moslashish ko'nikmalarini o'rgatish roli.

Ushbu rolni ijtimoiy ish xodimi odatda institutsional muassasalarning bitiruvchilari mustaqil hayot boshlashlari kerak bo'lgan vaziyatlarida yordam ko'rsatish maqsadida bajaradi. Ushbu holatda ijtimoiy ish xodimi ularning hayot ko'nikmalari, ro'zg'or harajatlari, munosabatlar ko'nikmalari, ish izlash va boshqalarga, umuman olganda, jamiyatda o'z o'rnini muvaffaqiyatli egallashga va hayotiy qiyinchiliklarni o'zlari yengishga o'rganib olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga o'rgatadi.

Ko'pincha mijoz (bola va uning oilasi) bilan ishlash davomida mijozlarni ma'lum sohalarda ma'lumotlarini, xabardorliklarini oshirish zaruriyati yuzaga

¹ Павленок П. Д., Руднева М. Я. Технологии социальной работы с различными группами населения: Уч. пособие/ Под ред. проф. Павленка. – Москва: ИНФРА-М, 2010.

keladi. Ushbu holatda ijtimoiy ish xodimi maslahatchi rolini bajaradi. Misol uchun, ijtimoiy ish xodimi mijozlarga ota-onalik ko'nikmalarini rivojlantirish va bolalarning ehtiyojlari, turli yosh bosqichlarida bolalarning rivojlanishlari xususiyatlari, bolalarga shafqatsiz va e'tiborsiz munosabatda bo'lish va shunday vaziyatda qolgan bolalar muammolari, ularni himoya qilish bo'yicha maslahatlar berishi mumkin. Bunday harakatlar ushbu oila bilan ishlashning boshqa jihatlari bilan birgalikda bolaning va umuman oilaning farovonligini oshirishga imkon beradi. Ba'zida mijoz o'z xulqini tuzatishi, noo'rin harakatlari, hayajonlarini pasaytirish va yaxshi xulqini rivojlantirishida ijtimoiy ish xodimining maslahatchi-psixoterapevt sifatida jiddiy aralashuvi talab qilinadi. Maslahatchi rolini bajarar ekan ijtimoiy ish xodimi inson xulqi sohasida bilimlarga ega bo'lishi, mijozlar xulqini tuzatish bo'yicha individual yoki guruhli ishlar olib borishning psixologik texnikasini qo'llay olishi (misol uchun, psixodinamik yoki kognitiv-bixevioristik), ma'lum darajada universal bo'lishi kerak.

Ijtimoiy ish xodimi amalga oshiradigan vazifalardan maslahatchi roli psixolog roliga o'xshash. Biroq mana shu ikki kasblar – ijtimoiy ish va psixologiya o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Ushbu tafovut mijoz bilan ishlashning psixologik usullaridan foydalanishda individual yondashuvga asoslangan bo'lib, unda insonning funksiyalari buzilishi sabablari shaxsning o'zidan yoki uning psixik rivojlanishidan izlanadi. Ijtimoiy ishda esa mijoz bilan ishlashda «inson muhitda» (person-in-environment) tamoyili asosiy hisoblanadi va faoliyatidagi buzilishlar sabablari individuumsdan tashqarida bo'ladi yoki hech bo'lmaganda, ijtimoiy muxit bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv ijtimoiy ish xodimining roli – ijtimoiy o'zgarishlar agenti roli bilan amalga oshiriladi. Bu yerda ekotizimli model asosiy hisoblanadi, unga binoan inson o'z-o'zidan alohida qaralmaydi, balki ijtimoiy atrof-muhitda bo'lgan inson kabi qaraladi, bunda oila, yaqin insonlar, turli ijtimoiy institutlar (misol uchun, maktab), mahalla, ijtimoiy xizmatlar va shu kabilar atrof-muhit deb tushuniladi. Shunday qilib, ekologik tizimning umumiy ijtimoiy mazmuni oila yoki bola faoliyatidagi mumkin bo'lgan buzilishlarni ifoda etadi. Jamiyat tomonidan xavf ostida bo'lgan oilalar, nogiron bolalar va boshqa

zaif guruhlarga bo'lgan salbiy yondashuv ularning zaifliklari sababi bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ularning ehtiyojlarini qondirishlari uchun imkoniyatlarni pasaytiradi. Mana shu mazmunda munosabatlarning o'zgarishi va salbiy fikrlardan voz kechish oila va bolaning farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy o'zgarishlar agentlari hisoblanib, zaif va marginal guruh insonlariga nisbatan jamiyatda mavjud noto'g'ri va odatiy fikrlarni pasaytirish maqsadida reklama kompaniyalari va ta'lim dasturlari orqali jamiyatning xabardorligini oshirishga intiladilar.

Ijtimoiy ish xodimining barcha vazifalari o'zaro uzviy bog'liqdir. Masalan, keys-menejer rolini bajarar ekan, ijtimoiy xodim bir vaqtning o'zida ham maslahatchi, mumkin bo'lgan ijtimoiy xizmatlarni topishda vositachi, o'z mijozlarining jamiyatga moslashishlari va o'z o'rinlarini egallashlari uchun ko'nikmalar o'rgatuvchi hisoblanadi. Umuman olganda, aytib o'tilgan rollar va vazifalarni bajarar ekan ijtimoiy ish xodimi jamiyatda ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga yordam ko'rsatadi.

Ijtimoiy ish xodimi kasbi mazmuniga ko'ra yangi hisoblanmaydi, chunki bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida ishlovchi ko'pchilik amaliyotchilar ijtimoiy ish xodimining u yoki bu vazifalarini bajaradilar. Biroq ularni kasbiy qayta tayyorlash talab etiladi, bu tayyorgarlik davomida ijtimoiy ish nazariyalari, metodlari, qadriyatlar va etika tamoyillariga asoslangan yangi bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Ijtimoiy ish xodimining alohida belgilangan rollari va vazifalarini anglab etish hamda o'zlashtirish orqali bolalar va oilalar bilan ishlashda ma'lum tajribaga ega amaliyotchilarni, yangi mahorat mutanosibli (professional birligi) ni shakllantirish talab etiladi.

V Bob. Assotsial xodisalarni oldini olish va yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish

5.1. Deviantlik tushunchasi va deviant xulq-atvor turlari

Pedagogikaning asosiy mezoni-tarbiya. Tarbiya – ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs axloqiy hislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Biroq, bu tarbiya jarayoni har doim ham yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak ularning shakllanish jarayoni masalan, otaga, onaga bo'lgan g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak munosabatlar shakllanmagan, ya'ni unga zarur bo'lgan ijtimoiylashuvda qandaydir mos hislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hislatlar shakllangan bo'lishi kerak shuni o'zi ijtimoiy tarbiyaning vazifasidir. Ya'ni ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi hislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushiniladi.

Tarbiyasi «qiyin» o'smirlar anomalligi o'qishda (o'qishi qiyin, dangasa) va xulqida (intizom va tarbiyaga rioya qilmaydi) namoyon bo'ladi. «Qiyin bolalar» - jamiyatga zid yo'nalishdagi, beqaror axloqli, irodasi bo'sh, pedagogik ta'siriga doim qarshilik ko'rsatib keluvchi yoshlardir. Maktab miqyosida ular ko'p uchramaydi (bir sinfda ikki, uchtadan). Ammo sinf, maktab hayotiga, uning axloqiy muhitiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. «Qiyin» bolalar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham ular o'quv-tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladilar. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va h.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham «qiyin» bolalar maktabda ham, undan tashqarida ham o'qituvchi va barcha jamoat e'tiborida turishi kerak.

Tarbiyasi qiyin bo'lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik sabab va omillarni besh guruhga ajratish mumkin¹:

1. Noqulay oilaviy muhit, ota-onalari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.
2. O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan so'vib ketishi (60 – 70 % voyaga yetmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil o'qigan).
3. Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay holat mavjud.
4. Mikro muhitning salbiy ta'siri, salbiy referent guruh ta'siri.
5. Biror faoliyat yuzasidan o'z moyilligini, qiziqishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.

Jamiyat tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan o'smirlarni og'ir yoki tarbiyasi qiyin yoki tarbiyasi og'ir o'smirlar deb atashadi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar deganda turli xil sabablarga ko'ra pedagogik ta'sirlarga qarshi chiquvchi bolalar tushuniladi. Jamiyatda o'rnatilgan me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan shunday tarbiyasi og'ir o'smirlarni ilmda devyatsiya deb atashadi.

Deviant xatti-harakat – bu psixik sog'lom shaxslar tomonidan me'yoriy qoidalarni buzish hollaridir.

Devyatsiya – bu ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o'zgarish hollari bilan borliq. Bu hol, ayniqsa, o'smir yoshdagi bolalarga xosdir. Chunki bu yosh eng qiyin va murakkab davr bo'lib, bu yoshdagi bolalarning anatomo-fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqa jihatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning psixikasida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratadi. Ularning ijtimoiy statusida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?» – degan savol qiynaydi.

Devyatsiya o'z ichiga deviant, delinkvent va kriminal hatti – harakatlarni birlashtiradi.

¹ М.Отажанов. Психоанализ асослари. – Тошкент “Ўзбекистон” 2004.

(Deviant xatti-harakat – bu kichik ijtimoiy munosabatlar (oila, maktab) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlarga xos ijtimoiy me'yorlardan, xatti-harakatlar va qoidalardan og'ish, chekinishning bir turidir. Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq, ishda va mehnat faoliyatida o'z boshimchalikka yo'l qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftagarchilik qilishlari, assotsial harakatlarga berilish kabilar deviant harakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vaziyatlarda bolalar va o'smirlarning shu kabi xatti-harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususiyatidir¹.

Delinkvent xatti-harakat – deviant harakatlardan farqli o'laroq ular vaziyat ta'sirida emas, balki yuqoridagi kabi assotsial harakatlarning doimiy xarakterga ega bo'lishidir. Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

- haqoratlash, xo'rlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlar;
- kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtotransport va boshqada kerakli buyum va anjomlarni o'g'irlash kabi moddiy fonda ko'rishga qaratilgan o'z shaxsiy manfaati yo'lidagi harakatlar;
- narkotiklar sotish va tarkatish.

Deviant xarakterlarning asosiy sabablari bolalar, o'smirlar va umuman ba'zi jamiyat a'zolarining jamiyat tan olgan me'yorlarga zid keluvchi xatti-harakatlarni namoyon etishi – bu birdaniga, o'z-o'zidan bo'ladigan hodisa emas. Ya'ni o'sha insonlarning shunday yo'l tutishiga nimadir sabab bo'ladi. Ya'ni har bir fazilat o'z tarixiga ega. Insonning rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli xil omillarga bog'liq: irsiy, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati va h.k.

Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi qator omillar mavjud. Jumladan:

¹ Змановская Е. В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения) Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. - 2-е изд., испр. – Москва: Академия, 2004.

1. Biologik omillar, ya'ni bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini murakkablashtiruvchi nohush fiziologik va anatomik holatlar: Ularga:

- genetik (o'ta aqli zaiflar, ko'rlar, karlar va h.k),
- psixofiziologik (ya'ni inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, somatik harakatlarni, allergiyalar va toksik kasalliklarni vujudga keltiruvchi turli xil ziddiyatlar, kimyoviy moddalar, energiyalar va h. k),
- fiziologik (atrofdagilarda nohush kayfiyat uyg'otuvchi tashqi qiyofa, tilning duduqligi va h.k.)

2. Psixologik omillar, ya'ni insondagi psixopatologik yoki aksentuant (haddan tashqari) holatlar. Bu omillar asab kasalliklari (psixopatiya, nevrasteniya kabi kasalliklardir)

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar, ya'ni bolalik davridan boshlab maktab, oila va jamoatchilik tarbiyasidagi nuqsonlar.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni bu jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikdir: jamiyatning boylar va kambag'allar deb ajratilishi, oylik maoshining kamligi, ishsizlik, inflyasiya va h.k.

5. Ma'naviy-axloqiy omillar. Ularga birinchidan, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi, insonlarning ma'naviy qashshoqlanishi kirsam, ikkinchidan, muayyan jamiyatning undagi ro'y berayotgan deviant harakatlarga befarqlik, loqaydlik kiradi.

Deviant xatti-harakatdagi bolalar va o'smirlarga nisbatan profilaktika, reabilitatsiya va korreksiya ishlari amalga oshiriladi.

Reabilitatsiya – bu bola shaxsining huquqi, huquqiy status, sog'ligi, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimdir. U profilaktika va korreksiya singari aspektlarni o'z ichiga oladi.

Profilaktika – bu reabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir.

Korreksiya – bu hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatdagi ma'naviy muhitning ta'sirini kuchaytirish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvning tizimli amalga oshishiga ko'maklashadi. Jamiyatda mavjud ma'naviy ahloqiy me'yorlar yoshlarimizni jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatda islohatlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatda mavjud eski muvozanatlarning o'zgarishi, yangi me'yorlarning kirib kelishiga asos bo'ladi. Dunyo miqyosidagi global ijtimoiy o'zgaruvchanlikning kuchayishi muhtojlik, jinoyatchilik, millatlar o'rtasidagi nizolar, ishsizlik, kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Dunyo mamlakatlarida demografik inqiroz, oila inqirozi, alkogolizm, zo'ravonlik, o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar, yoshlarning qarovsizligi, jinoyatchilik va boshqa ijtimoiy xatarli hodisalar shaklida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlardagi delinkventlikning o'ziga xosligi urf-odatlar (rasm-rusumlar va boshq.) orasidagi yoshlarning huquqiy mavqeyi (statusi)ni yo'qqa chiqaradi. Delinkvent xulq-atvorning aniq ta'rifi (ot lat. delictum – xatti-harakat, ingl. – delinquency – huquqbuzar, gunohkor). Yoshlar delinkventligi deganda xususan yoshlar tomonidan amalga oshiriladigan nojo'ya xatti-harakatlarni ko'rsatish mumkin. Huquqiy jihatdan «Yoshlar delinkventligi» tushunchasi yoshlar huquqbuzarligi ma'nosida ishlatilib, ularni barchasiga la'nat tamg'asini bosish emas, balki qandaydir umumiylikda “jinoyatchi” deb nomlash ham mumkin.

Delinkvent tushunchasini yoritish jarayonida aytish mumkinki-jamiyatga qarshi, individning noqonuniy xulq-atvorlari, individning nojo'ya xatti-harakatlari (anglab etilgan yoki anglab etilmagan), zararli jihatlarini ko'payishi, yakkalanish, jamiyatdan ajralib qolish (marginallashuv), o'z faoliyatida qonunlarga bo'ysunmasligini ko'rish mumkin. Bir muncha ahamiyati past bo'lgan delinkvent xulq-atvor ko'rinishlari bular jinoyat kodeksida qayd qilinmagan: kichik bezoriliklar, xaridor tomonidan magazindagi narsani bildirmasdan olib ketishi, transport va bozordagi mayda o'g'irliklar, yoqalashishi natijasida yengil jarohat yetkazish, sotuvchi haridorni aldashi, soliq xodimlarini aldash, ishga kech qolish,

taqiqlangan joylarda chekish va boshqalar. Delinkvent xulq-atvor harakatlari ko'pincha o'smir yoshli o'quvchilarida kuzatiladi: kechgacha ko'chada yurish, spirtli mahsulotlarini iste'mol qilish, mushtlashish, o'zini kattalarday his qilish, darslardan qochish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, boshqa sinfdoshlarining narsalarini o'g'irlash, jamiyat ijtimoiy me'yorlarini buzish, jamiyat mulkini talon-taroj qilish, devorlarga yozish yoki chizish. Yoshlardagi delinkvent xulq-atvor elementlarining bo'lishiga asosan boshqaruv tizimidagi xatolar sabab.

Bundan tashqari, xohlagan xulq agar jamoatchilik fikriga to'g'ri kelmas ekan, u deviant deb aytiladi. Agar qonunga nomuvofiq bo'lsa bu – delinkvent deb aytiladi. Nomaqbullik bu jazoni anglatmaydi. Jinoiy javobgarlik delikvent va jinoiy xulq orasidagi chegaralar orqali tavsiflanadi. O'smir militsiya tayanch punktida ro'yxatda turadi bu – delinkvent deyilishi mumkin, lekin jinoiyatchi emas. (qachonki uning aybi sudda tasdiqlanib jazo berilmaguncha). O'smirlar o'rtasida delikvent xulq-atvor doimiy tarzda o'zgarib bormoqda bu achinarli holdir.

Birinchidan, o'smirlar muhitida deviant xulq-atvorning hissasi o'smirlardagi inqiroz holatiga muvofiq rivojlanadi. Ikkinchidan, bu xulq atvorning kengayishiga yoshlar xulqidagi turli submadaniy o'zgarishlar turli mintaqalarda ba'zi deviant hisoblangan xatti-harakatlari me'yor deb qabul qilinganligi sabab. V.Skobkin va boshqa bir qancha olimlarning fikricha o'smir inqiroz holatini hal qilish albatta o'smir deviantlik holati orqali amalga oshiriladi. Nimagaki og'ish urf odatlar o'zgarishining tashabbuskori, va o'sishini ta'minlovchisi hisoblanadi. Bundan tashqari ijtimoiy og'ish jamiyat qarama-qarshiligida juda muhim rol o'ynaydi. Bir tomondan u barqaror jamiyat uchun xavf. Boshqa tomondan deviant xulq-atvor madaniy adaptatsiya (moslashuv)da ijtimoiy o'zgaruvchanlikni amalga oshishida muhim rol o'ynaydi. Bir qancha mumtoz va chet el sotsiologlarining fikrlariga muvofiq og'ma xulq atvor (deviant) jinoiy xulq-atvor (kriminal), delinkvent (jinoiylikkacha) va ahloqsizlik (behayolik). Ushbu tiplar (turli-tuman) deviant xulq-atvor asosan individning real o'zaro xulqiy rivojlanish mexanizimi orqali og'ish holatlari ko'zga tashlanadi. Kriminal xulq to'liq jinoiyatchilik deyish mumkin. Misol uchun odam o'ldirish, nomusga tegish, g'ayri insoniy harakatlarni

barchasi dunyo mamlakatlarida og'ish hisoblanadi. Bunga e'tibor qilganda shuni inobatga olish kerakki, urush chog'ida odam o'ldirish bundan mustasno. Delinkventni an'anaviy tushinishda huquqbuzarlik yoki noqonuniy faoliyatlar nazarda tutiladi, bu jinoiy javobgarlik emas ungacha bo'lgan jarayonlardagi xatti-harakatlardir.

Nemis tilida "delinkvent" termini barcha normadan og'ish holatlarni anglatib jinoiy kodeksga qaratiladi. Barcha yuridik jazolarda harakatlar mumtoz ilmiy xodimlarning fikrlaricha shaxsan voyaga etmaganlar jinoyatchiligi deb delinkvent xulq-atvorni aytishadi, voyagaetmaganlar-kriminalligi. Lichko delinkvent xulq-atvorni kam jamoatchilik faoliyati deb ta'riflaydi, o'zi uchun jinoiy jazoni xavfli hisoblamaydiganlar: maktabdan qochishlar, mayda bezoriliklar, tahqirlanishda ojizlik va boshqalar. Birinchidan V.V.Kovalev bunday fikrlarga qarshi chiqadi "delinkvent xulq-atvor"ni kriminal xulq-atvorga tenglashtiradi. Bu deviant xulq-atvordagi o'smirlarda maqsadga muvofiq ravishda ikkiga bo'linadi – delinkvent va nodelinkvent. Delinkvent xulq-atvor tushinchasini ta'riflashda yana bir tendetsiya aybdorlik, mayllik va noqonuniy psixologik holatlar.

Delinkvent xulq-atvor quyidagi xususiyatlarga ko'ra baholanadi: tajavuzkorlik (turli ko'rinishdagi agressiv harakatlar), o'g'irlik, ota-ona va o'qituvchilar bilan qo'pol muomalada bo'lish, hayvonalar va o'zdan kichiklarga zulm qilish, behayolik va qo'pollik kabilar. Odobsizlik doirasidagi hodisalarning bir qancha sifatlarni belgilashda amoral (axloq normalari va umuminsoniy qadriyatlarga qarshi) delinkvent va amoral xatti-harakatlar chegarasini aniqlash biroz mushkullik tug'diradi. O'z ta'rifiga ko'ra esa delinkvent va kriminal harakatlar ham o'xshashdir. Bular orasidagi turli ba'zi farqlarni inobatga olmasak aytish mukinki jinoyachilik va delinkvent xulq-atvorning ikkalasi ham jamiyatga qarshi qaratilgan, amoral esa ijtimoiylikka. Amoral xulq-atvor og'ma shaklda aks etadi, delinkvent va kriminal harakatlarga undaydi. Og'ma xulq-atvornig yana bir klassifikatsiya mavjud: ijtimoiy (amoral destruktiv, siyosiy jinoyatchilik), delinkvent (kriminal) va ko'pincha me'yoriy.

Uchunchi umumiy deviant xulq-atvordagi klassifikatsiya tiplari: jinoyatchilik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, ichkilikbozlik, giyohvandlik. Bu tiplar turli ko'rinishdagi xastalishlar bilan ifodalanadi. E'tiborsizlik, turli og'ma harakatlar, jamiyat hodisalariga nisbatan beparvo (misol uchun bolani oldirish va turli madaniyatlarda turli davrlarda gomoseksualizmga munosabat).

O'smirlar orasida asosan og'ma xulq-atvorning quyidagi ko'rinishlarini qayd qilish mumkin:

1. O'qish va ish faoliyatidan bosh tortish. Maktabda darslardan qochish, doimiy tarzda vazifalarni bajarmaslik, dars davomida e'tiborsiz bo'lish, o'qishni davom ettirishni xohlamas.

2. Noformal guruhlarning jamiyatga qarshi kayfiyatda bo'lib turishi;

3. Jamiyatga qarshi majburiy faoliyatlar. Bular tajavuzkorlik, o'g'rilik, talonchilik, mol-mulka zarar etkazish va yo'qotish shunga o'xshash faoliyatlar;

4. Jamiyatga nisbatan g'arazgo'ylik faoliyati. Mayda o'g'irlik, kichik choyqovchiliklar, tovlamachiliklar shaklida aks etadi;

5. Jamiyatga qarshi seksual harakatlar. Bu ko'rinishdagi og'ma xulq-atvor butunlay behayolik, axloqsiz seksual harakatlar, yo'nalishlari odatiy jinslar orasida;

6. Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish;

7. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish;

8. Uydan qochib ketish va daydi bo'lish;

9. O'yinlarga beriluvchan;

10. Boshqa ko'rinishdagi og'ma xulq-atvorlardir.

Delinkvent xulqli odamlar o'zlarining ichki ziddiyatlarini nevrotiklarga o'xshab himoya mexanizmlari bilan qo'riqlay olmaydilar. Lekin ular shizofreniklarga o'xshab illyuziyalar dunyosiga chekinib, reallik bilan o'z aloqalarini uzmaydilar ham. Ichki zo'riqishga bardosh berish uchun ular ichki kasallikka ham murojaat qilmaydilar. Shunday bo'lsa ham ular har holda reallik bilan aloqani uzadilar hamda ta'qib qilinadigan, davlat tomonidan va qonun yo'li

bilan jazolanadigan ta'qiqlangan harakatlar sodir qilish yo'li bilan o'z ichki voqeliklaridan qutiladilar.

Agar bunday odamlarning xulq stereotiplariga nazar tashlansa, ularning bolaligida psixoz yoki psixosomatik kasallik bilan og'riqlarga o'xshash munosabatlarning jarohatlovchi buzilishini kuzatish mumkin. Bunday odamlarni yoshligida yaxshi ko'rishmagan, suyishmagan. Hech bo'lmaganda ularga e'tibor berishmagan, ularning tarbiyasini "qo'ldan chiqarishgan", bunday odamlar yetishmovchilik ekstremal holatini, kattalar tomonidan muloqot va e'tibor defitsitini boshdan kechirishgan. Buning fojiali oqibati esa – ruhiy tuzilishdagi kuchli yetishmovchilik bo'lgan¹.

Bunday ahvolga yana qo'shimcha jarohatlovchi hodisalar: bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat (jismoniy jazo) yoki ularning ruhiy shafqatsizlik va befarqlik sharoitida tarbiyalanishlari ham qo'shilishi mumkin. Delinkvent xulq tarbiyada jazolash usuli bilan uzviy bog'liq. Shunday muhitda o'sgan bola jazolash va shafqatsiz muomala haqidagi bilimdan boshqa narsani o'zlashtirmaydi. Bunday tarbiya qurboni keyinchalik o'z tajribasini boshqa odamlarga ham tarqatadi, "agressor bilan identifikatsiya" qilish hodisasi sodir bo'ladi. Jinoyatchi o'zi bilan bolalikda nima qilishgan bo'lsa, o'z qurbonlari bilan ham shunday yo'l tutadi.

Delinkvent xulqli shaxs ruhiy tuzilishini o'zligini yo'qotish qo'rquvi, birovni yaxshi ko'rmaslik, yakkalanish, ma'nosizlik, ojiz g'azab va umidsizlik bilan bog'liq og'ir kechinmali psixik holatlar tashkil qiladi. Agar bunday shaxs o'ziga o'xshagan odamlar bilan bir guruhga birlashsa, o'z shaxsiy vaziyatining chidab bo'lmasligini unutishi oson kechadi. Agar ular birgalikda jinoyat sodir qilishsa, bunday jinoyat odatda jamiyat vakillariga qarshi qaratilgan bo'ladi. Guruh ishtirokchilari endi tarbiyani so'zma-so'z tushunib, bir vaqtlar ota-onalari ularga nisbatan qo'llagan tarbiyaning qurbonlari bo'lishdan qutuladilar. Shu bilan birga ular endi o'zlarining ahvolini qoniqtiradigan mashg'ulot bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymayotgan turli instansiyalarning qurbonlari ham emaslar. Endi ular faol

¹ Л.Б. Шнейдер, Девиантное поведение детей и подростков – Москва: Академический проект: Трикта, 2005.

harakat qilayotgan aybdorlardir. Chunki bunday odamlar o'z tasavvurida hech bo'lmaganda o'z xohishi bilan qonunni oyoqosti qilayotganidan ham qoniqish hosil qilishi mumkin.

Ko'p hollarda qasos fantaziyasiga yana ulug'lik va dabdababozlik fantaziyasi ham qo'shiladi. Delinkvent xulq shaxsga o'zini davlat va jamiyatning huquqni himoya qiluvchi organlariga qarshi tura oladigan odam deb tasavvur qilish imkonini beradi.

Shaxs rivojlanishi jarayonida navbatdagi o'zga xos og'ma xulq-atvor parametrlarini belgilash mumkin: maqsadsiz yashash, beparvolik, ularning kelajakka intilishlari ahamiyatsiz oddiy qiziqishlar orqali sezilib turadi, umumqabul qilgan barqaror qadriyatlar ular tomonidan rad qilinadi, o'qishga bilim olishga intilishi so'nadi. O'smir delinkventligi asosan tengdoshlari bilan munosabatlarda aks etib, atrofdagi normal yoshlar bilan a'loqalarga ham salbiy ta'sir qiladi. Bu o'smirlarning ko'pchiligini oilasida nosog'lom psixologik muhit hukumron. Asosan o'g'il bolalar o'rtasida yuzaga keladigan og'ma xulq-atvor 50% ichkilikbozlikka berilish orqali yuzaga keladi, bu o'smirlardagi ijtimoiy munosabatlar yuqori darajada konfliktli bo'ladi¹.

Xususan, delinkvent harakterdagi o'smirlarning harakterida o'zgarishlar bo'lishiga guvoh bo'lishimiz mumkin: atrofdagilar bilan konfliktga borish, o'zidan kattalar aytganlarini qilmaslik, aksariyat yoshlarning ehtiyojlarini kamayib ketishi. O'zini namoyon qilish va o'zining qoniqtirmagan tomonlari vositasida turtib chiqadi. Deviant turdagi o'smirlar o'z atroflaridagi normal turdagilar bilan munosabatlarda ularga salbiy ta'sir qilishadilar.

Deviant xulq-atvorning navbatdagi ko'rinishlari quyidagicha belgilanadi.

- kriminal xususiyatlar asta-sekin yig'ilib shaxsda a'lohida og'ir salbiy jihatlarni yig'ilishiga olib keladi;
- maxsus holat va faoliyatlarning to'g'ri kelish omillari, to'g'rilanish o'tkazish va o'zaro kriminal sifatlar uning rivojlanishi va «To'g'rilash» o'zaro kriminal sifatlar ularning rivojlanishi va qayd qilinishi;

¹ В. А. Аварин. Психология детей и подростков. – СПб., 1998.

- ta'lim sharoitlarining ta'siri va kriminal xususiyatlarnig yig'ilishi o'smirlar rivojlanishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ochiq oydin savol paydo bo'ladi, o'smirlarda xulq-atvorga tegishli munosabatlarni qurish orqali jamiyat me'yorlarida qarama-qarshilikka duch kelinadi. O'smirning mantiqsiz rejasi, yuqori darajada tafakkuri rivojlanishi o'smirga deviant xulq bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.


Deviant tur o'smirlarda o'ziga xos xususiyat, bu o'zini o'rnini olamga ma'lum qilish dunyo unga qarab boqishini istaydilar bu esa deviantlikning mahfiy tipi. Ular o'zlarini yaxshi deb hisoblashadilar, har qanday nomaqbul harakatlarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladilar. Ularni aytish mumkin bo'lsa, arosatda qolgan odam deyishimiz ham mumkin. Deviant xulq-atvor tipdagilarda ham vijdon, o'z-o'zini nazorat qilish, hissiyot va sezish kabi hislatlar bor. Ular ham o'zlarini hamma kabi his qiladilar, lekin ijtimoiy emas balki ruhiy me'yorlarga rioya qiladilar. Ular normal o'smirladan tafakkur jihatdan past bo'ladilar. Asab tizimida turli buzilishlar bunda o'smirlar deviantligini qo'zg'atishi mumkin: hissiyot, konflikt, agressiya, beqarorlik va boshqalar.

Deviant xulq-atvor tushunchasi huquqshunoslikda, psixologiyada, pedagogikada va ilmiy adabiyotlarda har xil ma'noda talqin qilinadi.

I – Huquqshunoslikda “deviant xulq-atvor ” deganda hozirgi kunda qabul qilingan huquqiy me'yorlarga qarshilik tushuniladi. Huquqiy baholashda xatti-harakat, ya'ni faoliyatda alohida o'ringa ega yetakchi mezon ijtimoiy xavf-xatar darajasi hisoblanadi.

II – Pedagogikada “deviant xulq-atvor ” madaniy qadriyatlar, ijtimoiy axloq, ijtimoiy muhit va jamiyat tomonidan hamma uchun qabul qilingan huquqiy-axloqiy me'yorlarga qarshi bo'lgan xulq-atvorning og'ishi tushuniladi.

III – Psixologiyada deviant xulq atvor ijtimoiy-psixologik va ma'naviy-axloqiy me'yorlardan og'ishga aytiladi yoki jamiyat uchun zararli bo'lgan xatti-harakatlar orqali nizoni yechish.



Gayri ijtimoiy xulq-atvor (delinkvent) – atrofdagi insonlarga va ijtimoiy tartiblarga tahdid soluvchi huquqiy me'yorlarga zid xulq-atvordir, ya'ni qonun tomonidan ta'qiqlangan harakatlardir.

Shakllari:

- 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda kichik yoshdagi bolalarga nisbatan zo'rovonlikda, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda, o'g'rilik, mayda bezorilik, o't qo'yishda namoyon bo'ladi;
- 13 yosh va undan katta bo'lgan bolalarda – bezorilik, o'g'rilik, bosqinchilik, vandalizm, jismoniy zo'rvonlik, narkotik moddalar savdosi.

Assotsial xulq-atvor – ma'naviy-axloqiy me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor. Seksual og'ish (prostitutsiya, qimor o'yinlari, daydilik, tekin tamoq), tajovuzkor xulq-atvor kabilarda namoyon bo'ladi.

Shakllari:

- Bolalarda: uydan qochish, daydilik maktabga bormaslik, yolg'on gapirish, tajovuzkor xulq-atvor, so'kinish, o'g'rilik, tilamchilik.
- O'smir yoshda – uydan ketish, daydilik, maktabga bormaslik, yolg'on gapirish, tajovuzkor xulq-atvor, o'g'rilik, graffiti (devorga chizish va

axloqsiz yozuvlar), subkultura deviatsiyalari (sleng, shramirovanie, tatirovka), tartibsiz jinsiy aloqalar.

Autodestruktiv (o'zini xarob qiluvchi) – o'z shaxsining rivojlanishiga va sog'lig'iga tahdid soluvchi tibbiy, psixologik me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor.

Shakllari:

- suitsid, ozuqa va ximik mahsulotlarga tobelik (psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish (addiktiv);

- fanat (diniy kult);

- autizm, viktim xulq-atvor (povedenie jertvy);

- hayoti uchun xavfli faoliyat (jestokiy vid sporta).

Bolalarda – chekish, toksikomaniya.

O'smirlarda – narkotik moddalarga tobelik, o'z tanasini tilish yoki kesish, kompyuterga tobelik, kamdan-kam suitsid.

Deviant xulq-atvorli bolalarning turlari:

- 1) **pedagogik qarovsiz o'smirlar** – ta'lim olishga va jamoatchilik faoliyatiga befarq, muntazam intizomni va axloq me'yorlarini buzuvchi, nojo'ya xatti-harakatlarga (mushtlashish, progullar, chekish, alkogol ichimliklarni iste'mol qilishga) yo'l qo'yuvchi, har doim salbiy fazilatlarini namoyon qiluvchi (qo'pollik, yolg'onchilik, dangasalik, shafqatsizlik) o'smirlar;
- 2) **huquqbuzar o'smirlar** – huquqbuzarlik sodir etgan (mayda o'g'rilik, bezorilik va b.), ma'muriy va boshqa me'yorlarni buzuvchi, ichki ishlarning voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha profilaktika bo'limi hisobida turuvchi yoki voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi tomonidan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga jo'natilgan tarbiyasi og'ir yoki pedagogik qarovsiz o'smirlar;
- 3) **qonun bilan ziddiyatga kirishgan o'smirlar**, ya'ni jinoyat sodir etgan, huquqiy me'yorlarni buzgan va sud tomonidan tarbiya koloniyasiga jo'natilgan pedagogik qarovsiz o'smirlar.

Sabab va omillar

OILAVIY OMILLAR	IJTIMOIIY OMILLAR	SHAXSIY OMILLAR	FIZIOLOGIK OMILLAR
1.Oiladagi noxush vaziyatlar. 2.Ota-onalarning bandligi. 3.Ota-onalar bilan nizolar. 4.Ota-onalarning axloqsiz turmush tarzi. 5.Noto'liq oilalar. 6.Pedagogik saviyaning pastligi.	1.Tashqi muhitning ta'siri. 2.Ota-onalarning ishsizligi va kam ta'minlanganlik. 3.Tengdoshlari tomonidan mensimaslik, kamsitish. 4.Iqtisodiy beqarorlik. 5.OAV ta'siri. 6.Kompyuter o'yinlari. 7.Bolalarni diniy oqimlarga va g'ayriijtimoiy subkulturalarga (norasmiy guruhlar) jalb qilish.	1.Kuchli taassurot olishga intilish. 2.Erkinlik va mustaqillikka intilish. 3.Irodasizlik. 4.Yolg'izlik. 5.Madaniyat, idrok va huquqiy bilim saviyasining pastligi. 6.Bo'sh vaqtning ko'pligi. 7.E'tiborni o'ziga jalb qilish.	1.Bolaning kasalligi. 2.O'qishdan orqada qolish (aqliy). 3.O'zini nazorat qila olmaslik. 4.Genetik moyillik. 5.Jinsiy balog'at va psixikaning notekisligi, bir maromda emas.

Qonun bilan ziddiyatga kirishgan voyaga yetmagan shaxsning shakllanish bosqichlari:

I bosqich – moslashuv jarayonini buzuvchi turli omillarning ta'siri:

- a) oiladagi muammolar;
- b) maktabdagi muammolar;
- v) tengdoshlari bilan nizolar va h.z.

II bosqich – g'ayriijtimoiy kichik guruhlar bilan tanishuv:

- ko'cha bilan aloqa (u yordam va himoya topgan jinoiy aloqa). Bola oiladagi muammolardan qochish niyatida ko'chaga ketadi.

III bosqich – ijtimoiy tanglik (krizis):

- o'smirning g'ayriijtimoiy kichik guruhlar bilan aloqasi. "Me'yoriy" jamiyat va birlamchi kichik guruhlar o'rtasidagi tanlovga majburlovchi nizoning boshlanishi.

IY bosqich – g'ayriijtimoiy kichik guruhlarini tanlamoq – jinoyat olamiga kirish, jinoyat yo'lining shakllanishi.

Odatda deviatziyalar o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni o'tish davri ham deb atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan yigitlikka o'tish ro'y beradi va bu jarayon o'smir rivojlanishining barcha jihatlari-anotomik-fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

5.2. Jinoyatchilikni oldini olish bolalar va yoshlar bilan ijtimoiy ish

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa o'z navbatida ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi. Unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo'yila boshlaydi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor normalaridan chetga chiqqan o'smirlarni qiyin o'smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o'smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. O'smirning qiyin tarbiyalanishi, u tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatziya hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatziya (og'ish) ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada

o'zgaruvchanlik faoliyatga bog'liq va insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks ettiradigan xulq-atvorida o'z ifodasini topadi. Avval aytib o'tganimizdek, xulq-atvor norma va chetga chiqqan bo'ladi.

O'smirning normal xulq-atvori uning bilan ijtimoiylashuvi rivojlanishi ehtiyojlariga mos tushuvchi mikrosotsium o'zaro munosabati. Agar bolani atrofdagilari o'smirning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo normal bo'ladi.

Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va sivilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunsak bo'ladi.

Aftidan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga giriftor bo'lgan bolalar toifalarini aniqlab olish lozim:

- maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar;
- etim bolalar;
- ijtimoiy etimlar, bolalar uylarida joylar etishmasligi sababli ular oylab o'z navbatlarini ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalari bilan yashagan holda kutishadi. SHu bilan birga ular tuzuk ovqatlanishmaydi, jismoniy, ruhiy, jinsiy qiynoqlarga duchor bo'lishadi;
- giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar;
- jinsiy intizomsiz bolalar;
- g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etgan bolalar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning soni kattalarga qaraganda ikki hissa tez oshmoqda.

Delikvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi asotsial xatti-harakatlar sifatida xarakterlanadi. Bu harakatlar huquqiy normalarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

- agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qo'yish kabilar kiradi;
- g'arazli xulq-atvor: kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulavlarni olib qochish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajovuzlar;
- giyohvand moddalarni etishtirish va tarqatish.

Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki-shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarning o'zgarishi ro'y beradi.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga etganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi.

Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kiritsak bo'ladi. Ular tizimni barbod etishadi, uning asoslariga putur etkazishadi va anchagina zarar keltirishadi.

O'smirlarning deviant xulq-atvori sabablari. Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

Biologik omillar bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anatomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- irsiy xususiyatlar;
- aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar;
- organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar.

Psixologik omillar. Bularga bolada psixopatologiya yoki xarakterining aktsetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari,

psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Yorqin namoyon bo'lgan psixopatiyaga (tentaklik) ega bolalar psixiatrlar yordamiga muhtojlar.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianti hisoblanmish aksentuatsiyaga ega bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yoki u yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan etarli mehr his qilmasa unda bu holatda uning himoya vositasi vazifasini begonalashuv bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilna munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patalogilarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarga xos bo'lga rad etish, qarshi chiqish kabi hislatlar odatda bir-biriga emotsional bog'liq bo'lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi.

O'smir axloqiy qadriyatlarini tizimining shakllanmaganligi holatida uning qiziqishlari g'arazli xarakter kasb eta boshlaydi. Bunaqa o'smirlarga infantilizm, ko'ngilochar hikoyalar xosdir.

Ijtimoiy-pedagogik omillar maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'planishligi bilan bolaning erta ijtimoiylashuvidagi og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunaqa bolalar avvalambor maktabda yomon tayyorlanishgan bo'lishadi, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o'quvchisining dezadaptatsiyasi o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

- o'quv dekompensatsiyasi – bola bir yoki bir nechta fanlarni o'zlashtirishida qayinchiliklra paydo bo'lishi bilan xarakterlanadigan holat;

- maktab dezadaptatsiyasi – o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan nizolashishda namoyon bo'ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan xarakterlanadigan bola holati;
- ijtimoiy dezadaptatsiya – bu holatda o'qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so'nadi, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qiziqish kuchayadi;
- bo'sh vaqtni o'tkazish muhitining kriminallasuvi.

Bolaning psixoijtimoiy rivojidadagi me'yordan chiqishning yana bir muhim omili noxush oila hisoblanadi. Voyaga yetmagan bolalarda asotsial xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ular:

- o'zida bir tomondan bola xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa bolani nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq-oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarni mujassam etgan tariyaviy munosabatlar turi;
- to'liqsiz oilada, bolalar va ota-onalarning uzoq muddat ayri yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta'sirlarning beqaror turi;
- spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'moli, g'ayriaxloqiy hayot tarzi, ota-onalarning jinoiy xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turi.

Shafqatsiz muomala (haqorat) deb bolaga g'amxo'rlik qiluvchi yoki unga vasiylik qiluvchilar tomonidan unga zarar keltiruvchi harakatlarga aytiladi.

Bolaning ruhiy-ijtimoiy rivojlanishiga oila va uning ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat bolalarda ijtimoiylashuv shartlari buziladi. Ularning bir qismi deviatsiya holatiga olib boruvchi turli jismoniy va ruhiy xavflar ostida yashashadi, boshqalari esa jinoiy faoliyatlarga aralashib qolishgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambag'allarga sinflashishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik, inflyasiya, daromad olish usullarining cheklab qo'yilishidan iborat.

Axloqiy omillar bir tomondan zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida, qadriyatlarining yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan

esa jamiyatning deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qarashida o'z aksini topadi.

Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik amaliyot yuritish.

O'smirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasi. O'smirlik yoshida deviatsiya namoyon bo'lishining tinimisiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularga tadbqiq etish vazifasini qo'yadi. Ilmiy nazariy va amaliyotda ikki asosiy texnologiya-profilaktika va reabilitatsiya keng tarqalgan.

Profilaktika – o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilga ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U asosan bolani o'rab turuvchi muhitga bog'liq bo'ladi.

Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirayotganda ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga suyanadi:

Ijtimoiy-madaniy normani o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Qadriyatlar, g'oyalar va boshqa ramziy tizimlar majmuasini o'zlashtirmay inson jamiyatning to'la qonli a'zosi sifatida faoliyat yurita olmaydi.

Ijtimoiy madaniy normaning muholifi bolalarning ijtimoiy madaniy va pedagogik qarovsizligi bo'lib, u nafaqat bola rivojining g'ayrinormal alomati, balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklatishning natijasi sifatida qaraladi.

Bolalar qarovsizligining profilaktikasi nafaqat mavhum ijtimoiy madaniy normadan, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo'lgan boladan kelib chiqishi lozim.

Bola reabilitatsiyasi faoliyat sub'ekti, ijtimoiy sub'ekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi kerak.

“Profilaktika” atamasi o'zi noxush oqibatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi.

Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olsak, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratsa bo'ladi:

- neytrallashtiruvchi;

- o'rnini to'ldiruvchi;
- ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi;
- bu holatlarni bartaraf etuvchi;
- o'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Ijtimoiy pedagogning o'smirlar bilan profilaktika ishlari olib borishiga bir nechta yondashuvlar mavjud:

Informatsion yondashuv-voyaga yetmagan shaxslar ularga davlat va jamiyat tomonidan axloqiy normalarni bajarishga taqdim etilgan huquq va majburiyatlardan xabardor qilinadilar.

Ijtimoiy profilaktik yondashuv. Bunda asosiy maqsad negativ hodisalarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashtirishdir. Bu yondashuvning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa, ijtimoiy pedagog tomonidan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy chora tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

Tibbiy-biologik yondashuvning mohiyati esa ijtimoiy normalardan ehtimoliy og'ishlarni turli ruhiy anomaliyalar bilan aziyat chekuvchi shaxslarga nisbatan davlat profilaktik xarakterdagi choralar vositasida oldini olish hisoblanadi.

5.3. Yoshlar o'rtasida alkogolizm va giyohvandlikni oldini olish

Bolalar va o'smirlarning zararli odatlarga berilishlari, xususan spirtli ichimlikka ruju qo'yishlari, giyohvandlik va tamaki mahsulotlarini chekishlari holati ham ularda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Alkogol va giyohvand moddalar psixotaksik xususiyatga ko'ra, narkotik ta'sir ko'rsatuvchi va sarxo'sh qiluvchilik xususiyatiga ega bo'lgan moddalar hisoblanadi. U inson bosh miyasiga narkotik ta'sir ko'rsatib, butun organ va nerv sistemalari faoliyatini va shaxsning o'z-o'zini anglash darajasini susaytiradi. Sarxo'shlik holati kishida andishasizlik, odobsizlik, qo'pollik va yengil-yelpi fikr

yurituvchanlikni keltirib chiqaradi hamda tafakkur, diqqat, xotira jarayonlarini susaytirib, instenktiv xulq-atvor sifatlarining yorqin ifodalanishiga olib keladi. Natijada inson sarxushlikda o'z xatti-harakatlarini idora qila olmay qolish natijasida muammoli vaziyatlarda tafakkur xususiyatlarining susayganligi tufayli to'g'ri qaror qabul qilishga qiynaladi va oqibatda nizoli vaziyatlarda noto'g'ri qaror qabul qilish natijasida g'ayri qonuniy xatti-harakatlar sodir etiladi.

Oilada ota-onalarning alkogolizmga berilishi, bola ko'z o'ngida ichish, chekish va nojo'ya qiliqlarni qilishi bolaga ko'rgazmali ta'sir ko'rsatadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deganidek o'smir oilasida ota-onasidan ko'rgan qiliqlariga taqlid qila boshlaydi. Avvaliga chekishni, ichishni o'rganib oladi, so'ngra kuchliroq ta'sir etuvchi moddalarga o'tadi. Qarabsizki, oilasi va ota-onasida kuzatilgan holatlar bolada ham takrorlana boshlaydi.

Narkomaniya – ko'p yuzlamali balo. Eng qo'rqinchlisi shundaki, u o'z domiga o'smirlarni va yoshlarni tortadi, ularning sog'lig'iga qaytmaydigan zarar yetkazib, shaxsini majruh qiladi, ularda tajovuzkorlik va shafqatsizlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham narkotikdan jinoyatgacha bo'lgan yo'l juda qisqadir. G'arb mamlakatlardan kirib kelgan narkotiklarga bo'lgan «moda», baxtga qarshi asosan o'smirlar va yoshlar orasida tarqala boshladi. Nima uchun ushbu zaharhanda tuzoqqa aynan ular ilina boshlashdi? Chunki bu davrda ularning shaxsi rivojlanayotgan bo'ladi, har bir yangi narsalarga qiziqishi ortadi, shu jumladan taqiqlangan narsalarga ham, bilamizki taqiq alohida qiziqish uyg'otadi.

Hozirgi zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatda ba'zi shaxslar foyda ko'rish maqsadida ma'lum bir psixoaktiv moddalarni, ayniqsa narkotik vositalarni (narkotiklarni) tarqatishga beriladilar. Gap shunday vositalar haqida ketyaptiki, qabul qilgan kishi ruhiyatiga ular dastlab yoqimli ta'sir ko'rsatadi, keyin esa jadallik bilan qaramlikni shakllantiradi, ya'ni narkomaniya kasalligini rivojlantirib, narkotik iste'mol qiluvchining hayot mazmunini yo'qolishiga olib keladi. Endi uning hayot mazmuni – narkotik izlash va iste'mol qilishdan iborat bo'ladi. Demak narkotiklar inson organizmi va ruhiyatini vayron qiluvchi kuchga ega. Shuning

uchun ham davlat va jamiyat mamlakatdagi narkotiklar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatga alohida e'tibor beradi.

«Narkotik» yoki «narkotik vositalar» tushunchasi bilan uchta muammo bog'liqdir: tibbiy, ijtimoiy va yuridik. Tibbiy muammoning negizi – narkomaniya bu davolanishi talab qilinadigan kasallik. Ijtimoiy muammoning negizi – narkotiklarning zarari naqadar ulkanki, ular nafaqat iste'mol qiluvchilarning o'ziga, ularning yaqinlariga, atrofida qilargalarga, qolaversa butun jamiyatga ham katta zarar yetkazadi. Inson organizmini, ruhiyatini vayron qilib, aholining yosh, navqiron, faol qatlamini yemiradi, zamonaviy qilib aytsak, genofondini quritadi, kelajak avlodga putur yetkazadi. Narkotiklarning iste'moli surunkali kasalliklarni ortirib qolmasdan, xattoki bedavo kasalliklarni ortirish bilan ham chambarchas bog'liqdir (OIV/OITS, gepatitlar). Nihoyat yuridik muammoning negizi – narkotiklarni noqonuniy tayyorlash, tarqatish, saqlash qonun tomonidan taqiqlangan. Ushbu harakatlar jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Narkotiklarni noqonuniy tarqalishiga qarshi kurashish davlat tomonidan maksimal faollikni talab qiladi.

«Narkotiklar» deganda nimani tushunish kerak. Narkotiklar – bu narkotiklarning ro'yxatiga kiritilgan psixoaktiv moddalardir. Aynan shunday ro'yxatning mavjudligi, qonunni himoya qiluvchi organlar va sud organlari ishtirokida narkotiklarni noqonuniy tayyorlovchi, sotuvchi, tarqatuvchi shaxslarga qarshi kurashishga imkon beradi. Narkotik vositalar haqida Yagona Konvensiya (bitim) mavjud bo'lib, unda butun dunyo bo'yicha narkotiklar deb tan olingan ro'yxat keltirilgan. Bu esa o'z navbatida narkotiklarni tarqalishiga va iste'moliga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik imkonini beradi. Hozirgi kunda ham, avvalgidek, dunyoda eng ko'p muammolarni keltirib chiqarayotgan narkotiklardan heroin, nasha, kokain hisoblanadi. 90-chi yillarning o'rtalarida narkolog-vrachlar ko'plab narkomaniyaga chalingan bemorlar bilan, ularni davolash bilan bog'liq bo'lgan muammolar bilan to'qnashdi. Narkomaniya degan muammoni echish kerak, uni yechish uchun esa narkomaniyalarni kelib chiqish sabablari, kasallik

belgilari, davolash imkoniyatlari, unday bemorlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim.

Narkotiklarga qaramlikning shakllanib borishiga turtki bo'lib xizmat qiluvchi mexanizm – bu ularning narkotik mastlik holatini chaqirishidir. Bunda iste'mol qilgan kishida yoqimli kechinmalar paydo bo'ladi va aynan shu kechinmalar uni yana takror iste'mol qilishga undaydi. Yoshlar boshida buni shunchaki sinab ko'rish, o'yin, «bir tatib ko'raychi» deb o'ylashadi. Unday qilma, «o'tirib qolasan» degan ogohlantirishlarga ishonmaydi. Kattalarning vajlari xuddi ko'pirtirishday tuyulib, ba'zida aksincha, ularda yanada ko'proq qiziqish uyg'otib, o'zlarini sinab ko'rishga undashi ham mumkin. Yoshlarning shu kabi hayoti uchun xavfli bo'lgan yo'lga kirib qolishida bo'sh vaqtning tashkil qilinmaganligi, oilasida uchrashi mumkin bo'lgan ota-onasi bilan munosabatlarning yomonligi, bir-birini o'zaro tushunmasliklari sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda o'smirlar va yoshlar boshqa «avtoritetlarni» topadilar, ularga hech qanday talab va e'tiroz bildirmaydigan, go'yoki ularni «yaxshi tushunadigan», «g'amxo'rlik» qiladigan shubhali, salbiy guruhlarga kirib qoladilar. Bordiyu bunday kompaniyalarda narkomaniyaga chalinganlardan bo'lsa bormi, unda ular ham narkotiklarga qaram bo'lib qolishlari muqarrar. Narkotik iste'mol qiluvchilar odatda o'z saflariga irodasi bo'sh, birovning ta'siriga osongina tushib qoluvchi yoshlarni tortadilar. Aytadilar-ku, do'zaxga ketayotgan o'ziga yo'ldosh izlaydi deb.

Narkotikning avvalgidek yoqimli mastlik holatiga erishish uchun narkotik iste'mol qiluvchi kishi sekin asta uning miqdorini oshirishga majbur bo'ladi. Axiri shu darajaga etadiki, oldinlari o'tkir zaharlanishga olib kelishi mumkin bo'lgan miqdor, endi mastlik holatini chaqiradi xolos. Narkotiklarga chidamlilik ortadi, narkotik iste'mol qiluvchining organizmi narkotikka shu qadar o'rganib qoladiki, endi u borgan sari juda yuqori dozalarni ham ko'tara oladi.

Shu bilan birga narkotik iste'mol qiluvchi doim narkotik haqida o'ylay boshlaydi va endi uning asosiy faoliyati narkotiklar haqidagi hayollar ta'sirida, ularni izlashda, iste'mol qilishda o'tadi – narkotiklarga ruhiy qaramlik shakllanadi. Ba'zida narkotiklarni iste'mol qilish haqidagi fikrlarga qisqa vaqt ichida qarshilik

qila olishi mumkin albatta, lekin har doim ham emas. Narkotiklarning organizmga ta'sirining o'zgarishi va ularga ruhiy qaramlikning shakllanishi – kasallikning boshlanganligi haqida dalolat beradi. Narkomaniyaning boshlang'ich bosqichi juda qisqa vaqt davom etadi – bir necha hafta yoki bir necha oylar xolos (birinchi in'eksiyaning o'zidayoq ko'nikib qolganlik holatlari ham kuzatiladi). Narkomaniyalarning havfli joyi yana shundaki, narkotiklar bilan «o'ynashish», ularni «ermak» qilish tez orada fojियaga olib kelishi mumkin.

Narkomaniya – inson organizmini va ruhiyatini vayron qiluvchi og'ir kasalliklardan biridir. Bunda narkotik iste'mol qiluvchining o'zi ushbu kasallikni orttirishda asosiy ishtirokchi sifatida chiqadi, o'z ixtiyori bilan kasallikni orttiradi. Narkomaniyaning makkorligi, dog'uligi shundan iboratki, narkotiklarga qaramlik darhol shakllanib qolmagani bilan, birinchi marta iste'mol qilishlar hech qanday yoqimli taassurotlar chaqirmagani bilan, hattoki ilk iste'mol qilgandagi hissiyotlar esidan chiqib ketgani bilan, narkotiklarning kelgusida yana takror iste'mol qilishlar o'zini unchalik uzoq vaqt kuttirib qo'ymaydi, tez orada inson irodasini bo'g'ib qo'yib, yana takroriy iste'mol qilishiga kuchli intilishni uyg'otadi. Yuzlab yoshlar o'zlaridagi «hirsni» yashirmay, tiyilishga harakat ham qilmay narkotiklarni izlaydilar, topadilar va iste'mol qiladilar, qolaversa o'zlarining navbatdagi «doza» lariga pul ishlash uchun narkotiklarni sotadilar ham. Narkomaniyaga chalingan bemorlarning muammolarini bilganlar, unday bemorlarning ahvolini bir marta bo'lsa ham kuzatganlar hech qachon ularning ustidan kulmaydi, hazil qilmaydi.

Opiy, heroin narkomaniyasidan tashqari narkomaniyalarning yana boshqa turlari ham mavjud. Ularda birinchi navbatda asab tizimi zarbaga uchraydi va shunchaki u yoki bu ruhiy buzilishlar emas, balki tez orada asab to'qimalari yemirilib ketadi. Bunda narkotik iste'mol qiluvchi bemor nogiron bo'lib qolishi mumkin. Masalan, yuqoridagi asoratlar ko'proq qo'lbola, kustar sharoitlarda tayyorlangan narkotiklarni iste'moli natijasida kelib chiqadi, chunki ularning tarkibida ta'sir etuvchi narkotik moddasidan tashqari, qo'lbola sharoitda (bemorlar odatda in'eksiya uchun «materialni» o'zlari tayyorlaydilar) tozalab bo'lmaydigan boshqa zaharli moddalar ham mavjud. Narkomaniyalarning ba'zi turlarida esa

abstinensiya holati og'ir tutqanoqlar bilan kechishi mumkin. Masalan gashish narkomaniyasini (nashavandlik) oladigan bo'lsak, uning xavfli xususiyatlaridan biri shundaki, bunda birgina nashavandlikning o'zi bilan narkomaniya chegaralanib qolmaydi, endi nashavandlik boshqa – opiy narkomaniyasiga (geroinga) ham yo'l ochib beradi. Narkomaniyaga chalingan bemor bir narkotikni boshqasiga almashtirishi mumkin.

5.4. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi

Mamlakatimizda inson salomatligi jamiyat farovonligini, kelajagini belgilashini inobatga olgan holda tibbiy xizmat sifatini oshirish, jamiyatda tibbiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalarning keng tarmog'i yaratilgani tufayli aholi, eng avvalo, onalar va bolalarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati kengaydi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilishning «sog'lom ona – sog'lom bola» tamoyili bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan milliy modeli millat genofonini saqlash va yaxshilash, turmush farovonligini oshirish, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratish imkonini berayapti. Va bu borada erishilayotgan yutuqlar xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Birgina misol: bugungi kunda farzandlarimizning 92 foizi rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlariga javob beradi. 2011 yilda «Save the Children» xalqaro tashkiloti reytingiga muvofiq O'zbekiston yosh avlod salomatligi haqida qayg'urayotgan 161 mamlakat orasida 9-o'rinni egalladi.

Albatta, bu kabi muvaffaqiyatlarga erishishda aholi orasida sog'lom turmush tarzining targ'ib etilayotgani muhim omil bo'layotir.

Sog'lom turmush tarzi kundalik turmushni inson organizmi va u yashayotgan muhit qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash, salomatlikni saqlash hamda mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardan iborat. Jismoniy mehnat, badantarbiya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shaxsiy gigienaga rioya qilish,

to'g'ri ovqatlanish, zararli odatlardan tiyilish, doimiy ravishda shifokor ko'rigidan o'tib turish, tibbiy madaniyatni yuksaltirish shular jumlasidandir.

Sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan tibbiy madaniyatni oshirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi faoliyat qamrovi tobora kengaymoqda. Davlatimiz rahbarining 2011 yil 28 noyabrdagi «Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining Nizomiga ko'ra (XSST, 1948 y.) “Salomatlik – to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir, aslo kasalliklarning yoki jismoniy defektlarning yo'qligi emas”.

Salomatlik bu organizmning “shunday bir holatiki, bunda barcha organlar va tizimlarning funksiyalari tashqi muhit bilan uyg'unlashadi va qandaydir og'riq bilan kechadigan o'zgarishlar bo'lmaydi”.

Salomatlik – bu inson hayotini optimallashtirishning asosiy shartlaridan biri va inson baxtining asosiy omillaridan biridir. Hayotning postulati (dalillarsiz qabul qilinadigan ilk holat).

Salomatlikni saqlash muammosi o'ta dolzarb masaladir. Kundalik turmushda bizning atrofimizni quyidagilar qurshab turadi: atrof muhitning ekologik zararli omillari, noto'g'ri kun tartibi, bir xil ovqatlarni iste'mol qilish, maktabdagi, kollej, transportdagi va uydagi nizoli vaziyatlar, zararli odatlar (o'zining va o'zgalarning) va hokazo.

“Salomatlik komponentlari”. “Salomatlik” tushunchasini salomatlikning bir qancha komponentlariga (tarkibiga) ajratishga kelishilgan: biologik salomatlikning jismoniy va somatik komponentlari, psixik salomatlikning intellektual, psixoemotsional, ruhiy-axloqiy, ijodiy komponentlari, ijtimoiy salomatlik.

Shunday qilib, individ salomatligining darajasi genetik “fon”ga, organizmning moslashuvchanlik xususiyatlariga, organizm faolligining darajasiga, shuningdek, tashqi va jumladan ijtimoiy omillarga bog'liq.

Turmush tarzi – hayotiy faoliyatning ma'lum turi yoki insonlar faoliyatining ma'lum usuli.

Turmush tarzining elementlari turli xil mezonlar bo'yicha turli xil guruhlashtiriladi: faoliyat fe'l-atvori (jismoniy va aqliy), faoliyat sohasi (mehnat va mehnatdan tashqari), faoliyat turi (ta'limiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy, maishiy va h.k.).

Sog'lom turmush tarzining (STT) ta'rifini quyidagi formulaga keltirish mumkin: **“Sog'lom turmush tarzi – salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadigan barcha holatlardir”**. Sog'lom turmush tarzi deganda nafaqat jismoniy va ruhiy, balki axloqiy salomatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan faoliyat tushiniladi. Mazkur faoliyat hayotiy faoliyatning barcha asosiy shakllari asosida amalga oshiriladi: mehnat, ijtimoiy, oilaviy-maishiy, dam olish. Demak, STT tushunchasiga insonlar faoliyatining barcha ijobiy tomonlari kiradi: mehnatdan qoniqqanlik, faol hayotiy munosabat, maishiy hayotning yo'lga qo'yilganligi, zararli odatlarning yo'qligi, yuksak tibbiy faollik, salomatlikka nisbatan tavakkal qilgan holda munosabat omillarining yo'q qilinishi va uning mustahkamligi uchun sog'lom muhitning yaratilishi.

Sog'lom turmush tarzining asosiy elementlari quyidagilar: salomatlikning asosiy omili sifatida to'g'ri ovqatlanish, savodli gigienik xulq-atvor, biologik rivojlanish va salomatlikning asosiy tug'ma mexanizmi hisoblangan doimiy optimal harakat faolligi, hayotiy faoliyat barcha jabhalarining va salomatlikning ruhiy yaxshilanishiga yordam beruvchi ijobiy emotsiyalar, zararli odatlardan va halokatga olib boruvchi istaklardan voz kechish (ichkilikbozlik, narkomaniya, chekish va h.k.), tabiiy biologik ritmlarga mos keluvchi optimal turmush tartibi, o'qish va ishdan qoniqqanlik, o'z-o'zini hayotda ko'rsatish shakllaridan biri hisoblangan mehnat faoliyatini samarali tashkil etish, insoniy mohiyatni shakllantirish va ifodalash, to'laqonli dam olish, sog'lom avlodni voyaga yetkazishning asosiy omillaridan biri bo'lgan shaxslararo munosabatlar madaniyati, elementar tibbiy savodxonlik.

Salomatlik uchun xavfli bo'lgan omillarga: kam harakatli turmush tarzi, noratsional ovqatlanish, mehnatdan qoniqmaslik, zararli odatlar va narkotik moddalarni iste'mol qilish, nosog'lom turmush, neyroemotsional va ruhiy zo'riqish, past madaniy daraja va h.k.

Ko'plab mamlakatlarda rivojlanayotgan zamonaviy g'oyalardan biri "**velnes**" (ingl. *Wellness* «*be well*») so'zidan – o'zini o'zi yaxshi his etish, *farovonlik*) konsepsiyasi bo'lib, u jismoniy va mental salomatlikning qo'shilishiga, to'g'ri ovqatlanishga, oqilona jismoniy va zararli odatlardan voz kechishga asoslangan sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi konsepsiyadir. Velnes dietologiya, reabilitatsiya dasturlari, ruhiy sog'lomlashtirish, funksional treninglar, SPA-tadbirlar va h.lardan iborat sog'lomlashtirish metodikalaridan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Velnes konsepsiyasining asosiy tamoyillari: harakat, aqliy faollik, xotirjamlanish va garmoniya, go'zallik va tana ustida ishlash, mo'tadillashgan ovqatlanish. Sog'lom ovqatlanishni ta'minlaydigan mo'tadil jismoniy faollik sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi va buning natijasi o'laroq ruhiy muvozanat tiklanadi.

Shunday qilib, ***sog'lom turmush tarzi*** – bu insonning tug'ma biologik (ovqatga, harakatga, bilishga nisbatan va h.) va ijtimoiy (ish, uy, oila va h.) ehtiyojlarning ratsional qondirilishiga yo'naltirilgan xulq-atvorning ongli faol tanlanishi va individual tizimi bo'lib, u ijobiy emotsiyalarni (shodlik) chaqiradi va kasalliklarning va baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi, ya'ni bu to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlikka erishishga yo'naltirilgan xulq-atvordir.

O'z kunini oqilona tashkil etish – bu ishga ham, dam olishga ham yetarli darajada vaqt ajratish degani. Vaqtni shunday tashkil etish lozimki, darslarni "a'lo"ga bajarish, o'z sevgan mashg'uloti bilan shug'illanish, oilaga yordam berish, sayr qilish, kitob o'qish, televizor ko'rish va shu bilan birgalikda tetik va baxtli bo'lib qolish mumkin bo'lsin. Vaqt taqsimoti ***kun tartibi*** deb ataladi. Kun tartibini saqlash – salomatlikka olib keladigan eng qisqa va samarali yo'ldir. Agar inson kun tartibiga rioya etib yashasa, u hamisha hamma narsasini yaxshi va sifatli

qilishga ulgiradi, hech qachon kechikmaydi. Unda hamisha dam olish uchun ham, ishlash uchun ham, o'zi yoqtirgan ishlarni qilish uchun ham vaqt topiladi. Shuning uchun kun davomida uning kayfiyati ko'tarinki bo'ladi.

Kun tartibi - bu yoshni va salomatlik holatini inobatga olgan holda kun davomida faoliyatning va dam olishning barcha turlariga nisbatan vaqtni taqsimlashdir va u quyidagi majburiy komponentlarni o'zida mujassamlashtiradi: uyqu va dam olishning davomiyligi va qisqaligi; kun davomida toza havoda bo'lish vaqti; ish yoki o'quv faoliyati; bo'sh vaqt va jismoniy faollik; ovqatlanish tartibi; shaxsiy gigiena.

VI Bob. Bolaga va yoshlarga nisbatan nomunosib va ehtiyotsiz munosabat

6.1. Bolalar va yoshlarga nisbatan noloyiq munosabat¹

Adabiyotlarda sinonimlari sifatida «zulm» va «nomunosib munosabat» soʻzlari ishlatiladigan «bolalarga nisbatan zulm» tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sogʻliqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi taʼrifga tayanadi:

«Zulm» yoki «bolalar bilan qoʻpol muomalada boʻlish» «...bolaning sogʻligʻiga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin boʻlgan barcha turdagi jismoniy va/yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi.

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulm» atamasi oʻzida «ehtiyotsiz munosabat» hamda «tashlab qoʻyilganlik» (ingl. Neglect) tushunchalarini ham oʻzida mujassam etadi.

Oʻzbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi.

OʻzR qonunchiligiga koʻra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda boʻlish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha taʼriflanadi:

Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning koʻmakka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy taʼsir koʻrsatishdir. Mazkur taʼrifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy koʻrinishlari ajratib koʻrsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda boʻlish – ota-onalar yoki ularni oʻrnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sogʻlom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, toʻla maʼlumot olish

¹ “Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Гаржимон А.Юнусов).

va shu kabilarni ta'minlashga doir o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari¹:

1. **Jismoniy zo'ravonlik** – shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:
 - bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og'riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo'g'ish yoki cho'ktirish)
 - bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik
 - bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash
 - bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash
2. **Jinsiy zo'ravonlik** – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.
 - bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)
 - bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
 - seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o'yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish
 - seksual g'arazgo'ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish
 - fohishabozlikka jalb qilish
3. **Emotsional (ruhiy) zo'ravonlik** – bolaga lozim darajada e'tibor bermaslik, g'amxo'rlik qilmaslik, qo'llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko'rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e'tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo'ladi va bu o'z qadr-qimmatini bilmaslik va o'ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi.

¹ Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун рухий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни noloyiq муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).

- yolg'on, tahdid, qo'rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so'kish;
- boladan voz kechish, izolyasiya
- noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash
- bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish
- bolaning me'yorida rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ortiqcha homiylik
- kattalarning o'z va'dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg'usining buzilishi.

4. **Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik)** – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi.

- e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;
- bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga, rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);
- hissiy yaqinlikning yo'qligi (undan voz kechish)
- mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

5. **Ekspluatatsiya** – boladan o'z manfaati yo'lida foydalanish – og'ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish).

Bola bilan shafqatsiz munosabatning to'rtta turini ajratadilar:

- Shafqatsiz jismoniy munosabat
- Jinsiy zo'ravonlik
- Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik
- Psixologik zo'ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo'lmagan har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan *jinsiy zo'ravonlik* – bola yoki o'smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e'tiborsizlik – ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to'lmagan bolaning asosiy ehtiyojlarini ta'minlashga surunkali noqodirligi.

Psixologik zo'ravonlik, o'z navbatida, ikki turda bo'lishi ham mumkin:

Psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko'mak, e'tibor, psixologik himoyani ta'minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo'qligi.

Psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo'ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og'ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko'chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo'ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqdi. So'ng zo'ravonlikni ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

Keyingi tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqladilar va bir omil emas, balki ularning o'zaro ta'siri bolalar ustidan zo'ravonlik o'tkazishga olib kelishini isbotladilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo'ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo'lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta'kidladilar. Bunda bir necha ijobiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko'nikmalar, "Men" ning ijobiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta'sirini kamaytiradi.

Zo'ravonlikni qo'llash xavfining ijtimoiy va madaniy omillari¹

Bolalarga beparvolik va zo'ravonlikka muayyan ijtimoiy va madaniy sharoitlar ko'maklashadi.

1. Jamoatchilik ongida jismoniy jazoni aniq baholashning yo'qligi. jismoniy va hissiy zo'ravonlik qo'llagancha bolani tartibga chaqirish mumkinmi yoki yo'q? Agar javobingiz "ha" bo'lsa, qay darajada? Masalan, Levinson (1989)

¹ Н.О.Зиновьева, Н.Ф.Михайлованинг «Психология и психотерапия насилия. Ребенок в кризисной ситуации» номли китобидан парча, - Санкт-Петербург, 2003.

vasiy tomonidan bolani intizomli qilish, o'zgartirish yoki istalmagan/ma'qullanmaydigan axloqni to'xtatish motivatsiyasi maqsadida unga kuch ishlatish sifatida jismoniy jazoni izohlaydi. Maslahat berish vaqtida bizning madaniyatda (shapatilash, gardaniga musht tushirish, qayish bilan jazolash) keng tarqalgan va tarbiyaning tabiiy shakli deb hisoblanuvchi hamda zo'ravonlik sifatida ko'rib chiqiluvchi jismoniy jazolash bilan ko'p to'qnashishga to'g'ri keladi. Farq shundaki, kimdir bunga so'nggi chora sifatida murojaat qilsa, kimdir esa buni tez-tez qo'llaydi.

Bu xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham tasdiqlanadi. Varru (1980) ta'kidlaydiki, ota-onalar jismoniy jazoni bolaning aniq axloqini tezda oldini olish yoki unga umumqabul qilingan me'yor va qoidalarni singdirish holatida zaruriy jazo, deb hisoblaydilar. Bu masala bo'yicha o'qituvchilarning fikri bo'lindi: ularning bir qismi tartibni saqlash uchun jazolashga yo'l qo'yish mumkin, deb hisoblasalar, boshqalari buni rad etadilar va uni keraksiz hamda bola huquqlariga zid deyдилar (Tite,1993). Biroq ko'pchilik o'qituvchilar jazoni zarar yetazuvchi, zo'ravonlikni chaqiruvchi deb hisoblaydilar, ularning ozchiligigina shapatilashga qarshidirlar. Shuning uchun bola unga nisbatan namoyon etilgan zo'ravonlikni "loyiq" jazo deb qabul qiladi va hech kimga arz qilmaydi.

2. Ommaviy axborot vositalarida zo'ravonlikning namoyish qilinishi.

Deyarli har kuni televizor ekranlarida va video orqali namoyish qilinayotgan zo'ravonlik (multfilmlar, kinofilmlar, ko'rsatuvlar) bola yoki o'smirning zo'ravonlik to'g'risida qadriyat va maqbul axloqni o'zlashtirish vositasi sifatidagi fikrini mustahkamlaydi. Bola ko'rgan qadriyatlari, qiliqlari va axloq me'yorlarini oson o'zlashtiradi, chunki fikrlash, baholash va reallikni farqlash hamda fantaziyalar jarayoni hali etarlicha rivojlanmagan. Ko'rilgan tajovuzni u o'zining kundalik hayotiga shaxsiy maqsadlarda ko'chirishi mumkin. Bundan tashqari, tolerantlik, zo'ravonlikka idroklilik o'syapti. AQSh da dastlabki saboq chiqarildi: shtatlardan birida TV da zo'ravonlik aktlarini namoyish qiluvchi filmlar miqdori 10 foizga oshirildi, buning oqibatida ko'chalarda zo'ravonlik holatlari 5 foizga

ortdi (S.V.SЫsarev, 2001). Asosan bu yosh xususiyatlariga ko'ra tajovuzkorlikning yuqori darajasiga ega bo'lgan o'smirlarga ta'sir ko'rsatadi.

3. Davlat qonunchiligida mustahkamlangan fuqarolarning xususiy hayoti, shaxsiy va oilaviy sirlarning dahlsizligi huquqiy zo'ravonlik faktini o'z vaqtida aniqlash va aralashuvni amalga oshirish imkonini bermaydi. Oila hamisha axlatni uydan tashqariga chiqarmaslikka intiladi va haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ijtimoiy xizmatlarning har qanday urinishlari qarshilikka uchraydi va shaxsiy hayotga aralashuv sifatida qaraladi. Bola tarbiyasi – ichki oilaviy ish, oila muammolarni o'zi uddalashi kerakligi va unga aralashishga hech kimning haqqi yo'qligi haqida keng tarqalgan fikr aslida zo'ravon ota-onalarga imkoniyat yaratadi.

4. Samarali ogohlantiruvchi davlat siyosatining yo'qligi. Rossiyada faqat oxirgi yillarda zo'ravonlik qurbonlari uchun krizis markazlari, boshpanalar va ijtimoiy mehmonxonalar yaratila boshlandi. Biroq hali xatar guruhidagilar uchun mo'ljallangan ta'limiy va rehabilitatsion dasturlar – ko'mak dasturlari (zo'ravonlik va jumladan, jinsiy zo'ravonlik uchun shartli hukm qilingan o'smirlar uchun), zo'ravonlikka moyil ota-onalar uchun maxsus o'qituvchi dasturlar, jinsiy zo'ravonlik qurbonlari ustidan patronaj (uyga borib tibbiy-profilaktik yordam ko'rsatish) va h.k. lar deyarli yo'q. Bu kabi dasturlar AQSh va Kanadada mavjud, biroq bizda hali yo'q. Profilaktika choralaridan biri maxsus jinsiy ta'lim, bolalar, o'smirlar, ota-onalar, pedagoglar, ijtimoiy ishchilar va militsiya xodimlarini qamrab olgan xavfsiz muloqot asoslarini o'z ichiga oluvchi o'quv dasturlarini yaratishdan iborat.

5. Jamiyat tomonidan zo'ravonlikni ijtimoiy muammo sifatida yetarlicha tushunilmasligi. M.Rouz Esseks (1994) ko'rsatadiki, ba'zida bolalarning jinsiy axloqni qandaydir turiga jalb qilish mumkinligini tasavvur qilish va anglash qiyin. Haqiqatan bolalar juda kichik yoshidanoq kattalar bilan turlicha munosabatga jalb qilinganlar, bu munosabatlar spektri me'yordagisidan buzilganigacha tarqalgan bo'lishi mumkin. Afsuski, hozirga qadar Rossiya qonunchiligida rasmiy qonunlarda bo'lganidek, noqonuniylari asosida ham

zo'ravonlikni tasniflash mumkin bo'lgan aniq mezonlar ishlab chiqilmagan. Bola va kattalar o'rtasidagi aloqani qaysi shakllari qonuniy taqiqqa tushishini aniqlash, aynan jinsiy aktdan tashqari qaysi holatlarda bolaga nisbatan muayyan harakatlar ota-onalik muhabbati, qaysilari – yo'ldan ozdirish ko'rinishi ekanligini ko'rib chiqish oson emas. Bunday vaziyatlarni hal qilish mexanizmi ishlab chiqilmagan, bolalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni o'qitishni olib borish zarur.

O'qituvchilar, shifokorlar, tarbiyachilar, odatda, bolalarga zo'ravonlik qilinayotganini birinchilardan bo'lib sezadilar. Ularning buni taniy olishlari, shafqatsiz munosabatga duchor bo'lgan bolalar bilan o'zlarini qanday tutishni, shuningdek, qanday vaziyatlarda va qanday organlarga (protsedura qoidalari) tezlikda xabar berishni bilishlari juda muhim. Agar zo'ravonlik fakti va protsedura qoidalarini reaksiya qilish mexanizmlarini belgilanganida edi (masalan, bolga maslahat berish holatida: kim, qaerda va qanday maslahat berish huquqiga ega, kim va nima uchun mas'ul?), unda real va aniqlangan holatlar miqdoridagi farq qisqarardi. Xabar berishdan voz kechish sabablari tanishdagi ishonchsizlik (bu zo'ravonlik hisoblanadimi?), ota-onalar huquqini poymol qilishdan yoki oila bilan o'z munosabatini va asosiysi oilalar va qurbon orasidagi munosabatni murakkablashtirishdan qo'rqish bo'lishi mumkin. Bolani himoya qilish protsedurasi va aniq mezonlarning yo'qligi, maktab va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi ushbu muammoni hal qilishga ta'sir ko'rsatadi.

6. Aholining past huquqiy savodxonligi.

Aholining bola to'la huquqli shaxs sifatida ko'rib chiqiladigan amaldagi qonun va konvensiyalarda mustahkamlab qo'yilgan bola huquqlari va muhofazasi hamda zo'ravonlik qurbonlari – bolalarga yordam ko'rsatuvchi har bir fuqaro organlarga xabar berishi majburligi to'g'risida yetarlicha xabardor emasligi.

7. Bolalarning o'z huquqlari haqida yomon xabardorligi. Bolalar ko'pincha o'zlarining to'la huquqli shaxs ekanliklari va jamiyat tomonidan himoyalani hamda yordam olish huquqiga egaliklarini bilmaydilar. Ular himoya uchun qanday organlarga murojaat qilish zarurligi, qaysi ijtimoiy muassasalar ularga yordam ko'rsatishi mumkinligidan bexabar bo'ladilar. Shuning uchun

o'qituvchilar bolalarning o'zlari o'zlarini himoya qilishlariga o'rganishlari uchun ular bilan zo'ravonlik, o'z huquqlarini himoyalash mavzularida suhbat uchun tayyor bo'lishlari zarur.

8.Qonunchilikni takomillashtirish. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoyalash haqidagi qonunlar ko'pincha o'ta deklarativ bo'lib, aniqlashtirish va takomillashtirishni talab qiladi. Masalan, Rossiya qonunchiligiga muvofiq otionalik huquqidan mahrum qilishga yetarlicha uzoq muddat – bir necha yilgacha ketadi. Bu vaqtda bolalar bir necha yetimxonalarda bo'lishga majburdirlar, natijada ularning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga putur yetadi, yoshi ulg'aygan sari esa ularning muvaffaqiyatli moslashuvi ehtimoli kamayadi. Agar bola uchun bevosita xavf bartaraf qilinsa, unda ko'p hollarda jinoiy ta'qib ham to'xtatiladi. Barcha holatlar ham sudgacha bormaydi. Bola ko'pincha bir joydan boshqasiga qo'shimcha psixiatrik va psixologik ekspertizadan o'tish va h.k. uchun yo'llanadi. Bu vaqtda azoblanuvchi bolaning iloji boricha ertaroq har tomonlamalik psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam olishi juda muhim. Shu munosabat bilan jarayonga jalb etilgan bolalar bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida mustahkam hamkorlikni uyushtirish zarur.

Oila darajasida zo'ravonlikni qo'llash xavfi omillari

Browne (1988) hisoblaydiki, oiladagi zo'ravonlikni vaziyatli (buzilgan oilaviy munosabatlar, o'z-o'zini past baholash, bolani istamaslik) va tuzilmaviy (ishsizlik, ijtimoiy ajralib qolganlik, moliyaviy qiyinchiliklar) stresslar qo'zg'atadi. Turg'un va xavfsiz oilaviy munosabatlar stresslarning salbiy ta'sirini pasaytiradi va qiyinchiliklarni bartaraf etishning ijobiy, barobar koping-strategiyalaridan foydalanish tezligini oshiradi (Mixaylova N. F., 1998; Papadopulu M, 2001). Noturg'un munosabatlar boshqa stresslar bilan birgalikda zo'ravonlikni namoyon qilishga ko'maklashishi mumkin. Bola ustidan zo'ravonlik jamiyatning barcha qatlamlarida uchraydi, chunki barcha oilalar u yoki bu darajada noturg'un iqtisodiy tizim ta'siriga tushadilar. Biroq Straus (1980) fikriga ko'ra, kambag'allikning past chegarasida yashovchi oilalarda bu iqtisodiy holati yaxshi oilalarga qaraganda ikki barobar ko'proq sodir bo'ladi.

Oilada zo'ravonlik xavfini oshiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar

1. Past daromad va doimiy pul yetishmasligi oila a'zolarining asosiy ehtiyojlarining qondirilmashligi bilan bog'liq holda zo'riqishni chaqiradi.
2. Ishsizlik yoki vaqtinchalik ish, shuningdek, past mehnat maqomi (ayniqsa, otalarda). Ishlovchi onalar zo'ravonlikka kamroq moyildirlar.
3. Katta oila katta hissiy va moddiy xarajatlarni talab qiladi.
4. Juda yosh ota-onalar. Birinchi farzandning tug'ilishi ota-onalar shaxsining pedagogic ko'nikmalarga ega emasligi, ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining past darajasi bilan uyg'unlikda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yomonlashtiradi.
5. Noto'liq oila. Ota-ona – boquvchilardan faqat birining bo'lishi moddiy holatni ahamiyatli tarzda yomonlashtiradi. To'liq bo'lmagan oilaning daromadi to'liq oilanikiga qaraganda ikki barobar kam.
6. Guruhli kamchilikka mansublik. Diniy sektaga mansublik, tor doiradagi odamlar bilan – qishloq, kichkina shaharda yashash ishsizlik va ma'lumotning past darajasi bilan uyg'unlikda ijtimoiy ajralib qolishga olib keladi va ko'mak hamda ijtimoiy nazorat imkoniyatini chegaralaydi. AQSh da faqir tumanlarda bolalarga nisbatan qo'llanadigan zo'ravonlik holati tez-tez uchraydi.
7. Xonadondagi yomon sharoit, aholi yashaydigan maydonning juda zichligi zo'ravonlikni qo'zg'atishi mumkin bo'lgan qo'shimcha zo'riqishga olib keladi.
8. Ijtimoiy yordamning davlat tomonidan bo'lganidek, jamoatchilik tashkilotlari tomonidan ham yo'qligi oilani o'z muammolari bilan yolg'iz qoldiradi. Surunkali stressli vaziyatlar oilaning psixologik iqlimiga ta'sir ko'rsatgancha ota-onalarda frustratsiya va himoyasizlikni uyg'otadi. Modomiki, bola ota-onasiga tobe bo'larkan, uning uchun "hamma baloga to'g'anoq bo'ladigan shaxs" bo'lish xavfi yuqori.

Oila tuzilmasi va muloqot modeli bilan shartlangan xatar omillari

Vrowne (1988) va Straus (1980) tadqiqotlar natijasida bolalar bilan shafqatsiz muomalaga ko'maklashuvchi omillar va sharoitlarni aniqladilar:

1. Yolg'iz ota-onali, shuningdek, ko'p bolali oila. To'liq bo'lmagan oilada oddiy oilalarga qaraganda stressni boshdan kechirish uchun zamin ko'proq (ancha og'ir moddiy sharoit, ota-onalarda bo'sh vaqtning yetishmasligi, har bir bolaga e'tiborning noteng bo'linganligi va h.k.). Murakkablashtiruvchi omil onaning birga yashovchi sherigini tez-tez almashtirishi oilaviy tizimning shakllanishini ahamiyatli tarzda qiyinlashtiruvchi oilaning noturg'unligi hisoblanadi. Birinchidan, bolalar bilan birga yashovchi sheriklar o'rtasidagi munosabat turli shakllanadi va ko'pincha noaniq bo'ladi; ikkinchidan, ular noturg'unligi bilan farq qiladi, bu ko'p hollarda oilaga qo'shilgan yangi a'zoning huquqi bilan shartlanadi.

2. O'gay ota yoki tutingan ota-onalar. Finkelhor'a (1986) fikriga ko'ra, o'gay ota mavjud bo'lgan oilalarda qizchaga jinsiy zo'ravonlik xavfi ortadi.

3. Oila a'zolari o'rtasidagi nizoli yoki zo'ravon munosabatlar. G'arbiy mutaxassislarning tadqiqotlari tasdiqlaydiki, o'zaro nizolarni hal qilishda zo'ravonlikni qo'llovchi ota-onalar bolalariga nisbatan ham ularni bo'ysundirish maqsadida uni qo'llashga moyil bo'ladilar. Turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlikka uchragan ayollar uni o'z farzandlariga tez-tez namoyish qiladilar. ota-ona o'rtasida noteng bo'lingan hokimlik mavjud oilalarda qachonki ota-onalardan biri hal qilish huquqi va imkoniyatiga ega bo'lsa, bolalar ustidan zo'ravonlikni qo'llash ehtimoli birmuncha yuqori.

Shuningdek, siyqa, noaniq oilaviy rolli va vazifali, tarbiyaning goh u yoqqa goh bu yoqqa og'ib turuvchi turi bo'lgan oilalar, qachonki bolaga izchil bo'lmagan va qarama-qarshi talablar qo'llanarkan, bolaga nisbatan zo'ravonlik namoyon etilishning yuqori xavfiga ega. Bolaga zo'ravonlik namoyon qiladigan oilalar oila a'zolari o'rtasida yetarli bo'lmagan va buzilgan hissiy aloqalar hamda kommunikatsiyaning mavjudligi bilan ajralib turadilar, buning oqibati sifatida oilaviy jipslilikning past darajasiga mos ravishda psixologik ko'mak shakllanmagan va samarasiz bo'ladi (Mixaylova N.F., 1998, 2001).

4. Er-xotin o'rtasidagi muammolar (qoniqmaslik, hissiy qo'llab-quvvatlashning yo'qligi yoki yetishmasligi va h.k.). Olinadigan hissiy qo'llab-

quvvatlash xarakteri onaning psixologik xotirjamligi va yakuniy hisobda – uning farzandi bilan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi.

Sooheu (1995) hisoblaydiki, turmush o'rtog'i tomonidan tashlab ketilgan yoki munosabatlardan qoniqmagan ayol o'z farzandiga nisbatan mehrni namoyon qilish va yaqinlik o'rnatishda qiyinchilikni his qilishlari mumkin.

Lynch (1976) o'z tadqiqotlari natijasida psixoanalitik yondoshuv doirasida sharhlanadigan xulosaga keldi. Uning nuqtai nazari bilan rashkni namoyon qiluvchi otalar bolani raqib sifatida qabul qiladilar, buning oqibatida ular bolani hissiy rad etishga moyil bo'ladilar va bolani qo'llab-quvvatlash hamda unga yordam berish o'rniga onaning muhabbati va mehri uchun kurashga kirishadilar.

5. Avlodlararo odatlarning qaytarilishi. Bolaligida zo'ravonlikni his qilgan yoki ko'rgan ota-onalar o'z bolalariga nisbatan uni qo'llashga moyil bo'ladilar. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan ota-onalar ilk yoshidanoq boshqa odamlar va xususan, oila a'zolariga nisbatan tajovuzkor axloq patternlarini o'zlashtirganlar. Ular uchun zo'ravonlik – ijtimoiy nizolarni hal qilishning dastlabki va odatiy usulidir. Bolaligidan zo'ravonlikdan azoblanuvchi ota-onalar o'z-o'zini past baholash, ijtimoiy yakkalanish, surunkali kundalik stresslarni boshdan kechirish, yaqin munosabatlar, ayniqsa, o'z bolalari bilan munosabatlarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar bilan farqlanadilar. Bolalikning jarohatli tajribasi ularning ota-onalik vakolatini pasaytiradi. Ular tomonidan tashlab ketilganlik, beparvolik va muhabbatning yo'qligini boshdan kechirilishi ba'zida so'zsiz bo'ysunishni talab qilish bilan birga uyg'unlashib, odamlarga, jumladan, o'z farzandlariga bo'lgan ishonchsizlikni shakllantirgan. Juda ko'p hollarda ular axloqning o'sha modelini takrorlaydilar: qat'iy talablar va jazo. Yopiq doirani yorib chiqish va “oilaviy zo'ravonlik” vorisiyligini uzishni uddalagan ota-onalar buni bolalikda boshqa kattalardan hissiy ko'mak olganliklari va hozirgi kunda sherik tomonidan olayotganliklari sharofati bilan eplaganlar.

6. Ota-ona va bolaning o'zaro munosabatlari muammolari. Agar ota-ona va bola o'rtasida yaqinlik tuyg'usi shakllanmasa, unda zo'ravonlik xavfi ortadi. Bundan tashqari bolada katta yoshida mustaqillik va yaqin munosabatlarning

shakllanishida qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin, chunki munosib sharoit va odamlar bilan muloqotning asosiy malakasini egallash, amaldagi axloq me'yorlarini o'zlashtirish, muammolar, hissiy aloqalarni hal qilish mahoratini rivojlantirish uchun namuna yo'q. Bu giyohvand, toksikomaniya bilan (Olson D., Killorin E., 1984) va spirtlik ichkiliklar (Bonk J, 1984) bemorlangan oilalar va ota-ona hamda o'smirlar o'rtasida destruktiv munosabatlar xavfi yuqori bo'lgan (Gabarino J, Sebes J, Schellenbach S., 1985), to'liq bo'lmagan va delinkvent oilalar (Rodick J., Henggler S., Hanson C., 1986), jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslarning oilalarida (Carnes P., 1985) olib borilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi. Bunday oilalarda bolaga ijobiydan ko'ra salbiy ta'sir ko'proq bo'ladi, ota-onalar uning har tomonlama rivojlanishidan manfaatdor emaslar, ularda bolaning kelgusidagi tarbiyasi va ta'limiga taalluqli rejalar yo'q va h.k.

7. Oilaning hissiy va jismoniy yakkalanishi. Yakkalanish ijtimoiy aloqalar, rasmiy va norasmiy qo'llab-quvatlashning yo'qligida namoyon bo'ladi. Ota-onalar uchun ijtimoiy ko'mak sifati miqdordan ko'ra ancha muhim (Seagull, 1987). Smith, Lynch va boshqalarning tadqiqotlari ko'rsatdiki, zo'ravonlikni namoyon etuvchi onalarda katta ehtimollik bilan o'zlari ishonadigan yoki o'z muammolari bilan murojaat qiladigan yaqin odamlari yo'q. Ko'p hollarda ular o'z onalari bilan yaxshi aloqada bo'lmaganlar, bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy onalik rolining shakllanishiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Ularda bolani kimningdir vasiyligiga qoldirib, o'zlari uchun vaqt ajratish imkoni bo'lmagan. Vaziyatni otaning bola tarbiyasida ishtirok etmagani ham chuqurlashtirgan. Bu ota-onalar ijtimoiy yordam ko'rsatish imkoniyati to'g'risida bilmaganlar va ko'mak izlashda deyarli zaif va himoyasiz bo'lganlar.

Ota-ona shaxsi bilan bog'liq xatar omillari

1. Ota-ona shaxsining xususiyatlari. Agar ota-onalar rigidlik, hukmronlik qiluvchi, xavotirli, tez g'azablanadigan (ayniqsa, bolaning qo'zg'atuvchi axloqidan), o'z-o'zini past baholash, ruhiy tushkunlik, ta'sirchan, tobe, empatiya va ochiqlikning past darajasi, stressga past chidamlilik, tajovuzkorlik, odamovilik,

shubhalilik va o'z-o'zini tenglashtirishdagi muammolar kabi psixologik xususiyatlarga ega bo'lsalar, zo'ravonlik ortgan (Kristel Altosaar, 2000).

2. Ota-onalarning atrofdagilarga salbiy munosabati va bolaga nisbatan noteng ijtimoiy kutilmalari. Bu holatda ota-onalar bola axloqini kuchli stressor sifatida baholaydilar. Ularni qoniqmaslik va o'z-o'zini salbiy his qilish farqlaydi. Ular o'zlarini baxtsiz, o'z oilaviy hayotlaridan qoniqmagan, stressdan azoblanayotgandek his qiladilar.

3. Ijtimoiy ko'nikmalarining past darajasi. Muzokara olib borish, nizo va muammolarni hal qilish, stressni uddalash, boshqalardan yordam so'rash malakasining yo'qligi. Bunda psixologik himoya mexanizmlari ishga tushadi – yordamni qabul qilmaslik uchun muammoning mavjudligi inkor qilinadi. Bolalar ustidan zo'ravonlik oilaviy sir hisoblanadi, modomiki bu holat qo'rquv, ayblov, uyat, gunoh va h.k.ni uyg'otarkan izchil yashiriladi va ochiq muhokama qilinmaydi.

4. Ota-onaning psixik salomatligi. Yaqqol ifodalangan psixopatologik og'ishlar, asabiylik, ruhiy tushkunlik, suitsidga moyillik bolalarga nisbatan zo'ravonlikni qo'llash xavfini orttiradi.

5. Ota-onalar alkogolizmi va giyohvandligi bundan kelib chiquvchi psixofarmakologik muammolar hamda buzilishlar: tajovuzkorlik, g'azablanish, uyg'unlashuvning buzilishi, o'z axloqi ustidan zaiflashgan nazorat, tanqidning susayishi, shaxsning o'zgarishi va boshqa muammolar.

6. Sog'liq bilan muammolar. Lynch (1975) fikriga ko'ra, zo'ravonlik xavfining oshirishi mumkin bo'lgan omillarga patologik o'tuvchi homiladorlik, to'xtatib qo'yilgan homiladorlik, og'ir tug'ishlar taalluqli. Bularning barchasi asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi va ayolni stressorga nerezistent (chidamsiz) qilib qo'yadi.

7. Hissiy to'lalilik va aqliy zaiflik. Ota-ona hamisha ham bemor farzandining ahvolini uning kasalligi va oqibatlarini davomida tushunavermaydi, shuning uchun bolani zaruriy yordamsiz qoldirishi mumkin (Johnson, 1993).

8. Ota-onalik ko'nikmasi va tuyg'ularining rivojlanmaganligi. ota-onalik tuyg'ulari va ko'nikmalarining tanqisligi juda yoshlar, aqliy zaiflar, psixik jihatdan

nosog'lom ota-onalar uchun xosdir. Yosh ota-ona asabiy bo'lishlari mumkin, chunki talablarni uddasidan chiqa olmasliklaridan qo'rquvni his qiladilar. Bunda ruhiy tushkunlik va xavotir stressning tolerantligini, tarbiyada yuzaga keladigan kiyinchiliklarni engish qobiliyatini susaytiradi (Mixaylova N. F., 1998). Asabiy-psixik buzilishi bo'lgan ota-onalarda o'ziga nisbatan shaxs sifatida ham, ota-ona sifatida ham xavotir va ishonchsizlik ko'proq ro'y beradi.

Juda yosh ota-onalar hali voyaga yetmaguncha o'zlariga mas'uliyatni ololmaydilar, bolaning rivojlanishi va tarbiyasi to'g'risida zaruriy bilimlarga ega bo'lmaydilar. Zo'ravonlikni namoyon etuvchi ota-onalarda ko'pincha bolaning tajovuzkor axloqini uddalay olish imkonini beruvchi malaka yo'q. Ular o'zlarida bolaga nisbatan yuzaga keladigan shaxsiy tajovuzkorlik va g'azabni yengish holatida bo'lmaydilar, odatdagiday, ular bolaning ehtiyojlarini tushunmaydilar, uning mahorati va qobiliyatini baholashga qodir bo'lmaganliklari sababli unga o'zlarini qoniqtirmaydigan talablar qo'yadilar. Bunday ota-onalar ko'pincha bola ustidan nazoratni yo'qotishdan qo'rqancha tarbiyaning avtoritar usulidan foydalanadilar, jazolashga esa bola axloqini korreksiyalash usuli sifatida qaraydilar. Bu ba'zida boshqa imkoniyatlarni bilmaslik bilan shartlanadi.

Shunday toifadagi ota-onalar borki, ular bola o'zlarining hissiy ehtiyojlarini qondirish uchun mavjudligi, bola bo'ysunuvchan, sezgir, muloyim, tushunuvchan bo'lishi kerakligi, ularni ranjitmasligi, sevishi va xursand qilishi kerakligiga butkul ishonadilar. Shunday qilib, bolalik muammosiga mas'uliyat bolaning o'ziga yuklanadi, bunda kattalarning roli rad etiladi.

6.2. Noloyiq munosabatning bolalar ruhiyatiga ta'siri va oqibatlari¹

Qator tadqiqotlar ota-onalarda norozilik, g'azablanish, ba'zida qo'rquv va shuning ketidan keluvchi zo'ravonlikni chaqiruvchi bola shaxsining bir qancha xislatlarini aniqladi.

¹ М.В.Новикованинг «Психологическая помощь ребенку в кризисной ситуации» номли китобидан парча. – М.: Генезис, 2006.

Lynch (1975), Lystard, Straus va boshqalarning hisoblashicha, zo'ravonlik qurbonlari bo'lishning yuqori xavfiga rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar, shuningdek, ota-onalar uchun murakkab sharoitda tug'ilgan bolalar duchor bo'ladilar, masalan:

- ona uchun ko'tarib yurish va tug'ish og'ir bo'lgan, tez-tez kasal bo'ladigan va onasi bilan hayotining birinchi yilidayoq ajratilgan bolalar;
- istalmagan, shuningdek, ota-onalar tomonidan oldingi farzandi yo'qotilgan tug'ilgan bolalar (ota-onalarning bu bolani ham yo'qotishdan qo'rqishlari o'ta g'amxo'rlik qilishlariga olib keladi, bu esa bola bilan muomalada yo'l qo'yib bo'lmaydigan shakl hisoblanadi);
- axloqida buzilishi va o'ziga xosligi bo'lganlar (g'azablanish, achchiqlanish, impulsivlik, giperfaollik, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan axloq, uyquning buzilishi, enurez);
- shaxsning muayyan xislatlari bilan (talabchan, odamovi, aptik, befarq, tobe, ahamiyatli darajada ta'sirchan);
- past ijtimoiy malaka, shuningdek, ota-onalar asabiga tegadigan odatlar bilan;
- boshqalardan farqlanuvchi va ota-onalar tomonidan og'ir kechadigan va ular hech qanaqasiga murosaga kelolmaydigan tashqi ko'rinish xususiyatlari bilan (masalan, "unday" jins bo'lmaganligi yoki tashqi ko'rinishidagi buzilish bilan).

Bolaning tajovuzkor axloqi, fe'l-atvorining murakkabligi, alohida ehtiyojlari (masalan, bemor bolani ovqatlantirish, autizmda qoloq tartibga moyillik, parishonxotirlik, qovushmaganlik va o'ta harakatchanlik va h.k.) oilada distress va bolaga nisbatan zo'ravonlikni namoyon etish ehtimolini oshiradi.

Ayniqsa, ota-ona tajovuzkorligi bo'lgan yoki alohida ehtiyojli bola bilan muomala qilish malakasiga egaligi, ularda yuzaga keladigan zo'riqishni barobar, ijobiy usulda olib tashlashga qodir bo'lishi ahamiyatli. Ko'pincha "tarbiyasi og'ir" bolalar maktabda ham, uyda ham ko'p marotaba zo'ravonlik qurbonlari bo'ladilar.

Shunday qilib, bola ustidan zo'ravonlikni oldini olish, aniqlash va aralashuvda inobatga olinishi zarur bo'lgan madaniy va psixologik kontekstda ko'rib chiqish kerak. Shuningdek, shuni ham unutmaslik lozimki, doimo atrof muhit, oila va individual darajadagi xatar omillarining majmuaviy ta'siri zo'ravonlikka olib keladi.

Faqat bir yilning o'zidayoq 95,000 bolalar joniga qasd qilish sababli vafot etgan, ulardan aksariyat holatida bolalar o'limi o'z oilasidagi yaqinlari tomonidan sodir etilgan.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 2 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar:

- 10 tadan 6 nafari ota onasi va vasiylari tomonidan muntazam jismoniy jazolanadi;
- 5 tadan 4 nafari uyda zo'ravonlik munosabti qurboni bo'lgan;
- 10 tadan 7 nafari psixologik zo'ravonlikka duchor bo'ladi;
- 4 dan 3 qism bolalar ilk bolalik davrida qo'rqitilganlar, 13 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning taxminan 30-40 %i bolaliklaridan bir marotaba bo'lsa ham kaltaklanishdan azoblanganlar

Dunyoda bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosi: 2 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan har 5 tadan 4 nafar bola o'z oilasida zo'ravonlikning u yoki bu turiga duchor bo'ladi.

Har qanday zo'ravonlik oshkora va yashirin bo'lishi mumkin. U dolzarb (hozirgi vaqtda sodir etilgan) va o'tmishda ro'y bergan bo'lishi ham mumkin. Bola ustidan zo'ravonlik quyidagicha sodir bo'lishi mumkin:

uyda – qarindoshlari yoki qo'shnilar tomonidan,

maktabda – pedagoglar yoki bolalar tomonidan,

ko'chada – bolalar yoki notanish kattalar tomonidan.

Modomiki, zo'ravonlik yashirin bo'lishi mumkin ekan, uning mavjudligi faktini aniqlashning o'zi oson emas. Shu bilan bog'liq ravishda pedagog va psixologlarga bolada aynan zo'ravonlik uyg'otgan asosiy belgilar va krizis simptomlarini tasavvur qilish mazmun kasb etadi.

Jismoniy zo'ravonlik – hayotiy krizis sababi sifatida

Shafqatsiz jismoniy muomalaga duchor qilingan bolalarda quyidagi belgilar kuzatilishi mumkin:

Jismoniy:

- teridagi o'zgarishlar (tirnalgan joy, musht izlari);
- suyak yoki yumshoq to'qimalarning zararlanishi;
- g'urralar;
- ko'z qorachig'iga qon quyilishi;
- tananing lat yeyishi;
- kuyishning muayyan turi yoki undan keyingi chandiqlar (ko'plab – tamakidan, dazmol va boshqa narsalardan);
- tishlash izlari;
- rentgen yordamida yopiq sinish, muskularning siljishi va boshqalar.

Psixologik:

- bolada stress-sindromining mavjudligi (masalan, qonning etarlicha aylanmasligi va buning oqibatida qo'l va oyoqlarning muzday bo'lishi, "marmarsimon" teri, rangparlik);

- bola chehrasining xarakterli ifodasi (uni "doimiy hushyor" deb ataydilar);
- bola axloqida reflektorlik imo-ishoralar va himoya holatining mavjudligi.

Umuman olganda jismoniy zo'ravonlikka duchor bo'lgan bola "tashlandiq" ko'rinishga ega bo'ladi, odamovilik, begonalashish, xavotirli, g'azabli axloq va o'z-o'zini past baholashni namoyish qiladi.

Bolalar ustidan jismoniy zo'ravonlik sodir etilganini shubha qilishga imkon beruvchi turli yoshdagi bolalarning axloqi va o'ziga xos psixologik holati:

0-6 oygacha:

- kam harakatchanlik
- atrof olamga befarqlik
- tashqi rag'batlarga reaksiyaning yo'qligi yoki juda zaif ifodalangan reaksiya
- kamdan-kam jilmayish (uy oylikdan katta bolalar uchun)

6 oydan – 1,5 yoshgacha:

- ota-onalarning qo'rquvi
- kattalar bilan har qanday jismoniy aloqadan qo'rqish
- doimiy sababsiz ehtiyotkorlik
- yig'loqilik, doimiy nolish, odamovilik, qayg'u

1.5-3 yosh:

- kattalarda qo'rqish
- yig'loqilik, quvonchni namoyon etish – juda kam holatda
- boshqa bolalarning yig'isiga qo'rquv reaksiyasi
- axloqdagi chegara – nihoyatda tajovuzkorlikdan befarq qarashgacha

3 yoshdan – 6 yoshgacha

- unga tajovuzkor munosabatda qarshilik ko'rsatmaslik
- og'riqqa passiv reaksiya
- tanbeh, tanqidga og'riqli munosabat
- tilyog'lama axloq, o'ta ko'ngilchan
- Soxta yosh axloqi (kattalarga kuchli taqlid)
- negativizm, tajovuzkorlik
- aldanchilik, o'g'rilik
- hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik
- yondirishga moyillik

Kichik maktab yoshi:

- o'zining jismoniy shikastlangan joyi va jarohatlari sababini yashirishga intilish
- do'stlarining yo'qligi
- maktabdan keyin uyga borishga qo'rqish
- tanovulga g'ayrioddiy ishqibozlik (shtukaturka, yer, go'ng, qog'oz varaqlari, shilliq qurt, kichkina qo'ng'izlar va h.k.).

O'smirlilik yoshi:

- uydan qochib chiqib ketish
- suitsidal (o'zini o'zi o'ldirishga) urinishlar

- qonunga qarshi axloq
- spirtlik ichimliklar, giyohvand, toksik moddalar iste'mol qilish.

Jismoniy zo'ravonlikni his qilgan bola shafqatsiz qiliqlarni namoyish qilgancha axloqning tajovuzkor modelini ishlab chiqadi. Agar u o'z tuyg'ularini bostirsa yoki rad etsa, zo'ravonlik krizisining oqibatlarini o'z-o'zini parchalovchi axloq (autotajovuzkorlik, suitsid, ruhiy tushkunlik va h.k.) da namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pincha bunday bolada o'zining impulsivligi ustidan nazorat bo'lmaydi, o'z-o'zini ifodalashga qobiliyat pasaygan bo'ladi, odamlarga ishonch yo'q.

Jinsiy zo'ravonlik – hayotiy krizis sabablari sifatida

Jinsiy zo'ravonlik – bola bilan shafqatsiz muomala shakllaridan biri. Adabiyotlarda bir qator sabablar bo'yicha, jumladan, zo'ravonlik, shuningdek, zo'ravonlikning jinsiy zo'ravonlik ham kiradigan ko'p uchraydigan har xil turlari uyg'unligida uning chegarasini aniqlashdagi murakkablik kuchi bilan bu tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emasligi ta'kidlanadi. Bu holatda jinsiy zo'ravonlik, masalan, kaltaklash va tahdidlar bilan birga boradi, bu esa jismoniy va psixologik zo'ravonlik demakdir.

Ko'pgina davlatlarda bola ustidan zo'ravonlik qonun bilan taqiqlanadi, shuning uchun jinsiy zo'ravonlik tushunchasini ta'riflash yuridik mazmunga ham ega.

Jinsiy zo'ravonlik – bu bola yoki o'smirdan boshqa shaxs tomonidan jinsiy qoniqish olish uchun foydalanishdir. Shuningdek, u bola boshqa odamning manfaati yo'lida jinsiy ob'ekt sifatida foydalaniladigan har qanday aloqa yoki faollikni ham o'z ichiga oladi.

Jinsiy zo'ravonlik turlari

Jinsiy qiziqtirish

Jinsiy tajovuz

Zo'rlash

Boladan pornografiya va fohishabozlikda foydalanish

Bolani jinsiy xarakterdagi teginish yoki tegishli harakatlarni

rag'batlantirishga tortish

Insest (o'z farzandidan jinsiy aloqada foydalanish).

Shunday qilib, fahsh yo'liga kirish nafaqat aynan jinsiy akt, balki boshqa jinsiy harakatlarning keng spektri ham hisoblanadi: ...bolaning jinsiy organlari bilan har qanday aloqa, bolaning yoshiga mos bo'lmagan shilqimlik, erotik materiallarni namoyish qilish, kattalarning jinsiy qiziqishlarini qondirish maqsadiga ega bo'lgan jinsiy xarakterdagi har qanday suhbat, bola ishtirokida o'z-o'zidan qanoatlanish, ekskibitsionizm (yalang'och tanasini namoyish qilish), vuayerizm (bolani cho'milish, kiyinish yoki hojatxonada ekanligida mo'ralab qarash, shuningdek, bolani yechinishga yoki mo'ralashga majburlash).

Jinsiy zo'ravonlik ostida o'smirlar o'rtasidagi jinsiy harakatlar holati agar ular tahdid yoki jismoniy kuchni qo'llash bilan sodir etgan bo'lsalar, shuningdek, zo'ravon va qurbon o'rtasidagi farq 3-4 yoshni tashkil etsa ham ko'zda tutiladi.

Bola uchun jinsiy zo'ravonlik oqibatlari

Bola ustidan zo'ravonlikning o'ziga xos belgilarini ajratish va qayd qilish qurbonga o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida faktlarni tanish uchun katta ahamiyatga ega. Bolaning boshdan kechirgan zo'ravonlik haqida to'g'ridan-to'g'ri ayta olmasligiga ko'plab sabablar mavjud. Bu holda yaqin atrofdagilarda yuzaga keladigan shubhalar qator belgilar bilan tasdiqlanadi. Ularga quyidagilar taalluqlidir:

3 yoshgacha bo'lgan bolalarda zo'ravonlik oqibati qo'rquv, tuyg'ularning chigallashib ketishi, uyquning buzilishi, ishtahaning yo'qolishi, begona odamlar oldidagi qo'rquv orqali namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagilarda psixosomatik simptomlar kamroq darajada ifodalanadi, birinchi planga hissiy buzilish (qo'rqqoqlik, tuyg'ularning chigallashib ketishi, aybdorlik, uyat, nafrat, himoyasizlik, axloqsizlik hissi) va axloqning buzilishi (regress, begonalik, tajovuzkorlik, jinsiylashgan axloq, o'z-o'zidan qanoatlanish) chiqadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda – kattalarga nisbatan ambivalent tuyg'ular, rolli axloqni aniqlashdagi murakkabliklar, qo'rquv, uyat, nafrat, olamga

ishonchsizlik hislari; axloqida begonasirash, tajovuzkorlik, sukut saqlash yoxud kutilmagan sergaplik, uyqu, ishtahaning buzilishi, boshqa bolalar bilan jinsiy o'yinlar.

9-13 yoshdagi bolalarda kichik maktab yoshidagi bolalardagi kabi belgilar, shuningdek, ruhiy tushkunlik, dissotsiativ epizodlar – hissiyotlarning yo'qolish tuyg'usi, axloqida – ajralish, jinsiy qoniqish olish maqsadida boshqa bolalarni manipulyasiya qilish, qarama-qarshi axloq aniqlanadi.

13-18 yoshdagi o'smirlarda zo'ravonlik oqibati nafrat, uyat, aybdorlik, ishonchsizlik tuyg'ularida, kattalarga nisbatan ambivalent tuyg'ularda, jinsiy buzilish, ijtimoiy rollarning shakllanmaganligi, shaxsiy keraksizlik tuyg'usida namoyon bo'ladi; axloqida: tajovuzkorlik, tana va hissiy yaqinlikdan qochish, mantiqsizlik va ziddiyat kuzatiladi.

Agar zo'ravonlik tasodifan sodir etilgan bo'lsa, unda *bolaning holati bir necha bosqichda o'tadi*.

Zo'ravonlik sodir etilganidan keyingi birinchi kunda bola *shok holatida* bo'ladi, u qaerda ekanini, o'zi bilan nimalar sodir bo'lganini garchi beixtiyor undan nimani talab qilishsa, u nimagan o'rgangan bo'lsa bajaraversa-da, tushunmaydi. Keyin unga o'zining nima qilganini eslash mumkin bo'lmaydi, uning tuyg'ulari sustlashadi. Ba'zida shok holati keyingi kun ham davom etadi.

Keyin *rad etish bosqichi* boshlanadi, bolada vaziyatdan voz kechishning kuchli istagi, o'zini bu voqea u bilan sodir bo'lmagandek va "sodir bo'lganlarning barchasi yolg'on" deya ishontirish xohishi tug'iladi.

Uchinchi-to'rtinchi kun *ruhiy tushkunlik* paydo bo'ladi. Bola yashashni, hech narsa qilishni: maktabga borish, dars tayyorlash, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. Sodir bo'lganlar haqiqat ekanini tan olishga to'g'ri keladi. Ruhiy tushkunlik muddati o'n kungacha davom etadi, ba'zida hiyla uzoq muddatga cho'zilishi mumkin.

Keyin bolani zo'ravonga, o'ziga, militsiyaga, ota-onasiga, boshqa odamlarga, jamiyatga yo'naltirilgan *g'azab* chulg'ab oladi.

Keyingi bosqich – *qaror qabul qilish*. Qaror turlicha bo'lishi mumkin –

bola o'zi bilan nimalar sodir bo'lganini kimgadir aytib berishi yoki sukut saqlash haqida qaror qabul qiladi. U kimgadir yordam so'rab murojaat qilishi yoki og'ir holatidan qutulishi uchun nimanidir mustaqil bajarishi mumkin. Bu bosqichning davomliligi turlicha, u bolaning yoshidan (kichik bolalarda bosqichlarning noaniqligi kuzatiladi), uning fe'l-atvoridagi xususiyatlar, yuzaga kelgan ob'ektiv vaziyatga bog'liq bo'lishi mumkin.

Bolaga beparvolik va yomon munosabat – hayotiy krizis sababi sifatida

Bolaning ehtiyojlariga beparvolik – ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bola haqida hammaga ma'lum g'amxo'rlikning yo'qligi, natijada uning hissiy holati buziladi va salomatligi yoki rivojlanishiga xavf tug'iladi.

Boladagi asosiy ehtiyojlarning qondirilmaslik shakllari:

- bolaning yoshi va ehtiyojlariga mos ovqatlanish, kiyim, turar-joy, ta'lim, davolanishdan voz kechishini kiritgan holda tibbiy yordamning yo'qligi;
- yetarli e'tibor yoki g'amxo'rlikning yo'qligi, natijada bolaning baxtsiz hodisa qurboni bo'lishi mumkin;
- shikast yetkazish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilish, shuningdek, qonunbuzarlik sodir etishga jalb qilish.

Bola haqida yetarli bo'lmagan g'amxo'rlik ataylab qilinmagan bo'lishi ham mumkin. U kasallik, kambag'allik, tajribasizlik yoki ota-onalarning bilimsizligi, tabiiy ofatlar va ijtimoiy iztiroblarning oqibati bo'lishi mumkin. Nafaqat oilalarda yashovchi, balki davlat qaramog'ida bo'lgan bolalar ham tashlandiq bo'lishi mumkin.

Beparvolik yoki bola bilan yomon muomalaning ***oqibatlari*** quyidagicha bo'lishi mumkin: ilk yoshida – psixo-nutqiy va jismoniy rivojlanishda ortda qolish, rivojlanish qobiliyatini yo'qotish; hiyla katta yoshlarda – jismoniy jarohat, kasalliklar, baxtsizlik hodisasi oqibatida zaharlanishga giriftorlik.

Psixologik (hissiy) zo'ravonlik

Psixologik (hissiy) zo'ravonlik – ota-ona (vasiy) yoki boshqa kattalarning bolaga unda fe'l-atvorning patologik chiziqlari shakllanishiga olib keluvchi yoki

uning shaxsini rivojlanishiga xalal beruvchi davriy, muddatli yoki doimiy psixik ta'siri. Psixologik zo'ravonlik *psixologik beparvolik* va *psixologik shafqatsiz muomaladan shakllanadi*.

Psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko'mak, e'tibor, psixologik himoyani ta'minlashga mantiqan qodir emasligi, bolaga mehrning yo'qligi.

Psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etadigan surunkali harakat.

Zo'ravonlikning bu shakliga quyidagilar kiradi:

- bolani ochiq qabul qilmaslik va doimiy tanqid qilish;
- bolani xaqoratlash va uni obro'sizlantirish;
- bola adresiga jismoniy zo'ravonliksiz og'zaki shaklda namoyish qilinadigan tahdidlar;
- bolani maqsadli jismoniy yoki ijtimoiy yakkalab qo'yish;
- unga yoshi yoki imkoniyatlariga mos kelmaydigan o'ta kuchli talablar qo'yish;
- yolg'on va kattalarning va'dalarini bajarmasliklari;
- bolada psixik jarohatni uyg'otuvchi bir karrali qo'pol psixik ta'sir.

Psixologik zo'ravonlikni qo'llash bilan bog'liq krizis oqibatlari bolalarda rivojlanish va ularning ijtimoiy moslashuvi, shuningdek, rivojlanayotgan bola shaxsida alohida hayotiy ssenariyani shakllantiruvchi qadriyatlar tizimi qurilishining buzilishi hisoblanadi. Ko'pincha bunday bolalarning axloqi gipertajovuzkorlik, serjahllik, o'ch oluvchanlik, mayda narsalarga yuqori e'tibor, hissiy ta'sirchan emaslik va rivojlanmaganlik bilan xarakterlanadi, keyingi hayotda bu ko'pincha bolani jinoiy faoliyatga jalb etish xavfiga olib keladi.

Ayni damda bolalarda “qurbon” pozitsiyasi – ularning atrofdagilardan boshqacha ekanliklari, ular alohida e'tibor, himoya, ko'makka muhtojliklari tuyg'usi shakllanishi mumkin. Shu bilan birga ular e'tibor va ko'makni har qanday insondan – u buni xohlaydimi-yo'qmi, bunga qodirmi yoki qodir emasmi – bundan qat'i nazar talab qiladilar. Katta bo'lgach, “qurbon-odam” boshqa odamlarga oddiy

bo'lgan murakkab maqsadlarga erishish, muammolarni hal qilish uchun hech qanday kuch sarflamaydilar, tegishli ravishda u professional karerada muvaffaqiyatga erisha olmaydi, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lmaydi.

Zo'ravonlik haqida guvohlik beruvchi bola axloqining simptomlari:

1. Internallashgan axloq (o'z ichiga yo'nalganlik)

Bu turdagi axloqi ma'lum bo'lgan bolalar ko'pincha yakkalangan va yopiqdirlar. Ular boshqalar bilan o'zaro harakatga intilmaydilar. Shuningdek, ular:

- past kayfiyatning ruhiy tushkunlikkacha bo'lgan belgilarini namoyon qiladilar;

- ichki sabab tufayli paydo bo'ladigan harakatlar va o'yinli axloqning yetishmasligi aniqlanadi;

- bo'ysunuvchan va oson ko'nadigan;

- o'ta sezgir va cho'chiydigan bo'lib ko'rinadilar;

- notipik qo'zg'atuvchilardan cho'chiydilar va yangi narsadan qo'rqadilar;

- uyqu va uyquga ketish bilan muammoga ega bo'ladilar;

- bosh va qorindagi og'riqdan, ovqat hazm qilish siklining buzilganligidan ko'p noliydilar;

- tobe axloqqa moyildirlar;

- suitsid tahdidini aniq ifodalaydilar;

- qachonki bola boshidan kechirgan tajribadan ajralib chiqishga urinarkan dissotsiativ buzilishga moyillar;

- autotajovuzkorlik – o'ziga yo'naltirilgan tajovuzkorlikni namoyish qiladi (o'z tanasini kesadi, yoqadi va h.k.).

O'ziga jismoniy zarar yetkazishni o'z-o'zini o'ldirishga urinishdan farqlash kerak. O'zini kesish natijasida jarohat yetkazish va kuydirish qator sabablar bilan shartlanadi. Shu sabablardan biri reallik bilan aloqaga erishishga urinish hisoblanadi (ruhiy tushkunlik va dissotsiatsiya holatidan chiqish). Bundan tashqari, bolalarga shu tarzda ular kattalarning e'tiborini tortadigandek, g'amxo'rlik va tinchlantirish ob'ekti bo'ladigandek tuyuladi. Ba'zi bolalarga ular ham tirik ekanliklari, oddiy odamlar kabi ularning ham tomirida qon oqayotganiga ishonch

hosil qilishlari uchun ham muhim. Odatda, bunday axloq o'smirlarga xos, biroq uni kichikroq yoshdagi bolalar ham, ayniqsa, agar ular bunda birgalikda ishtirok etsalar, harakatlari esa bunda rituallashgan, maxfiy xarakter kasb etsa namoyon etadilar. Agar bunday axloq to'xtatilmasa, u mustahkamlanishi va katta bo'lgach ham saqlanib qolishi mumkin.

2. Eksternallashgan axloq (*tashqariga yo'naltirilgan*)

Eksternallashgan axloqli bolalar o'z hissiyotlari va tuyg'ularini tashqariga, boshqa odamlar, kattalar, predmetlarga yo'naltiradilar. Odatda, ular:

- tajovuzkor, dushmanona va destruktiv;
- ular o'zlarini kishining g'ashiga tegadigan tarzda tutishlari, mushtlashuv chiqarishlari yoki o'zlariga jinsiy tajovuzni qo'zg'ashlari, boshqalarga tashlanishlari mumkin;
- ko'pincha hayvonlarni xo'rlaydilar (o'ldirishgacha boradilar);
- axloqning destruktiv shakliga moyildirlar (masalan, yondirishga, vandalizm (madaniyatsizlik) ga);
- jinsiy bo'yalgan yoki jinsiy yo'naltirilgan axloqni namoyon qilishlari mumkin.

3. Axloqning ikki asosiy turi bilan bir qatorda, avvalo, jinsiy suiiste'mollikni boshidan kechirgan bolalarga xos bo'lgan asosiy fenomen sifatida *jinsiylashgan axloq* ajratiladi. Ko'pincha bunday axloq tashhis qilinmaganicha qoladi, kattalar tomonidan u tez-tez muhokama qilinadi va gunoh bolaga yuklanadi, natijada bola zaruriy yordamni ololmaydi.

Jinsiylashgan axloq jinsiy suiste'mollik oqibati sifatida yuzaga keladi, masalan:

- bola rivojlanishining yosh me'yorlariga mos tushmaydigan jinsiy axloqni rag'batlantirish;
- bola bilan jinsiy aloqa;
- kattalarning odob va axloq to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlarining shakllanishi.

Jinsiylashgan axloqning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir:

- bola jinsiy mavzular bilan o'ta qiziquvchan va jinsiy bo'yoqli xira axloqni namoyon etadi;
- bola erta jinsiy faollikni namoyish qiladi;
- bola tajovuzkor jinsiy harakatlarni sodir etadi;
- bola tartibsiz jinsiy munosabatlarga kirishadi, fohishabozlikka jalb etilishi mumkin.

6.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolalarni noloyiq munosabatdan himoya qilish va muhofazalash tizimi¹

Qonunchilik – bu qonun qicharuvchi va ijro hokimiyatining oliy organlari tomonidan chiqariladigan me'yoriy hujjatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimiga quyidagilar kiradi:

- Konstitutsiya, konstitutsion qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan yoki referendum orqali qabul qilinadigan qonunlar;
- O'zbekiston Respublikasi Preidentining farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;
- O'zbekiston tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquqiy hujjatlar.

Jadval 2.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini tarmoqlari

Sohalar:	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:
Konstitutsiyaviy qonunchilik	O'zR Konstitutsiyasi, "O'zR Konstitutsion sudi haqida"gi O'zR Qonuni
Xalqaro qonunchilik	Bola huquqlar to'g'risidagi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va mdaniy

¹ "Ўзбекистонда болаларни нолойиқ муносабатдан муҳофаза қилиш тизими" тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Гаржимон А.Юнусов).

	huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt
Jinoiy qonunchilik	O'zR Jinoiy kodeksi
Jinoiy-protsessual qonunchilik	O'zR Jinoiy-protsessual kodeksi
Ma'muriy qonunchilik	O'zR Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Voyaga etmaganlar komissiyalari to'g'risidagi Nizom
Fuqaroviy qonunchilik	O'zR Fuqarolik kodeksi
Fuqaroviy-protsessual qonunchilik	O'zR Fuqarolik-protsessual kodeksi
Oilaviy qonunchilik	O'zR Oila kodeksi, Vasiylik va homiylik organlari to'g'risidagi Nizom

Konstitutsiyaviy hamda xalqaro qonunchilik bolalarni zo'rvonlikdan muhofaza qilish tamoyillarini (asoslarini) belgilab beradi. Ushbu soha me'yorlari qonunchilikning boshqa sohalarida yanada chuqurroq va aniqroq aks etgan.

Jiniy qonunchilik bolalarga nisbatan zo'rvonlikning turli shakllariga nisbatan javobgarlikni belgilab beradi.

Jinoiy-protsessual qonunchilik bolalarga nisbatan zo'rvonlikni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish tartibini belgilab bergan.

Ma'muriy qonunchilik bolalarga nisbatan zo'rvonlikning jinoiy qonunchilikda nazarda tutilganidan ko'ra xavfsizroq darajada ko'rinishlari uchun javobgarlikni hamda ushbu zo'rvonlikni amalga oshirgan shaslarni ma'muriy javobgarlikka tortish tartibini belgilab beradi.

Fuqarolik qonunchiligi bolaning zo'rvonlik natijasida zarar etkazilgan or-nomusi va qadr-qimmatini muhofaza qilish, ma'naviy zararining o'rnini qoplash shartlari va tartibini belgilab beradi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik or-nomusi va qadr-qimmatni muhofaza qilish hamda ma'naviy zararining o'rnini sud orqali qoplash tartibini belgilab beradi.

Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi

Oila kodeksi bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilishni tartibga soladi.

VII Bob. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolganlar bilan ishlashda ijtimoiy ishchining roli va majburiyatlari

7.1. Qiyin hayotiy vaziyatlarga tushganlarni aniqlash usullari

Bugungi kunda oila bilan ishlashning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Ko'pchilik uni oilaviy terapiyaga tenglashtiradi va hatto oilaning barcha yoki bir necha a'zolarini bir butun holda ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan alohida usullar bilan cheklaydi. Biroq hiyla keng ma'noda oilalar bilan amaliy ish olib borish kelajak nuqtai nazaridan belgilanadi.

Oila bilan ishlashni insoniy mavjudotga ularning yaqin va ancha keng muhiti bilan munosabatlari doirasida yondoshish, ularning yordamga bo'lgan ehtiyojlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish sifatida ifodalash mumkin. Bunday yondoshuv diqqat markaziga oilani qo'yadi va uni "qiziqishning yagona predmeti" sifatida ta'kidlaydi. Bu aslo alohida inson nimagadir bo'ysunishi kerak degani emas, bu hatto ijtimoiy ishchi butun oila bilan shug'ullanishi lozim degani ham emas. Bu insonni tushunish va unga shu insonning o'zi bir bo'lagi bo'lgan yaqin insonlarining hiyla umumiy tizimi kontekstida yordam ko'rsatish mumkin, deganidir. Bunday tizimning eng muhimi, odatda, oila bo'ladi. Bu yana shuni ko'rsatadiki, oila insonni doimo uning yaqin muhiti bilan ko'rib chiquvchi ijtimoiy ish qiziqishining an'anaviy doirasida turadi. Oila bilan ishlash na oila va uning a'zolari, na oilaviy turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi ancha keng muhiti bilan cheklanmaydi. U nafaqat oddiy odamlar uchun, balki oila mansub bo'lgan hiyla yirik ijtimoiy kuch va tizimlar uchun ham ahamiyatli bo'lgan odam, oila va yaqinlarining o'zaro munosabati birmuncha muhim ekanligini ko'zda tutadi. Shuning uchun u umumiy xarakter kasb etadi.

Oila bilan ishlovchi mutaxassis katta miqdordagi rollarni ijro etishi va turli kattalikdagi tizimlar bilan ishlashi mumkin. U dastur muallifi ham, ijtimoiy analitik ham, agentlikda boshqaruvchi ham bo'lishi mumkin. Biroq u diqqatni asosan alohida inson, oila yoki guruhga bevosita xizmat ko'rsatishga jamlaydi.

Oila bilan ishlash sog'liqni saqlash, psixik salomatlik, bolalar farovonligi, gerontologiya, huquqiy tizim, mehnat faoliyati va, albatta, oilaviy agentliklarni kiritgan holda ijtimoiy ishning turli sohalarida ham olib borilishi mumkin.

Oila nima?

Oilaning ta'rifi siyosat, ijtimoiy dasturlar va ijtimoiy ish amaliyoti uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar oila deganda hech bo'lmaganda ikkita oilani tushunadilar – inson ayni damda yashayotgan “hozir va endi”gi oila hamda u tavallud topgan oila. “Hozir va endi”gi oila ta'rifi Oq uyda (1980) oila muammolari bo'yicha Konferensiyani boshqa muammolarga qaraganda ko'proq band etdi. Agar xuddi bugungidek bolalar bilan birgalikdagi er-xotin juftligini oila deb hisoblasak, unda bunday oilalarga ko'maklashishga yo'naltirilgan siyosat, dasturlar va amaliy faoliyat oilaning bu tarzini qo'llab-quvvatlaydi va tanlov imkoniyatini cheklaydi. Agar boshqa tomondan oilaning keng ta'rifiga amal qilsak, unda siyosat, dasturlar va amaliy faoliyat odamlarning o'zlari oila deb ataydigan turmushning muayyan, sirli shaklini himoyalay va qo'llab-quvvatlay olmaydilar¹.

Garchi har taraflama ta'rif murakkab konseptual va siyosiy masalalarni qo'ysada, biz hisoblaymizki, oila bilan ishlash odamlarning o'zlaridan kelib chiquvchi yoki oilaning ko'p narsani qamrab olgan fenomenologik ta'rifiga asoslanadi va bu kontekstda tor ta'rif ham inobatga olinmog'i darkor. Agar ikki (yoki bir necha) odam oila sifatida qaraydigan, o'zlari uchun mavjud bo'lishning, odatda, umumiy hayotiy borliqni, majburiyatlar, turli-tuman rollar va vazifalar – oilaviy hayotning bir qismi deb hisoblash qabul qilingan barcha narsani bo'lishadigan iliq dilkash muhitini yaratgan bo'lsalar, oila mavjud, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi turdagi oila barcha odamlarda bor. Bu oila unda yaqin aloqalarga amal qilinishidan qat'i nazar psixologik jihatdan muhim. Inson shunday oiladan paydo bo'ladi. Oila a'zolari qondosh (yoki qondoshga yaqin), tik (avlodlar qarindoshligi) bo'lganidek, yotiq qarindoshlik bilan ham bog'liqdirlar; bunday oila barcha: tirik va o'lik, yaqin va uzoq, mashhur va noma'lum qarindoshlarni birlashtiradi. Biz “qondosh (qarindoshlik) ga yaqin” deb gapiramiz, chunki turli oilalar va etnik guruhlar oilaning chegarasini

¹ Э.Хартман, Дж. Лэард. Оила ва ижтимоий иш. Ижтимоий иш энциклопедияси. 3-том. – Москва. 1994.

o'zlaricha belgilaydilar. Ba'zida odam birdan ortiq oiladan chiqadi, masalan, farzand qilib olish yoki ota-onalarning takror nikohdan o'tishlari hollarida. Bugungi kunda oila tuzilmasi o'zgardi va hiyla murakkab bo'lib qoldi: bu qarindoshlik aloqalari va avlodlar orasidagi aloqalarga yoyiladi. Oila va bolalar bilan olib boriladiagan ijtimoiy ish.

Oila muammolari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy ishchi garchi "shaxs – muhit" ning bor majmui e'tiborga olinsa-da, biroq vaziyatni baholash jarayoni va aralashuvda birinchi o'ringa oila yoki mijozning yaqin ijtimoiy muhiti qo'yiladi. Ta'kidlanganidek, oila muammolari bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy xizmatchilarning rollari va vazifalari "inson – oila – muhit" majmuining qaysi tomoniga asosiy e'tibor qaratilishiga bog'liq. Ko'rinadiki, ijtimoiy ishchilar qandaydir muayyan bir "maktab"ning o'ziga xos tarafdori emaslar, chunki yordam ko'rsatishda ishning barcha usullari potensial foydalidir. Har qanday oilada tarixiy, tuzilmaviy, ekologik, kommunikativ va hatto afsonaviy jarayonlar bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Ijtimoiy ishchilar ba'zi mezonlarga asoslanganicha ushbu aniq holatda qaysi aspektlarga e'tibor qaratish lozimligini va oila bilan ishlash jarayonida bir aspektdan boshqasiga urg'u berishni qachon ko'chirishni tanlashlari mumkin. Biroq ijtimoiy ishchi muntazam ravishda o'z ishining sifati va izchilligini kuzatib borishi zarur.

Ijtimoiy ishchilar vaziyatning ekspert baholash va aralashuvda birinchi o'rinda e'tibor qaratishlari lozim bo'lgani – bular oila muhiti, oila va muhitning o'zaro harakatda kelishganligi yohud kelishmaganligini o'rganishdir. Oila va ijtimoiy faoliyati sohasidagi E.Auersu-eld (1968, 1971), K.Djermen (1973,1979), E.Xartman (1978), K.Meyer (1970) kabi mutaxassislar va boshqalar ishlab chiqqan ekologik tamoyillar hamda konsepsiyalardan o'sib chiqqan bu yondoshuv oila va uning atrof-muhiti bilan o'zaro aloqasi to'g'risida egiluvchan tasavvur yaratishga yo'naltirilgan. Zaruriy bahoni ekologik xarita yordamida olish mumkin (E.Xartman, 1978). Ijtimoiy ishchi va oilaning asosiy maqsadi oila va uning muhitidagi kelishuvchanlikka erishish hisoblanadi, agar oilaga turli mahsulotlarga ega bo'lish, xizmatdan foydalanish, ijtimoiy muhitga singib ketishida yordamlashilsagina erishish mumkin. Aralashuv strategiyasida e'tibor asosan atrof-muhitni o'zgartirishga jalb etilishi kerak, ular

orasida – mavjud imkoniyatlardan foydalanish va yangi imkoniyatlar, brokerlar xizmati, oqlovchilar, shuningdek, oilalarga atrof-muhitdan eng yaxshi tarzda foydalanishga yordamlashadigan mutaxassislarni izlash kabi jihatlar muhim. Ijtimoiy ishchilarning ma'lumotlariga muvofiq (E.Pinderxyuz, 1985; B.Solomon, 1976) oxirgi yillarda ko'pchilik oilalar hayotidagi asosiy muammo himoyasizlik, zaiflik hisoblanadi. Oila bilan ekologik ishning asosiy maqsadi oila va uning muhiti orasidagi munosabatda o'zgarish hosil qilish, ya'ni oila a'zolari o'z hayotlarining asosiy sohalari ustidan nazorat va katta hukmronlikka ega bo'lishlari hisoblanadi.

Masalan, ba'zi yomon uyushgan oila ko'pincha xuddi shunday – yomon uyushgan borliq va vaqtda yashaydilar. Mutaxassis oila va uning muhiti orasida turg'un o'zaro munosabat mavjudligini aniqlab, oilaga uning atrofidagi tizimga quyidagi tarzda ta'sir ko'rsatishda yordamlashishi mumkin:

- 1) noteng yoki javobsiz munosabatni oshkor etib;
- 2) mahsulot va xizmatlar to'g'risidagi muzokaralarni olib borib;
- 3) boshqa odamlar va ijtimoiy muhit bilan potensial tarzda murosa qilmaydigan zaif yoki noteng aloqalarni mustahkamlab;
- 4) oilaga uni o'rab turgan jamiyat va odamlarning afzalliklaridan foydalanishda yordam berib, masalan, vaqt va borliqni rejalashtirish yordamida;
- 5) oila va oiladagi kelishuvni muayyan oilaviy tamoyillarni yaratish yordamida mustahkamlab.

Bunday harakatlar muhitda bo'lganidek, oilaning ichki olamini ham o'zgartirishi mumkin (hiyla murakkab va qiziqarli namunalarni o'rganish uchun E.Xartman va Dj.Leard kitobiga murojaat qilish kerak, 1983).

O'zgarishning ikkinchi juda muhim yo'nalishi oilada ifodalangan avlodlar orasidagi aloqalar tizimi hisoblanadi. Inson va uning bugungi kundagi oilasiga ko'p hollarda shunday aloqalar ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqilsa, bu ta'sirlarni o'rganish oilaning bugungi holati va hayotini yuzaga chiqaradi. Keyin avlodlar orasidagi aloqalar, ularning imkoniyatlari ijobiy o'zgarishga safarbar etilishi mumkin. Avlodlar orasidagi aloqalar to'g'risidagi axborot manbasi genogramma – oilaning bor tarixi aks etgan, qondoshlik aloqalari bilan oilaviy xarita hisoblanadi. Bunda xarita shu tarzda tashkil

etilishi mumkinki, u bo'yicha oila hayotidagi barcha asosiy hodisalarni kuzatish qiyin bo'lmasin.

Genogramma turli avlodlarning e'tiqodlari va qarashlari, hayotiy tamoyillari va oilaning atrof olamga qarashi tizimini aks ettiruvchi so'rovnoma usuli bilan yaratiladi va kengaytiriladi. Etnografik tadqiqotlar usuliga o'xshab so'rovnoma usuli oila a'zolarini o'zlari va o'z olamlarini anglashlarida yordamlashuvchi oilaviy madaniyatni bilish va qo'llab-quvvatlashga undashi lozim. Bunday so'rovnomalarda ushbu oilada ustuvor va hatto faqat bu oilaga tushunarli bo'lgan muloqotning o'ziga xos tili hisoblanuvchi oilaviy afsonalar, rivoyatlar, tamoyillar, ba'zi ramziy harakatlar, shuningdek, fikrlash tarzi va e'tiqodlarni diqqat bilan tadqiq etish imkonini berishi mumkin. Garchi tadqiqotning bu aspektlari har qanday oila uchun foydali bo'lsa-da, ular ijtimoiy ishchi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki ular bu tadqiqotlar sharofati bilan hayotiy pozitsiyalar, har bir oilada deyarli turlicha bo'lgan qadriyatlar tizimi to'g'risida ko'proq bilib oladilar¹.

Ayrim amaliyotchi mutaxassislar oila bilan ishlashda asosiy e'tibor hozirgi vaqtga qaratilishini talab qilib turib olsalar, boshqalari aksincha, asosiysi avlodlar orasidagi aloqani o'rganish, deb hisoblaydilar. Biroq ularning ko'pchiligi doimo, hatto eng kam darajada bo'lsa ham tarixga murojaat qiladilar, bu esa ularga oilaning ichki olamini tushunishda yordam beradi. Oilalar bilan muayyan kontekst va aniq maqsad asosida ishlaydigan ijtimoiy ishchilar ulardan kelib chiqib, avlodlar orasidagi aloqalar rolini tadqiq etishga qanday o'rin ajratishni hal qiladilar.

7.2. Oila bilan ishlashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari

Er-xotin juftligi, oilalar yoki odamlarning bir butun guruhi bilan ishlovchi ijtimoiy ishchilar ularga tadqiqotchi, ba'zida esa o'z shaxsiy oilalari genealogiyasining haqiqiy eksperti bo'lishlariga yordamlashadilar. Ular afsonalar, rivoyatlar, o'z oilasining sirlarini o'rganadilar, tarixiy xatolarni fosh etadilar va h.k. Bu turdagi tadqiqotlar

¹ Р.Шерман, Н.Фредман. Структурированные техники семейной терапии. Генотрама. www.psichology.vuzlib.net/book.

natijasida mijozlar oila ichidagi mavjud munosabatlarni qanday o'zgartirishni o'rganadilar. Ijtimoiy ishchi mijozlarga axloqning turli imkoniyatlarini o'rganishda yordamlashadi, oila a'zolari bilan munosabatni o'zgartirishning turli strategiyalarini taklif qiladi, qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi va natijasini kuzatishga ko'maklashadi. Hatto oila tarixini bunday chuqur o'rganish talab etilmaydigan hollarda ham u bilan ba'zi tanishuvlar foydali bo'ladi, agar oila kritik vaziyatga tushib qolsa yoki agar ijtimoiy ishchi muammoga duch kelgan ko'pgina boshqa vaziyatlarda ham tezda hal bo'ladi.

Muayyan e'tiborni talab qiluvchi uchinchi yo'nalish oila tizimining zamonaviy holati hisoblanadi. Aniq vaziyatdan chetga chiqqancha ijtimoiy ishchi, uning fikricha, oila bilan ishlashning diqqat jalb qilinishi zarur bo'lgan aspektini tanlashi mumkin. Mijozning muammosini aniqlash uchun uning ehtiyoji, tajribasi, shuningdek, ijtimoiy ishchining tajribasi va nazariy asosi, uning muammolar, ularni yechish lozim bo'lgan muddatlar, madaniy darajasi, oilaning qandaydir sinfga mansubligi, ijtimoiy xizmatlar bilan muloqotdagi ilgarigi tajribasi, oilaning tuzilmasi va boshqa ko'plab tasavvurini inobatga olish zarur. Oiladagi o'zgarishlar zaruriy hisoblanadi, agar:

- 1) oila yomon uyushgan;
- 2) oila va atrof olam yoki oila a'zolari, turli avlod, turli jins vakillari orasida kerak bo'lmagan yoki noto'g'ri chegaralar mavjud;
- 3) oilada ierarxiyaning parchalanishi kuzatiladi;
- 4) xato uchburchak yoki ittifoq yaratilgan, masalan, agar bola er-xotinlik tizimida kattalardan birining o'rnini bosayotgan bo'lsa.

Ko'pchilik oila va er-xotin juftligiga agar oilaviy muloqot jarayonida yetarlicha e'tibor ajratilsa, yordamlashish mumkin. Qat'iy tartibli yoki oila a'zolaridan biri ekstremal yoki shafqatsiz axloqli bo'lgan oilani o'zgartirish uchun asos yaratishda hiyla murakkab yondoshuvlar zarur.

Oila tizimining tuzilmaviy, tashkiliy va kommunikativ tomonlari kuzatish va boshqa usullar yordamida baholanadi. O'z faoliyatining asosiy sohasi oila deb hisoblovchi ijtimoiy ishchilar mijozlar bilan muloqotda oilaviy aloqalarning stereotipiga ta'sir ko'rsatishga urinarkanlar, mijozlar bilan rasmiy uchrashuvlarda

bo'lganidek, uyga tashrif buyurishda ham faol va insoniy bo'lishga intiladilar. Ijtimoiy ishchi oilaning o'zligi kabi, atrof olamni ham yangicha his qilishiga muhit yaratishga harakat qiladi. Oilani tashvishga soluvchi muammoga yangicha yondoshuv yordamida uning a'zolari o'zlari va o'z muammolariga yangicha qarashni boshlaydilar.

So'rovnoma davomida oiladagi munosabatlar to'g'risidagi mavjud tasavvurlarni shubha ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan yangi axborot aniqlanadi. Doiraviy yoki tizimlashtirilgan so'rovnoma texnikasi yuzaga kelgan muammolarga qarashni o'zgartirishga yordamlashadi. Agar dastlab muammoni anglash bir odamning simptomlariga asoslangan bo'lsa, bunday so'rovnomadani keyin oila a'zolarining bir birlariga munosabati va muloqot kabi aspektlar inobatga olinadi, shuningdek, oilada kelishuvga erishishga yordamlashuvchi yo'llar aniqlanadi. Muammo yana oilaviy o'zaro munosabatlarning murakkab tizimi sifatida ifodalanadi. So'rovnomalar oila ichida o'zaro munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi va kelgusida muammoga hamda oila amal qilgan tasavvurlarni to'ldirishga qarashni o'zgartirishga olib keladi. Ijtimoiy ishchi, masalan, oila a'zolariga ushbu oilaning o'ziga xosligidan foydalanganicha ularning hayotlaridan ba'zi sahnalarni o'ynashni taklif qiladi va shu bilan mijozlar shaxsiy tajribalarida o'z oilalarining hissiy muhitini o'rganadilar. O'zaro munosabatlar tizimini o'rganish doiraviy so'rovnomaga javobda ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ishchi o'z mijozlaridan muayyan vazifani mashg'ulot vaqtida bajarishni iltimos qilishlari yoki bu vazifani uyga topshiriq qilib berishlari mumkin. Bu usul, odatda, oilaning tuzilmasi va tashkillashuvini o'zgartirish uchun qo'llanadi.

Ba'zi vaziyatlarda aniqlangan muammo ushbu oilaning yashab ketishini belgilovchi jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin (M. Selvini-Palatssoli va boshqalar, 1978). Bu sharoitda uni bartaraf etish bo'yicha bevosita zo'r berish oila a'zolariga uning butligiga xavf soluvchi bo'lib tuyulishi mumkin. Bunday oilalar bilan ishlashda turli kuchlarni rag'batlantirish uchun zaruriy o'zgarishlarga olib keluvchi ijobiy konstatatsiyadan foydalanish yetarlicha samarali hisoblanadi. Oila bilan ishlashda ko'pgina mutaxassislar foydalanadigan va M.Selvini-Palatssoli hamda uning hamkasblari tomonidan tasviriy san'atga kiritilgan ijobiy konnotatsiya

oilani tizimli u qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga olib keladi. Ijobiy konnotatsiya yordamida oilaning qarshiligiga oson va tez barham berish mumkin.

Mantiqqa mos kelmagan aralashuv turlicha amalga oshirilishi mumkin, biroq, odatda, u go'yoki kontrparadoks bo'ladi. Bu oila mutaxassisiga mantiqqa mos kelmagan talab bilan murojaat etishi mumkin deganidir: "Simptomlarni o'zgartiring, ammo bizning oilamizni o'zgartirmang!". Bu ikki o'ta qarama-qarshi talab bo'larkan, mutaxassis paradoksal vaziyatga tushib qoladi va uning javobi ular ifodalagan simptomlar oilaga qanday yordam berishi va uni qo'llab-quvvatlashini ko'rsatuvchi dalillar hisoblanadi, bunda mutaxassis o'zgarishning ehtimoliy natijalari haqida ogohlantiradi. Oila paradoksalga qarshi vaziyatda turadi va yashashning noxush simptomlari hamda o'zgarish xavfining muqarrarligi o'rtasida tanlashi lozim. Bahsli vaziyatda doimo mavjud bo'lgan uchinchi yo'l shundan iboratki, unda mutaxassisning fikri tan olinmaydi, biroq bundan qochishga yordamlashuvchi ko'plab strategiyalar mavjud.

Oila tizimi bilan ishlashda alohida e'tiborni tortuvchi masalalardan biri – hayotiy siklni o'zgartirish hisoblanadi. Bunday har bir o'zgarish oilaning uyushganligini izdan chiqaradi va qarshi harakatni chorlaydi. Bu ko'pincha omonat hayotiy muvozanatni turg'unlashtirish uchun mo'ljallangan zaruriy o'zgarishlarga qadam qo'yishga qodir bo'lmaslikdan sodir bo'ladi. Dj.Xeyli (1980), masalan, o'z yondoshuvini yoshlari "uyni tashlab chiqib keta olmaydigan" oilalarga nisbatan qo'lladi, E.Karter va M.Makgoldrik (1980) bu masalaga oilaviy hayot sikli to'g'risidagi o'z ishini nashr etish bilan ulkan ilmiy hissa qo'shdilar.

Salvador Minuxin oila bilan ishlashdagi tashkiliy tizimli yondashuv maktabining eng mashhur vakili hisoblanadi.

Ushbu yo'nalish tarafdorlari aniq bir oilaning tuzilishini tahlil qilganda oila tarkibini o'rganish kerak, deb hisoblaydilar; tizimning turli darajalarida navbat bilan to'xtalib o'tish (umuman butun oila, ota-onalar tizimi, bolalar tizimi, individual tizimlar) (Minuchin, 1974; Lange, van der Hart, 1980); oilaning asosiy ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan uning tuzilishini tasvirlash (birdamligi, ierarxiyasi, uyushqoqligi, tashqi va ichki chegaralari, oila rollari tuzilishi); tashkiliy

muammolar xususiyatlari (avlodlararo ittifoq, reversiya ierarxiya, oilaviy tuzilishdagi kelishmovchiliklar turlari) ni baholash. (Gehring, 1993; Olson, 1993).

Oila a'zolaridan har biri kimni oila a'zosi deb qabul qilishlarini bilib olish muhim.

Ko'pincha oila a'zolari hozirgi vaqtda uning tarkibiga kiruvchidan norozi bo'lishlari biz uchun kutilmagan holat bo'ladi. Bu oila chegaralari va jismoniy yoki psixologik ushbu oilaviy tizimda kimning mavjudligi bo'yicha muhim masaladir (Boos & Greenberg, 1984). Bu, ayniqsa, ajrashgan va ikkinchi nikohda bo'lgan oilalar uchun muhimdir.

Turli yo'nalishlar tadqiqotchilari va terapevtlari *uyushqoqlik* hamda *ierarxiya* oilaviy munosabatlar tuzilishini ta'riflash uchun asosiy o'lcham ekanligini tan oladilar (Nichols, 1984; Birtchnell, 1987; Cierpka, 1988).

Uyushqoqlik atamasini oila a'zolarining emotsional aloqalari, yaqinliklari yoki o'rganishlari kabi tushuniladi (Bowen, 1960; Stierlin, 1974; Bying-Hall & Campbell, 1981; Kelsey-Smith & Beavers, 1981). Oilaviy tizimlarga nisbatan ushbu tushuncha oila a'zolari o'zlarini bir-birlariga bog'langan yaxlit kabi tushunishlari darajasini ta'riflash uchun foydalaniladi.

Ierarxiya atamasi bir necha fundamental nazariy taxminlarni qamrab oladi va oddiy tushuncha tasavvuri bilan cheklanishi mumkin emas (Kranichfeld, 1987; Fish 1990). Misol uchun, obro', ustunlik, qaror qabul qilish huquqi yoki oila bir a'zosining boshqalarga ta'siri darajasini ko'rsatish mumkin (Moos, 1974; Madanes 1999; Williamson, 1981; Oliveri & Reiss, 1984; Bloom, 1985). Ierarxiya tushunchasi tuzilishlarda rollar va oila ichida qoidalarning o'zgarishini o'rganishda ham foydalaniladi (Olson 1986; Dickerson & Coyne, 1987).

Chegara atamasidan oila va ijtimoiy muhit o'rtasidagi hamda oila ichidagi turli tizimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ta'riflashda foydalanadilar (misol uchun, individualliklar, diadamalar, triadamalar). Oilaviy terapevtlar chegaralarning rivojlanishini oilaviy tuzilishlar evolyusiyasining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraydilar. Oilaviy chegaralar kim ushbu tizimga

kirishi va qay tarzda unga kirishini ko'rsatuvchi qoidalar orqali ifoda etilishi mumkin (Minuchin S., 1974).

Tuzilishlar nazariyasi tizimning funksional buzilishi juda chekka variantlarni beradi, deb hisoblaydilar. Chegaralarda juda qattiq yoki juda sezilarsiz holatlar yaxshi emas. Agar *tashqi* chegaralar juda qattiq bo'lsa, unda tizimda turg'unlik holati yuzaga keladi, oila va uning atrofi bilan aloqa kamayadi. Agar chegaralar juda bo'sh bo'lsa, unda oila a'zolarida tashqi muhit bilan aloqalar ko'p va o'zaro aloqalar kam bo'lib qoladi. Misol uchun, oila birgalikda juda kam to'planadilar. Bunday holatda ular bir joyda yashaydigan mehmonxonada turuvchilarga o'xshab qoladi.

Agar *ichki* chegaralar, misol uchun, ota-onalar va bolalar tizimlari o'rtasida juda qattiq bo'lsa, unda ota-onalar faqat o'zlari bilan band kabi taassurot hosil qiladilar; agar aksincha, juda bo'sh bo'lsa, unda ularga yaqinlik yetishmaydi, ular er-xotinlik munosabatlarini yo'qotib faqatgina ota-onalik rollarida bo'lishlari mumkin.

Oilada chegaralar sifatini o'zgartirish tuzilishli oilaviy terapiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, terapevt sessiyalarda "har kim faqat o'zi uchun gapirsin" qoidasini o'rnatib, u oila a'zolarining shaxslararo chegaralarini mustahkamlashga, ularning ba'zilar haddan tashqari birliklarining oldini olishga urinadi. Er-xotinlar uchun suhbat tashkil qilib va unga bolalar hamda buvilarning aralashishlari oldini olib, terapevt er-xotinlar tizimini mustahkamlashga harakat qiladi. Oilaga do'stlar va qarindoshlarni taklif etish qoidalarini o'zgartirib, terapevt oilaning tashqi chegaralarini o'zgartirishga yordam beradi.

7.3. Ijtimoiy ishchining ko'nikmalari¹

Ijtimoiy ishdagi kasbiy salohiyatlilikning o'nta asosiy sohalari:

1. Muloqot malakalari

- mijozlar, bolalar, hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqotga kirishish malakalari

- verbal va noverbal muloqot

2. Baholash va rejalashtirish malakalari

- to'liq baholash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish

- mijoz vaziyatini baholash asosida aniq reja va kelishuvlarni ishlab chiqish

- erishilgan natijalarni doimiy tarzda baholash va tahlil etib borish

3. Aralashuv malakalari

- mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash

- hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish

- zaruriyatga qarab tahlil qilish va rejani o'zgartirish

4. Ishchi yozuv qaydlarini olib borish malakalari

- ish bo'yicha yozuvlarni qayd etib borish

- hisobot va xatlarni yoza bilish

5. O'z tashkiloti manfaatlarini tushuna bilish va taqdim eta olish

- tashkilot siyosati, ish tartibi, maqsad va vazifalarini bilish va tushunish

- tashkilotni taqdim etishni bila olish

6. Hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish qobiliyati

- samarali ishchi munosabatlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish

- g'oya va ma'lumotlarni birga baham ko'ra bilish qobiliyati

7. O'zini boshqarish malakalari

- o'z ishi va vaqtini tashkillashtira olish

- o'zining ojiz va kuchli tomonlarini bilish

¹ Ижтимоий ишчининг қобилиятлари ва кўникмаларини ривожлантириш. “Бола ва оилалар билан ижтимоий иш амалиёти” курси материаллари. Тузувчилар: Ким Л., Исаева Д. Таржимон ва мослаштирувчи: Сабирова Д., Таджиева С.// РЦСАД – ТГИК – МВССО – ЮНИСЕФ ҳамкорлигидаги Ижтимоий иш бўйича лойиҳалари. – Тошкент, 2007 – 2010.

8. Rahbar kuzatuv ostida ishlay olish qobiliyati

- amaliy jihatlari (masalan, tayyorlov, aniqlilik)
- o'qishga tayyorlik

9. Kasbiy qadriyat va munosabatlar

- ijtimoiy ish etikasini bilish va tushunish
- doimiy ravishda o'z bilimlari saviyasini oshirishga intilish

10. Egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati

- ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish
- amaliy faoliyat uchun mos nazariyani tanlay bilish va uni qo'llay olish

qobiliyati

Axborotlar to'plash va mavjud oilaviy vaziyatni tushunish baholashni o'tkazish jarayonining asosiy bosqichlari hisoblanadi. Bu erda oilani jalb qilmasdan kerakli natijaga erishib bo'lmaydi. Bu bolalar va oila a'zolari bilan bevosita ishlashni, ularga sodir bo'layotgan hodisani va nima uchun ushbu baholash o'tkazilayotganligini, bu jarayon qanday bo'lishi va taxmin qilinayotgan natijalar qandayligini tushuntirishni talab qiladi. Oila baholash o'tkazilishi jarayoniga to'la yordam ko'rsatishi juda muhim. Ijtimoiy ish bo'yicha agentliklarga yordam so'rab murojaat etish masalasida oilalarda ko'pincha qo'rquv va xavotirlanish mavjud bo'ladi. Ota-onalar misol uchun ularni o'z ota-onalik vazifalarini bajarishga qodir emas sifatida tushunishlaridan qo'rqadilar.

Shu sababli ota-onalar, odatda, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarda aynan nimalarni qadrlashlarini aniq namoyon etadilar. Xususan, ota-onalar har doim aniq tushuntirishlarini, ular bilan ochiqchasiga gaplashishlari va adolatli bo'lishlarini, ularni hurmat qilishlarini so'raydilar. Bolalar ham aniq tushuntirishga muhtoj ekanliklari to'g'risida yoddan chiqarmaslik kerak. Ular xabarsiz bo'lishni va shunchaki himoyalananayotgan bo'lishni istamaydilar.

Ish rejasini shakllantirish bosqichida barchasini bolalarga xabar qilish juda muhim.

Oila uchun tushuntirishlarni taqdim etishning turli usullari mavjud, ularning ba'zilari yozma ravishda berilib, axborot to'plash bo'yicha yozuvlar yoki

materiallarga ega bo'ladi. Quyida shunday tushuntirishga misol keltirilgan. Ijtimoiy ish bo'yicha ba'zi agentliklar oila uchun maxsus risolalar ishlab chiqadilar yoki ushbu yo'nalishda ishlovchi turli tashkilotlar tomonidan chiqarilgan risolalardan foydalanadilar. Ijtimoiy xodim tomonidan og'zaki (ba'zan takroriy) tushuntirishlar bilan taqdim etilishi kerakligi yozma materiallardan foydalanishda asosiy talab hisoblanadi.

Oila a'zolari uchun o'tkazilayotgan baholash mohiyatini tushuntirish

(Misol)

Baho nima?

- Siz yoki boshqa biror kishi sizning nomingizdan ijtimoiy ishlar bo'limiga bolangizga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan qiyinchiliklarni hal etishda yordam so'rab murojaat etdilar.

- Sizga yordam ko'rsatishimiz mumkin bo'lishidan avval, sizning oilangiz va siz haqingizda ko'proq bilib olishimiz zarur. Bu ba'zi axborotlarni to'plashni, ushbu axborotlarni siz bilan muhokama qilishimiz va siz bilan birgalikdagi harakatlarimiz bo'yicha hamkorlikda hal qilishimizni o'z ichiga oladi. Shunday jarayonni baholashni o'tkazish deb ataymiz.

Baholash nima uchun o'tkaziladi?

- Oilangizdagi vaziyatni baholashni o'tkazib oilangiz qanday yordamga va qanday qo'llab-quvvatlashga muhtojligini, mana shu yordamni hamda qo'llab-quvvatlashni kim yaxshi amalga oshirishi mumkinligini ko'ramiz.

- Barcha to'plangan axborotlar yozib olinadi. Odatda, barcha axborotlar mutaxassis tomonidan to'ldiriladigan bo'lsa ham, barcha axborotlarni to'plash va yozishda sizga ishtirok etishning to'la imkoniyati beriladi.

- Siz bergan barcha axborotlar tashkilotingizda maxfiy saqlanadi. Agar ushbu axborotlarni yana kimdir bilan muhokama qilish kerak bo'lsa, biz har doim sizning ruxsatingizni so'raymiz. Bolaga jiddiy zarar yetkazilishi xavfi bo'lgan vaziyatda sizdan ruxsatsiz axborotlar oshkor qilinishi mumkin bo'lgan yagona holat bo'ladi.

Lekin shunday holatda ham ushbu vaziyatda o'z huquqlaringiz haqida ogohlantirilasiz.

Baholash vaqtida nimalar sodir bo'ladi?

- Baholash o'tkazilishi ijtimoiy xodimning siz va oilangiz a'zolari bilan bir necha bor uchrashish kerak bo'lishini ko'zda tutadi.

- Agar farzandlaringiz baholash o'tkazilishida ishtirok etish uchun etarlicha katta yoshli bo'lsalar, unda ijtimoiy xodim ularga ishtirok etishlarida yordam ko'rsatadi.

- Agar boshqa insonlar yoki tashkilotlar sizga yordam ko'rsatayotgan bo'lsa, unda biz ular bilan ham gaplashishimiz kerak bo'ladi. Ammo avval siz bilan bularning barchasini muhokama qilib olamiz.

- Agar baholashning o'tkazilishi natijalari bo'yicha ijtimoiy xodim xulosalarini to'g'ri deb hisoblamasangiz, unda sizning fikringiz o'tkazilgan baholash to'g'risidagi hisobotda yozma ravishda qayd etiladi.

- Baholash o'tkazilishining maqsadi bolangiz (yoki bolalaringiz) ehtiyojlarini qondirish va bolangizni tarbiyalashda sizga qanday yordam ko'rsatishni aniqlab olish uchun harakatlar rejasini tuzib olish hisoblanadi. Sizga harakatlar rejasining nusxasi, albatta, beriladi.

Sizdan nimalarni kutamiz?

- Barcha ota-onalar o'z bolalari uchun qo'llaridan kelganini qilishlarini bilamiz. Baholash o'tkazilishi qanday resurslarga ega ekanligingizni, sizning kuchli tomonlaringizni hamda siz duch kelgan asosiy muammolarni tushunib olishimizga yordam beradi.

- O'z qiyinchiliklaringiz to'g'risida hamda oilangizda nimalar muammolarsiz sodir bo'lishi haqida gapirib bersangiz sizga yaxshiroq yordam ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Sizning vaziyatingiz bo'yicha nimalar qilayotganligimiz va o'ylayotganligimiz haqida doim xabardor qilib boramiz.

- Baholashni o'tkazish siz bilan ishlashimizning muhim qismi hisoblanadi. Ba'zi hollarda bolaga nisbatan xavf mavjud, deb juda xavotirda bo'lamiz. Bolaning xavfsizligini ta'minlash bizning asosiy g'amxo'rligimiz hisoblanadi. Iltimos, o'z

ijtimoiy xodimingizdan bu xususida batafsilroq tushuntirib berishini so'rang. Siz bilish huquqiga egasiz.

Siz bizdan nimalarni kutishingiz mumkin?

- Biz sizni diqqat bilan tinglaymiz, sizga maslahat taklif etamiz va zarur bo'lsa bolalaringizni tarbiyalash hamda ta'minlashda yordam ko'rsatamiz, qo'llab-quvvatlaymiz, muammolaringizni hal qilishda sizga yordam beramiz.

- Ko'pchilik oilalarga hech bo'lmaganda kichik bir yordam ko'rsatilsa, ular o'z muammolarini o'zlari hal qilishga qodir ekanliklarini bilamiz. Bizning maqsadimiz ham aynan shundan iborat.

- Sizga iloji boricha tezroq yordam ko'rsatish uchun qo'limizdan kelgan barcha ishlarni bajaramiz. Ammo ko'pincha odamlar ularga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlardan ko'ra ko'proq yordamga muhtoj bo'ladilar. Bu ba'zi hollarda, hatto siz haqiqatda yordamga muhtoj ekanligingiz tan olinganida ham shunday yordam bevosita bizning agentligimiz tomonidan ko'rsatila olinmasligini anglatadi. Shunday holatlarda biz har doim yordam ko'rsatishning muqobil manbalarini izlaymiz, biroq xizmatlarning u yoki bu aniq bir turi ko'rsatilishi mumkinligiga kafolot bera olmaymiz.

Oila a'zolari baholash o'tkazayotgan agentliklar bilan hamkorlik qilishni istamaydigan holatlar uchraydi. Buning sabablari ko'p bo'lishi mumkin. Ular qo'rqishlari yoki ularning farzandlari yoki bolalariga hech qanday xavf yo'q va u qiyinchiliklarni his qilmaydi, deb o'ylashlari mumkin. Ular sizning tashkilotingiz to'g'risida noto'g'ri fikrda bo'lishlari ham mumkin. Ularning o'jarliklari ruhiy kasalliklar yoki ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi ichki sabablar yoki ularga qarshi yo'naltirilgan ayblar xususiyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq qarshilik qilish sababi qanday bo'lmasin ijtimoiy xodim tomonidan hamkorlik uchun eshik har doim ochilishi kerak. Oila a'zolari kamida baholash o'tkazilishi paytida nimalar sodir bo'lishi va ular bahlashda qanday qilib yanada to'la ishtirok etishlari mumkinligi haqida xabardor bo'lishlari kerak. Doim oilani jarayonga jalb etish usullarini izlash muhim.

Ota-onalar tomonidan qattiq qarshilik ko'rsatilgan hollarda, bu hech qachon ijtimoiy xodimning vaziyatni to'g'ri va sifatli baholashga qat'iyligiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Biroq ba'zi hollarda ochiq do'q qilish va tajovuzkor axloq bilan hamkorlik qilishdan bosh tortish hollari uchrashi mumkin. Shunday hollarda ushbu xulqining haqiqiy xavfini, uning bolaga va boshqa oila a'zolariga mumkin bo'lgan yomon ta'sir ko'rsatishini baholash muhim. Aynan mana shunday hollarda rahbariyat tomonidan oqilona superviziya va shunday oila bilan to'g'ri ishlash strategiyasini ishlab chiqish, ayniqsa, muhimdir. Bu boshqa agentliklar xodimlari bilan hamkorlikda ishlash, oila a'zolari bilan uchrashish vaqtini o'zgartirish yoki boshqa bir choralar bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham mana shunday vaziyatlarga juda jiddiy qaralishi kerak.

Bolalar bilan muloqotda bo'lish

Bola bilan bevosita ishlash to'rt asosiy komponentlardan tashkil topadi: bolani ko'rish, kuzatish, u bilan so'zlashish va qandaydir hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish.

• **Bolani ko'rish.** Bola qanchalik yosh va vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar uni ko'rmasdan baholashni o'tkazish mumkin emas. Vaziyat qanchalik murakkab va chalkash bo'lsa hamda qanchalik ko'p tashvishlantiradigan bo'lsa, unda ijtimoiy xodim bolani muntazam ko'ra olishi va uning tashqi ko'rinishi, jismoniy holatini, emotsional o'zini his qilishi, xulqi va xulqidagi har qanday o'zgarishlarni kuzatib borishi yanada muhim hisoblanadi.

• **Bolani kuzatish.** Bolaning harakatlarini va atrofdagilar bilan munosabatlarini turli vaziyatlarda kuzatish zarur. Uning akalari va singillari (agar ular bo'lsalar), ota-onalari va vasiylari hamda maktab sharoitlaridagi munosabatlarini ko'rish muhim. Bolalar qandaydir vaziyatlarda o'zlarining hissiyotlarini yashiradilar yoki bostiradilar, shuning uchun cheklangan sonli kuzatishlar bilan xulosalar chiqarish kerak emas.

• **Bola bilan suhbatlashish.** Bu holat baholash jarayonining yaqqol bir qismi bo'lib ko'rinsa ham tadqiqotlar ushbu qismi umuman bajarilmasligini yoki yomon bajarilishini ko'rsatadi. Bularning barchasi ko'nikmalar, vaqt, o'ziga ishonchli

bo'lish va puxta tayyorgarlikni talab etadi. Madaniy kelib chiqishi, til masalalari yoki imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqotda bo'lish muammolari maxsus ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin. Bolalar bilan ijtimoiy xodimlar qanday va qachon gaplashmasinlar va ularga qanday qilib biror-bir maslahat bermasinlar ular o'z-o'zidan bunga juda ta'sirchan bo'ladilar. Asosiy uchrashuvlarni o'tkazishdan avval bola bilan boshlang'ich uchrashuvlar davomida uning fikrlari va qarashlarini bilib olish muhimdir. Bu erda bolaning imkoniyatlariga qarab uchrashuv ijtimoiy xodim bilan yakkama-yakka yoki oila bilan, bolaning vasiyi birgaligida o'tkazilishi mumkin.

• **Bola bilan hamkorlikdagi faoliyat:** hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish turli maqsadlarga va yaxshi samaraga ega bo'lishi mumkin. Bu bola tushunadigan va unga quvonch bag'ishlaydigan, u o'zini erkin his qiladigan faoliyat turlari bo'lishi kerak. Bu bola va ijtimoiy xodim o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni yaxshilashga va ijtimoiy xodimga bolaning ehtiyojlari hamda hayajonlarini yaxshiroq tushunib olishiga yordam bergan bo'lardi.

Bolalardan ijtimoiy xodimning qaysi sifatlari ularga ko'proq yoqishi so'raladi. Quyidagi ijtimoiy xodimlar bolalarga yoqishlari aniqlandi:

• Diqqat bilan **tinglovchi**, nutqi umumiy iboralardan iborat bo'lmagan va hech qachon suhbat davomida bolalar tomonidan ko'tarilgan muammolarni e'tiborsiz qoldirmaydigan;

• **Muloqotga doim tayyor** va belgilangan vaqtda muntazam aloqalarni ta'minlovchi;

• **Tanqid qilmaydigan** va ko'rsatma berishga harakat qilmaydigan, aksincha tinglaydigan, tushuntiradigan yoki turli variantlarni taklif etuvchi;

• **Hazilkashlik**, bu yaxshi munosabatlar o'rnatishga yordam beradi;

• **Ochiqchasiga** va yolg'on va'dalar bermasdan mas'uliyat bilan **gaplashadigan**;

• **Ishonch uyg'otuvchi**, maxfiylikka amal qiluvchi va suhbat mavzusini tanlashda bolalar bilan maslahatlashadigan.

Baholash o'tkazilishi jarayoniga boshqa mutaxassislarni qachon va qanday jalb qilish masalasini ko'rib chiqish ham juda muhim hisoblanadi. Boshqa agentliklar mutaxassislari olingan ushbu axborotni ular qanday tushuntirishlari mumkinligi haqida maslahat yoki munozara yo'li bilan yordam ko'rsatishlari mumkin. Bundan tashqari, bolaning rivojlanishi yoki xulqi ba'zi jihatlari ixtisoslashtirilgani ko'rib chiqilishini yoki bolani boshqa agentlikka yo'naltirishni talab qilishi mumkin. Bu misol uchun, bolaga shafqatsiz munosabatda bo'lish sharoitlarida uning ota-onalariga hissiy bog'langanlik kuchini baholash, kambag'allik sharoitida yashovchi va yordamga muhtoj maktab bitiruvchisining ta'lim imkoniyatlarini baholash bo'lishi mumkin. Shunday sharoitlarda nima uchun boshqa mutaxassislar baholash o'tkazilishi jarayoniga jalb etilishlarini bolalarga aniq tushuntirish kerak.

Ijtimoiy ishchilar amaliyot bilan shug'ullanganlarida biror narsaga muhtojlik sezgan odamlar uchun keng doiradagi xizmatlarni taqdim etadilar. Boshqa faoliyat sohasining vakillari, shu jumladan, volontyorlar mijozlar guruhiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda qatnashgan taqdirda mazkur kasb-kor bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos amaliy rollarni bajarish uchun ijtimoiy ishchi maxsus tayyorganlik ko'rgan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy ish lug'atiga binoan, rol bu «muayyan mavqega ega bo'lgan kishiga tayin etilgan madaniy sharoitlarga bog'liq xulq-atvor turidir». Shunday qilib, rolli xulq-atvor ko'proq inson egallagan mavqega va o'zi ishlab turgan faoliyat sohasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy ishchining xulq-atvori va roli alohida olingan bir ishchi bilan emas, balki ijtimoiy ishning o'zi bilan qiyoslanadi. Rolning qanday bajarilishi esa juda individual jarayon bo'lib, ijtimoiy ishchining yordam ko'rsatish vaziyatida qo'llaydigan bilim va malakalarining betakror yig'indisiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy ishda har xil rollarni bajarish uchun ko'plab funksiyalarni bajarish

zarur. Ish funksiyasi eng maqbul tarzda o'ziga xos kasbiy rol bilan bog'liq bo'lgan faoliyat yoki belgilangan majburiyat, vazifa sifatida ta'riflanishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy ishchining samarali ish olib borishi uchun ijtimoiy ishchilar tomonidan bajariladigan rollarni tushunish va ulardan kutiladigan faoliyat turlari va funksiyalarini egallash muhim ahamiyatga egadir. U yoki bu rol hamda bu rolga xos bo'lgan funksiyalar ijtimoiy ishchiga uning agentligi doirasida belgilab qo'yilgan amaliy faoliyat sohasiga, metodologik yo'nalganligi va majburiyatlariga bog'liq bo'ladi.

7.4. Ijtimoiy ish xodimining rollari va funksiyalari

Odamlarga yordam berishga qaratilgan jismoniy terapiya, tibbiy parvarishlash, maslahat berish kabi ko'pgina kasblarning rollari ijtimoiy me'yorlar, xizmat turlari, shuningdek, shu toifadagi faoliyat uchun ruxsat beradigan ma'muriy qoidalar va qonunlar tomonidan belgilangandir. Ijtimoiy ish sohasi ijtimoiy ishchi tomonidan bajarilishi kutiladigan rollarini shakllantiradi. Odamlar odatda o'z kasbiy rollari doirasidan tashqariga chiquvchi imkoniyatlar va qobiliyatlar ega bo'lsalar-da, bu kasb sohasining har bir vakili hech bo'lmaganda ijtimoiy ishda belgilangan rollarni bajarishga tayyor bo'lmog'i kerak.

Ushbu risolada ijtimoiy ishchidan kutiladigan 38 ta funksiyaning ta'rifi beriladi. U ijtimoiy ish bo'yicha adabiyotlarda ta'riflangan rollar va funksiyalar sintezini aks ettiradi (1) va uning mualliflari ushbu rollar va funksiyalarning barcha turlarini ijtimoiy ish amaliyotida kuzatgan holda konseptual jihatdan ta'riflaydilar yoki odatda ijtimoiy ishchilar mashg'ul bo'lgan faoliyatlar majmualarini statistik asosda belgilash uchun omilli tahlilni (2) qo'llaydilar. Muhimi, ijtimoiy ishchi u yoki bu lavozimga xos bo'lgan majburiyatlarni bajarar ekan, bitta yoki ko'pincha bir nechta rolni bajarishi mumkinligini tushunish lozim. Har qanday amaliy rolni bajarishda bir qancha farqli funksiyalardan foydalanishga zarurat tug'ilishi mumkin. Shuningdek, har xil rollarni bajarishda ham bitta o'ziga xos funksiya yoki faoliyatdan foydalanish mumkin. Masalan, odam ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha brokerlik rolida ham, maslahatchi yoki mijozga xizmat ko'rsatuvchi

tibbiyot xodimi rolini bajarigan taqdirda ham bitta funksiyani - mijozning vaziyatini baholash funksiyasini bajarishi mumkin. Biroq bundan keyingi sahifalarda har bir funksiya faqat bir martadan ta'riflanadi.

1. Xizmat sohasi brokeri

Maqsadi. Mijozlarni tegishli ijtimoiy xizmat va boshqa resurslar bilan bog'lash.

Ta'rif. Boshqa «yordam beruvchi» kasblar orasida ijtimoiy ish ko'proq odamlarga o'zlarining ijtimoiy muhitlari bilan ta'sirchan o'zaro munosabatlar o'rnatishlariga yordam berishga qaratilgandir. Bu esa ijtimoiy ishchini shunday holatga qo'yadiki, u mijozning ehtiyojlari va jamiyat resurslari o'rtasidagi aloqani ta'minlab beruvchi birinchi professional xodim bo'lib qoladi. Xuddi ko'chmas mulk agenti yoki sug'urta agenti kabi ijtimoiy ishchi mijozning ehtiyojlarini aniqlab, unga tegishli resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi. Ba'zan ishchining o'zi bunday resurs yoki xizmatlarni taqdim etsa, ba'zan mijozni agentlikdagi boshqa xodim bilan bog'lab qo'yadi, gohida esa mijozning ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan boshqa agentlikni topib beradi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi brokeri sifatida ijtimoiy ishchi turli mavjud resurslarni yaxshi bilishi va bunday resurslardan foydalanish shart-sharoitlari, yutuqli jihatlari va chegaralanishlari doimiy ravishda baholab borishi lozim. Resurslar ijtimoiy ta'minotni (masalan, pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy) va /yoki ijtimoiy xizmatlarni (masalan, maslahat berish, guruhiiy mashg'ulotlar, ijtimoiy reabilitatsiyani) o'z ichiga olishi mumkin.

Funksiyalari

Mijozning vaziyatini baholash. Brokerlik rolini bajarishdagi dastlabki qadam mijoz yoki mijozlarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniq va teran anglashdan iboratdir. Konnavay va Djentrining (1988) fikricha, ijtimoiy ishchi mijozning himoyalanganligi, madaniyati, tashqi ko'rinishi, barqarorligi, o'z-o'zini hurmat qilishi, aqliy saviyasi va o'zgarishlarga tayyorligi kabi omillarni baholay olishi lozim.

Resurslarni baholash. Ijtimoiy ishchi mijozlarning talablariga javob berishi

mumkin bo'lgan mavjud resurslarni etarlicha aniq baholashi kerak. U taklif etilayotgan dasturlar, o'z agentligidagi xodimlarning imkoniyatlari, u yoki bu mijozga ko'rsatiladigan xizmatlarning imkoniyatlarini belgilaydigan ko'rsatkichlar bilan yaxshi tanish bo'lmog'i kerak. Ijtimoiy ishchi mijozga resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'lishiga yordam berish yo'lini bilishi zarur.

Ma'lumot berish. Ba'zan brokerlik roli ijtimoiy ishchidan mijozga yoki mijoz guruhlariga ma'lumot berishni talab qiladi. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish bo'yicha o'ziga xos ma'lumotlar zaxirasi sifatida namoyon bo'lgan ishchi, mavjud resurslar haqidagi bilimlarini o'rtoqlashgan holda odamlarga yordam beradi. Ayrim holatlarda, ijtimoiy ishchi nafaqat o'z mijozlariga, balki jamoatchilikka taqdim etilayotgan xizmatlar to'g'risida hamda mavjud ehtiyojlar va taqdim etilayotgan xizmatlar o'rtasidagi tafovutlar haqida ma'lumot beradi.

Mijozni yo'naltirish. Ijtimoiy ishchi qaysi resurslar mijozning talablarini qondirishga qodir ekanligini aniqlashi mumkin. Bu esa mijozni bir qancha resurs manbalariga yo'naltirishni taqozo etishi mumkin. Ta'sirchan yo'naltirish ijtimoiy ishchidan mijozning unga berilgan ko'rsatmalarga amal qilish motivatsiyasi va qobiliyatini, shuningdek, resurs egalarining mijoz talablariga javob berish qobiliyati va imkoniyatini aniq tushunish va baholashni talab qilishi mumkin. Mazkur ikki omilga bog'liq ravishda ishchi mijozlarni yo'naltirish funksiyasini u yoki bu darajada faollik bilan bajarishi mumkin.

Mijozni himoya qilish. Resurslar mijozlarning talablariga yetarlicha javob bera olmagan holatlarda ijtimoiy ishchi o'z mijozlarining himoyachisi yoki advokati funksiyasini bajarib, ular bilan birgalikda yoki ularning nomidan ish olib borishi mumkin. U mijozlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash uchun muzokaralardan, vositachilikdan yoki undan-da tajovuzkor usullardan foydalanishi mumkin.

Xizmat tizimlarini birlashtirish. Brokerlik rolini bajarish ishchining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimidagi turli jabhalar o'rtasida doimiy o'zaro hamkorlikni ta'minlashi bilan ham bog'liqdir. Jabhalar orasidagi aloqani kuchaytirish uchun ijtimoiy ishchi qiziqishlar bo'yicha tizimli muloqot, turli agentliklar orasida

muloqot kanallarini o'rnatish, resurslardan birgalikda foydalanish haqidagi masalalarni muhokama qilish, agentliklar o'rtasidagi axborot almashinuvida ishtirok etish hamda faoliyatni muvofiqlashtirish kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

2. Ijtimoiy va moslashuvchanlik ko'nikmalari o'qituvchisi

Maqsadi. Mijozlarda murakkab hayotiy vaziyatlarni hal etishga yordam beradigan ko'nikmalarni rivojlantirish va mijozlarning ijtimoiy hayotida ushbu ko'nikmalardan foydalanishlarini kengaytirish.

Ta'rif. Ijtimoiy ishning kattagina qismi mijozlarga qanday qilib hayotdagi muammoli vaziyatlarni hal etish va inqirozlarning vujudga kelishiga to'sqinlik qilishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunda mijoz bilan ishlash jarayonida ishchi o'z kasbiy ta'limini olish paytida olgan bilimlarining bir qismini unga etkazadi. Barkerning ijtimoiy ish lug'atida ta'riflanganidek, o'qituvchilik roli «mijoz yoki mijoz guruhlariga zaruriy moslashuvchanlik ko'nikmalarini o'rgatish majburiyatidir. Bunga tegishli axborotni mijoz uchun tushunarli bir ko'rinishda taqdim etish orqali maslahat berish va turli muqobil variantlarni taklif etib, ularning oqibatlarini tushuntirish orqali, xulq-atvorini modellashtirish va muammoli vaziyatlarni hal etish texnikalarini o'rgatish orqali erishilishi mumkin».

Amaliy ijtimoiy ishning asosiy maqsadi mijozlarga samarasiz va natijasiz xulq-atvorlarni o'zgartirishlariga yordam berishdan iboratdir. Mijozlarga amal qilinishi lozim bo'lgan turli ijtimoiy qoidalar va me'yorlarni o'rgatish, ijtimoiy va kundalik turmush ko'nikmalarini o'qitish, rollarni bajarishning ta'sirchan usullarini ko'rsatish va ularda o'z xulq-atvorini tushunishni rivojlantirish - bunday maqsadga erishish usullaridan biridir. Ko'nikmalar va maxsus bilimlarni o'rgatish norasmiy shart-sharoitlarda mijoz bilan o'zaro hamkorlik paytida yoki aksincha, oila byudjetini tashkil etish yoki ota-onalar uchun kurslar kabi qisqa ta'lim kurslarida amalga oshirilishi mumkin. Metodni tanlash ijtimoiy ishchidan mijozlarning o'zlari uchun yangi bilimlarni egallashga tayyorliklarini va ularning qobiliyatlarini baholashda yuksak kasbiy mahoratni talab etadi.

Funksiyalari

Ijtimoiy ko'nikmalar va kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Ijtimoiy ishchilar mijozlarga o'z hayotlaridagi konkret vazifalarni samaraliroq bajarishga o'rganishlariga yordam berish zarur bo'lganda kerak bo'ladilar. Oila byudjetini tuzish va boshqarish, jamoat transportidan foydalanish, turar joy muammolarini hal etish, shaxsiy gigiena va o'z-o'zini parvarishlash, samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, bularning hammasi ijtimoiy ishchilar o'qituvchilik faoliyatidan namunalardir (Tir, Shifor va Gote, 1987).

Xulq-atvorni o'zgartirishga yordam berish. Ba'zan amaliy ijtimoiy ish mijozga yangi va maqbulroq xulq-atvor ko'rinishlarini hosil qilish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy ishchi mijozga samaraliroq shaxslararo xulq-atvorni o'rgatishda rollarni modellashtirish, qadriyatlarni aniqlashtirish yoki xulq-atvorni o'zgartirishning turli texnikalari kabi faoliyat turlaridan foydalanishi mumkin. Ijtimoiy ishchi kengroq doiradagi tuzilmalar bilan ish olib borib, masalan, ijtimoiy ish agentligi direktorlar kengashiga u yoki bu ijtimoiy muammoning mijozlarga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lum qilishi yoki mazkur agentlikdagi mijozlarni himoya qilish guruhi o'zining ish strategiyasini qayta ko'rib chiqib, avvalgi unchalik samarali bo'lmagan strategiyani o'zgartirishiga yordam berishi mumkin.

Dastlabki ogohlantirish. Soubi (1977) o'qituvchilik rolining maqsadi mijozning hayotida takrorlanib turadigan yoki jiddiy muammolar paydo bo'lishini ogohlantirishdan iborat ekanligini eslatadi. U ijtimoiy ishchilar muammoning oldini olishdan ko'ra ko'proq «singan bo'lakchalarni yig'ib, yopishtirishga» o'rganib, shunga odatlanganliklarini, ammo so'nggi vaqtlarda ular o'z faoliyatlariga dastlabki ogohlantirishni tobora ko'proq kiritayotganligini ko'rsatib bergan. Bunday faoliyatning namunalari sifatida nikoh oldidan maslahat berish, ota-onalik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha guruhiy mashg'ulotlar o'tkazish kabilarni e'tirof etish mumkin.

3. Maslahatchi / Tibbiyot xodimi

Maqsadi. Mijozlarga o'zlarining ustanovkalari va his-tuyg'ularini tushunishlari orqali, muammoli ijtimoiy vaziyatlarda o'z xulq-atvorlarini

boshqarish yoki shaxs sifatida o'sish uchun o'zlari xohlagan faoliyat jihatlarini o'rganish orqali ularga o'z ijtimoiy faoliyatlarini o'zgartirishlariga yordam berish.

Ta'rif. Ehtimol, ijtimoiy ishchining eng ko'zga tashlanadigan roli bu maslahatchi yoki tibbiyot xodimi rolidir. Ijtimoiy Ishchilar Milliy Uyushmasining ijtimoiy ishchilarni tanlash va ishlatish bo'yicha qo'llanmasida ushbu rolning mohiyatiga quyidagi tarzda ta'rif beriladi: «Mijozlarning xulq-atvori va shaxslararo munosabatlariga oid alomatlariga ega bo'lgan vaziyatli muammolarni yengillashtirish yoki hal etish uchun shunga o'xshash vaziyatli muammolarga ega bo'lgan alohida mijozlar, guruhlar yoki oilalarning rivojlanishiga yordam berib, mijozning shaxslararo va / yoki ichki ruhiy faoliyatiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan mijoz, guruh yoki oila bilan to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ish olib borishdir». Qisqaroq qilib aytganda, ijtimoiy ishchi mijozga o'zaro hamkorlikka va turli ijtimoiy shart-sharoitlar natijasida vujudga keladigan stresslarga nisbatan munosabatlarini o'zgartiradigan xatti-harakatlarni amalga oshirishiga yordam beradi.

Ushbu rolni bajarish uchun ijtimoiy ishchi inson xulq-atvori to'g'risidagi asosiy bilimlarga ega bo'lishi, atrof-muhitning insonlarga ko'rsatadigan ta'sirini tushunishi, mijozlarning ehtiyojlarini baholashga va muayyan stressli vaziyatlarda odamlarga yordam beradigan zaruriy chora-tadbirlarni tanlashga qodir bo'lishi, tegishli texnikalarni qo'llay olishi, mijozni butun o'zgarishlar jarayoni bo'ylab yo'naltira olishi lozim.

Funksiyalari

Psixosotsial baholash va aniqlash. Dastlabki baholash – bu har qanday chora-tadbir bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Mijozning barcha vaziyatlari aniq tushunilgan bo'lishi, mijoz muayyan yordam ko'rsatish mezonlariga mos kelishi yoki kelmasligi aniqlangan bo'lishi kerak, shuningdek, mijozning o'zgarish olish qobiliyati aniqlangan bo'lishi lozim. Yuqorida zikr etilgan Qo'llanma mazkur funksiyani bajarishdagi tipik faoliyat turlarini quyidagicha ta'riflaydi: «mijozni qabul qilish, intervyu o'tkazish, ijtimoiy tarixini tayyorlash, xizmatlar rejasini ishlab chiqish». Ijtimoiy ishchi mijozning

verbal va noverbal xulq-atvorini diqqat bilan kuzatib, uning ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillarni aniqlaydi. Vaziyatga baho bergach ijtimoiy ishchi mijozni ham, uni o'rab turgan ijtimoiy muhitni ham tushunish uchun u yoki bu konseptual asosdan foydalangan holda xulosa chiqarib, «tashxis qo'yadi» va maqbul deb topilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Uzoq vaqt davom etadigan barqarorlashtiruvchi g'amxo'rlik ko'rsatish. Maslahatchi/tibbiyot xodimining roli hamda uning ijtimoiy vaziyatni o'zgartirish bo'yicha sa'y-harakatlari bilan chegaralanmaydi. Ba'zan tegishli xizmat nogironlar, yoshi qaytgan odamlar yoki tuzalmas kasalikka chalingan bemorlarga maslahat berishda uzoq vaqt davom etadigan qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy davolash. Ijtimoiy ishchilar mijozlarga «davolanishga yoki ayrim kasalliklar, mehnatga yaroqsizlik va muammolarni bartaraf etish»ga yordam berib, ular bilan ish olib boradilar (Ijtimoiy ish lug'ati, Barker, 1987). Ushbu funksiyani bajarish mijozga odamlar va guruhlar o'rtasidagi hissiy o'zaro munosabatlarni tushunishga yordam berish, mijozning ijtimoiy o'zaro munosabatlar o'rnatish bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, mijozning o'z muammolarni hal qilishi va shaxs jihatdan kamol topishi bo'yicha sa'y-harakatlarini yo'naltirish, mojarolarni hal etishda vositachilik qilishni o'z ichiga qamrab oladi. Muammolarni hal etish bilan aloqador bo'lgan terapiya va faoliyat turlari chora-tadbirlarning individual, guruhiy va oilaviy yondashuvlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Tadqiqot ishlarini qo'llash. Tadqiqot ijtimoiy ishchi tomonidan bajariladigan har qanday amaliy rolning ajralmas qismini tashkil etsa-da, u maslahatchi/tibbiyot xodimi rolini bajarishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita xizmat ko'rsatishning mazkur darajasida tadqiqotning qo'llanilishi ikki xil shaklda bo'ladi. Birinchidan, ijtimoiy ishchi doimiy ravishda o'z ishini va qo'llayotgan chora-tadbirlarining ta'sirchanligini baholab borishi lozim. Ushbu ma'noda u mijozlar, o'z agentligi, jamoatchilik va bevosita kasb-kor oldida hisobot beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy ishchi doimiy ravishda ma'lumot to'plashi va ijtimoiy xizmatlarning yangidan barpo qilingan yoki zamonaviylashtirilgan turlaridan

foydalangan holda hal etilishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy muammolarning vujudga kelishini aniqlash uchun o'zining amaliy tajribasini baholab borishi zarur.

4. Keys menejer

Maqsadi. Mijozlarni doimiy ravishda tegishli agentliklar va xizmatlar bilan bog'lash, shuningdek, xizmatlarni muvofiqlashtirish yo'li bilan sifatli xizmat ko'rsatishga erishish va uzluksizlikni ta'minlash.

Ta'rif. Gumanitar xizmat ko'rsatish tizimi mijozlar uchun, ayniqsa, uzoq vaqt davomida ehtiyojlarini qondirish talab qilinadigan mijozlar uchun juda murakkab bo'lib, unga murojaat qilish va uning ishini tushunish qiyindir. Bu erda ijtimoiy ishchining muhim roli mijoz uchun zarur bo'lgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatini izlab topish va ta'minlashdan iborat bo'ladi. Zarur bo'lsa, ijtimoiy ishchi o'z mijozining huquqlarini himoya qiluvchi rolini bajaradi. Ko'p qirrali xizmat ko'rsatish zarurati paydo bo'lganda ijtimoiy ishchi keys menejer sifatida turli tashkilotlar va agentliklar bilan aloqalar o'rnatish grafigini tuzish va rejalashtirish yo'li bilan xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi rolini bajaradi. Ijtimoiy ishchi bu ma'noda mijoz va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tarmog'i o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Yuqorida zikr etilgan qo'llanmada keys menejerning roli shunday ta'riflanadi:

Individual va guruh xizmat ko'rsatish bo'yicha rejani ishlab chiqish, bajarish va bajarilishini tekshirishga yo'naltirilgan faoliyat. Bu faoliyat o'z ichiga mijozni o'rab turgan ijtimoiy muhit tizimini konseptuallashtirishni, shuningdek, xizmatlarni belgilash, taqdim etish hamda mijozni boshqa turdagi ijtimoiy xizmat manbalariga (yuridik, sog'liqni saqlash xizmatlari va h.) yo'naltirishni qamrab oladi. Shuningdek, u mijozni o'z muammolarini hal etish jarayoniga jalb qilish, taraqqiyotni muvofiqlashtirish va kuzatib borish, mijozning huquqlarini himoya qilish hamda xizmat provayderlari bilan muzokaralar olib borilganida uning nomidan ish olib borishni o'z ichiga oladi.

Keys menejer rolini bajarayotganda ijtimoiy ishchi ham terapevtik, ham boshqaruv texnikalaridan foydalana olishi lozim. Bunday ish mijozga

ko'rsatiladigan xizmatlarning maqsadini shakllantirishiga, xizmatlardan foydalanish imkonini qo'lga kiritishiga yordam berishda hamda bunday xizmatlarning davomlilikini va tegishli darajadagi sifatini ta'minlashda shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir paytda ijtimoiy ishchi umuman butun o'zaro hamkorlik jarayonini muvofiqlashtirib, menejer sifatida faoliyat yuritadi.

Funksiyalari

Kristina Rich (5) keys menejering besh tayanch funksiyasiga ta'rif beradi.

Konkret voqeani baholash. Ijtimoiy ishning boshqa rollaridagi kabi ijtimoiy ishchi mijoz yoki yordam talab qilgan oilaning o'z boshidan kechirgan vaziyatiga aniq baho berishi lozim. Bu ma'lumot to'plash hamda mijoz va uni o'rab turgan shart-sharoitlarni baholashni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Yordamni rejalashtirish. Mijozlar va jarayonning boshqa ishtirokchilari bilan birgalikda ijtimoiy ishchi mijozning ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlarni ta'minlashi mumkin bo'lgan har xil xizmat turlarini belgilashi mumkin. Bertchi va Xoreysi (1980) mazkur vazifalarni «yig'ilishlar va guruhliy bahs-munozaralarni yo'naltirish hamda integratsiyalashgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va maqsadlarni shakllantirish yuzasidan, ehtimol, mijoz va uning oilasi hamda mazkur vaziyat uchun muhim bo'lgan boshqa kishilar ishtirokida ishchilar o'rtasida qaror qabul qilish bo'yicha yig'ilishlar uchun» zarur bo'lgan ish sifatida ta'riflaganlar. Ehtimol, aynan xizmat ko'rsatish tizimi vakillarini oila a'zolari bilan birgalikda rejalashtirish jarayoniga jalb qilishi keys menejment rolini boshqa ijtimoiy amaliy ish rollardan ajratib tursa kerak.

Iste'mol qilinadigan xizmatlar bilan aloqa qilish. Brokerlik rolidagi kabi keys menejer ham o'z mijozlarini tegishli resurslar bilan bog'lashi kerak. Biroq bu erda farq shunda ko'rinadiki, ijtimoiy ishchi xizmatlarni taqdim etish jarayonining o'zida faol ishtirokchi bo'lib qolaveradi. Mijozni tegishli tashkilotlarga «shunchaki yo'naltirishga» qarama-qarshi o'laroq keys menejer mijozning boshqa resurslardan foydalanishini muvofiqlashtirishga ko'proq ahamiyat beradi.

Xizmatlarni taqdim etishni nazorat qilish. Mijoz bir guruh agentliklar va

alohida ishchilarning xizmatlaridan foydalangan taqdirda zarur xizmatlar haqiqatan ham muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun keys menejer ushbu jarayon qatnashchilari bilan aloqada bo'lib turadi. Bu erda mazkur funksiya bilan bog'liq bo'lgan yetti asosiy vazifa tafovut qilinadi:

1. Sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishning maqsadli va aniq yo'nalganligini qo'llab-quvvatlash uchun jarayonning dastlabki rejaga mutanosibligini hamda xatti-harakatlar tizimi ichida aniq axborot oqimining ta'minlanishini kuzatib borish.

2. Kutilmaganda vujudga keladigan muammolarni aniqlashni tezlashtirish uchun, zarur bo'lsa, mijoz nomidan ish yuritgan holda xizmat ko'rsatish jarayonida mijozga "ergashish".

3. Inqirozli vaziyatda yoki xizmat provayderlari bilan mojaro yuzaga kelganda mijoz va uning oilasiga yordam berish uchun mijozga maslahat va ma'lumot berish.

4. Mijoz va uning oilasi o'z muammolarini yaxshiroq eplay olishlari va taqdim etilayotgan xizmatlardan foydalana olishlari uchun doimiy ravishda hissiy qo'llab-quvvatlab turish.

5. Dastlabki rejani amalga oshirish jarayoni hamda mijozning ilgarilashi bilan bog'liq hujjatlarni tartibli saqlash uchun barcha zaruriy qog'oz ishlarini yuritish.

6. Mijozning istak va havaslari jarayonning barcha ishtirokchilariga ma'lum bo'lishi va tegishli xizmatlarni ko'rsatish davom etishi uchun chora-tadbirlarning umumiy rejasiga kiritilgan dasturlar va norasmiy manbalar orqali mijoz, uning oilasi va tegishli ishchilar o'rtasida vositachi vazifasini bajarish.

7. Sifatli axborot almashinuvini ta'minlash va yordam ko'rsatish tarmoqlari o'rtasidagi nizolarni imkon qadar kamaytirish uchun xizmatlarni taqdim etish dasturlari o'rtasida vositachi vazifasini bajarish.

Konkret ish bo'yicha himoyalash va ish olib borilishini ta'minlash. Zaruriy yordam ko'rsatilmagan va yordam ko'rsatish rejalashtirilmagan taqdirda keys menejering funksiyasi o'z mijozlarining himoyachisi bo'lib, ularning nomidan ish

olib borish va turli gumanitar tashkilotlarning murakkab ish qoidalari va me'yorlarini muhokama qilib, tegishli choralarni ko'rishdir. Ishchining majburiyati mijozning qonuniy haq-huquqi bo'lmish xizmatlardan foydalanishni ta'minlashdir. Bu mazkur mijozga xizmat ko'rsatish zarurligiga tegishli tashkilotlarni iqror etish va ishontirish maqsadida olib boriladigan faol muzokara jarayonini o'z ichiga olishi mumkin.

5. Ish yuklamasi hajmi menejeri

Maqsadi. Mijozlarga imkon qadar samarali yordam bera olish va o'z ish beruvchilari oldida javobgarlikni his eta olish uchun o'z yuklamasining hajmini boshqarish.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishchilar samarali xizmat ko'rsatish bilan birga, ayni paytda o'zlari ishlab turgan agentlikning talablari, me'yorlari va siyosatiga mos kelishga intilishlari lozim. Boshqacha qilib aytilsa, ular ta'sirchanlik va mahsuldorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashlariga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda ijtimoiy ishchilarning moliyaviy manbalar oldida hisobot berishlariga ko'proq ahamiyat berilayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy ishchilar o'z faoliyatlarining butun tarixi mobaynida kichik hajmdagi byudjet bilan taqdim etadigan xizmatlarini imkon qadar ko'paytirib, kengaytirishlari lozim edi. Ular odatda bajaradigan katta hajmdagi ishlarini shunchaki samaraliroq tarzda boshqarishlari kerak. Ish hajmini boshqarishning bir qismi xizmat ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlarini qanday tashkil etish masalasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi qismi ishchi qanday qilib qanday holatda axborotni taqdim etishi va umuman agentlik ishida qatnashishi bilan aloqadordir.

Funksiyalari

Xizmatlarni rejalashtirish. Amaliy faoliyatni samarali ravishda tashkil qilish qobiliyati ishchi taqdim etadigan xizmatlarni imkon qadar ko'paytirishning ajralmas qismidir. Xizmatlarni rejalashtirish o'z yuklamasining hajmini baholash hamda ishni imkon qadar samarali ravishda amalga oshirish bo'yicha rejalar tuzishni o'z ichiga oladi. Bu yerda faoliyatlarni amalga oshirishda ustivor yo'nalishlarni belgilash, tartib-qoidalarini o'rnatish hamda har bir faoliyat turini

bajarish uchun ajratilgan real vaqt miqdorini aniqlash zarurdir.

Vaqtning boshqarish. Vaqtning samarali boshqarish ham ijtimoiy ishchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Agentliklar kam holatlarda tegishli xodimlar bilan to'liq ta'minlanganligi bois odatda ijtimoiy ishchilar juda katta hajmdagi ishni bajarishlariga to'g'ri keladi. Agar ishchi har bir mijoz va har bir faoliyat turiga tegishli e'tibor berishi lozim bo'lsa, u holda u o'zining vaqtidan hamda u yoki bu shoshilinch topshiriq uchun ajratilgan ish soatlaridan foydalanish bo'yicha afzalliklarni aniq taqsimlab chiqishi shart.

Xizmatlar sifatini nazorat qilish. Ijtimoiy ishchilar ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini kuzatib borishlari lozim. O'z ish hajmini boshqarishning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy ishchi muntazam ravishda taqdim etayotgan xizmatlarning samaradorligini baholab boradi. Shuningdek, ko'pincha ijtimoiy ishchilar o'z hamkasblarining ishlarini baholash jarayonida ishtirok etadilar. Bu ish hamkasblar va volontyorlar bilan birga «agentlik arxividagi qaydlarni ko'rib chiqish, ish sifatini baholash, faoliyat sharhiga bag'ishlangan yig'ilishlarni o'tkazish»ni o'z ichiga olishi mumkin (Tir, Shifor, Gote, 1987).

Ma'lumotlarga ishlov berish. Ijtimoiy ishchi agentlikning me'yorida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ma'lumotlarga ishlov berish uchun javobgardir. Xizmat ko'rsatish jarayoni aniq-ravshan hujjatlashtirilishi lozim: yordam ko'rsatish resurslari bilan ish olib borish hujjatlarini aniq yuritish, barcha sarf-xarajatlar ham tegishli shakllarga kiritilishi kerak. Bundan tashqari, mahsuldorligi yuqori bo'lgan tashkilotlar xodimlar o'rtasida yaxshi muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlikni talab qiladilar. Agentlikning ish jarayonlari va tartib-qoidalari hamma uchun aniq va tushunarli bo'lmog'i kerak. Bu agentlik xodimlari o'rtasida tarqatiladigan xizmatga oid ko'rsatmalar tayyorlashni, ishchilarning muntazam yig'ilishlariga tashrif buyurishlarini, shuningdek, agentlik ichida muloqotni yaxshilashga qaratilgan boshqa faoliyatlarni amalga oshirishni talab etadi.

6. Xodimlar shtatini rivojlantirish tashkilotchisi

Maqsadi. Treninglar, faoliyatni nazorat qilish maslahat berish va menejment vositasida agentlik xodimlarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishchilar ko'pincha o'rta qatlamdagi rahbarlik lavozimlarini egallaydilar. Mazkur funksiyalarida ular o'z xodimlarining faoliyatlarini kengaytirish uchun kuch sarflaydilar. Ba'zan bu kotibalar, qabulxonada ishlovchilar, volontyorlar va boshqa xodimlar bilan ish olib borishni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, shunga qaramay, ko'pincha bunday rolda ijtimoiy ishchi, albatta, asosiy diqqat-e'tiborini bevosita mijozlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilar bilan ish olib borishga qaratadi.

Xodimlarni rivojlantirish o'qituvchilik rolini ijro etishda qo'llaniladigan ko'pgina ko'nikmalarni talab qiladi, chunki ijtimoiy ishchi bu erda ham ma'lumotlar va muayyan bilimlarni boshqalarga yetkazadi. Biroq ushbu holatda bilimlar xodimlarga va qo'l ostidagi ishchilarga ularning faoliyatlarini yaxshilash maqsadida yetkaziladi. Xodimlarni rivojlantirish o'quv ehtiyojlarini aniq baholashga asoslanadi. Ta'limning o'zi individual instruktaj, nazorat, maslahat shakliga ega bo'lishi hamda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish yoki ularda ishtirok etishni o'z ichiga olishi mumkin.

Funksiyalari

Xodimni yo'naltirish va o'qitish. Xodimni agentlik ishi va har xil o'ziga xos vazifalar bo'yicha teranlik bilan tuzilgan reja asosida o'qitish va yo'naltirish zarur. Har bir ishchining o'quv talablariga javob berish uchun bunday yo'naltirish imkon qadar individuallashtirilishi lozim, bu esa o'z navbatida mazkur ishchining mahoratini uzluksiz ravishda baholab borishni taqozo etadi. Ushbu funksiyani bajarishning tipik vazifalari orasida ishdagi kutilmalarni aniqlash, «ishchini agentlikning tashkiliy siyosati va ish jarayonlariga yo'naltirish, konkret ishlar bo'yicha qaydlarni ko'rib chiqish hamda o'tkazilgan ishning sifatini baholashni» ajratish mumkin (Tir, 1984).

Xodimlarni boshqarish. Xodimlarni boshqarish faoliyati yangi xodimlarni tanlashdan boshlab, to ularning ishlash muddatlarining oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday faoliyatning ko'pgina turlari boshqa ishchilarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, konkret ishlar bo'yicha topshiriqlarni tanlash nafaqat ishchining qobiliyatlari bo'yicha

hukm chiqarishni, balki mos ravishda uning kasbiy o'sishiga yordam beradigan holatlarni tanlashni ham qamrab oladi. Shuningdek, u mazkur holat yuzasidan ishlarni bajarish uchun ishchiga zarur bo'lgan qisqa ta'lim yoki instruktajning qandaydir rejasini tuzishini taqozo etadi, bu esa o'z navbatida ishchining kasbiy sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari xodimlarni rivojlantirish rolini bajarish ijtimoiy ishchidan seminarlar, konferensiyalar o'tkazish uchun muayyan mablag'ni ajratishni talab etishi mumkinki, bunda agentlik ishchilari o'z ko'nikmalarini takomillashtirib, muayyan bilimlarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Ishni nazorat qilish. Kasbiy nazorat xodimlar faoliyatini mazkur agentlik uchun o'ziga xos bo'lgan tartib-qoidalarini bajarishda taqdim etiladigan xizmatlarning sifatini oshirishga yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Nazorat xodimlar faoliyatini bevosita kuzatib borish, topshiriqlarni belgilash jarayonini o'rganish, ish standartlarini ishlab chiqish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash uchun ishdagi zarur o'zgartirishlarni muhokama qilish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Maslahat berish. Maslahat berish – bu maslahatchi va maslahat oluvchi o'rtasida taxminan teng munosabatlarni o'rnatish vositasida bilim, ko'nikma va kasbiy yondashuvlarni yetkazish faoliyatidir. Agar buni oldingi band bilan, ya'ni agentlik ma'muriy ierarxiasining bir bo'lagi bo'lgan ishni nazorat qilish bilan solishtirilsa, unda maslahat o'zaro teng munosabatlardagi ikki kasb ustasi darajasida berilishi ma'lum bo'ladi. Maslahat oluvchi maslahat beruvchi bilan teng bo'lganligi bois olgan maslahatlaridan foydalanish yoki foydalanmaslik huquqiga ega. Maslahat berish (agentlikning dasturiy maqsadlariga bog'liq bo'lgan nazorat qilishga qarama-qarshi o'laroq) ishchining o'quv ehtiyojlariga yo'naltiriladi va shu ma'noda kasbiy o'sish va rivojlanishning muayyan modeliga mos keladigan ta'lim vositasi bo'lib hisoblanadi.

7. Ma'muriyat boshlig'i

Maqsadi. Gumanitar xizmatlarni taqdim etish bo'yicha tashrif siyosati, xizmatlar va dasturni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ta'rifi. Ma'muriyat boshlig'i ro'lida ijtimoiy ishchi ijtimoiy ish agentligining siyosati va dasturini bajarish majburiyatini bo'yniga oladi. Bu rolni bajarar ekan, ishchi bosh ma'muriy lavozim egasi bo'lishi yoki uning ma'muriy funksiyasi oddiy ijtimoiy ishchi sifatidagi majburiyatlarining bir bo'lagi bo'lishi mumkin. Ijtimoiy ish lug'ati (Barker, 1987) ma'muriy jarayonga quyidagicha ta'rif beradi: «tashkilot siyosatini aniq xizmatlarga aylantirish uchun zarur bo'lgan tashkilotdagi ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyatlarning muvofiqlashtirilgan yig'indisidir. Shuningdek, bu mazkur tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga etaklovchi tashkilotning bir-biriga bog'liq bo'lgan konkret vazifalari, funksiyalari va faoliyatlarini bajarishda rejalashtirish, belgilash, baholash va vositachilik qilish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ish metodi hamdir».

Ma'muriyat boshlig'i boshqa kishilar tomonidan yaratilgan siyosat, dastur va qonunlarni ro'yobga chiqarishi lozim. Agentlik direktorlar kengashi yoki tanlangan rahbarlar odatda agentlik faoliyati uchun zarur bo'lgan mablag'larni taqsimlaydilar va umumiy yo'nalishlarni belgilaydilar. Shundan so'ng, odatda, ko'ngilli tashkilotlarda ham, davlat tashkilotlarida ham tashkilotni boshqaradigan ma'muriyat boshlig'i va ijrochi direktorni tayinlaydilar. Uning birlamchi majburiyatlari bo'lib xodimlar bilan ish olib borish, ish jarayonlarini o'rnatish, agentlik ishini boshqarish, ko'rsatiladigan xizmatlarni ishlab chiqish va baholash, yuqori tashkilotlar va xodimlar o'rtasida vositachilik qilish hisoblanadi. Tashkilot tuzilishining hajmi va murakkabligiga qarab ma'muriyat boshlig'i ma'muriy funksiyalarining hammasini yoki ayrimlarini bajarishi mumkin, ammo ularning sifati uchun har doim bevosita javobgardir.

Funksiyalari

Menejment. Menejment funksiyasi ma'muriyat boshlig'idan konkret dasturlar, bilimlar va/yoki umuman butun tashkilot faoliyatini nazorat qilishni talab etadi. Menejment tashkilot rahbarlik kengashi ishini ta'minlashni, xodimlarni tanlash va saralashni, bajarilayotgan faoliyatlarni yo'naltirish va muvofiqlashtirishni, ustivor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha ish olib borishni, tashkiliy tuzilmani tahlil etishni, xodimlar o'rtasidagi nizolarni hal etishni,

tashkilot faoliyati uchun zarur resurslar izlab topishni o'z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari, menejment byudjetini tuzish va rejalashtirish, resurslardan foydalanish bo'yicha hujjatlarni yuritish, agentlikka tegishli bo'lgan jihozlar va binoning maqbul holatini ta'minlash bilan bog'liqdir.

Ichki va tashqi muvofiqlashtirish. Ma'muriyat boshlig'ining birlamchi vazifasi, bu agentlik ishini muvofiqlashtirishdir. Bu vazifa ichida agentlik ishining ta'sirchan va samarali dasturlarini tuzish nazarda tutiladi. Ko'pincha bu umumiy ish jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan agentlik ishidagi har xil bo'limlar va dasturlar bilan muhokama qilishni talab etadi. Shuningdek, agentlik ishiga yangi dasturlarni integratsiya qilishni ta'minlash uchun xodimlar bilan ish olib borish ham zarurdir. Shu bilan birga, ma'muriyat boshlig'i tashqi tashkilotlar va jarayon ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlik qilishda agentlikning birlamchi vakili bo'lib xizmat qiladi. Bir tadqiqotda bunday tashqi vazifalar «xodimlarni tashqi bosimdan himoya qiluvchi bufer rolini bajarish, xizmat iste'molchilari bilan muzokaralar olib borish, agentlik dasturlari faoliyatini davom ettirish uchun ularni jamoatchilikka tushuntirish» sifatida ta'riflanadi (Tir, Shifor, Gote, 1987). Shunday qilib, ma'muriyat boshlig'i nafaqat yuqori rahbarlik organlari bilan tashqi faoliyatni amalga oshiradi, balki shuningdek mazkur agentlik jamoatchiligi bilan aloqa qilishda ham asosiy rol o'ynaydi.

Ta'sirchan ma'muriyat boshlig'i tashabbuskor bo'lmog'i kerak. Ko'p sa'y-harakatlar va anchagina vaqt mavjud dasturlar ishini ta'minlash uchun ajratilishi kerak bo'lsa-da, ma'muriyat boshlig'i har doim mijozlar ehtiyojlari tahlilini baholash, ijtimoiy tendensiyalarni kuzatib borish, rahbar tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishi uchun xizmat ko'rsatish bo'yicha muqobil ishlanmalar tuzish yo'li bilan yangi xizmatlar paydo bo'lishiga ehtiyojni baholab borishi kerak.

Dasturni baholash. Oxir-oqibatda ma'muriyat boshlig'i ish sifati nazorati uchun mas'uldir. U agentlik dasturlarini nazorat qilish va baholash bo'yicha ish olib borishi kerak. Ma'muriyat boshlig'i dasturlarni hujjatlashtirish va muvaffaqiyatini baholash uchun ma'lumot to'plash tizimini barpo qiladi. Shnayderman (1974) ta'kidlaganidek, «mijoz bilan qilingan har bir aloqaga nafaqat

xizmat ko'rsatish imkoniyati sifatida, balki mazkur aholi guruhi uchun mavjud dasturlarning adekvatligini hujjatlashtirish imkoniyati sifatida ham qarash lozim». Bundan tashqari, Tir tadqiqotining (1984) ko'rsatishicha, ma'muriyat boshlig'i tashkiliy, kasbiy, davlat yoki federal standartlarga mutanosiblikni tekshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishi kerak. Shunday qilib, dasturni baholash kelajakda yangi dasturlarni ishlab chiqish bilan ham, mavjud dasturlarning muayyan standartlarga mos kelishi mavzusi bilan ham bog'liqdir.

8. Ijtimoiy o'zgarishlar agenti

Maqsadi. Jamiyatdagi va hayot sifatini yaxshilash mumkin bo'lgan sohalaridagi muammolarni aniqlashda ishtirok etish, o'zgarishlar yoki yangi resurslarni rivojlantirish tarafdorlari sifatida harakat qiluvchi umumiy manfaatlarga ega bo'lgan inson guruhlarini yo'naltirish.

Ta'rif. Ijtimoiy ishning ham odamga, ham uni o'rab turgan muhitiga ikki tomonlama yo'nalganligi ijtimoiy ishchining odamlar yashaydigan kvartallar, tumanlar yoki yanada yirikroq ijtimoiy tuzilmalar miqyosida o'zgarishlarni ta'minlashga tayyorligini talab etadi. Ijtimoiy o'zgarishlar agenti roli ijtimoiy ishning boshlanishidan e'tiboran, ya'ni 19 asr oxiridan boshlab, uning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Bu rolning ijtimoiy ishchi rollari repertuariga kiritilishi doimo ijtimoiy ishni boshqa yordam beruvchi kasblardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan bo'lib kelmoqda.

Barkerning ijtimoiy ish lug'atida ijtimoiy o'zgarishlar agenti roli «ehtiyoblarni qondirish, muammolarni bartaraf qilish hamda inson hayotining sifatini yaxshilash uchun institutsional o'zgarishlarga erishish bo'yicha muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar» tarzida ta'riflangan.

Mijozlar bilan bevosita ish olib boruvchi ijtimoiy ishchilar odamlarda u yoki bu ehtiyojlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun yaxshi pozitsiyani egallaganlar. Ijtimoiy ishchi nafaqat muhtoj bo'lganlarga mavjud resurslarni taqdim etish bo'yicha, balki shuningdek, u yoki bu ijtimoiy muammolarga olib keluvchi sabablarga barham berish jarayonini rag'batlantirish bo'yicha ham majburiyatlarni o'z bo'yniga oladi. Ijtimoiy

o'zgarishlar kam holatlarda oson va tez ro'y beradi va ijtimoiy ishchilar zarur qarorlarga kelish uchun kam hollardagina etarli vakolatlarga ega bo'ladilar. Ijtimoiy o'zgarishlar manfaatdor guruhlar va ta'sir ko'rsatuvchi guruhlarning mazkur muammolarga murojaat qilishlarini rag'batlantirishda ko'proq siyosiy ko'nikmalarni talab qilsa kerak.

Funksiyalari

Ijtimoiy muammo va ijtimoiy siyosatni tahlil etish. Ijtimoiy muammolarni hal qilish va mavjud ijtimoiy siyosatni qayta ko'rib chiqish yoki yangisini bunyod etishda birinchi qadam muammoning xarakterini aniq tushunishga erishishdir. Ijtimoiy tendensiyalarni tahlil etish, ma'lumotlarni to'plab umumlashtirish hamda olingan ma'lumotlarni aniq tushunish zarur. Shularga o'xshash dastlabki ishlar olib borilmasa, o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha muvaffaqiyatga erishish ehtimoli juda kam bo'ladi. Bunday tahlilda quyidagi odimlar izchilligi qo'llaniladi

- 1) tahlil mezonlarini ishlab chiqish;
- 2) o'tkazilayotgan ijtimoiy siyosatning mijozlarga va ijtimoiy muammolarning rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash;
- 3) mazkur muammoga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy qadriyatlar va ishonch-e'tiqodlarni tahlil qilish.

Jamoatchilik e'tiborini yo'naltirish. Shakllangan ijtimoiy siyosat tushunchalarini konkret o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarga aylantirish manfaatdor kishilar, guruhlar va tashkilotlarning kuch-quvvatini to'plab, istalgan o'zgarishlarni izlashga yo'naltirishni talab qiladi. Bu mijozlarga, manfaatdor guruhlariga va gumanitar tashkilotlarga muammoga murojaat qilish yo'llarini izlab topishga yordam berishdan iborat bo'lishi mumkin. Bunday xatti-harakatga jalb qilish barcha manfaatdor guruhlar uchun yig'ilishlar tashkil qilib, guruhlariga muammolarni tushunishlarini chuqurlashtirishlariga yordam beruvchi vaziyatning dastlabki ta'limini taqdim etish, erishiladigan maqsadlarni belgilash yo'li bilan o'zgarishlar bo'yicha sa'y-harakatlarni tashabbus qilib chiqishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu esa guruhlariga xatti-harakatlar strategiyasini ko'rib chiqish va tanlashga, mazkur masalalar bo'yicha qaror qilishga vakolatli bo'lgan tashkilotlarni belgilashga, shuningdek, tegishli tashkilotlar tomonidan zarur xatti-

harakatlarni tanlash va qaror qilishga ta'sir ko'rsatishga imkon beradigan chora-tadbirlarni rejalashtirish va rejani amalga oshirishga yordam ko'rsatish bo'lishi mumkin.

Jamoaviy manfaatlarini himoya qilish. Ijtimoiy o'zgarishlar agenti sifatida ijtimoiy ishchi ko'pincha o'xshash muammolarga ega bo'lgan mijoz guruhlari manfaatlarining himoyachisi vazifasini bajaradi. Odatda jamoaviy manfaatlarini himoya qilish inson guruhlariga o'z fuqarolik huquqlarini ro'yobga chiqarishga yoki ushbu huquqlardan kelib chiqadigan ustunlik yoki imtiyozlarga ega bo'lishga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni nazarda tutadi. Vaysman, Epshteyn va Seyvidjlar (1983) jamoaviy manfaatlarini himoya qilish namunalarini, shu jumladan, «huquqlari poymol qilingan ozchiliklar, kam ta'minlanganlar, nogironlar nomidan ish olib borish, u yoki bu xizmatlardan kim foydalanish huquqiga ega ekanligi bo'yicha qoidalar sharhlanishida o'zgarishlarga erishishga qaratilgan ishlarni olib borish, shuningdek, mavjud dasturiy tuzilmalar va qonunlarni isloh etish bo'yicha ish olib borishni» ko'rsatib berganlar.

Ijtimoiy resurslarni rivojlantirish. Ijtimoiy taraqqiyot agenti shuningdek turmush sifatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan resurs zaxirasini rivojlantirish hamda ijtimoiy muammolarning oldini olish ustida ham ish olib borish mumkin. Resurslarni rivojlantirish deganda yo'q joyda yangi resurslarni bunyod etishga, mavjud resurslarni kengaytirish va yaxshilashga, gumanitar xizmatlarning foydasiz ravishda takrorlanishidan qochish uchun mavjud resurslarni rejalashtirish va taqsimlashga, agentlik, bo'linma yoki agentliklar guruhi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat yuqori tashkilotlarda targ'ibot ishlarini olib borish, qonunchilik qo'mitalariga ekspert guvohnomalarini taqdim etish yoki qaror qabul qiladigan shaxslarga u yoki bu resurslardagi mavjud ehtiyojlar to'g'risida ma'lumot berish maqsadida norasmiyroq muloqotlarda bo'lish kabi siyosiy xatti-harakatlar bilan mashg'ul bo'lishni o'z ichiga olishi mumkin.

9. O'z ishining kasb ustasi

Maqsadi. Mahoratli va axloqiy amaliy faoliyat bilan shug'ullanib, ijtimoiy ish kasbining rivojlanishiga hissa qo'shish.

Ta'rifi. Ijtimoiy ishchidan kutiladigan oxirgi rol, bu mohir kasb ustasi sifatida faoliyat yuritishidir. Ijtimoiy ishchidan o'z ishining yuksak kasbiy standartlarga mos kelishi talab qilinadi. Jamiyat va mijozlar ijtimoiy ishchiga yordam ko'rsatish bo'yicha muayyan rollarni bajarishga sanksiya beradilar. Ijtimoiy ishchilar, o'z navbatida, o'zlarining yuksak mahoratli va axloqiy jihatdan maqbul ishlari bilan ularga yuklatilgan majburiyatlar va bildirilgan ishonchni to'g'ri tushunganliklarini ko'rsatishlari lozim. Ijtimoiy ishchi har doim o'zining bilim va malakalarini rivojlantirishga hamda taqdim etayotgan xizmatlarining sifatini yaxshilashga intilmog'i kerak.

Nihoyat, yaxshi kasbiy nufuz va mavqega ega bo'lgan inson sifatida ijtimoiy ishchi hududiy, davlat va milliy miqyoslardagi kasbiy amaliyotlarda faol ishtirok etib, o'z kasbining mustahkamlanishi va kuchayishida faol qatnashishi lozim.

Funksiyalari

O'z ishini baholash. Yakka tartibda mustaqil qarorlarga kelishi uchun ijtimoiy ishchidan talab etiladigan avtonomlik o'z ishini xolis va betaraf baholay olishlikni taqozo etadi. Qizig'i shundaki, ijtimoiy ishchilarning barcha miqyoslardagi ishlarining omilli tekshiruvlari shuni ko'rsatadiki, ular muntazam ravishda o'z kasbiy faoliyatlariga baho berish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal etishlariga to'g'ri kelar ekan.

Kasbiy va shaxs jihatdan rivojlanish. O'z ishini doimiy ravishda baholab borish zarurati haqidagi xulosaning mantiqiy davomi sifatida ishchining xususiyatlarini kuchaytirish imkoniyati mavjud bo'lgan sohalarda o'z ustida ishlash va shu asosda o'z bilim, ko'nikma va qadriyatlarini rivojlantirish zarurligi haqidagi mulohazalar kelib chiqadi. Ijtimoiy ishchilar faoliyalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha o'z ishlarini baholashga, yangi axborotni olishga hamda o'zlashtirgan ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berishga qaratilgan topshiriq turlarini bajarish bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday topshiriqlarni bajarishda asosiy e'tibor o'zining shaxsiy va kasbiy xususiyatlarining bajarayotgan

ishiga mos kelishligini tushunishini shakllantirishga qaratiladi. Bunday vazifalar tegishli kasbiy adabiyotlarni o'qish, seminar va treninglarda qatnashish, shaxsiy ish vaqtini rejalashtirish, hamkasblar va bevosita boshliqlar bilan ish yuzasidan bahs-munozaralar qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Ijtimoiy ish kasbini yaxshilash. Ijtimoiy ishchining faoliyati, shuningdek, kasb-korni rivojlantirish va nazariy asosni kengaytirishga hissa qo'shishni qamrab olishi kerak. Shu bilan birga Ijtimoiy Ishchilar Milliy Uyushmasi ishida faol qatnashish, o'zining kuch-g'ayrati va vaqtini kasbiy amaliyot sifatini rivojlantirishga sarf qilish, ijtimoiy ish kasb sohasini himoya qilish, qonunchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ham har bir ijtimoiy ishchining majburiyatidir. Bundan tashqari, turli konferensiyalarda chiqishlar qilib hamda kasbiy o'quv va maxsus qo'llanma yozishda ishtirok etish orqali o'z kasbiy tajribalarini boshqalar bilan o'rtoqlashishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar

Ijtimoiy ish bo'yicha adabiyotlarda ijtimoiy ishchilardan kutiladigan rollarning ta'rifi va ko'rsatmalariga hayratlanarli darajada kam e'tibor beriladi. Bunday rollarning ta'riflari haqidagi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan manbalarda esa har xil yondashuvlar keltiriladi, ya'ni tajribali ishchilarning o'z amaliyotlarida ko'rgan-bilganlarini shunchaki bayon etishga urinishdan tortib, to ilmiy asoslangan omilli tadqiqotlarga ma'lumot beriladi. Bularning hammasini hisobga olib shuni anglash mumkinki, yuqori bayon etilgan ijtimoiy ishchi rollarining ro'yxati hali kengaytirib, shakllantirilishi lozim. Ushbu risolada «kuzatuvchilik» va ilmiy yondashuvlar sintezidan kelib chiqqan holda ijtimoiy ishchi rollarining ta'rifini berishga harakat qilindi.

Ijtimoiy ishchi amaliy rollarining ko'lami haqiqatdan ham juda katta va turli-tumandir. Shaxsiy xohish-tanlovlar yoki xizmat majburiyatlarining xarakteri bajariladigan rollar sonini chegaralab qo'yishi mumkin bo'lsa-da, samarali ish olib boradigan ijtimoiy ishchi yuqorida ta'riflangan rollarning har birining asosiy elementlarini egallamog'i darkor. Va albatta, universal ijtimoiy ishchilar doimo barcha rollarni bajarishda o'z mahoratlarini oshirishga harakat qilishlari lozim.

O'z ishini yaxshilash uchun har bir rol bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari va funksiyalarini egallash zarurdir. Turli ish texnikalarini o'rganishdan tashqari ijtimoiy ishchi amaliy vaziyatlarni hal etish bo'yicha orttirgan betakror ko'nikmalari va bilimlarini qanday qilib qo'llash kerakligini, yuqorida bayon etilgan rollarni mijozlar uchun qanday qilib imkon qadar foydali tarzda bajarish lozimligini o'ylab ko'rishi shart. Bunda amaliy ish barpo etilgan vaqtdan boshlab rivojlantirilgan tamoyillarga amal qilish hamda mijozni oldindan rejalashtirilgan o'zgarishlar jarayoni bosqichlaridan ehtiyotkorlik bilan o'tkazib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

VIII Bob. Ota-onalar qarovsiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish nazariyasi va huquqiy asoslari

8.1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ishda kasbiy axloq

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri alohida ko'mak va e'tiborga muhtoj insonlarga manzilli yordam ko'rsatish bo'lgan ijtimoiy himoya va aholiga xizmat qilishning prinsipial jihatdan yangi tizimi shakllandi. Bu sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bilan ishlashda bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali xodimlarga ehtiyoj va tegishli tarzda yangi kasbiy faoliyat – "Ijtimoiy ishchi"ga zaruriyat yuzaga keladi. Shu o'rinda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalar va ularda tarbiyalanayotgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarning turli yosh va davrlaridagi ruhiy, ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish, mazkur bolalarga profilaktik, sog'lomlashtirish, abilatsion va reabilitatsion choralarning majmuini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, muassasadan so'ng mustaqil hayotga tayyorlash kabilarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 7 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni imzoladi va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasidagi to'rtinchi yo'nalish

- aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- arzon uy-joylarni barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

- ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:
 - yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:
- chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy-profilaktik ish olib borishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Ular asosida "Mehribonlik", "Bolalar" uyilari hamda "Bolalar shaharchasi" to'g'risidagi Nizomlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 22-moddasida ham boquvchisini yo'qotgan bolalar haqida shunday deyilgan. "Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi". Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinganligi va amaliyotga joriy etilganligi, aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni qo'llab quvvatlash bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar respublikamizda ijtimoiy soha rivojlanishi dalolatdir. Zamonaviy jamiyatda ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy hamoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga e'tibor ortgani sayin ular bilan samarali ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislariga – ijtimoiy ish xodimlariga bo'lgan talab ham ortmoqda.

Kasbiy axloq fanda, xususan, ijtimoiy ishda ikki tomonlama anglanadi. Bir tomondan, bu kasbiy faoliyat davomida kishilararo munosabatlarga tegishli xususiyat beruvchi va kasb moxiyatiga mos qadriyatlar, xulq-atvorning axloqiy tamoyillari va me'yorlari jamlamasi borasidagi fan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kasbiy axloq – bu ijtimoiy ishning bosh qadriyatlari va g'oyalari doirasida ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy uyg'unligidir. Ijtimoiy ish xodimi kasbiy axloqining ma'naviy kengligi – bu og'ir xayotiy vaziyatdagi insonga "inson – mijozlarning ijtimoiy muhiti" tizimini o'zgartirish orqali ijtimoiy yordamni ta'minlash jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Shu bilan birga, shaxsiy va

umumjamiyat manfaatlariga erishish jarayonida ijtimoiy ish xodimi o'z xamkasblari, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar bilan qonun doirasida munosabatlarni o'rnatishi zarur.

Ijtimoiy ish ahloqining bosh vazifalari – baholash, tartibga solish, tashkil etish, boshqarish, turtki berish, muvofiqlashtirish, chegaralarni belgilash, ishlab chiqarish, muloqotga kirishish, nizolarni bartaraf etishlardan iborat.

Ijtimoiy ish xodimining kasbiy axloqi bilan bog'liq asosiy g'oyalari axloq kodeksida o'z aksini topgan. Ijtimoiy ish xodimining axloq kodeksi – bu uyushma va ijtimoiy ishning mutaxassis xodimlari ittifoqi tomonidan bajarilishi qayd etilgan kasbiy faoliyatda axloqiy munosabatlar standarti bo'lib xizmat qiluvchi ma'naviy me'yorlar majmuidir. Axloqiy me'yorlar asosida umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, axloqiy xayriya an'analari, boshqa davlatlar axloq kodekslari tajribasi, mutaxassislarning shaxsiy qadriyatlari va g'oyalari yotadi.

Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining barcha yo'nalishlariga nazar solsak, ular orasida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ish olib borish alohida o'zining xususiyatlariga egaki, bunda ijtimoiy ish xodimining majburiyatlari, ushbu kasb egasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Institutsional muassasalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy ish xodimlari ko'pincha axloqan murakkab vaziyatlar bilan to'qnash keladi. Xususan, tibbiyotdagi axloqiy muammolar yangiliklarda tez-tez muxokama qilinadi. Ammo, ijtimoiy ish qaysidir ma'noda noyobdir, chunki u paradokslilik xolatidir. Paradoks (yunon. Kutilmagan, g'alati) – kutilmagan, noadatiy, an'analarga zid tasdiqlar, fikrlash yoki xulosadir. Umuman kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ishdagi 4 paradoksni alohida kursatish mumkin.

Birinchi paradoks – moddiy to'kis aholi yordamida ojiz qatlamlarni qo'llab-quvvatlash. Bir tomondan, boshqa kasblardan ko'ra, ijtimoiy ishning maqsadi kamsitilish ob'ekti bo'lganlar yoki ijtimoiy ojiz qatlamlar yoki marginallarga yordam berish bo'lsa ikkinchi tomondan, u to'kis aholi qatlamlari va davlat tomonidan tashkil qilingan, qo'llab-quvvatlanadi va xomiylik qilinadi.

Ikkinchi paradoks – mijoz bilan xamkorlikdagi ishning maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ma'qul me'yorlarga rioya qilish. Bir tomondan, ijtimoiy

ish xodimlarning o'z xizmatlari iste'molchilar bilan xamkorligi olqishlansa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ishning ko'pchilik yo'nalishlari – qariyalar, ruxiy og'ishlar, bolalar va oila bilan ishlashda ijtimoiy me'yorlarga roya etish majburiyatiga ehtiyoj sezilsa, bir qarorga kelishda esa qonunlarga murojaat qilishga yo'naltirilgan.

Uchinchi paradoks – mijoz va uning ehtiyojlarini ximoyalash hamda cheklangan zaxiralar. Bir tomondan, ijimoiy ish xodimlari mijozlarning ximoyachisi bo'lishlari va ularning ehtiyojlarini ta'minlashlari kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ish xodimi cheklangan zaxiralar muammosiga duch keladi. Amalda ijimoiy ish xodimlari xizmatlar iste'molchilarida ba'zi turdagi xizmatlarni ko'rsatish imkoni cheklanganligi to'g'risidagi ogoxlantirishlarga duch keladilar.

To'rtinchi paradoks – adolat axloqi va g'amxo'rlik axloqi. Adolat axloqi o'ziga ishonch va adolatga asoslansa, g'amxo'rlik axloqi asosida esa, “ayollar” ma'naviyati, boshqa bir inson borasida qayg'ura olishga yo'naltirilgan o'zi-o'zidan kecha olish xissiyoti yotadi.

Tartiblar va kodekslar har bir kasb uchun zaruriy va muhimdir. Ammo yaxshi ijtimoiy ish xodimi bo'lish ko'p sonli tartib qoidalarga bo'ysunishgina degani emas. Axloqiy ijtimoiy ish bellashuvchilik sodiqlik va bellashuvchi talablar o'rtasida murakkab me'yorashtiruvchanlikni o'z ichiga oladi.

Profilaktika atamasi qanday ma'noni anglatadi? Profilaktika-tibbiyotning tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash ishidagi ijtimoiy profilaktika yo'nalishi o'z tarkibiga tibbiy, sanator-texnik, gigienik va sotsial-iqtisodiy tadbirlarni qamrab oladi. Ijtimoiy profilaktika aholi o'rtasida ijtimoiy muammolardan ogohlantirish va keltirib chiqaradigan omillarni yo'qotishga qaratilgan tizimni tashkil etishda davlatning tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari hisoblanadi

Inson salomatligi holati, kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar yoki rivojlangan patologik holat mavjudligini hisobga olgan holda profilaktikaning uchta turi farqlanadi.

Birlamchi profilaktika – bu kasalliklarni rivojlanishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi. Ularga emlash (vaksinatsiya), mehnat va dam olish rejimini takomillashtirish, ratsional ovqatlanish va jismoniy mehnat, shuningdek atrof muhitni sog'lomlashtirish kiradi.

Ikkilamchi profilaktika - bu ma'lum bir sharoitlarda (immun holatini tushishi, zo'riqish) kasalliklarni rivojlanishi yoki qaytalanishiga sabab bo'luvchi omillarni yo'qotishga qaratilgan tadbirlar yig'indisi hisoblanadi.

Uchlamchi profilaktika – bu termin bir qator mutaxassislar tomonidan kiritilib, to'laqonli hayot tarzini yo'qotgan bemorlarni rehabilitatsiya qilish hisoblanadi. Uchlamchi profilaktika quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy maqsad – shaxsning sotsial yaroqligi ishonchini shakllantirish;
- mehnat reabilitatsiyasi – mehnat ko'nikmalarini tiklashga imkon yaratish;
- ruhiy rehabilitatsiya – shaxsning ruhiy faolligini tiklash;
- tibbiy rehabilitatsiya – ichki a'zo va tizimlar faoliyatini tiklash.

Barcha profilaktik muolajalarning asosiy tarkibi aholida tibbiy ijtimoiy faollikni shakllantirish hamda sog'lom turmush tarzini yaratishdan iborat.

Shu o'rinda, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy profilaktik ish olib borishda ijtimoiy ish xodimi bolalarning emotsional sohada va shaxsiy rivojlanishdagi mumkin bo'lgan buzilishlarni oldini olish, bolalarning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoitlar yaratish, bola shaxsi barkamol rivojlanishi uchun psixologik qulay muhitni ta'minlashni amalga oshiradi.

8.2. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ishlashning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari intilmoqda. Bunday yuksak maqsadga erishishda oilaga bo'lgan munosabat muhim o'rin egallaydi. Chunki oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Har bir oilaning farovonligi, oiladagi naslning sog'lomligi, barkamolligi jamiyat farovonligida, davlatning yuksalishida kafil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "So'nggi yillarda

mamlakatda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga mas'uliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar tarbiya muassasalari va ularda tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sonini sezilarli ravishda kamaytirishga yordam berdi. Shu bilan birga, bolalarni joylashtirishning oilaviy hamda boshqa muqobil shakllarini keng joriy etish, ayniqsa, ularni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish (patronat), shuningdek, bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish talab etilmoqda.

Ijtimoiy yetimlikni yanada kamaytirish, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning jadal ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratish, tarbiya muassasalarining ish faoliyatini yaxshilash, shuningdek, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlashda chora-tadbirlar qilinyapti”¹.

Har bir davlatning demokratik taraqqiyotini belgilovchi eng muhim mezonlardan biri, shubhasiz, inson xuquqlaridir. Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquq tizimida jismoniy va aqliy jihatdan voyaga yetmagan, alohida e'tibor va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham himoyag muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan huquq, imtiyoz va kafolatlarni qamrab oluvchi “bola huquqlari” degan huquq sohasi yuzaga keldi.

Mamlakatimizning 1992 yilda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi bola huquqlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bola huquqlarini himoyalash va kafolatlashga oid Qaror va Farmonlarida, Respublikamiz Konstitutsiyasida, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi,

¹“Етим болалар ва ота-онасининг қармоғидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев қарори. 12.02.2019.

“Vasiylik va xomiylik to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlarda va boshqa huquqiy normalarda yosh avlod vakillarining huquq va erkinliklari to‘la hamda batafsil ifodalab berilgan bo‘lib, bola huquqlarini himoyalashga qaratilgan islohotlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bola xayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- bolaning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash.

O‘zbekiston Respublikasining **Oila Kodeksida** oilaning asosiy maqsad-vazifalari, oilaviy huquqlar va ularni amalga oshirish, himoya qilish tartibi, voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari, ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish, farzandlikk olish, vasiylik va xomiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) masalalariga bag‘ishlangan huquqiy normalar ifoda etilgan.

Oila jamiyatning eng kichik bo‘g‘inidir. Unig o‘ziga hos ko‘p qirrali munosabatlari borki, u o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjixatlik, bir-biriga yordam berish, oila a‘zolarining axloq-odobi, hurmat-izzati bilan belgilanadi. Oilada erkak va ayol o‘zaro teng huquqlidir. Oila ixtiyoriy ravishda, davlat organlari tomonidan qayd etish yo‘li bilan tuziladi. Kodeksda shaxsiy va mulkiy munosabatlarda tenglik, o‘zaro kelishuv, bolalarning farovon xayot kechirishi va kamolotini ta'minlash, ularga g‘amxo‘rlik qilish va barkamol qilib voyaga yetkazishda ota-onaning tengligi ko‘rsatilgan bo‘lib, **4-bo‘limida** ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning quyidagi huquq va majburiyatlari sanab o‘tilgan.

65-modda. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

67-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalani huquqiga ega.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart.

SHunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi shart.

81-modda. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ota-onasi (ulardan biri) o'ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola, agar u farzandlikka olingan bo'lmasa, turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota (ona)si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga olib beriladi.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o'tgach yo'l qo'yiladi.

Oila Kodeksining **5-bo'limida** oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari sanab o'tilgan

96-modda. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yohud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

(96-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 12 dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda – Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son, 18-modda)

106-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish

Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan to'liq amalga oshiriladi.

107-modda. Bolalar muassasalariga joylashtirilgan bolalar uchun aliment undirish

Voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olish va uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur bola foydasiga ushbu Kodeksning 99-moddasida belgilangan miqdorlarda alimentlar undiradi. Bunda undirilgan alimentlar mazkur bola nomiga ochilgan bank hisob varag'ida jamlanadi va u voyaga yetganda to'lanadi.

(107-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda)

Oila Kodeksining **6-bo'limida** ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari tushuntirilgan.

148-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish

Ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

149-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish

Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Muassasalarning (maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash muassasalari va boshqa muassasalarning), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligidan xabardor bo'lgach, etti kunlik muddat ichida bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlarni olgan kundan e'tiboran uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaganlik, shuningdek bunday bolalarni joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan muassasalarning rahbarlari va organlarning mansabdor shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

(149-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 16 martdagi O'RQ-153-sonli Qonuni asosida uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan – O'R QHT, 2008 y., 16-son, 117-modda)

151-modda. Farzandlikka olish

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va faqat ularning manfaatlarini ko'zlab yo'l qo'yiladi.

Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko'ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosiligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to'g'ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha alohida ish yuritish tartibida, farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlari vakillari, shuningdek prokuror ishtirokida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga yo'l qo'yilmaydi, farzandlikka olish bolalarning manfaatlariga muvofiq kelgan hollar bundan mustasno.

(151-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda)

161-modda. Davlat bolalar muassasalari tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish

Davlat bolalar muassasalarining tarbiyasi va ta'minotidagi bolalarni farzandlikka olish, agar ularning ota-onasi roziligi talab etilmaydigan bo'lsa, shu muassasa ma'muriyatining roziligi bilan amalga oshiriladi.

165-modda. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-ona qarindoshlari) birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olingan taqdirda, uning manfaatlarini ko'zlab, bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, agar farzandlikka oluvchi erkak bo'lsa, onasining iltimosiga ko'ra yoki, agar farzandlikka oluvchi ayol bo'lsa, otasining iltimosiga ko'ra saqlanib qolishi mumkin.

Agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo'lsa, vafot etgan otaning yoki onaning ota-onasi (buva yoki buvi) iltimosiga ko'ra bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, agar bolaning manfaatlari shuni talab etsa, vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlariga nisbatan saqlanib qolishi mumkin.

(165-modda O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda)

173-modda. Vasiylik va homiylikning maqsadi

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

174-modda. Vasiylik va homiylikni belgilovchi organlar

Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik vasiy yoki homiy tayinlanishga muhtoj bo'lgan shaxs yashayotgan joyda, agar shaxsning muayyan yashash joyi bo'lmasa, vasiy yoki homiy yashayotgan joyda belgilanadi.

176-modda. Vasiylik va homiylik belgilanadigan shaxslar

Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Homiylik o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Sog'lig'ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan homiylik shu shaxslarning iltimosiga binoan belgilanishi mumkin

181-modda. Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatlari

Vasiylar o'z qaramog'idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko'zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar.

Homiylar o'z qaramog'idagi shaxslarga ular o'z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko'maklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste'mol etilishidan himoya qiladilar.

Vasiy va homiy:

turar joyi o'zgarganligi haqida vasiylik va homiylik organini xabardor qilishi;

vasiyliги va homiyligidagi bolalarni tarbiyalashi, ularning ta'minoti, salomatligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishi hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

o'z qaramog'idagi voyaga etmagan shaxslar bilan birga yashashi shart. O'n olti yoshga to'lgan homiylikdagi bolaning o'z homiysidan alohida yashashiga, basharti bu uning tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta'sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Vasiy va homiy quyidagilarga:

vasiyliги va homiyliгidagi bolaning fikri, shuningdek vasiylik va homiylik organining tavsiyalarini hisobga olgan holda bolani tarbiyalash usullarini mustaqil ravishda belgilashga;

vasiyliги yoki homiyliгidagi bolani qonuniy asoslar bo'lmisdan turib, o'z qaramog'ida saqlab turgan har qanday shaxslardan, shu jumladan bolaning yaqin qarindoshlaridan sud tartibida qaytarib berishni talab qilishga haqlidirlar.

Vasiy va homiy bolaning o'z ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan ko'rishib turishiga to'sqinlik qilishga haqli emas, bunday ko'rishish bola manfaatlariga zid hollar bundan mustasnodir.

Vasiy yoki homiy, agar o'z qaramog'idagi shaxsning muomalaga layoqatsiz yoki spirtli ichimliklar, giyovandlik vositalari yoxud psixotrop moddalarni iste'mol qilishi natijasida muomala layoqati cheklangan deb topilishiga asos bo'lgan holatlar barham topsa, uni muomalaga layoqatli deb topishni va vasiylik yoki homiylik bekor qilinishini so'rab sudga murojaat etishi shart.

Vasiylik va homiylik vazifalari bepul bajariladi.

194-modda. Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat)

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

195-modda. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan otaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi kerak.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

198-modda. Tutingan ota-ona

Voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo'lishlari mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;

qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

ilgari farzandlikka bola olgan, lekin ushbu Kodeks 169-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar;

qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;

sog'lig'ining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tutingan ota-ona tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

O'zbekiston Respublikasining **Vasiylik va homiylik to'g'risidagi Qonunning** maqsadi vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ijtimoiy ish xodimi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagi moddalarga tayanishi lozim.

2-modda. Vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlari

Vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

vasiylik – o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

homiylk – o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin;

vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs – o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar – alohida g'amxo'rlikka, shuningdek o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

O'zbekiston Respublikasining **“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni** Respublikamizda bola huquqlarini himoyalash va kafolatlash butun jahon bolalar huquqiy normalariga asoslangan bo'lib, 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan. Qonunning asosiy mazmuni bola tushunchasi, uning huquqiy maqomi, ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar tomonidan bolani tarbiyalash, bolaning himoyalaniishi, kafolatlanishi, ularga nisbatan zo'ravonlik holatlari sodir bo'lsa, himoyalash, yordamga muxtoj va jismoniy nogiron bolalar, ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bolalarni tarbiyalashning huquqiy maqomi ifodalab berilgan. Bola 18 yoshga to'lgunga qadar bolalik huquqiy maqomda turadi. Uning qonuniy vakillari ota-onasi, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar hisoblanadi. Qonun ota-onalarga bola tug'ilishi munosabati bilan juda katta mas'uliyat va majburiyat yuklaydi. Ushbu majburiyatlar sidqidildan va bekamu ko'st bajarilishi lozim. Chunki ota-onaning hayotda, jamiyatda tutgan o'rni, uning farzandiga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bola (bolalar) – o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga etgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

bolaning qonuniy vakillari – ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

vasiylik va homiylik – ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi;

yetim bola – otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola – nogironlikni belgilash uchun etarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar – yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya qilishga hamda qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalar, shu jumladan:

nogiron bolalar;

jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar;

yetim bolalar;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar;

muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan bolalar;

kam ta'minlangan oilalardagi bolalar;

jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalarida turgan bolalar;

zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar;

nogiron bola – jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola;

ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar – qonunda belgilangan tartibda bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiruvchi va ota-onalik majburiyatlarini bajaruvchi, lekin bolaning ota-onasi bo'lmagan shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar);

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola – har qanday sababga ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola, bundan yetim bola mustasno.

13-modda. Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno.

Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ekstremal vaziyatlarga (ushlab turish, hibsga olish, qamoqqa olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) tushib qolgan bola o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega.

19-modda. Bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari

Har bir bola turar joyli bo'lish huquqiga ega. Mazkur huquq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Turar joy mulkdorining yoki turar joyni ijaraga oluvchining oila a'zolari bo'lgan bolalar ular qaerda bo'lishlaridan qat'i nazar, turar joy mulkdori yoki turar joyni ijaraga oluvchisi egallab turgan turar joyga nisbatan huquqqa ega bo'ladi.

Tarbiya, davolash muassasalari va boshqa muassasalarda, qarindoshlari, vasiylari yoki homiylari qaramog'ida bo'lgan yetim bolalar, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Vasiylik yoki homiylik belgilangan bolaning mulkida yoki foydalanishida bo'lgan turar joyni o'zga shaxsga o'tkazish uchun vasiylik yoki homiylik organining roziligi talab qilinadi.

26-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, to'liq davlat ta'minotida turgan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini bitirgan yoki jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan bolalar, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifadagi bolalar o'zlari ilgari yashagan turar joy maydoniga ega bo'lish yoki qonun hujjatlariga muvofiq turar joy olish huquqiga ega.

27-modda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari

Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish miqdori, shartlari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lim berish hamda ularni ta'minlash qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan homiylik dasturlarini qonun hujjatlariga muvofiq rag'batlantiradi.

Uy-joy kodeksi bola huquqlarini turar joyni almashtirish hollarida himoya qiladi: "Mulkada uyi, kvartirasi bo'lgan fuqarolar barcha voyaga etgan oila a'zolarining, shu jumladan vaqtincha bo'lmagan oila a'zolarining yozma roziligiga binoan o'zlari egallab turgan turar joyni boshqa turar joy mulkdori yoki uy-joy qurish yohud uy-joy kooperativining a'zosi bilan, shu jumladan boshqa aholi punktida yashayotganlar bilan almashtirishga haqlidirlar. Bunda oilaning voyaga etmagan a'zolari roziligi ota-onalar tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa – vasiylik va homiylik organlari tomonidan tasdiqlanadi" (26-modda).

Qonunning ushbu qoidasi, Uy-joy kodeksining 52-moddasiga muvofiq, tarbiyaviy, tibbiy yoki boshqa muassasalarda, yoki vasiylar va homiylar bilan bo'lgan etim bolalar hamda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning turar joyga bo'lgan huquqi yoki undan foydalanish huquqini saqlab qolinishini kafolatlaydi. Ushbu moddaga binoan, bolalar tarbiyalash uchun bolalar muassasasiga, qarindoshlarga yoki xomiylarga, vasiylarga topshirilganda – ular ushbu muassasada, qarindoshlar yoki homiylar, vasiylar qaramog'ida bo'ladigan butun davr mobaynida, agar bolalar chiqib ketgan turar joyda oilaning boshqa a'zolari yashash uchun qolgan bo'lsa turar joyi saqlab turadi. Agar bolalar chiqib ketgan turar joyda ularning oila a'zolari yashash uchun qolmagan bo'lsa, ushbu xona bolalarning muassasada bo'lishi muddati tugaguncha yoki qarindoshlar yoki homiylar, vasiylar qaramog'idan qaytib kelgan bolalar voyaga etguncha, shuningdek tegishli hollarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida o'qish tugaguncha yoki mamlakat Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat muddati tamom bo'lguncha ushbu turar joy ijara shartnomasi asosida boshqa fuqarolarga berib turilishi mumkin. Bundan tashqari, Uy-joy kodeksining ushbu moddasi voyaga yetmagan shaxs ozodlikdan mahrum bo'lgan hollarda ham turar joyining saqlab qolinishini kafolatlaydi.

2010 yil 2 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 164-sonli **"Yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan**

bolalarni turar joylar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan tasdiqlangan Nizomda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joy bilan ta'minlashda, o'zlariga birlashtirilgan turar joyga ega bo'lmagan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan shaxslar turar joy olish huquqiga egaligi e'tirof etilgan. Yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turar joylar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan maqsadli kommunal uy-joy fondidagi uylardan yoki vaqtincha foydalanilmayotgan, davlat mulki bo'lgan yotoqxonalaridagi, uy-joylardagi hamda ko'p kvartirali uylardagi bo'sh turgan kvartiralardan beriladi. Tumanlar (shaharlar) xokimliklari bo'sh turar-joy bo'lmaganda etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ijtimoiy normadan kam bo'lmagan uy-joy maydoni bo'lgan turar joyni sotib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar yoki tegishli xokimliklarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli byudjet transferti beradilar. Ushbu Nizomga muvofiq beriladigan, shu jumladan, maqsadli byudjet transfertlari hisobiga sotib olinadigan turar joylar xususiyashtirilmaydi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turar joy olish huquqi bir marta beriladi.

2019 yil 11 fevral oyidagi **“Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**”gi O'zbekiston Respublikasi 4185-Prezidentining Karorida 2019 yil 1 martdan boshlab oilaga tarbiyaga olingan (patronat) har bir bola uchun to'lanadigan nafaqa miqdori 820 000 so'mni tashkil qilinishi ko'rsatib o'tilgan. Tijorat banklariga yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga, shu jumladan ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan shaxslarga yosh oilalar uchun nazarda tutilgan shartlarda, ko'p kvartirali uylardan kvartira sotib olish maqsadida imtiyozli ipoteka

kreditlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun kreditlar ajratish tavsiya etilgan. Bunda uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining dastlabki badali O'zbekiston yoshlar ittifoqining Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab beriladi.

Yuqoridagi Qonun hujjatlarida ko'rinib turibdiki Bola huquqlari ta'minlanishini kafolatlash masalalari bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va nodavlat-notijorat organlari bevosita shug'ullanishlari belgilab qo'yilgandir. Bola huquqlarini ta'minlashdagi ustivor yo'nalishlarni belgilashda, davlat siyosatini amalga oshirishda, qonun hujjatlarini ijro etishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bevosita ma'suldirlar.

8.3. Ota-ona qaramog'isiz va yetim qolgan bolalarni mustaqil xayotga moslashuvi (adaptatsiyasi)ni ta'minlashning asosiy jihatlari

Adaptatsiya (moslashuv) – so'zi lotincha *adapto* – “moslashtiraman” so'zidan olingan. Ilmiy tilga termin sifatida nemis fiziologi G.Aubert tomonidan XVIII asrning ikkinchi yarmida kiritilgan. O'z davrida G.Aubert bu termini inson tanasining tashqi muhitga moslashuvini ifodalash maqsadida qo'llagan bo'lsa, bugungi kunda bu termin keng qamrovda qo'llanilib, ko'p qirrali tizim-inson, faoliyat, muloqot tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy moslashuv – ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri bo'lib, individga muayyan faoliyat turida huquqiy, ijtimoiy, axloqiy talablarning belgilanishi hisoblanadi.

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib ota-ona qaramog'isiz va yetim qolgan bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi quyidagi belgilarni ko'rib chiqish mumkin:

- Jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy axloq mexanizmi va normalarini o'zlashtirish;
- Ta'lim jarayoniga shaxsning jalb etilishi va yangi bilim, ko'nikmalarni o'rganishga bo'lgan istak;

- O'z qadri va qimmatini tushuna bilish, qiziqishlari va dunyoqarashini himoya qilish;
- Qabul qilingan qaror, o'z –o'zini boshqarish va o'ziga bo'lgan ishonchni ta'minlash;
- Mustaqillik va boshqaruvchanlikni namoyon etish, to'g'ri maqsad belgilash, o'z kelajagi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish;
- Individda ijtimoiy munosabatlarning muqobilligi;
- Faollik va avtoritarlikning rivojlanganligi.

L.M.Rastova "ijtimoiy moslashuv"ni bir insonning jamiyatdagi faoliyati, shu bilan birga jamoaning uning faoliyati va axloqiga ta'siri sifatida ko'rib chiqadi.

Shaxsning ijtimoiy moslashuvi 4 fazilat orqali namoyon bo'ladi:

- 1) kognitiv (bilim, qobiliyat, shaxsiy xususiyatlar);
- 2) hissiy munosabat (shaxsning emotsional xususiyatlari);
- 3) amaliy faoliyat (faoliyat sharoitiva turlari);
- 4) shaxsning motivatsiyasi.

Bolaning ijtimoiy moslashuvi – ijtimoiy qabul qoidalari va xulq normalari bir qiyin vaziyat, shuningdek, psixologik va axloqiy jarohat oqibatlarini bartaraf etish jarayonida bo'lgan bolaning faol moslashish jarayonidir.

Shaxsning to'liq ijtimoiy moslashuvi deganda, uning fiziologik, iqtisodiy, pedagogik, psixologik, nazorat qilish va professional moslashishi tushuniladi.

- Nazorat qilishga moslashish faoliyati – bu jamiyat va shaxs manfaatlarini qondirilishini ta'minlash, uning ijtimoiy rolini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish.

- Iqtisodiy moslashuv – bu ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlarni o'zlashtirishning murakkab jarayoni bo'lib, jismoniy shaxslar o'rtasida iqtisodiy aloqalar tamoyillarini o'rganish.

- Pedagogik moslashuv–shaxsning ta'lim-tarbiya tizimiga ko'nikishi.
- Psixologik moslashuv – tuyg'ularning moslashish jarayoni, o'zlikni idrok etish va himoya qilish.

- Professional moslashuv – yangi professional faoliyatning atrof-muhiti, ish sharoitlari, yangi turlari va alohida xususiyatlariga moslashish.

Ota-ona qaramog'isiz va yetim qolgan bolalar bolalar uyida tarbiya topganda ularda hissiy buzilishlar vujudga kelib, atrofdagilar bilan yaqin munosabatni o'rnata olmaslik, yuqorida sanab o'tilgan moslashuv turlarining rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi. Bola hayotining ilk bosqichida ona qiyofasi bilan qattiq bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi uchun mehr ko'rsatishga, sevishga qodir emas. Bunday belgilar me'yordagi oilalarda o'sgan va so'ng ota-onalaridan ajralgan bolalarda ham kuzatiladi. Bunday insoniy qalin bog'langanlikdan voz kechish ularni qanchalik iztirobda qoldiradi. Nima sababdan bunday buzilish jiddiy oqibatlariga olib keladi?

Rivojlanish uchun muhim sharoitlardan biri – bu bolaning atrofidagi uni sevib mehr-muhabbat ko'rsatuvchi insonlardir. Bola xavfsizlikni, uning yonidagi yaqin insonlarning qo'llab-quvvatlashlarini, yordam berishi va qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishlarini bilgandagina, atrof-muhitni biladi va o'z qobilyatlarini rivojlantiradi. Agar inson o'ziga va uni sevishlariga ishonmasa, u hamisha bunga loyiq insonligiga ishontirishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda ishonchli xulq-atvor, ijodkorlik va o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, barkamol rivojlanish uchun imkoniyat hamda vaqt yetishmaydi.

Aynan shu sababli bolalarni kattalar bilan rivojlanishi sohasini o'rganuvchi mutaxassislar bolani yig'lashini e'tibordan chetda qoldirish kerak emasligini va bola bilan kattalarning o'zaro ta'siridagi turli shakllarni qo'llab-quvvatlash ularning ijtimoiy moslashuviga katta ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadilar.

Yosh davrlari psixologiyasiga nazar tashlasak, yoshlik davri insonning barqaror qadriyatlar tizimi, o'z-o'zini anglash va shaxsning ijtimoiy mavqei shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Bu davrda inson tafakkurining tanqidiyligi, turli xil voqea hodisalarga nisbatan shaxsiy fikri va qarashlarini bildirish, zarur dalillarni izlash kabi tushunchalar rivojlanadi. Shunga bog'liq holda bu davrdagi yoshlarning xulq-atvorida turli xil identifikatsiya va alohidalik, konformizm va negativizm, taqlid qilish va umumqabul qilingan me'yorlarni rad

etish, muloqotga intilish yoki qochish, tashqi dunyoga nisbatan befarqlik kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan xarakter xususiyatlari ham shakllana boshlaydi. Yoshlik davridagi ong (anglash) bir qancha ob'ektiv sharoitlar bilan belgilanadi.

Birinchi, uning ijtimoiylashuvi kuchayishi bilan ijtimoiy yetuklik ham kuchayadi. yoshlik davrida inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida o'qishni tugatish, kasbga ega bo'lish, siyosiy va fuqarolik xuquqlariga ega bo'lish kabi ijtimoiy etuklikka intiladi.

Ikkinchi, yoshlarning mustaqil xayoti bir qancha omillar bilan belgilanadi: oila, maktab, mehnat jamoalari, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari. Ularning har biri yoshlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ammo ota-ona qaramog'isiz va yetim qolgan bolalar bolalar uyida tarbiya topganda bu jarayon qanday kechadi?

Ijtimoiy moslashuv to'rt bosqichdan iboratdir:

1. Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi bo'lib, u tarbiyalanuvchining statusini aniqlash maqsadida ijtimoiy guruhga kiritishga tayyorgarlik davri hisoblanadi. Birlamchi moslashuv davri eng muammoli davr hisoblanadi. Chunki 15-16 yoshli institutsional muassasa tarbiyalanuvchisida shaxsiy identifikatsiya shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari bolalar uyida bir turdagi sotsial rollarni (tarbiyalanuvchi, o'quvchi, yetim) bajargan bola o'zi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydi.

2. Ikkinchi bosqich – ijtimoiy guruhga kirish davri. Bu davrda ijtimoiy xodim quyidagilarni nazoratga oladi:

- Bolaning ijtimoiy holati (ta'lim olishi, joy bilan ta'minlanganligi)
- Ta'minoti (stipendiya, ish xaqqi, omonat daftarchasi)
- Oilaviy holati (turmush qurganligi, oila a'zolari, oiladagi psixologik muhit)
- Turmush kechirish sharoiti (uy-joyining holati, kommunal to'lovlar va h.k)

- Ota-ona va yaqin qarindoshlari bilan munosabati (aloqa o'rnatilganligi)

- Muloqot doirasi (do'stlari, bolalar uyidagi bolalar va bitiruvchilar)

3. Uchinchi bosqich – ijtimoiy faoliyat orqali bajarilgan ijtimoiy rollar, yangi ijtimoiy tajriba, bilim va ko'nikmalarning orttirilganligi.

4. To'rtinchi bosqich – ijtimoiy-psixologik moslashuvning mustahkamligi, kundalik ijtimoiy muhitda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmasi.

Yoshlik davri 14 yoshdan boshlanib, bu davrda asosan, bolaning jismoniy yetukligi boshlanadi va yuqori chegarasi 30 yosh bo'lib, bu davrda iqtisodiy yetuklik, kasbiy va shaxsiy barqarorlikning ortishi (oila qurish, farzand tug'ilishi kabi) bilan belgilanadi.

Institutsional muassasalarni tamomlagan bitiruvchilar odatda ota-onalari haqida ma'lumot qidiradilar. Ko'pincha ular bor yoki bo'lgan va endilikda ular yo'qligi haqida ma'lumot oladilar. Postinternat davrini o'z ota-onalari bilan davom ettirishga kelishgan bolalar odatda ota-onalari kabi asotsial xayot tarzida yashashni davom ettirishadi yoki ota-onasiga nisbatan himoyalani, ya'ni taziyoq o'tkazish tahdid yo'lini tanlab, ularni xaydab chiqaradilar.

Yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, bola rivojlanayotgan ijtimoiy vaziyat (tengdoshlari, mikromuhit va h.k) va turli ijtimoiy ta'sirlar (OAV, diniy oqimlar, ijtimoiy-iqtisodiy holat)ning ijtimoiylashuviga ta'sir etib ijtimoiy pozitsiyani belgilaydi.

Shaxsning normal shakllanishiga uning nafaqat biologik, balki ma'naviy va ijtimoiy talablarining qondirilishi ham katta ahamiyatga ega. Institutsional muassasa bitiruvchilarining aksariyati, oliy ta'limga kirolmaganligi sababli, ishga joylashadi. Shu paytga kelib uy-joy, istalgan ish o'rni, o'z-o'zini ta'minlashga yetadigan ish haqi kabi muammolar vujudga keladi. Bolalar uyida shakllangan psixologik yetimlik kompleksi yoshlarning ularga belgilangan ijtimoiy huquqlardan to'g'ri foydalana olmasligiga sabab bo'ladi. Ular o'z byudjetini to'g'ri rejalashtirish, kommunal va ijtimoiy xizmatlar bilan muloqot o'rnatish,

doimiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqtlarini maqsadli taqsimlash kabi vazifalarni amalga oshirolmaydilar.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va institutsional muassasalarni tamomlagan bitiruvchilarni integratsiyasini samarali tashkil etish uchun bir qator qonun va qonun osti hujjatlar mavjud. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aniq ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 64-moddasida muvofiq, Davlat va jamiyat ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim qolgan bolalarni ta'lim-tarbiyasini kafolatlaydi

Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar huquqlarini himoya qilish vazifasi mahalliy hokimiyat va vasiylik organlariga topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi xamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart."deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari konvensiyasi", O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi Qonun kabi derektiv hujjatlar ham amalga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 3-bobida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari berilgan bo'lib, jumladan 25-moddada ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatda uyg'unlashish huquqi kafolatlangan. Yuqoridagi hujjatlar asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olishi, kasbga yo'naltirilishi, mehnat faoliyatini yuritishi kafolatlandi.

**Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar huquqlarini himoya qilishda
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi quyidagi tarmoqlarga ega**

<i>Sohalar:</i>	<i>Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:</i>
Konstitutsiyaviy qonunchilik	O'zR Konstitutsiyasi, "O'zR Konstitutsion sudi haqida"gi O'zR Qonuni
Xalqaro qonunchilik	Bola huquqlar to'g'risidagi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va mdaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt
Jinoiy qonunchilik	O'zR Jinoiy kodeksi
Jinoiy-protsessual qonunchilik	O'zR Jinoiy-protsessual kodeksi
Ma'muriy qonunchilik	O'zR Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Voyaga etmaganlar komissiyalari to'g'risidagi Nizom
Fuqaroviy qonunchilik	O'zR Fuqarolik kodeksi
Fuqaroviy-protsessual qonunchilik	O'zR Fuqarolik-protsessualkodeksi
Oilaviy qonunchilik	O'zR Oila kodeksi, Vasiylik va homiylik organlari to'g'risidagi Nizom

IX Bob. Ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni joylashtirish shakllari

9.1. Hissiy bog'langanlik nazariyasi¹

Angliyalik Jon Boulbi 1936 yilda bolalar uyida tarbiya topayotgan bolalardagi psixik buzilish jarayonini o'rganadi.

¹ Значение привязанности для развития ребенка. Ранняя диагностика и вмешательство./ Авторы-составители Я.Чичерина, Д.Исаева, Е.Бондарева/. РЦСАД, Ташкент, 2010.

U bolalar uyida tarbiya topayotgan bolalar hissiy buzilishlar va atrofdagilar bilan yaqin munosabatni doimiy o'rnata olmaslik bilan iztirob chekishlarini aniqladi. J.Boulbi fikricha bola hayotining ilk bosqichida ona qiyofasi bilan qattiq bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi uchun bunday bolalar mehr ko'rsatishga, sevishtga qodir emas. Bunday belgilar me'yordagi oilalarda o'sgan va so'ng ota-onalaridan ajralgan bolalarda ham kuzatiladi. Bunday insoniy qalin bog'langanlikdan voz kechish ularni qanchalik iztirobda qoldiradi. Bunday kuzatuvlar J.Boulbini "ona-bola" bog'liqligiga e'tibor qaratmaslik, bola rivojlanishini tushunish mumkin emasligiga ishonch hosil qildi. Bunday bog'langanlik qanday shakllanadi? Nima sababdan bunday buzilish jiddiy oqibatlariga olib keladi? Rivojlanish uchun muhim sharoitlardan biri – bu bolaning atrofidagi uni sevib mehr-muhabbat ko'rsatuvchi insonlardir. Shundagina biz xavfsizlikni, bizning yonimizdagi yaqin insonlarimizning qo'llab-quvvatlashlarini, yordam berishi va qanday bo'lsak shundayligimizcha qabul qilishlarini bilganimizdagina, biz atrof-muhitni bilamiz va o'z qobilyatlarimizni rivojlantiramiz. Agar inson o'ziga va uni sevishtlariga ishonmasa, u hamisha bunga loyiq insonligiga ishontirishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda ishonchli xulq-atvor, ijodkorlik va o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, qoidadagidek, barkamol rivojlanish uchun imkoniyat hamda vaqt etishmaydi.

Yaqin insonlar orasidagi hissiy bog'langanlik tuyg'usi bola hayotining dastlabki daqiqalarida shakllanadi. Qachonki bola biror-bir narsaga muhtojlik sezsa, o'sha vaqtda onaning bolaga qo'l tegizishi hissiy bog'langanlikning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Bolaning ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda ota-ona bolaga yordam berishi kerak bo'lganda, uning yordamiga javob bera oladigan insonlar borligi va uni yaqin insonlaridan olishini tushunishiga imkon tug'diradilar.

Bola onasining qo'lida va uni ovqatlantirish vaqtida u bilan muloqot qilish muhim hisoblanadi. U nafaqat bolaga ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beribgina qolmasdan, balki uning farovon rivojlanishiga asos bo'ladigan bir qator ijobiy his-tuyg'uni oladi.

Jon Boulbi hissiy bogʻlanganlik odamzod paydo boʻlganidan beri bolalarni yashashi va xavfsizligini ta'minlashi haqida fikr yuritadi. Yovvoyi hayvonlarga qurbon boʻlmaslik va ota-onadan orqada qolmaslik uchun bola kattalarning yaqinida boʻlishi kerak edi. Har safar bolaga nimadir xatar solar ekan, u bu haqida ota-onasiga belgi beradi. Insonlar xulq-atvorida shu asnoda dastlabki "bogʻlovchi" harakat mustahkamlanadi: goʻdakning yigʻisi, tabassum, soʻrish, timdalash (qoʻl va narsalarni reflektor quchoqqa olish), kattalarni izidan borish.

Aynan shu sababli zamonaviy bolalarni kattalar bilan rivojlanishi sohasini oʻrganuvchi mutaxassislar bolani yigʻlashini eʼtibordan chetda qoldirish kerak emasligini va bola bilan kattalarning oʻzaro taʼsiridagi turli shakllarni qoʻllab-quvvatlash zarurligini tavsiya etadilar, shu sababli ular hissiy bogʻlanganlikning rivojlanishiga asos boʻladi.

Agar bola "oʻziga ishonmasa," uning iltimosiga javob boʻlmasa, u holda kattalardan yordam olishni kutmaydi. Uning rivojlanishidagi bu bosqichda jiddiy ziyon yetkazilgan boʻladi.

Hissiy bogʻlanganlik tuygʻusining rivojlanishi J.Boulbining fikriga koʻra bir nechta davrga boʻlinadi.

1-davr (tugʻilganidan uch oygacha). Bu bosqich tanlamaydigan hissiy bogʻlanganlik bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda goʻdak faqat oldida paydo boʻlgan predmetlarni farqlashga oʻrganadi. Barcha predmetlar orasida oʻziga jalb etadigani, hattoki qogʻozlarda boʻlsa ham insonning yuzi va ovozi hisoblanadi.

Tahminan bola 3 haftalik davridan boshlab insonning ovoziga kulishni boshlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar goʻdakni tugʻilganidan boshlab onasi ovozini tanishini koʻrsatdi.

Goʻdak uyqusida ham tabassum qilishi mumkin, biroq bu tabassum insonga yoʻnaltirilmaganligi sababli "ijtimoiy" hisoblanmaydi. Goʻdakning 5-6 haftalik boʻlganida har qanday insonga kulishni boshlaydi. Mazkur yosh davrida bogʻlovchi boshqa harakat – gu-gulash sodir boʻladi.

Tugʻilgandan boshlab goʻdakda ikkita muhim refleks yoki «ushlab oluvchi reaksiya» namoyon boʻldi: *mahkam ushlab olish refleksi* (agar bolaning kaftiga

biror-bir predmet tushib qolsa, u reflektor tarzida qisib oladi) va *Moro refleksi* (o'tkir ovozda yoki harakatda bola tayanchini yo'qotadi, bola qo'lini dastlab cho'zadi, so'ng o'ziga tortadi, qo'llari bilan ko'kragiga quchoqlab oladi). J.Boulbining fikriga ko'ra, bu reflekslar o'tmishda bolalarga ota-onalari bag'rida bo'lganida ularga yopishib olishi uchun yordam bergan. Tez yurganda yoki kattalar yugurganida bola yiqilib tushmasligi uchun mahkamroq ushlashi kerak. Bundan tashqari, go'daklarda so'ruvchi va qidiruvchi reflekslar bo'ladi. Agar go'dakning yuzi biror-bir predmetga to'qnash kelsa, u boshini o'sha tomonga qaratadi. Predmetlarni paypaslab, uni so'rishni boshlaydi. Bu harakatlar J.Boulbining fikriga ko'ra, onaning bola bilan bo'lgan hissiy bog'langanligini shakllantiradi.

2-davr (3oydan 6 oygacha). Bu davrda go'dak *tanish insonlarga e'tiborini qaratadi*. Bu davrda ba'zi reflekslar yo'qolib boradi: *Mororefleksi, qidirish va talpinish refleksi*. Endi bola atrof-dagi insonlardan o'ziga yaqin bo'lganlarni, uni parvarish qilayotganlardan ikki va uchtasini ajrata oladi. Bu insonni paydo bo'lishi bilan (yoki bir necha yaqin insonlar) u tabassumlarga javob qaytaradi. Bu davrda go'dak yaqin insonlarni namoyon bo'lishi bilanoq, ayniqsa, faol g'uldirab gapiradi va sayr qilganda tomosha qiladi. Odatda, ularning xohlaydigan ob'ekti onasi bo'ldi. Biroq J.Boulbi fikriga ko'ra, bundan mustasno bo'lgan bolalar ham mavjud. Go'daklar o'z atrof-muhitidagi "ularning signallariga yuqori tayyorgarlik bilan javob beradigan" insonlarga nisbatan tez ta'sirlanadilar¹.

3-davr (6 oydan 3 yoshgacha). Bu davr J.Boulbining fikriga ko'ra hissiy bog'langanlik shakllanishi uchun juda muhim hisoblanadi. U "intensiv hissiy bog'langanlik va yaqin insonlarni faol qidirish" bilan xarakterlanadi"².

Go'dakning 6 oylik davridan boshlab hissiy bog'langanlik aniq bir insonga nisbatan shiddat bilan rivojlanib boradi. Ayniqsa, onasi xonani tark etayotganida ayriliqni vahima qilib, go'dak baland ovoz bilan yig'laydi, e'tiborni qaratadi. Avvallari ularni parvarish qilgan har bir insonning oldidan ketishiga qarshilik qilar

¹ Уильям Крэйл. Теории развития: Секреты формирования личности.

² Там же.

edilar, biroq hozir uni o'zi uchun asosiy o'rinda bo'lgan yagona insonning yo'qligi bezovta qiladi.

Kuzatuvchilar onaning birmuncha vaqt yo'q bo'lganidan so'ng go'dakning onasini kutayotganidagi intensivlikni aniqladilar. Qachonki ona qaytganida go'dak, qoidaga ko'ra, unga intiladi va uni qo'lga olishlarini xohlaydi, qachonki ona bolani qo'lga olishi bilan uni quchoqlaydi va quvonchli ovoz chiqaradi. Onasi ham o'zining u bilan birga bo'lishidan mamnunligini namoyon qiladi. Onasining yonida bo'lishga xohishni turli ko'rinishda namoyon qilish mumkin. Bolaning yoshi qanchalik katta bo'lsa hissiy bog'langanlik shunchalik yaxshi shakllangan bo'ladi, uning xulq-atvorida atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan intilish kuchliroq namoyon etiladi. Biroq agar u charchagan va kasal bo'lsa, onasining yonida qolishga ehtiyoji ortib boradi. Nima sababdan biz jismoniy imkoniyati cheklangan bola haqida gapirar ekanmiz, hissiy bog'langanlik tushunchasi alohida o'rin egallaydi. O'zining ahamiyatli ekanligi tuyg'usi va atrofdagi uni yaxshi ko'ruvchi insonlarni qabul qilishi bola rivojlanishining farovonligi uchun muhim hisoblanadi. Bola miyasining rivojlanishiga bag'ishlangan ko'p sonli tadqiqotlar stressning ta'siri ostida asab tizimida miya xujayralarini o'limga chaqiruvchi kimyoviy modda namoyon bo'ladi. Bunday stresslar qatoriga bola uchun shafqatsiz munosabat va tajovuz, yaqin insonlari tomonidan unga bo'lgan munosabatdagi befarqlik, ota-onalar bilan uzoq vaqt ayriliq kiradi, natijada mazkur bolani bolalar uyiga joylashtiradilar¹.

4-davr (3 yoshdan bolalaikning oxirigacha): hamkorlik xulq-atvori.

Bolaning 2-3 yoshgacha bo'lgan vasiyga bo'lgan ma'lum bir yaqinlikka bo'lgan ehtiyoj ularni bezovta qiladi. Ikki yoshlik bola uchun bilim bu ona yoki ota "qo'shnisirikiga sut so'rash uchun bir daqiqaga chiqib ketadi" hech narsani anglatmaydi; bola u bilan birga borishni xohlaydi. Uch yoshli bola bunday rejalar haqida bir qancha tushunchalarga ega va ota-onalarning yo'qligida ularning xulq-atvorini xayoliy tasavvur qilishi mumkin. Bola ota-onasining ketishiga bajonidil

¹ Св. Довбня, Т. Мороз. В поисках решения. Материалы к фильмам «Дорога домой» и «Джон». С-Петербург, Институт раннего вмешательства., 2007 г.

ruhsat beradi. Bola munosabatda hamkor sifatida harakat qiladi. J.Boulbi boladagi *hissiy bog‘langanlikning to‘rtinchi davri haqida* ko‘p narsa ma’lum emasligini tan olgan, kelgusidagi hayoti haqida kam fikrlar bildirilgan. Shunday ekan u muhim o‘yinni o‘ynashni davom ettiradi. O‘smirlar ota-onaning ustunligidan xalos bo‘ladilar, biroq ularda ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan hissiy bog‘langanlik shakllanadi; kattalar o‘zlarini mustaqil sezadilar, biroq tanglik davrida sevimli insoniga nisbatan ehtiyojni his qiladi; qariyalar yosh avlodlarga nisbatan ko‘proq bog‘liqlikni tuyishlari ko‘rinadi. Bir so‘z bilan aytganda “yolg‘izlikdan qo‘rquv – inson hayotidagi kuchli qo‘rquvlardan biri”. Biz bunday qo‘rquvni be‘mani deb hisoblashimiz, uni asabdan yoki yetuk emaslikdan, deb bilishimiz mumkin, biroq buning biologik sabablari bor. Insoniyat tarixining barcha jabhalarida insonlarga tanglikni samarali yengishida yaqin insonlarining yordami ko‘maklashadi. Shunday qilib, ehtiyoj bizning tabiatimizga mustahkam bog‘langan.

9.2. Internat muassasaga joylashtirishning salbiy oqibatlar¹

Bolalar muassasasiga tarbiya uchun bolani joylashtirish – maxsus internat, bolalar uyi yoki kasalxonada uzoq vaqt bo‘lish – bolaning rivojlanishiga jiddiy ta’sir etadi.

Ko‘p sonli tadqiqotlarda internat muassasa bola hayoti, uning yagona sevimli muhitidan ajralganligi ularni rivojlanishdan jiddiy orqada qolishiga olib kelishi kuzatiladi. Yaqin insonlari bilan munosabatdan mahrum bo‘lgan bolalar, tarbiyachilarining tez-tez almashinuvi sababli ularni o‘rab turgan muhit barqaror hisoblanmaydi, ularning muloqot va e’tiborga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq tarzda qondirilmaydi. Natijada bolani atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishi so‘nadi. Bola insonlarga bo‘lgan “ishonchi”ni yo‘qotadi, so‘ng kattalarning qo‘llab-

¹ Хрестоматия «Введение в социальную работу» // Материалы тренинга для тренеров «Введение в социальную работу» проект «Развитие социальной работы в Узбекистане на академическом уровне». МВССО – РЦСАД – ЮНИСЕФ. Составитель Хелен Вулли, международный консультант проекта, TeessideUniversity, UK//., Ташкент, 2005 г.

quvvatlashidan umidini uzadi va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqishini namoyon etadi. Emotsional buzilishdan tashqari, bolalar uyi sharoitidagi hayoti va kattalar bilan doimiy o'zaro ta'sirning yo'qligi sababli bolani nutqining rivojlanishi sekinlashishiga, muloqot ko'nikmalarining sust rivojlanishiga olib keladi. Parvarish va e'tiborning etishmasligi oqibatida ko'pchilik bolalar bo'yi va og'irligi yetarli darajada ortmaydi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni internat muassasaga joylashtirish jiddiy buzilishlarga olib kelishi mumkin. Aksariyat hollarda bolaning holati individual yondashuvni, ilk aralashuv va maxsus ijtimoiy reabilitatsiya jarayonini tashkillashtirishni talab etadi. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi kattalar mazkur jarayonda mutaxassislarining yordamchisi hisoblanadi. Ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar, nafaqat mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlashdan, balki uning tashhisi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni oldini olishning eng qisqa muhlatidan mahrum bo'ladilar.

Britaniyalik yozuvchi va bolalar shaxsi shakllanish muammosini o'rganish bo'yicha tadqiqotchi Djon Boulbi 1950 yillarda hissiy bog'langanlikdan mahrum bolalar o'zgaralar bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladi, deb ta'riflaydi. Ota-onalar bunday bolalarni vijdotsiz, oson manipulyasiya qilishi mumkin bo'ladigan yoki his-tuyg'ularini samimiy ifodalay olmaydi, deb hisoblaydilar. Ota-onalar shunday deyishlari mumkin: «Biz bola uchun nima qilmaylik hech qanday natija bermayapti».

Bunday bolalar munosabatining turli ko'rinishlarida qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishlari murakkab hisoblanadi. Ular o'zgaralar uchun qayg'urishga urinmaydi. Ular mehr-muhabbatga kam erishganliklari uchun uni o'zgaralarga bera olmaydilar. Ular bolalarcha – egotsentrik, impulsiv yashashni davom ettiradilar. Ularda qonun va qoidalarni bajarishda muammolar tug'iladi. Ularni qiziqtiradigan birinchi narsa: «bundan menga nima foyda?» Ular shunchalik darajada boshqalarga ishonmaydiki, bunday bolalarning axloqi o'zgaralar bilan masofani saqlashga qaratilgan. Ilk yosh davridagi hissiy bog'langanlikning etishmasligi natijasida xulq-atvorning quyidagi ko'rinishlari mavjud.

Tortinchoqlik.

Hissiy bog'langanlikda muammosi mavjud bo'lgan ko'pchilik bolalar o'zgalar bilan muloqotdan o'zlarini tortadilar. Bu chetlatishlik turli shakllarda ko'rinadi. Ba'zi bolalar so'zning jismoniy mazmunidan chetlatiladi va o'zgalarga nisbatan o'z atrofida himoya maydonini paydo etadi. Tortinchoqlikning yana bir ko'rinishi qo'rquvni namoyon bo'lishiga o'xshaydi. Ota-ona bolaga yaqinlashadi, u o'zini olib qochadi. Agar ota-ona bolani bag'riga bossa, u xayron bo'ladi. Kattalar boladan yuz o'girgandek qo'rqitishni xohlamaydi va bola qo'rquvni namoyish etayotganligi uchun kattalar bilan masofada bo'layotganligini anglatadi. Oila a'zolari ko'pchilik holatlarda bola ularni yoqtirmayapti, degan xulosaga keladi.

Surunkali xavotirlilik.

Bolalarga zarur vaqtida ota-onalar doimiy yonida ekanligiga ishonch hosil qilsalar, surunkali xavotirlilikni his etmaydilar. Bola uchun ota-ona zarurligida ularni yo'qligi eng dahshatli vaziyat hisoblanadi. Bolani tayyorgarliksiz boshqa yerga olib kelganda yoki hayotida zudlik bilan o'zgarish sodir bo'lganda xavotir kuchliroq namoyon bo'ladi. Surunkali xavotirlilikni boshidan kechirayotgan bolalarda ota-onaga «yopishish» holati kuzatiladi va o'z instinktini namoyon etadi. Bolaning bunday xulqi oila a'zolarini psixik toliqtiradi.

Qarashlaridagi salbiy bog'liqlik.

Biz bilamizki, bola va ota-ona o'rtasidagi qarashlardagi bog'liqlik qanchalik ahamiyatga ega ekanligini, shuningdek, ajablanarli emas, bu muammoga duch kelgan ko'pchilik bolalar boshqa insonlar bilan aloqada qiyinchilikka duch keladi. Ko'pchilik hayratlanadi, nima sababdan bu kimnidir ko'rishni xohlaydi. Qarashlardagi bog'liqlik yaxshi rivojlanmagan bolalar, atrofda sodir bo'layotgan voqealarga to'g'ri qarashdan qochib, yon tomondan nazorat etadilar. Bunday bolalarning ba'zilar qachonki ularga chaqiruv kelganda aloqaga kirishadilar, shuning uchun ba'zan ularning ota-onalari ularning qarashlaridagi loqaydlikka o'rganib qoladilar.

Tajovuzkor axloq.

Ba'zi bolalar tajovuzkor axloqi orqali kattalar e'tiborini o'zlariga qaratadilar.

Agar bolaga kattalarning har bir yaqinlashganida urisa, tepsa, yumdalasa yoki tishlasa, ulardan masofa saqlashni talab etadi. Agar boladan biror bir narsani talab etishda jahli chiqsa, ko'plab ota-onalarning talablarni bildirishni to'xtashi oson bo'ladi. Doimiy harakatdagi bolaning yaqinida bo'lishi qiyin.

Bahssiz hissiy bog'langanlik.

Sog'lom bola notanish inson bilan ham muloqotga kirisha olishi mumkin, suhbat kamdan kam jinsiy yaqinlikka olib keladi. Boshqa tomondan bola notanish kishining oldiga kelib, tezlik bilan uning tizzasiga chiqib olib, quchoqlab, o'pishni boshlashi mumkin. Agar bola o'zini ko'pchilik bilan yoki hamma kattalar bilan shunday tutib, "o'zgalar men uchun ahamiyatliroq" desa, bunday axloq o'ziga rom etuvchi xarakterga ega. Hissiy bog'liqlik tamoyilining mohiyati shundaki, bir qancha insonlar boshqalardan muhim ajratib bo'lmaydigan bog'liqlik muammosining belgisini bildiradi. Har qanday insonlar bilan yaqin munosabatga kirishadigan bola bilan ota-onalar yaqinlikni his etishlari murakkabroq. Begona insonlar bilan ketib qolishi mumkin bo'lgan bolalarga qarash biroz qiyinroq.

Haddan ziyod vakolatli bola.

Ba'zi bir hissiy bog'langanlik munosabatida muammosi mavjud bo'lgan bolalar haddan tashqari mustaqillik haqidagi taassurotni uyg'otadi. Ota-onalar ular uchun umuman kerak emas. Ilk yoshda ular mustaqil o'rnidan turish, cho'milish, kiyinish va eslatmasa ham o'z xonasida bo'lishni talab etadi. Ota-onalar uchun o'zlarining bunday bolalarga kerakligini his etish murakkab.

O'zini his etishning yetarli emasligi.

Bolalikda qiyinchilikni boshidan kechirgan ba'zi bolalar atrofida nima bo'layotganini tushunadi, lekin o'z shaxsiy tanasini his etmaydi. Ular ko'ngli aynaguncha yeyishi mumkin. Ular og'riq yoki harorat o'zgarishiga ahamiyat bermaydi. Ular enurez bilan kasal bo'ladi. Ular hech qachon o'z tanasining belgilariga va qulay holatga erishishga harakat qilmaydilar. Ota-onalarining ilk

bolalikdagi ehtiyojlariga e'tibor qaratmaganligi ularda bunday xulqning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Nazorat bilan bog'liq muammo.

Hissiy bog'langanlik yetishmasligini boshidan kechirayotgan bolada o'zgalarga nisbatan ishonchsizlik, hokimiyat uchun kurash, bolalikda qiyinchilikni boshidan kechirgan bolalarning oilasini kuzatish, nazort bilan bog'liq muammoga olib keladi. Bunday bolalar xulqning aniq chegaralangan me'yorini murakkablik bilan qabul qiladi. Shunday tasavvurlar hosil bo'ladiki, u bunday chegarani bosib o'tishga harakat qiladi. Ota-ona tomonidan aqlli tanbeh berish janjalga olib keladi.

Shunday tasavvur xosil bo'ladiki, bunday bolalar o'z hayotlarini o'zlari nazorat qiladilar, haqiqatda esa ular o'z hayotlariga o'zlarini xo'jayin deb bilmaydilar. patronat tutingan ota-onalar tomonidan bolalarga beriladigan nazorat bilan bog'liq bo'lgan savollar esa ularning orasidagi kelishmovchilikka olib keluvchi asosiy sabab bo'lishi mumkin.

"2 yoki 20" sindromi.

Hissiy bog'langanlik muammosi bilan bog'liq bo'lgan bolalar, ya'ni ba'zi holatlarda o'z yoshiga nisbatan kattaroq yoki boshqalarga nisbatan yetuk emas bo'lib ko'rinadi. Ularning yoshiga mos keladigan xulq ularni qoniqtirmaydigandek ko'rinadi. Bunday bolalar kattalar yoki o'smirlar uchun xarakterli mashg'ulotga yoki ish vazifasiga berilishi bilanoq harakat qiladilar. Ular o'z tengqurlari bilan o'ynayotganda sardorlikka intiladilar. Ularni bostirishda qarshilik ko'rsatadi. Ba'zi munosabatlarda ular o'zlarini yigirma yoshdek tutadilar. Kimdir ularning xulqini chegaralasa yoki omadsizlikni boshidan kechirsa, ularda xuddi ikki yoshlik bolalardek jahldorlik namoyon bo'ladi.

Axloqiy rivojlanishdan orqada qolgan bola.

Vijdon rivojlanishidan kechikkan bolalar yolg'on gapiradi va o'g'irlyadi. Ular mutlaqo ahamiyatsiz narsalardan yolg'on gapiradi. Ularning yolg'on gapini aniqlash murakkab. O'g'irlikni "Maktabdan topilgan narsa" ko'rinishida qabul qilish mumkin, uyidan pul yoki buyumni olishi mumkin. Odatda, ular o'g'irlikda qo'lga olinsalar, ajablanmaydilar.

Davlat internat muassasasida tarbiyalanayotgan bolalar tajribasi – oiladan tashqaridagi yoki katta jamoa sharoiti, shubhasiz nafaqat bolalar davrida balki kattalar hayotida ham salbiy ta'sirini qoldiradi¹.

Bunday oqibatlar jismoniy, intellektual va hissiy rivojlanishida, shuningdek, umumiy sog'lig'iga ham ta'sir etishi mumkin.

Aksariyat muassasalardagi tarbiya har bir bolaga alohida e'tibor qaratish imkoniyatini bermaydi va kundalik o'rnatilgan tartib-qoida guruh asosida tashkillashtirilgan tamoyilga asoslanadi.

Yangi dunyoga kelgan go'dakda hissiy bog'langanlik doimiy va dastlabki insonga nisbatan shakllanadi, odatda, bu inson bolaning onasi hisoblanadi. Bu hissiy bog'langanlik bolaning va uning kelgusidagi mustaqil hayotida barcha o'zaro munosabatlariga asos bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun agar dastlabki tajriba ijobiy bo'lmasa yoki mazkur tajriba umuman bo'lmasa, bolaning emotsional sohasida hissiy bog'langanlik bilan buzilishlar namoyon bo'ladi. Bola dunyoga kelgan dastlabki soatlar davomida va tug'ilgan kundan boshlab onasi uchun ham aloqaning mavjudligi muhim hisoblanadi.

Hissiy bog'langanlik bilan emotsional aloqa tabiiy funktsiya hisoblanadi, biroq u avtomatik tarzda jalb etmaydi va bolaning ehtiyojga onaning javobi sifatida belgilangan bo'lishi mumkin.

Onaning bola bilan aloqasini mustahkam bo'lmasligiga ta'sir etuvchi salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan sabablar:

- istalmagan homiladorlik;
- yosh ona bo'lish;
- kambag'allik va bolani qo'llab-quvvatlash uchun moddiy sharoitning yetishmasligi;
- jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lib dunyoga keltirish;

¹ Материалы тренинга для тренеров «Социальная работа с детьми и семьями». Составитель международный консультант проекта Иугрид Джоунс (Everychild, UK). Проект «Продвижение развития социальной работы в Узбекистане, РЦСАД – ЮНИСЕФ, Ташкент, 2006.

- ona-ota mustahkam va muloyim o'zaro munosabatga ega bo'lmaslik;
- onaning o'zi alohida ehtiyojga muhtoj yoki doimiy kasallikdan iztirob chekadi;
- bola tarbiyasi haqida salbiy tajribaga ega va shuning uchun u emotsional yoki jismoniy jihatdan bola tarbiyalashga tayyor emas;
- ona homiladorlik davrida yoki oxirida jarohatni boshidan kechirgan, masalan, qarindoshlarining dunyodan ko'z yumishi;
- bola jinsiy tajovuz qurboni hisoblanadi;
- avvalgi farzandi yoki kichik farzandining o'limi;
- spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilish;
- ko'p farzandlik va bolalarning dunyoga kelishi oralig'idagi vaqtning juda qisqa davri;
- bolani vaqtdan oldin dunyoga kelishi va uzoq davom etadigan vaqt oralig'ida ona bilan bola ajralishining zaruriyati;
- bolaning ovqatlanishida muammolar kuzatiladi;
- bolani qiynalib tug'ilishi natijasidagi jarohat va uning asorati.

Shuning uchun agar bola onasidan ajralgan holda bo'lsa va institutsional muassasaga joylashtirilsa yoki tug'ruqxonada qoldirilsa, u eng muhim hissiy bog'langanlikni shakllantira olmaydi. Internat muassasalarda bolani parvarishlash uchun alohida tarbiyachilarni ajratish imkoniyati mavjud emas, shuning uchun ularni ovqatlantirish, kiyintirish va yo'rgaklash uchun turli insonlar jalb etiladi. Bola bilan sevuvchi inson munosabatini o'rnatish yoki bolaning individual ehtiyojlarini qondirish uchun hech kim alohida javobgarlik tuyg'usini his etmaydi.

Bolalar xodimlarining ish jadvallari va ularning soniga bog'liq ravishda ovqatlantirilgan, yuvintirilgan va odatdagidek ko'rinishda yo'rgaklangan bo'ladi. Ba'zi bir tashkilotlarda sakkiz va o'n nafar bolalarga bitta enaga birlashtiriladi hamda har bir bolani parvarishlash, shuningdek, ularni sevib-erkalash uchun bu enagalarning imkoni bo'lmaydi. Ularning barcha ish vaqti bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirishga sarflanadi va bunga o'rtacha 3-4 soat vaqt sarflanadi.

Bunday tizimda uzoq vaqt bolalar karavotda e'tiborsiz, yig'lagan holda, tagi xo'l, och, ayanchli, baxtsiz, yolg'iz qolib ketadilar. Bunday tajribada bolalar nimaga o'rganadilar? Ularning ehtiyojini kim qondirishi mumkin? Bola uchun dunyo tor, o'zi och, yolg'iz, o'zini noqulay his qiladigan joy bo'lib tuyuladi. Bunga qo'shimcha tarzda ovqat yeyish vaqtida yoki cho'miltirishda bola bilan hech kim gaplashmasa yoki naridan beri yoki qo'pollik qilinsa, keyinchalik bola qo'rqqoq va mehirsiz, odamlarga aralashmaydigan bo'lib qoladi.

Bola bunday tajribada, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun hech kimga ishonishi kerak emas, shuningdek, seni xafa qilish mumkin, shuning uchun bola o'zini himoya qilishni o'rganadi.

Hissiy bog'langanlik rivojlanmagan bolalarda uning asorati:

- Nimjon rivojlanish.
- Tanlamaydigan muhabbat.
- Notanish insonlardan qo'rqmaslik va har kimdan e'tiborni qidiradi.
- Sabab-oqibat orasidagi bog'liqlikni tushunmaydi.
- Ishonchning yo'qligi.
- G'urur hissining yetishmasligi hamda o'z-o'zini past baholash.
- Birgalikda baham ko'rish qobiliyatining yo'qligi.
- Tengqurlari bilan munosabatga kirisha olmaslik.
- Hissiyotning chuqur emasligi.
- Ta'limda muvaffaqiyatga erishishning sustligi.
- Yolg'onni nazorat qila olmaslik.

Davlat qaramog'idagi internat muassasalariga joylashtirilgan bolalar quyidagi muammolarga ega bo'ladi:

- Intellektual, emotsional va jismoniy rivojlanishdan orqada qolish.
- Nutq rivojlanishidan orqada qolish.
- Tana yoki oyoqni ritmik harakatlanishi yoki doimiy qimirlatish.
- Bola tomonidan kallasi bilan urish.
- Bola jiddiy jarohat yetkazuvchi darajada tishlaydi.

- Yangi hayotiy tajriba oldidan qo'rquv.
- Suvdan ko'rqish, sochni yuvish va vanna.
- Ovqatni yeya olmaslik.
- O'xshashlik hissining yetishmasligi.
- O'zga insonlarning mulkiga hurmatning yetishmasligi.
- Ona, ota, o'g'il, qiz yoki aka va singil roli haqidagi bilimlarning yetishmasligi.
- O'z fikriga ega emaslik va tanlash qobiliyatining yetishmasligi: yoqadi yoki yoqmaydi.
- Xulq, ya'ni xronologik yoshiga nisbatan to'g'ri kelmaslik.
- Ularning xulqi kichik yoshdagi bolalar uchun xarakterli.
- Oila uy haqidagi oddiy vazifalarni bajara olish qobiliyatining rivojlanmaganligi.
- O'ynash yoki biror-bir narsa bilan shug'ullanish qobiliyatining rivojlanmaganligi.

Bolalar internat muassasalarini tark etayotganda, oilaga o'tkazilayotganda sabrli, e'tiborli, tushunuvchi tarbiyachiga muhtoj bo'ladilar. Shuning uchun bolani tarbiyaga oluvchi oilalarga ta'lim va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun to'g'ri tanlovni amalga oshirish ahamiyatga ega.

Bolani istalgan yangi muhitga, bu o'rinda yangi bola uchun butunlay begona bo'lgan oilaga joylashtirish bolada o'ziga xos jarohatli kechinmalarni uyg'otishi sir emas. Shu bois bu bosqichda aynan shu bolada kechishi ehtimoli bo'lgan kechinmalarni unutmagan holda bola va patronat oila bilan ish olib borayotgan ijtimoiy xodim har bir holatda individual yondashishi lozim. Bolani patronat oilaga joylashtirish rejali jarayon sifatida tashkillanishiga alohida e'tibor berish kerak (tezkorlikni talab etuvchi vaziyatlardan tashqari).

Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy xodimga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, bolaning patronat oilaga joylashtirish protsessi haqidagi qonuniyatlarni bilishi zarurligi ushbu bobda aytib o'tiladi. Bolani istalgan yangi muhitga, bu o'rinda

yangi bola uchun butunlay begona bo'lgan oilaga joylashtirish bolada o'ziga xos jarohatli kechinmalarni uyg'otishi sir emas. Shu bois bu bosqichda aynan shu bolada kechishi ehtimoli bo'lgan kechinmalarni unutmagan holda bola va patronat oila bilan ish olib borayotgan ijtimoiy xodim har bir holatda individual yondashishi lozim.

Bolalarni patronat oilaga joylashtirish ota-onasiz yetim qolgan, muruvvat, mehribonlik uylarida yashayotgan bolalarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda, bolalarni har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishida oila har tomonlama qulay maskan deb hisoblanadi.

Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy xodimga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, bolaning patronat oilaga joylashtirish protsessi haqidagi qonuniyatlarni bilishi zarurligi bola hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jarayonning rejali tarzda tashkillashtirilishi evaziga bola va patronat oila tarbiyachisi xayot tarzida kechishi kutilayotgan o'zgarishlarga tayyorlanish uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

9.3. Bolani patronat oilaga joylashtirish

Bolani patronat oilaga joylashtirish bola ehtiyojlari va ma'qul topilgan patronat oila a'zolari ega bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarning mavjudlik imkoniyatiga qarab qabul qilinadi.

Patronat oila bilan ishlovchi ijtimoiy xodim patronat oila bilan uchrashib, qo'llanilishi kerak bo'lgan barcha xatti-harakatlarni va bola xayoti tarixini muhokama qilib oladi. Ijtimoiy xodim bola haqida iloji boricha atroflicha ma'lumotlar berishi lozim. Bu ma'lumotlar patronat ota-onalarda bolani o'z g'amxo'rligi ostiga olish yoki olmaslik haqida qat'iy qaror qabul qilishga yordam beradi. Bu bosqich shunisi bilan ahamiyatliki, aynan shu davrda patronat oilaning ushbu ma'lumotlardan xabardor etilishi patronat bola va oila a'zolari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki bolani joylashtirish bilan bog'lik boshqa

muammolarning kelib chiqishini oldini oladi. Va bola uchun ijobiy oilaviy tajriba olish imkoniyatini oshiradi. Agar opa-uka, ya'ni 2 yoki 3 ta aka-ukalarni bir oilaga (qarindoshlarni ajratmaslik tamoyili asosida) joylashtirish kerak bo'lsa, u holda har bir bolaga xos bo'lgan individual tavsif va atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek bola kechirgan hissiy jarohatli kechinmalari, jumladan jinsiy zulm jabrdiydasi bo'lgan patronat tarbiyalanuvchiga xos bo'lgan hamda atroflicha psixologik muammolari haqidagi ma'lumotlarning berilishi bola va patronat oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchi go'dak yoki munosabatlardagi buzilishlarning oldini olinishiga yordam beradi.

Imkon qadar bolani uzoq muddatli patronat himoyasi shakliga joylashtirishdan oldin ijtimoiy xodim patronat ota-onaning bola yashayotgan joyga (bolalar uyi yoki biologik oilasi) tashrifini uyushtirishi lozim. Bunday tashrif bola va patronat oila a'zolari o'rtasida o'zaro iliq munosabatning yuzaga kelishini ta'minlovchi birlamchi va bog'lovchi bosqich sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek patronat tarbiyachiga bolaning yashash tarzi haqida aniq tasavvur paydo bo'lishiga yordam beradi.

Ijtimoiy ishchilarning mijozlari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ko'mak, yordam, xizmat ko'rsatish va muhofazaga muhtoj bo'lgan odamlar hisoblanadi:

- bolalar va yoshlar: ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, alohida ehtiyojli bolalar, OIV bilan azoblanayotgan bolalar, huquqiy xatar guruhidagi yoki qonun bilan nizoga kirgan bolalar, nazoratsiz qolgan bolalar, shafqatsiz yoki sovuqqon munosabatni boshidan kechirgan, zo'ravonlikning guvohi bo'lgan bolalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolardan azoblangan bolalar va boshqalar;

- oilalar va ayolllar – kam ta'minlangan oilalar, ko'p bolali oilalar, ota onasidan biri bo'lmagan oilalar, a'zolarining birida OIV bo'lgan oilalar, alohida ehtiyojli a'zosi bo'lgan oilalar, krizis vaziyatidagi (oilalar a'zolaridan birining o'limini, ajrashish, nizolar, uydagi zo'ravonlik, ko'chib o'tishni boshidan kechirgan va h.k.) oilalar, tabiiy ofatlar, qurolli nizolar jabr tortgan oilalar, tutingan oilalar va bolalikka olgan oilalar;

- nogironligi bo'lgan odamlar va ularning oilalari;
- ijtimoiy qo'llab quvvatlashga muhtoj keksa odamlar, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Ota-onaning bevaqt vafoti yoki sud hukmiga binoan ota-onalik huquqining bekor qilinishi, ayrim hollarda ota-ona o'z farzandidan kechishi sababli bolalar patronat oilalarga beriladi. Bu ishlarni amalga oshirishda ijtimoiy ishchining vazifasi haqida ushbu paragrafda to'liq javoblar berilgan.

Har bir oilada farzandlar umuminsoniy qadriyatlarini hurmatlash, onalikni muhofaza etish va bolalar huquqini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro huquq qoidalariga sodiq bo'lish, ma'naviy merosni saqlash, yuksak vatanparvarlik, halollik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash ota-onalarning konstitutsiyaviy, qolaversa, ma'naviy burchi hisoblanadi.

Afsuski, ayrim oilalarda taqdir taqozasi bilan bolalar ota-onalarning bevaqt o'limi sababli yetim bo'lib qoladilar. Bunday vaziyatlarda bolalar qarindoshlar, maktab, mahalla qo'lida qoladi. Bola taqdiriga esa barcha birdek ma'suldir. Ota-ona Oila kodeksining 79-moddasigi binoan ota-onalik huquqidan o'zlarining aybli xulq-atvoriga ko'ra, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridan olishdan bo'yin tovlasa, ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan ruhiy ta'sir ko'rsatsa, giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa, o'z bolalarining hayoti yoki sog'ligiga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, tabiiy ravishda ota-onalik huquqidan mahrum qilinadi. Bolaning hayoti va sog'ligiga qarshi ota-ona tomonidan qasddan jinoyat sodir etish havfli hisoblanadi. Bunday asoslarga ko'ra ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilishga faqat sudning hukmi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Bunday holatlarda bola qarindoshlarga yoki tutingan ota-onaga (patronatga) beriladi. Davlatimiz tomonidan bola huquqlari to'la himoya qilinadi.

Yosh oilalarga esa ushbu holatlar ro'y bermasligi uchun ota-ona, mahalla hamkorligida yetarli darajada targ'ibot-tashviqot ishlari olib boriladi.

Uzoq muddatli patronat oilaga joylashtirishdan farkli ravishda bolalarni uzoq muddatli patronat oilaga joylashtirishda jarayonning bosqichma-bosqich va rejali tarzda o'tishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Bunday hollarda bola haqidagi ma'lumotlar hajmining kengligini inobatga olgan holda bolalar ijtimoiy xodimi patronat ijtimoiy xodim bilan birgalikda bo'lg'usi patronat oilaga tashrif buyurishi va mazkur bolaga tegishli barcha masalalarni muhokama qilib olishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek patronat ota-onalarga bolalar ijtimoiy xodimi tomonidan tayyorlangan hisobotning taqdim etilishi bola va u bilan bog'lik masalalar bo'yicha yuzaga kelgan savollarning atroflicha kelishib olinishiga katta yordam beradi. Bolaning bo'lg'usi patronat oila haqida atroflicha ma'lumotlardan xabardor etilishi ham katta ahamiyatga ega. Chunki bolaning ularning yashash tarzi, oila tarkibi, uy sharoiti, qiziqishlari va bir qaraganda xatto u darajada ahamiyatga ega bo'lmagan ma'lumot sifatida befarqlik uyg'otuvchi kundalik bilan bog'lik mayda ma'lumotlarga ega bo'lish bolaning patronat tarbiyachilar bilan hissiy bog'lanishi imkoniyatini oshiradi.

Agar har ikki tomon, bolalar ijtimoiy xodimi va patronat oila ijtimoiy xodimi ham bola, ham oilaning o'zaro bir-biriga mos kelishi va bolani shu oilaga joylashtirish har ikki tomonning ehtiyojini qondira olishi haqidagi xulosasiga kelingan taqdirda tashrif rejasi tuziladi. Bu jarayonda bolaning bola hozirda yashayotgan joyga tashrif buyurish kundaligi, bolaning qo'shimcha ta'limini kuzatish va shu kabi qator masalalar izchil ravishda rejalashtirilib olinadi. Bunda patronat oilaga ham bo'ladigan tashriflar inobatga olinadi. Hatto bolani ko'pi bilan ikki kunga kelgusi patronat oilaga mehmonga yuborish ham maqsadga muvofiqdir. Bolalar ijtimoiy xodimi bola bilan uchrashuv natijalari va uning bu oila haqidagi fikrlarini oydinlashtirib olishi lozim. Agar haqiqatda ham bola uchun ushbu oila eng ma'qul oila degan xulosaga kelish uchun asoslar ko'p bo'lca, u taqdirda bolani joylashtirish kuni belgilanadi.

Bolalar ijtimoiy xodimi belgilangan kun va vaqtda bolani unga tegishli buyumlar bilan birgalikda yangi oilaga olib keladi.

Ijtimoiy xodim barcha kerakli hujjatlar jildini tayyorlaydi. Bu o'z ichiga patronat tarbiyachilar uchun hujjatli ma'lumotlar, ta'lim va tibbiy muassasalardan ma'lumotnoma, jarayonga dahldor bo'lgan ijtimoiy xodimlar xaqida ma'lumotlarni oladi (telefon raqamlari bilan birgalikda).

Belgilangan ijtimoiy xodim bola istiqomat qilayotgan patronat oilaga joylashtirishning dastlabki birinchi haftasida, keyin esa 3 haftadan so'ng, keyinchalik har 6 haftada bir marotaba oilaga tashrif buyurib turadi.

Patronat bo'yicha belgilangan ijtimoiy xodim doimo oila va bolaga yordam berishga kelishga tayyordir. Bolaning rivojlanishi bilan bog'lik muammo paydo bo'lgan taqdirda uni oila a'zolari bilan birgalikda hal qilish, zaruriyatda birgalikda tegishli muassasalarga murojaat qilish, tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkillashtirish (tibbiy muassasalar bilan fuqaro orasida xizmatni tashkillashtiruvchi yordamchi sifatida) ishlari bilan shug'ullanib boradi. Ijtimoiy xodim patronat tarbiyachilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini belgilay olishi va tarbiyalanuvchilar bilan shug'ullanish davomida yuzaga kelayotgan masalalarni hal qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Bola oilaga joylashtirilgandan so'nggi nazorat quyidagi tarzda olib boriladi:

- dastlabki 4 hafta mobaynida;
- har 3 oyda bir marotaba
- 6 oyda bir marotaba.

Agar bola 2 yoshdan kichik bo'lsa, u taqdirda nazorat davriyligi 3 oydan iborat bo'ladi. Chunki asosan bolaning 2 yoshgacha bo'lgan davridagi rivojlanishi intensiv harakterga ega bo'lib u o'z o'rnida ko'proq kuzatuv olib borilishini talab qiladi. Patronat bo'yicha ijtimoiy xodim, oilaga joylashtirilgunga qadar bola yashagan muassasa ijtimoiy xodimlari, bolaning o'qituvchilari va biologik oila a'zolari bunday nazoratlarda ishtirok etishi mumkin.

Bolalarni oilaga muvaffaqiyatli joylashtirish hamda ularning keyingi samarali ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun dastlab, tutingan ota-onalar yoki patronat tarbiyachilarni tayyorlovchi alohida maktab yoki maxsus o'quv kurslari tashkillashtirilishi lozim. Bolani istalgan yangi muhitga, bu o'rinda yangi va bola

uchun butunlay begona bo'lgan oilaga joylashtirish bolada o'ziga xos jarohatli kechinmalarni uyg'otishi sir emas. Bunda tutingan ota-onalarga bolalarni tarbiyaga olish uchun kerak bo'ladigan me'yoriy hujjatlar tayyorlashda ijtimoiy xodimning yordami haqida fikrlar bildirilgan. Bolani tutingan ota-ona (patronat) oilaga joylashtirishda ma'lumotlarni tarqatish shakli alohida o'rin tutadi:

- ✓ Hududda mavjud jamoatchilik muassasalarida buklet va varaqalarni tarqatish. Birinchi navbatda ularni vasiylik va homiylik organlari, oila markazlari, oilaviy poliklinikalarda keng tarqatish maqsadga muvofiqdir;

- ✓ Aholi ko'p to'planadigan joylarda mavzuli axborot varaqalari va reklama plakatlarini joylashtirish;

- ✓ Radio, transportlarda audio-roliklar, mahalliy va kabel televideniesi orqali video-roliklar;

- ✓ Ta'lim markazlari va shahar tadbirlarida ochiq ma'ruzalar o'qish, turli chiqishdarni tashkillashtirish asosida;

- ✓ Zarur ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'lgan va qiziqish uyg'ongan kishilar uchun bolalarni qanday qilib oilaga olish mumkinligi, oilaviy joylashtirish shakllari haqidagi yangi ma'lumotlarga ega bo'lishva axborot almashish imkonini bera oladigan elektron saytlarni yaratish;

- ✓ Hududning aholi ser qatnov joylarida banerlar, flesh-roliklarni joylashtirish;

- ✓ Internet-forum, radio va televidenieda ochiq muhokamalarni tashkillashtirish;

- ✓ Alohida hududlarga tegishli saytlarda bolalar uyi va ularga ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yordam turlari haqida maxsus konferensiyalar yaratish. Bu o'z navbatida nomzod tutingan ota-ona va patronat tarbiyachilarda paydo bo'ladigagn qiziqish sonining ortishi hamda bolalar haqida kengroq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

- ✓ Bolalarning muassasalarda tarbiyalanishining maqsadga muvofiq emasligi haqidagi maqola va ma'lumotlar: internat muassasa tarbiyalanuvchi-bituruvchilarining taqdirlari haqidagi hikoyalar; bolalarni bunday muassasalarda

tarbiyalashning iqtisodiy hisobi; yetim bolalarning bunday muassasalarda va oilada tarbiyalash samaradorligi borasidagi ijtimoiy tadqiqotlar – ulardan qanchasi jamiyatga moslasha oldilar, paydo bo'layotgan qiyinchilik va muammolar, qanday yashamoqdalar, ularning orzulari va h.k.

✓ yetimlik muammosini hal qilish va tutingan bola hamda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash borasidagi mahalliy, xorijiy tajribadan misollar;

✓ samarali natijalarga erishgan tutingan yoki patronat oilalar, asrab olingan va yetimlikda katta bo'lgan mashhur insonlar haqidagi hikoyalar;

✓ tutingan va patronat (yoki vasiylik va homiylik ostida) oilada, shuningdek institutsional muassasalarda tarbiyalanayotgan yetim bolalarning o'z hayotlari va orzu istaklari haqida hikoyalari;

✓ farzandlikka berish va jamoatchilik tarbiyasi mavzusi bo'yicha muammoli savollar: asrab olishning sir saqlanishi, muassasalarda bolalar sog'ligi va rivojlanishining xususiyatlari, voz kechuvchi onalar, ona mehridan mahrum bo'lgan bolalarning taqdiri.

Birinchi navbatda bolaning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

Ota-ona vafot etganda. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bola o'z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta'minlaydi.

Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda. OKning 79-moddasida ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqidan mahrum qilishi asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik, o'z bolalariga qanday bo'lmasin g'amxo'rlik qilmaslikni anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakatsizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

- uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Bu holat "tug'uruqxona va bolalarni davolash profilaktoriyasi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim";

- ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa. Ota-onalik huquqini suiste'mol qilish deganda, bu huquqlardan bolalarning manfaatlariga zid ravishda foydalanishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilikka undashni; uni spirtlik ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga undashni, jinoyat qilishda, jinoiy yo'l bilan daromad topishda voyaga yetmaganni jalb qilishni tushunmoq kerak, – deyiladi Plenum qarorida.

- muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarni muomalaga layoqati cheklangan deb tanilganidan qat'i nazar amalga oshirilishi mumkin;

- o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yohud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqini cheklanishi esa sud tomonidan bolaning manfaatlarini hisobga olingan holda, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmay turib, bola ota-onadan yoki ularning biridan olinishi to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilishi bilan amalga oshiriladi. Oila qonunchiligiga binoan, agar ota-onalik huquqi cheklangandan so'ng o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadi.

Ota-onasi kasal bo'lganda. Ushbu sabab ota-ona qaramog'idan bo'lishning ob'ektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdan mahrum qilish kabi). Og'ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog'lig'ini uchun xavf tug'ila boshlaydi. "Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi tomonidan ko'rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim". Bu fikrga qo'shilgan holda, shuni

ham aytib o'tmoqchimizki, kasal bo'lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g'amxo'rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o'z harakatlari oqibatlarini to'liq anglab etadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda.

Bunday hollarda ota-onaning o'ziga homiylik tayinlanishi lozim bo'ladi. Bolalar ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog'iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa. «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir. Ammo hayotda ba'zi sabablarga ko'ra bola ota-onasi g'amxo'rligidan ma'lum muddatga mahrum bo'lib qolishi mumkin. Odatda, vasiylik va homiylik qisqa muddatga emas, balki bola ma'lum yoshga yetgunga qadar tayinlanadi. Ushbu holat umumiy qoidadan mustasno bo'lib, bolaga nisbatan qisqa muddatga uning ota-onasi qaytgunga qadar – muddatga vasiy va homiy tayinlanishini nazarda tutadi. Lekin ota-ona bolalarini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga qoldirsalar, bolalarga vasiylik yoki homiylik tayinlash shart emas.

Ota-ona bedarak yo'qolganda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin.

Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiylk) tayinlash shakllari keng tarqalgan. Biroq, farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda, esa (ota-onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan mas'ul shaxs bo'lishi talab qilinarkan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga

joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homi) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homi) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiyl) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiyl)ka olgan shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (qomiy) bolani farzandlikka olgan hollar ham uchrab turadi.

Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa vasiylik va homiylik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiyl) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

Vasiylik va homiylik fuqarolik huquqi instituti sifatida namoyon bo'lganda ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan fuqarolik-huquqiy munosabatida ishtirok etishi lozim bo'lgan ayrim fuqarolar to'la muomala layoqati yoshiga yetgan bo'lsalar-da, o'zlarida mavjud bo'lgan ba'zi bir aqliy va ruhiy kamchiliklar tufayli muomalaga layoqatsiz bo'ladilar. Shuning uchun bunday shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etadigan bo'lsalar, o'zlarining xatti-harakatlarini lozim darajada yurita olmaydilar, chunki ular normal harakat qila olmaydilar, o'z ishlari yuzasidan munosib hisob bera olmaydilar, shuningdek manfaatlariga ziyon yetkazilayotganligini anglay olmaydilar. Bunday hollarda ularga nisbatan boshqalarning g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi. Bunday fuqarolar ustidan tegishli nazorat olib borish, ularga yordam berish va vasiylik qilish uchun maxsus kishilar hamda muassasalar jalb qilinadi.

Tizimli ravishda ichkilikka berilish va giyohvandlik vositalarini suiste'mol qilish tufayli o'ziga qarashli mulkni behuda isrof qiluvchi va oila a'zolarini tirikchilik mablag'laridan mahrum etuvchi shaxsning muomala layoqati sud yo'li bilan cheklanishi mumkin. Ularga nisbatan homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni o'zi mustaqil tuzishga haqli bo'lib, boshqa barcha mulkiy xarakterdagi bitimlarni tuzish, shu jumladan ish haqini ham tasarruf etish uchun homiysining roziligini olishi lozim.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik

huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqargandan keyin olti oy o'tgach, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

FPKning 199-moddasida prokurorning xulosasi berilgan bo'lib, unga binoan ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning to'la mohiyati bo'yicha o'z xulosasini berishi, prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida bergan arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar esa bundan mustasno ekanligi belgilanadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani bolalarni ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar birgalikda hal etilishi shartligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'riladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, vasiylik va homiylik organlari vasiylikka yoki homiylikka berilayotgan shaxs to'g'risida quyidagi hujjatlarni tayyorlab beradilar:

- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (pasport) nusxasi;
- ota-onaning o'limi haqidagi guvohnomalar nusxasi yoki ota-onasining yoki ulardan birining ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, muomalaga layoqatsiz

yoki muomala layoqati cheklanganligi yohud bedarak yo'qolgan deb topilganligi haqidagi sud qarori;

- ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan va ta'minotdan bo'yin tovlaganligi haqidagi, ota-onalarga qidiruv e'lon qilinganligi haqidagi hujjatlar, ichki ishlar, davolash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalarnig bolalarni ota-onasiz qolganligi to'g'risidagi dalolatnomalari;

- salomatligi to'g'risida tibbiy muassasaning xulosasi;

- vasiylik va homiylik organining bolani vasiylik yoki homiylikka olishni xohlayotgan oilaning maishiy turmush sharoitlari oila a'zolarining salomatligi va oilaning boshqa sharoitlari to'g'risidagi tekshiruv dalolatnomalari taqdim etilishi darkor.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish maslasini hal qiladi.

Voyaga yetmagan bolani, uning otasi yo onasini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan sudning hal qiluv qarori bilan uni ota-onasidan (ularning biridan) olib qo'yilishi ota-onalik huquqini cheklab qo'yish hisoblanadi. Bunday qaror bolaning manfaatiga qaratilgan bo'lib, ota yoki onaning voyaga yetmagan bolasini shaxsan o'zi tarbiyalashi huquqi cheklanib qo'yiladi.

Ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmasdan avval voyaga yetmagan bolani otasi va onasidan yoki ularning biridan olish haqida qaror chiqarilganda sud, avvalo bolaning manfaatini hisobga oladi.

Ota-onalik huquqini cheklash bolaning ota-onasi (ulardan biri)ga nisbatan qo'llaniladi, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar, tarbiyaga oluvchilar) ga nisbatan joriy qilinmaydi.

Ota yoki onaning ruhiy kasalligi, surunkali kasalga chalinganligi va boshqa og'ir holatlarni boshdan kechirishi sabablariga ko'ra, voyaga yetmagan bolaning tarbiyasi va hayoti uchun xatarli sharoit ota yoki onaning o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Bunday holda bolani ota yoki ona bilan qoldirish xavfli bo'ladi va shu sababdan ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Bundan tashqari ota va onaning yoki ulardan birining xulq-atvorida bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi tug'ilsa, ammo ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun yetarli asos bo'lmasa, bunday holda bolani ota yoki ona bilan qoldirmasdan ota-onalik huquqi cheklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi sudning qarori chiqqandan keyin ham voyaga yetmagan bolaning ota-onasi yoki ulardan biri o'zlarining xulq-atvorini yaxshilashga harakat qilmagan taqdirda, vasiylik va homiylik organi olti oydan keyin bunday ota yoki onani ota-onalik huquqidan mahrum etish to'g'risida sudga da'vo ariza bilan murojaat qilishlari shart. Bolaning manfaatini hisobga olib, vasiylik va homiylik organi olti oylik muddat o'tmasdan ham bunday ota-onani yoki ulardan birini ota-onalik huquqidan mahrum etish uchun sudga da'vo ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Voyaga yetmagan bolaning ota-onasining (ulardan birining) ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish va hal qilish uchun sudga da'vo ariza bilan murojaat qilish huquqi voyaga yetmagan bolaning yaqin qarindoshlari, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari voyaga yetmagan bolaning ota-onasini yoki ulardan birining ota-onalik huquqlarini cheklash uchun sudga murojaat qilish huquqi maktabgacha ta'lim-tarbiya, umumta'lim muassasalari va voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmalariga yuklatilgan boshqa organlar va muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar, albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvida ko'rilishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqishi bilan birga, voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun mablag' undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan

imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri) ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan me'ros olish huquqini saqlab qoladi.

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda bola vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beriladi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning yoki ulardan birining voyaga yetmagan bolalarini shaxsan o'zlari tarbiyalash huquqlari cheklanib qo'yiladi. Bundan tashqari ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan davlat tomonidan bolali fuqarolarga beriladigan imtiyozlar va nafaqalardan foydalanish huquqlaridan mahrum bo'ladilar.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalashga qaratilgan bironta ham harakatni amalga oshira olmaydilar. Masalan, ular bolalari uchun o'quv muassasalari va ta'lim olish shaklini tanlash, ularning shaxsiy xarakteriga ega bo'lgan huquq va manfaatlarini himoya qilish, o'z bolalari nomidan qonuniy vakillik vazifasini bajarish kabi huquqlarga ega bo'lmaydilar.

Ota-onalik huquqini cheklanishi munosabati bilan ota-ona tarbiyasidan olingan voyaga yetmagan bolalarning turar-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki turar joydan foydalanish huquqi saqlanadi. Voyaga yetmagan bolalar ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onalari, shuningdek qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan o'zlarining mulkiy huquqlarini, shu jumladan, me'ros olish va boshqa huquqlarini saqlab qoladilar.

Ota-onalarning har ikkalasining ham ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda, voyaga yetmagan bola tegishli tartibda joylashtirish uchun vasiylik va homiylik organiga beriladi.

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning bolasi bilan ko'rishishi unga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, bola bilan ko'rishishga ruxsat berilishi

mumkin. Ota-onaning bola bilan ko'rishishiga vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yohud vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola turgan muassasa ma'muriyatining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Ota-onalik huquqini cheklash oilaviy munosabatlarni butunlay tugatishni bildirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 85-moddasida ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishib turish huquqini hamma vaqt ham saqlab qoladi. Bunday bo'lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu hol kelajakda ota-ona va bolalar o'rtasida ko'ngilga xush yoquvchi munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bunday huquqdan cheklashda ota-onalarning aybi bo'lmasligini ham hisobga olish kerak. Ammo, bu huquqni amalga oshirish vasiylik va homiylik organining nazorati ostida va faqat vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki ona o'z bolasi bilan ko'rishishi va muloqotda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi uchun, albatta, vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola tarbiyalanib turgan muassasa ma'muriyatining roziligi ham talab qilinadi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota yoki onaning bola bilan muloqotda bo'lishi u bilan ko'rishib turishi, bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degna xulosaga kelgan holarda, vasiylik va homiylik organlari bundan ko'rishishga ruxsat bermasliklari yoki muloqotda bo'lishni man qilishlari mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Ikkinchidan, bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

9.4. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada "...barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar", deb belgilanadi. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanishi, o'z ota-onasini bilishi, ularning g'amxo'rlikidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bu huquq bolaga barkamol voyaga etish, sog'lom tan va tafakkurda, hech narsaga alishib bo'lmaydigan ota-onaning ko'z qarog'ida bo'lib, ularning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lish, tashqi olam-atrof bilan o'ziga eng yaqin kishilar hisoblanmish ota-onalari orqali bog'lanish, bu tufayli atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarni asl holida tushunishi, idrok qilish va xulosa chiqarish, o'zgaralar tajovuzidan, tahdididan munosib himoyalaniish imkonini beradi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida aytilganidek, "ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar". Qonunchiligimizning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri shundaki, u bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda agar oiladagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada ham "davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiylikidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi..." deb belgilanadi.

Ana shunday hollarda bolani farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 1997 yil 1 martda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hisoblanib, ushbu holatni qayd etish Fuqarolik holati hujjatlari (FHDYO) ni yozish organlariga topshirilgandi. Mazkur kodeksga 1998 yil 25 dekabrda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hujjatlari sirasidan chiqarilib, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish

kabi fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan ifodalanishi belgilandi.

Xo'sh, farzandlikka olish o'zi nima? U qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi?

Asosan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalar, ayni vaqtda faqat voyaga yetmagan bolalarnigina ularning manfaatlarini ko'zlab farzandlikka olinadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – vasiylik va homiylik organlaridir) tavsiyasiga ko'ra tuman (shahar) hokimi qarori bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari"da belgilanishicha, FXDYO organi qabul qilingan hujjatlar asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvoxnoma beradi. Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lmagan farq bilan o'zgartirilishi mumkin. Agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- qasddan sodir qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Qonun o'gay ota va o'gay ona tomonidan farzandlikka olish hollaridan tashqari holatlarda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmasligini shart qilib qo'yadi.

Farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka olinuvchi oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o'gay ota va o'gay ona, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustunlik huquqiga egadirlar. Qoida tariqasida, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi. Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, bunday hollarda xotin (er)ning roziligi ham talab etiladi. Shuningdek, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi ham talab etiladi. Ammo quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi:

- ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;
- ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Ayni vaqtda farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (shuningdek, qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan

shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, farzandlikka olish bekor qilinadi.

Shuni ham eslatish o'rinliki, farzandlikka olish fuqarolarning mutloq erki hisoblanib, farzandlikka oluvchiga majbur qilinmaydi. Shuningdek, farzandlikka olish sirini oshkor qilish tegishli ravishda jinoyat qonunchiligi bilan ta'qib qilinadi.

Bolaning hayoti va sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bola farzandlikka olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi bolani olish to'g'risida hujjat qabul qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.

Bolaning hayoti, sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganligi aniqlanganida, vasiylik va homiylik organlari, bolaning ahvolidan kelib chiqib, uning otasi (onasi) ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki cheklash masalasini hal qilish bilan birga bolani ushlab turgan shaxslardan, otasi yoki onasidan uni zudlik bilan ajratib olib, joylashtirish choralarini ko'rishga haqlidirlar.

Bolani uning otasi yoki onasidan, shuningdek, uni qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olish fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bolani ota-onasidan yoki qaramog'ida saqlab turgan shaxsdan ajratib olish uchun biron-bir asos bo'lsa, uning sog'lig'i yoki hayotiga oilada vujudga kelgan xavfli muhitning o'zi kifoya bo'ladi.

Bolani ota yoki onasidan yohud uni qaramog'idan asrab turgan shaxsdan ajratib olgan vasiylik va homiylik organi zudlik bilan bu haqda prokurorga xabar qiladi va bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirish choralarini ko'radi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan bolani olish haqida tegishli

hujjatlar rasmiylashtirilgandan keyin yetti kun ichida vasiylik va homiylik organi yoki prokuror da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishi kerak.

Davo arizada bolaga nisbatan uning ota yoki onasini yohud har ikkalasini ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash to'g'risidagi masalani hal qilish talabini qo'yadi.

Demak, bolaga isbatan uning otasi yo onasini yoki har ikkalasini ota-onalik huquqidan mahrum etish masalasini hal qilishdan oldin, xavf ostida qolgan bolalarni olish va tegishli joyga joylashtirish huquqi vasiylik va homiylik organiga berilgan.

Ayrim hollarda voyaga yetmagan bolalarning otasi yoki onasining ruhiy kasalligi ularning oilada yashashi va normat tarbiyalanishi uchun imkonyait bermaydi. Bunday ota-onalarni ham ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun hamma vaqt yetarli asos bo'lavermaydi. Ular faqat kasalliklari tufayli bolalarini tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarini ado etmaydilar. Ammo voyaga etmagan bolalarni bunday oilada qoldirish ham ular uchun xavfli muhitni tug'diradi. Bunday holarda, sud bolaning ota-onalarini ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan uni olib, tegishli tarbiya muassasalariga joylashtirish haqida qaror chiqarishi mumkin.

Bolalarni ota-onasidan yoki qaramog'ida bo'lgan boshqa shaxslardan olish masalasi sud tomonidan da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladi. Bolani olish haqidagi da'vo ariza vasiylik va homiylik organi tomonidan, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan, bolani vasiy yoki homiysi, ota-onalardan biri va prokuror tomonidan berilishi mumkin. Bunday da'vo ishlari albatta, vasiylik va homiylik organi hamda prokurorning ishtirokida ko'rilishi kerak.

Sud tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolar ko'rilayotganda, bolaning himoyasi uchun kim da'vo taqdim qilganligidan qat'i nazar, ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi kerak.

Vasiylik va homiylik organi bolaning hamda uni o'z tarbiyasiga berishni talab qilayotgan shaxs (shaxslar)ning turmush sharoitlarini tekshirishi va tekshirish

natijalarini hamda unga asoslangan nizo mohiyatiga oid xulosasini sudga taqdim qilishi shart.

Ota-onadan birining yoki har ikkalasining o'rtasida vujudga kelgan bola tarbiyasi bilan bog'liq nizolar voyaga yetmagan bolalar tarbiyasini nazorat qiluvchi va bolalar huquqini himoya qilish majburiyati zimmlariga yuklatilgan organlarning, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining, shuningdek prokurorning talabiga asosan ko'riladi.

Birinchi navbatda bola tarbiyasiga oid nizolar vasiylik va homiylik organi tomonidan ko'rilishi mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining bola tarbiyasiga doir qarorlari bajarilmagan hollarda, masala sud tartibida ko'rib chiqiladi.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onalarning voyaga etmagan o'z bolalarini tarbiyalash bilan bog'liq majburiyatlarini qanday bajarayotganlari ustidan nazorat olib borish bilan birga, ularga o'z ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadilar.

Zarur hollarda voyaga etmagan bolalarga o'z huquqlari va majburiyatlarini himoya qilishda yordamlashadilar.

Vasiylik va homiylik organlari nafaqat o'zlari qo'zg'atgan ishlari bo'yicha, balki boshqalar tomonidan qo'zg'atilgan ishlarni ko'rilishida, bolalarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish borasida sud jarayonida ishtirok etib, xulosa berishga majburdirlar.

Voyaga yetmagan bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq barcha nizolarni sudda ko'rish jarayonida vasiylik va homiylik organlari ishtirok etib, bola tarbiyasida turgan shaxsning va bolani o'z tarbiyasiga berishni talab qilgan shaxsning turmush sharoitlarini, xulq-atvorlarini, bolaga yetarli tarbiya berish imkoniyatlari va qobiliyatlari bor-yo'qligini tekshirib, nizo mohiyatiga oid asoslantirilgan xulosani taqdim etishlari kerak.

Sudlarda ko'riladigan oilaviy munosabatlarga doir fuqarolik ishlarining ancha qismini bola tarbiyasiga oid ishlar tashkil etadi. Bunday ishlarni ko'rish bilan sud, nafaqat, ota-onalarning huquq va majburiyatlarni aniqlaydi, balki voyaga

yetmagan bolalarning taqdirini belgilovchi masalalarni, bolaning manfaatlarini hisobga olib, uni u bilan yashashi, uning tarbiyasini kimga ishonish mumkinligi masalasini ham hal qiladi.

Voyaga yetmagan bolalar tarbiyasi taqdirini hal qilishda ularning o'zlari o'z huquqlarini himoya qila olmaydilar, chunki hali muomala layoqatiga ega emaslar. Ularning ota-onalari esa, sudda taraf sifatida ishtirok etib, o'zlarining shaxsiy huquq va manfaatlarinigina himoya qiladilar. Ularning harakati voyaga etmagan bolalarning huquq va manfaatlarini bilan hamma vaqt ham mushtarak bo'lavermaydi va ular bolalarni tegishlicha tarbiyalashni ta'minlay olmaydilar.

Shuning uchun voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalashga doir ishlarni ko'rishda vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ular davlatning vakolatli organi sifatida ota-onalar tomonidan va boshqa shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash vazifalarini bajarish ustidan nazorat olib boradilar.

Quyidagi nizolar bola tarbiyasi bilan bog'liq hisoblanadi: alohida-alohida turgan ota-onalar o'rtasida voyaga yetmagan bolalarning kim bilan turishi masalasiga doir nizolar; qonunga asoslanmagan yoki sud qarori bilan belgilanmagan tarzda noqonuniy ravishda ushlab turilgan bolalarni qaytarib olish haqidagi ota-onalarining talablari; ota-onalik huquqidan mahrum qilish; ota-onalik huquqini tiklash; ota-onalik huquqini cheklash; ota-onalik huquqini cheklashni bekor qilish; ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan ota-onasidan bolani olish; farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish; farzandlikka olishni bekor qilish va boshqa ishlar.

Voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash huquqi bilan bog'liq nizolarni, voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash uslubi to'g'risidagi ota-onalar o'rtasidagi nizolar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Bolani tarbiyalashda qo'llaniladigan uslub, ayrim hollarda, bolani tarbiyadan olish uchun asos bo'lishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organlarining sud jarayonida ishtirok etishi taraflarning, ya'ni ota-onalarning turmush sharoitini va ulardagi bolalar tarbiyasi uchun yaratilgan imkoniyatlarni tekshirib xulosa berish va ish bo'yicha tegishli fikr bildirish bilan chegaralanadi.

Bunday tekshirish va xulosa berish sudning topshirig'i bilan yoki vasiylik va homiylik organining o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, birinchidan, ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqlari cheklanishiga asos bo'lgan holatlar barham topsa, sud ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan, bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Ikkinchidan, ayni vaqtda bolani qaytarish uning manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olib, da'voni qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

X Bob. Ijtimoiy ish (yordamga muhtoj bolalar bilan qonunni buzishga bo'lgan moyillik profilaktikasi) bo'yicha mutaxassis faoliyatining o'ziga xosligi

10.1. Bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari. Bola ijtimoiylashuviga omillar ta'siri. Shaxs tushunchasi

Tarbiya jarayonining markaziy figurasi – bu bola va uning shaxsi hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bola umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga muvofiq shaxsiy madaniyat asoslari, uning negizini egallaydi. Shaxsiy madaniyat tushunchasiga bolaning atrof borliqdagi to'rtta asosiy soha: tabiat, inson qo'llari bilan yaratilgan predmetlar, ijtimoiy hayot ko'rinishlari, shaxsiy hayot va faoliyati ko'rinishlari kiradi. Inson ma'naviyati, madaniyati negizi – bu odamdagi shaxsiy insoniy boshlanish, umuminsoniy qadriyatlar (ezgulik, halollik, go'zallik, haqiqat va h.k) va hayotiy faoliyat vositalari (borliq to'g'risidagi tasavvurlar, dunyoga ta'sir ko'rsatish, voqea-hodisalarga hissiy baholovchi munosabat) majmuasidir.

Insonning rivojlanishi juda qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi. Rivojlanish har qanday tirik organizmga, shu jumladan insonga ham xosdir. Rivojlanish tashqi va ichki omillar ta'siri ostida bo'ladi.

Tashqi omillarga: Insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, bolalarda ma'lum shaxsiy jihatlarni shakllashtirishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan faoliyat kiradi.

Ichki omillarga: biologik omillar kiradi. Insonning rivojlanishiga ta'sir qiladigan omillar boshqariladigan va boshqarilmaydigan bo'ladi. Bola rivojlanishi jarayonida turli faoliyatlarga duch keladi: o'yin, o'qish, mehnat, sport va boshqalar, turli kishilar bilan muloqotda bo'ladi: ota-onasi, aka-ukasi, qarindoshlari, do'stlari va boshqalar bilan.

Turli faoliyatlarda turli insonlar bilan muloqotga kirishish natijasida bolada ijtimoiy ko'nikmalar hosil bo'la boshlaydi. Bolaning normal rivojlanishi uchun muloqotning ahamiyati juda kattadir. Atrofdagilar – kattalar va tengdoshlar bilan

muloqot o'rnatish, ularning bahosi asosida bolada o'z-o'zining obrazi, Men, obrazi yuzaga keladi. Ijtimoiy rivojlanishning bu jihati bolada ma'naviy tasavvurlar va yetuk tuyg'ular, axloq me'yorlari shakllanishiga ko'maklashadi.

Axloq qoidalarining shakllanishi har kungi tartibli mashg'ulotlar jarayoni, barcha turdagi bolalar faoliyatida sodir bo'ladi. Ma'lumki, bolalarda taqlid qilish qobiliyati rivojlangan bo'ladi, ammo ba'zida axloq, xatti-harakatlarning ma'naviy mazmunini to'liq anglay olmaydilar. Shuning uchun ma'naviy tajriba va axloqiy qoidalarni o'rganish: kattalarga hurmat, tengdoshlarga ijobiy munosabat, atrof-muhit, tabiat, buyumlarni asrash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berish zarur.

Bolaning ijtimoiylashuviga ekologik omillar: suv, havoning ifloslanishi ham ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda salbiy ekologik omillar tayanch apparatining buzilishini, shizofreniya, qon kasalliklari kabi kasalliklarga olib kelmoqda, bolani ijtimoiylashish jarayonida bularning hammasini hisobga olish talab qilinadi.

Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) – uzluksiz va ko'p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va o'smirlilikda jadal kechadi. Agar bu jarayonni obrazli qilib uy qurilishi deb tasavvur qilsa, unda aynan bolalikda butun binoga poydevor qo'yiladi va quriladi. Keyinchalik butun umr davomida faqatgina pardoqlash ishlari olib boriladi.

Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda sodir bo'ladi.

Shaxs sotsializatsiyasining makro (grekcha makros «katta»), mezo – (mekos «o'rta») va mikro (mikros «kichik») omillarini farqlaydilar.

Makro omillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar: ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va b.

Mezo omillar – etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z xalqi tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va

rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikro omillar – yashash joyi va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. Mana shu eng kichik muhitni, ya'ni bola o'sadigan muxitni *sotsiumyokimikrosotsium* deb ataladi.

Sotsium (kichik muhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin o'zlashtiradi. Boshida u (bola), asosan, oilada rivojlanadi, so'ng yangi muhitlarni o'zlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o'rtoqlar davrasi, diskotekalar va h.k. Yoshi ulg'aygani sari bola tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy muhit «hududi» tobora kengayib boradi.

Bolaning sotsiumda rivojlanishiga ijtimoiy maqomning ta'siri juda katta bo'ladi. Ijtimoiy maqom *tug'ma, orttirilgan* bo'ladi.

Tarbiya tarixan vujudga kelgan ijtimoiy hodisa bo'lib, xulqni boshqarish va belgilash kabi bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha o'rinlarni egallashi mumkin. Masalan, ayol kishi o'qituvchi, rafiqa, ona, qiz bo'lishi mumkin. Xayotiy davrlarda egallagan o'rni insonga muayyan bir talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu *ijtimoiy maqom* deb ataladi.

Ba'zi bir maqomlar bizga tug'ilishimizdan beriladi. Insonning ijtimoiy maqomi jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillardan kelib chiqadi. Bunday maqomlar *tug'ma* yoki *berilgan* deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson talab etilgan bilim yurtida o'qigani, kasbiy tayyorgarlikni o'tib, asoslovchi hujjatga ega bo'lgani uchun oladi. Bu *erishilgan* yoki *olingan* maqom deb ataladi.

Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini belgilaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra tutadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya'ni inson muayyan bir rolni o'ynashga majbur. Masalan: ish faoliyatida xodim yoki rahbarga xos, shaxsiy xayot faoliyatida esa ota-ona, farzand, aka-uka, do'st va h.k.ga xos intizomiy, kommunikativ harakatlar bajariladi. Shuning uchun inson maqomidan kelib chiqib kutilayotgan intizomiy harakat ijtimoiy rol deb ataladi.

Jamiyatda ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar xam mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rolli maqomlar: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'g'il yoki qiz, aka va singil, nevara), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, yetakchi), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va h.k), fuqaro (vatanni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muxandis va h.k).

Negativ rolli maqomlar: jinoyatchi, turli zararli odatlar (ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishalik va h.k).

Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Individningbunday shart-sharotga moslashib ketishi jarayoni *ijtimoiy moslashuv* deb ataladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Aniqrog'i, har bir odamning mehnatga, kishilarga, jamiyatga nisbatan munosabati ham turlicha ifodalanadi. Shaxsning axloqiy va faollik darajasiga xos sifatlari ham uni boshqalardan ajratib turadi.

Shaxs haqida gapirilganda tabiiy holatda shunday savol tug'iladi. Har qanday odam shaxs bo'la oladimi, inson shaxs bo'lishi uchun nimalar qilishi kerak? Bu savolga shunday javob berish mumkin. Insonning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun eng avvalo ijtimoiy hayot tajribalari va yaxshi

tarbiya kerak bo'ladi. Ana shunday omillar ta'siri ostida inson rivojlanadi va shaxsga aylanadi.

Pedagogika sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlarning ko'p yillik izlanish natijalari asosida insonning rivojlanishiga quyidagicha ta'rif berishadi: oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi va eskining o'lib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga olib keluvchi murakkab harakat jarayoni deb qaraydilar. Zero, hayot qonunlarining ko'rsatishicha ham rivojlanishning asosiy manbai qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Insonning munosabatlar doirasiga nafaqat o'zga kishilar bilan aloqasi, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga, mehnatda bo'lgan munosabatlari ham kiradi.

Individning jamiyatga kirishi murakkab jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, individga jamiyat a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatish imkonini beradigan muayyan qadriyatlar tizimini (normalar, namunalar, bilimlar, tasavvurlarni) o'zlashtirib olishni o'zichiga olsa, ikkinchi tomondan, shaxsning o'z ijtimoiy tajribasini orttirishi va o'zini faol qaror toptirishini o'z ichiga oladi.

Har bir insoning shaxsi ta'lim, ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vazifalarni bajaradi, ijtimoiy rolni o'zlashtirib oladi, o'z qiziqishi, qobiliyatini ijodiy mulohaza qilib ko'radi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi.

Shaxsning ijtimoiylashuvini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uning ijtimoiy faolligi va harakatchanligidir.

Ijtimoiy faollik – bu shaxsning jamiyat ishlarida ongli ishtiroki, ularning borishiga ma'lum darajada ta'sir o'tkaza olmasada, uni o'zgartirish imkoniyati tushiniladi.

Shunday qonuniyat mavjud: inson bo'lib tug'iladi, shaxs bo'lib shakllanadi.

Shaxs – ijtimoiy hodisa. U vaqt bilan chambarchas bog'liq va insonda tarixan nima bor bo'lsa, shularni aks ettiradi¹.

Shaxs fazilatlari – tug'ma qobiliyat emas, u meros bo'lib qolmaydi, lekin ijtimoiy – madaniy taraqqiyot natijasida yuzaga keladi.

Hayotda o'z nuqtai nazariga ega, bunga o'zi ustida ko'p ishlagan, ijtimoiy xodisa va muloqotni anglagan odamlar shaxs deb e'tirof etiladi.

Shaxs shakllanishi – jamiyada inson o'z o'rnini topish jarayonidir. Shaxs o'z-o'zini shakllantirish, nazorat qilish va baholashga qodir sanaladi.

Shaxs bo'lish – faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish demakdir. Shaxs bo'lish – ichki zaruriyat natijasida yuzaga keluvchi tanlovni amalga oshirish, qabul qilingan qaror oqibatini baholash, ular uchun o'zi va jamiyat oldida javob berishdir. Shaxs bo'lish – tanlov erkinligiga egalik va butun umrini muhofaza qilishdir.

Shaxsning xarakterli qirralari

Shaxs majburiy ijtimoiy fazilatlar to'plashga ega. Bular: individduallik, onglilik, mas'uliyat, xarakter va temperament, faollik va maqsadga intiluvchanlik, o'z-o'zini nazorat va tahlil qilish, yo'nalganlik va iroda.

Individuallik – muayyan insonning mukammal fazilatlari hisoblanadi.

Onglilik – xatti-harakat va faoliyat natijalarini mas'uliyat bilan oldindan ko'ra olish qobiliyati.

Temperamentlik – insonning psixologik individual qobiliyati. Bu individning psixik faoliyatining nerv-dinamik xususiyatlari jihatidan tavsifidir. Temperament hissiy jarayon, xususan bola yoshida namoyon bo'ladi. Yosh o'tishi bilan hissiyot va intellektual faoliyat inson xarakterini belgilaydi.

Xarakter temperament ijtimoiylashuvi natijasida shakllanib, murakkab psixik xosila sifatida ko'psonli shaxs xususiyatlaridan iborat. Xarakter insonning o'ziga va jamiyatga munosabatida namoyon bo'ladi. U faqat bir odamga xos tushuncha. Masalan, qat'iyat, sezgirlik, jasurlik, xushmuomalalik muayyan inson uchun xos. Ularning qaysidir biri yetakchi bo'lib, qolganlarini o'ziga bo'ysundirishi mumkin.

¹ Умумий социология. Муаллифлар гуруҳи. Т. 2000.

Faollik – insonni o‘rab turgan olam bilan o‘zaro harakati omilidir. Insonda ichki va tashqi faollik mavjud. Ichki faollik – inson o‘zini shakllantiruvchi ishini amalga oshiradi. Tashqi faollikda o‘zi uchun qiziqarli bo‘lmagan ishni bajaradi.

Maqsadga intiluvchanlik bu insondagi ko‘zlangan maqsadga erishish qobiliyati hisoblanadi.

Yo‘nalganlik – dunyoqarash, ruhiy ehtiyoj va ishda namoyon bo‘luvchi inson xatti-harakatlari tendensiyasi.

Iroda – insonda mashaqqat, to‘siq, maqsad yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qodirligida namoyon bo‘luvchi xislat.

Shaxs rivojlanishi. Bu fazilatlarning har biri bir xil ahamiyat va qiymatga ega. Inson rivojlanishi – davomiy murakkab jarayon natijasi bo‘lib, uning borishida inson biologik, psixik va ijtimoiy xususiyatlarini o‘zgartirib boradi. Bu xususiyatlar ta’lim-tarbiya ta’sirida shaxs shakllanishi jarayonida sodir bo‘ladi. Tarbiya shaxs rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

U insonni individual jamiyat mavjudoti sifatida shakllanishini belgilaydi. Masalan, Mauglini shaxs deb bo‘lmaydi, u nutq qobiliyati, muloqot, insonga xos fazilatlardan mahrum. Olimlar bu jarayonni noma’lum deb hisoblaydi.

Chaqaloq muayyan iqtidor va qobiliyatga layoqatli holda tug‘iladi, lekin uni qay darajada takomillashuvi tabiat va muhitga bog‘liq.

Muhit – bu jaxondagi global voqealar, hodisalar, iqtisodiy hodisalar, stixiyalar, jamiyat va bola yashayotgan mamlakatdagi hodisalardir. Bu diniy ta’sir, ko‘cha, tengdoshlar, maktab, klub, nomaktab muassasalar ta’siridir.

Tashkillanishiga ko‘ra muhit turlari quyidagicha farqlanadi:

1. Tabiiy va sun’iy ta’lim beruvchi muhit.
2. Predmetli va axborot-dinamik muhit.
3. O‘yinli, mashq qildiruvchi va shakllantiruvchi muhit.
4. Shakllantiruvchi axborot-dinamik muhit – shaxs ijtimoiylashuvida uning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olingan holda zaruriy muhitni tashkil etilishi ko‘zda tutiladi.

Muhit ta'sirida inson jismonan, ruhan, ma'nan va aqlan o'zgaradi. Rivojlanish jarayonida bola shaxsga aylanadi. Uning organizmi va psixikasi muhit, oila va tengdoshlar ta'sirida o'zgaradi.

Merosiylik va rivojlanish. Shaxs takomili uchta omilga bog'liq: me'rosiylik, muhit va tarbiya. Merosiylik – bu insonning jismoniy, biologik xususiyati, uning organizmi irsiy belgilaridir. Teri rangi, ko'z, soch shakli, tana tuzilishi, asab tizimi va fikrlash xususiyatlari.

Inson iqtidori va qobiliyati xam merosdan merosga o'tadi. Shaxs shakllanishi boshqa masala bo'lib, u turmush sharoiti va tarbiyaga bog'liqdir. Lekin biologik farq insonlarda tug'ilgandan mavjud bo'ladi.

Inson bo'lib tug'ildi, lekin inson bo'la olmadi.

Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida bir qancha dalillar qayd etilgan. Rim asoschilari Romul va Rem afsonaga ko'raona bo'ri tomonidan emizilgan, Maugli bo'rilar to'ldasida tarbiyalangan. Inson bolalarini bo'rilar bilan boqilganining 15 holati, ayiqlar – 5 holat, maymunlar – 10 holat, leopard – 1 holat, qo'y – 1 holati ma'lum.

Muhit va merosiylik shaxs shakllanishiga teng ta'sir qiluvchi omil sifatida e'tirof qilinadi.

Inson bolasi, agar ijtimoiy – insoniy muhitdan chetda bo'lsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanib qolishi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakatning bo'lmasligi 1920 yilda Hindistonlik doktor Rano Singx tomonidan kuzatilgan. Kalkuttaning janubi-g'arbidagi shaharcha yaqinidagi bo'ri uyasidan topib olingan Kamola, Amalalarning taqdirleri bunga yorqin dalildir. Demak, shaxs shakllanishida asosiy omillardan biri bo'lgan muhit masalasiga ijtimoiy pedagog jiddiy e'tibor qaratishi talab etiladi. Shu bilan birga bolaning shaxs sifatida shakllanishida uning oiladagi ahvoli, qarindoshlari, mahallasi jamiki ijtimoiy institutlarning ta'siri o'rganiladi.

Bola uchun muhit nima? Bolaga oila, ko'cha, maktab, mahalla va televizor katta ta'sir o'tkazadi.

Ko'cha – katta ahamiyatga molik omil. Ota-ona va o'qituvchilarda «ko'cha» so'zi asabni qo'zg'aydi. Vaholanki, bola bir kunda ko'chada bir necha soat vaqtini o'tkazadi, xolos. Ko'chada bola tevarak-olamni anglaydi. U yashayotgan joy uning dunyo qarashini belgilaydi. Bu yerda harakter shakllanadi.

Shaxs shakllanishida bolaning o'zini namoyon qilish, tarbiyalash, mustaqil ta'lim olish, ta'sirlanish qobiliyatini hisobga olish muhim.

Ijtimoiy ta'lim va tarbiya tizimidan o'tgan har bir odam – shaxs sifatida shakllanadi.

Ijtimoiylashuvining samaradorligini (odamning ijtimoiy jarayonlarga to'la-to'kis qo'shilganligini) bildiruvchi eng muhim ko'rsatkich ijtimoiy faollik va harakatchanlikdir.

Ijtimoiy faollik – shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda qatnashishi, ularga ta'sir ko'rsatish imkoniyatining mavjudligidir.

10.2. Bolalar uylaridagi ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari: jismoniy tarbiya, ma'naviy-ahloqiy tarbiya, vatanparvarlik

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida ularni milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyat muayyan millatning avloddan-avlodga o'tib, uzoq vaqt saqlanib kelgan axloqiy normalari, g'oya va diniy e'tiqodi, urfodat va marosimlarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyalanuvchilar ijtimoiy hayotda yorqin, mo'tadil kun kechirishlari uchun o'z faoliyatlarini milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tashkil etishlari lozim. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar garchi, yozma manbaalarda ifodalanmagan bo'lsada, jamiyat tomonidan tan olinib, og'zaki shaklda ma'naviy-axloqiy munosabatlarni tartibga soladigan me'yorlarni ifodalaydi.

Bu jarayonda quyidagilar o'ziga xos o'rin tutadi:

1) Atrofdagilar bilan o'zaro muloqot va oldi-berdi munosabatlarini tashkil etish shartlaridan xabardor bo'lish.

2) Jamoa joylari hamda ta'lim muassasalarida umumiy axloq me'yorlariga rioya qilish.

3) Jamiyat (davlat)da amal qilinadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy-axloqiy talablarga og'ishmay amal qilish.

4) Tabiatga (moddiy borliqqa) oqilona munosabatda bo'lish.

Bu o'rinda dastlab tarbiyalanuvchilar kishilarning o'zaro salomlashishlari, uning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'ladilar.

Tarbiyalanuvchilar jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida axloq mezonlariga rioya etishlari lozim. Xo'sh, axloq mezonlari o'zi nima? Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilarida qanday ma'naviy-axloqiy hislatlarni shakllantirish taqozo etiladi? Ana shu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mohiyatida nimalar aks etishi kerak? Quyida shu kabi savollar yuzasidan so'z yuritiladi. Insoniyatning fikrlay boshlashi, yaxshi-yomonni ajrata olishi muayyan jamiyatda kishi munosabatlarini tartibga soladigan axloq mezonlari, qoidalarining ishlab chiqilishiga zamin yaratdi.

Axloq (lotin. «moralis» – qoidaga, xulq-atvorga, urf-odatga taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, me'zonlar, «ijtimoiy ong» shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.

Shaxslararo munosabatlarda axloq xususiyatlari qay tarzda va qanday shakllarda namoyon bo'ladi? Mazkur masala yuzasidan ma'lumot beruvchi manbalarda bildirilgan fikrlarni quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Axloq ijtimoiy shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi;
2. Shaxslararo munosabatlar mazmunini belgilashga xizmat qiladi;
3. Ma'naviy-axloqiy me'yor (mezon)lar xuddi qonun, huquqiy me'yorlar kabi yozma ravishda tartibga solinmaydi;
4. Axloq jamoatchilik fikri bilan boshqariladi;

5. Shaxsning ma'naviy-axloqiy me'zonlarga rioya qilishi uning milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatini, jamiyatdagi o'rni va rolini, shuningdek dunyoqarashini belgilaydi;

6. Axloq shaxsga xos xislatlarning muhim tomonini ifodalaydi;

7. Shaxsning umumjamiyat tomonidan tan olingan qadriyatlarini, ya'ni boshqalar sub'ektlarning xaq-huquqlarini tan olish, ular bilan kelishish, jamoada o'zini tuta bilish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Axloqiy ong – axloqiy xatti-harakatlar va munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Axloqiy his-tuyg'u, iroda, aql-zakovat, intuitsiya, hayol va xotira kabilar axloqiy ong tarkibini tashkil qiladi.

Mehribonlik uylari o'quvchilarini milliy, ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda ijtimoiy ish xodimining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, kamol toptirish va qo'llab-quvvatlash;

- tarbiyalanuvchilarni to'liq ruhiy sog'lomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirishga va jamiyatga uyg'unlashtirishga ko'maklashadigan, ularning sifatli ta'lim va tarbiya olishi, shuningdek ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uy sharoitiga yaqinlashtirilgan muhitni yaratish;

- tarbiyalanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlari ijtimoiy-huquqiy himoya qilinishini ta'minlash;

- tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'ligi, psixologik va jismoniy rivojlanishi himoya qilinishini ta'minlash.

- tarbiyalanuvchilarni jamiyatning yetuk a'zolari sifatida ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash, ular tomonidan muayyan kasb yoki hunar sirlarini o'zlashtirilishiga erishish, keskin raqobatlariga bardosh bera oladigan darajada ruhan kamol topishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini belgilashdan iboratdir.

Mehribonlik uylarida ijtimoiy tarbiyani tashkil etishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu tarbiyalanuvchilarning etnik-milliy kelib chiqishi nuqtai nazaridan ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sanaladi. Respublikada

faoliyat yuritayotgan deyarli barcha Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari turli millat va elatlarga mansubdirlar. Tarbiyalanuvchilarning baynalminallik ruhida tarbiyalanishlari, ularda tolerantlik hissining shakllanishi ijobiy holat, albatta. Biroq, psixologik nuqtai nazaridan shaxs o'zida milliy ruhiyat, milliy mentalitet xususiyatlarini ifodalay olishi ham zarur. Shu sababli mazkur ta'lim muassasalarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mazkur masalaning ijobiy yechimini topish chora-tadbirlarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

«Mehribonlik uylari»da tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-axloqiy qoidalar bilan tanishtirib borishi ularning axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalanishlariga zamin yaratadi. Zero, tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-axloqiy qoidalarning yetarli darajada anglanishi ularga zid xatti-harakatlar sodir etilishining oldini oladi. Shu sababli, muassasada tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida masalaning mazkur jihatiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilar quyidagi yo'nalishlardagi ijtimoiy-axloqiy qoidalardan xabardor bo'lishlari kelgusida ularning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida muhim ekanligi aniqlandi:

1. Shaxslararo munosabat va muloqotni to'g'ri tashkil etish.
2. Mehnat va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish.
3. Ta'lim muassasasi hayoti (faoliyati)ni yo'lga qo'yishda ishtirok etish.
4. Maishiy turmushni yo'lga qo'yish.
5. Jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish.

Zamonaviy jamiyatda yetim bolalar va bolalarni ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvlarini ta'minlash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqil hayotga qadam qo'yishning dastlabki bosqichida har qanday o'spirin ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj odatda oila muhitida qondiriladi. Biroq, ota-onasiz yoki ularning qarovidan mahrum bo'lgan bolalar va o'smirlarni mustaqil hayotga to'laqonli shaxs sifatida tayyorlash davlat va jamiyat tomonidan katta kuch sarflanishini talab qiladi.

Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirish tarbiya va ta'lim ishlari o'zaro muvofiqlikda olib borilgandagina ta'minlanadi.

Bolalar uylarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish sanaladi. Buning uchun oila munosabatlarini o'zida ifoda etuvchi tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbirlar jarayonida ular kattalarning kichiklar to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari, kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ota-onani hurmat qilish, ota-onalar, oilaning katta a'zolari bilan samimiy munosabatda bo'lish, bir-birlarini tushunish hamda o'y-kechinmalarini hurmat qilish kabi fazilatlarni o'zlashtira olishlari lozim.

Maxsus muassasalarda tarbiyalanyotgan bolalar va o'smirlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ya'ni:

1) ota-onasi yoki ulardan biri vafot etganligi, oila boquvchisidan ajralganligi, baxtsiz xodisalar ruy berganligi uchun yetim bo'lib qolgan bolalar va o'smirlar;

2) ota-onasi bor bo'lsada, biroq, ularning ota-onalik huquqidan mahrum etilganliklari, nosog'lom turmush tarzini o'zlashtirganliklari, farzandlarining hayoti va taqdiriga befarq munosabatda bo'lishlari natijasida «qarovsiz» deb topilgan bolalar va o'smirlar.

Mehribonlik uylarida bolarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish vazifalari, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkillash, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash ishlari ijtimoiy ish xodimi va psixolog bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiriladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining shaxsini to'la o'rganilgandan so'ng ularga ko'rsatiladigan psixologik yordam turini aniqlab olish lozim. Mehribonlik uyining psixologi o'z faoliyatini asosan quyidagi yo'nalishlarda olib boradi:

1. Psixologik ma'rifat va tashviqot ishlari.
2. Psixologik profilaktika.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik korreksion rivojlantirish ishlari.
5. Psixologik maslahat.
6. Kasb-hunarga yo'naltirish va oilaviy hayotga tayyorlash.

Mehribonlik uylarida amaliy psixologi quyidagi vazifalarni bajara olishi lozim:

- boshqa mutaxassis (tarbiyachi, pedagog, defektolog, raxbarvax.k) larning bilimlarini, salohiyatini, qobiliyatini hurmat qilgan holda hamkorlikda ish olib borish;

- zamonaviy psixodiagnostika uslublaridan foydalanish qoidalari bilan doimo tanishishlari va muntazam malakalarini oshirishga e'tibor qaratish;

- ish jarayonida e'tiborlilik, tashkilotchilik, javobgarlik hissi, analitik aql, emotsional barqarorlik, obrazli eslash qobiliyati, yaxshi nutq, mantiqiy tafakkur, eruditsiya (keng ma'lumotga ega bo'lish), chidamlilik kabi kasbiy sifatlarga ega bo'lish;

- kasbdagi umumiy axloqiy me'yorlar, ya'ni shaxsga hurmat bilan qarash, inson huquqlarini himoya qilish, tarbiyalanuvchilarga nisbatan samimiy bo'lish, psixologik uslublarni qullashda va suhbat jarayonida ehtiyotkor, faoliyat jarayonida esa qat'iyatli bo'lish va maqsadga erishish kabi tamoyillarga asoslanib ish ko'rish.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishidan biri tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashdan iborat. Zamonaviy tibbiy va psixologik adabiyotlarda yopiq tipdagi ta'lim muassasalari (Mehribonlik uylari, maxsus maktablar)da tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarda oilaviy munosabatlar imkon qadar aks etmasligi zarur ekanligi ta'kidlanmoqda. Oilaviy g'amxo'rlikdan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlashning zamonaviy ijtimoiy texnologiyasi nuqtai nazardan «Bolalar uylarining ijtimoiy pedagoglari faoliyati tarbiyalanuvchilarda ular bilan aloqada bo'lib turgan (*vaqti-vaqti bilan yozishmalar yuborayotgan, kamdan-kam holatlarda uchrashuvlarga kelayotgan*) shaxslar – yaqin kishilari (*ota-onalari bu hukuqdan mahrum etilgan, mahsus muassasalarda jazo muddatini o'tayotgan, tibbiyot muassasalarida davolanayotgan bo'lsalar ham*) va qarindoshlariga nisbatan munosabatni optimallashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, tarbiyalanuvchilar doimo ota-onalari va qarindoshlari bilan munosabatda bo'lishga intiladilar.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasida oila va oilaviy hayot to'g'risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni samarali targ'ib etishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Pedagogik faoliyat shakllari:

- suhbat;
- uchrashuv
- savol-javob;
- mini ma'ruza;
- bellashuv;
- bahs-munozara;
- debat;
- trening.

2. Pedagogik faoliyat metodlari:

- og'zaki bayon qilish, tushuntirish;
- namuna ko'rsatish;
- ko'rsatmali namoyish etish;
- amaliy mashg'ulotlar.

3. Pedagogik faoliyat vositalari:

- nutq;
- namuna;
- o'zaro muloqot;
- oila va oilaviy hayot to'g'risidagi ma'lumotlar;
- maxsus va badiiy adabiyotlar, o'quv manbalari;
- ommaviy axborot vositalari xizmati;
- texnik vositalar.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularga sog'lom turmush tarzi va uning muayyan qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham o'ziga xos dolzarb xususiyat kasb etadi. Bu borada tarbiyalanuvchilarda quyidagi ko'nikmalarni hosil qilishga e'tibor qaratilishi zarur:

- sog'lom turmush madaniyati asoslari to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash va topish (o'quvchi-murabbiylar tomonidan taqdim qilingan materiallarni o'zlashtirish, lug'atlar va kitoblardan tegishli ma'lumotlarni olish, imkon doirasida barcha vositalardan axborot olish);

- Pedagoglar kuzatuvda sog'lom turmush madaniyatiga tegishli har qanday voqelik va jarayonlarni kuzatish, qayd etish, o'qish, yozib olish va o'zlashtirish;

- Sog'lom turmush madaniyati asoslari haqida ma'lumotlarni bevosita qabul qilish, tanlash, tahlil qilish va baholash, ularni saralay olish;

- O'z faoliyatini o'zi kuzatib borishga o'rganish, ta'lim me'yorlari va talablarini o'z vaqtida bajarishga ko'nikish;

- Sog'lom turmush madaniyati asoslarini o'zida mujassam etgan barcha fanlardagi (biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya kabi) ma'lumotlarni o'zlashtirish;

- Shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanishni o'rganish;

- Sog'lom turmush madaniyati muammolarini muhokama qilishda faol ishtirok etish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini maqsadli ishlab chiqish tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash imkonini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sirasida treninglar, bahs-munozaralar, kichik tadqiqotlar, shuningdek bellashuvlarning o'rin olishi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorlikni ifodalaydigan amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minladi.

XI Bob. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti

11.1. Alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida oila va uning o'rni

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'la-to'kis moslashuvi muammolari har doim ham eng dolzarb o'rinni egallab qolaveradi. Bolalar nogironligi ular hayotiy faoliyatini cheklabgina qolmasdan, ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi. Bu esa o'z hulqi ustidan nazorat qila olmaslik, shuningdek o'z-o'ziga xizmat layoqati, oldinga intilish, mo'ljal olish, o'qish, muloqot va kelgusidagi mehnat faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda esa bolaning rivojlanishida o'zgarishlar bo'lishi uchun oila eng zarur omil hisoblanadi.

Oila – inson shakllanishida eng katta kuch. Katta bo'lganimiz sayin, ota-onalarimizning fikri biz uchun muhim ekanligini ba'zan sezmay qolamiz, ko'pincha bizning yon-atrofga bo'lgan qarashlarimiz oilaviy an'analarimiz, qadriyatlarimiz, oilada olingan tarbiyamiz orqali shakllanadi. Shaxsning shakllanishida oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati muhim o'rin tutadi, ya'ni bola oilada mehr-muhabbatni, hurmatni sezsa yoki bolani oilada sezishmasa, o'rni bo'lmasa, oiladagi muloqot faqat janjallar va baqir-chaqirlar ostida bo'lsa, bu holatlar bolaning tarbiyasi va shakllanishida o'z aksini topadi. Biz qaysi maqsadlar sari intilmaylik, har qaysi sohada ishlamaylik, rivojlanmaylik va yuksaklikka erishmaylik, oilada olingan (ota-ona, aka-uka, opa-singil) o'zaro munosabatlar tajribasi har doim biz bilan bo'ladi va bizning tarbiyamizni belgilab turadi.

Ota-onalar har bir insonning hayotida juda katta va mas'uliyatli o'rin tutadi. Ular bolaning boshlang'ich tarbiyasi asosini yaratadilar. Bola onasiga yoki otasiga o'xshashni xohlaydi va taqlid qiladi. qachonki, ota-ona o'zining hulq-atvorida faqat ijobiy fazilatlarni shakllantirsa, bolaning tarbiyasi mukammal va ota-onasi xohlagandek bo'ladi. Tarbiyaning bu shaklida ota-ona o'zining xatti-harakatlarini doimiy nazoratda tutib, boshqa insonlarga va o'zaro oilaviy munosabatlarda ijobiy

namuna bo'la olsa, bolaning har tomonlama uyg'unlikda rivojlanishiga asos bo'ladi.

Oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan munosabati oilada muhim rol o'ynaydi. Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida har bir a'zosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning aksi sifatida har bir oila a'zosi ham hulqi, shaxsiy sifatlari bilan oila hayotida muhim rol o'ynaydi. Bu kichik guruhning ayrim a'zolari oila a'zolarining ma'naviy qadriyatlari shakllanishiga, butun oilaning maqsadi va hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalarning orziqib kutgan sog'lom farzand o'rniga alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolani qo'llariga olganlarida, jamoat joylarda ularga to'g'ridan-to'g'ri farzandlarining boshqalarga o'xshamasligini ko'rsatganlarida yoki tibbiyot hodimlarining "farzandingizning imkoniyati cheklangan", deb tashhis qo'yishlari natijasida ruhiy-emotsional holatlar yuzaga keladi. Alohida ta'kidlash jozki, xar qanday holatda ham, oqilona jamiyat, taraqqiyot yo'lida hech qandy, xattoki kichik omildan ham voz kechmaydi – aksincha, barcha omillardan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar jamiyatimizning ma'lum bir qismini tashkil etar ekan, ulardagi iqtidor, salohiyatdan oqilona foydalanish, mamlakatimizning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu degani alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga yangicha nigoh bilan qarab, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish kerak.

Oilada alohida ehtiyojli bola tug'ilganda, ota-onalarning hayotga bo'lgan qarashlari, o'zlariga va boshqalarga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shuning uchun alohida ehtiyojli bolalarning rehabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyasi haqida gapirilganda, nafaqat shu bolalarning ehtiyojlarini, balki oilaning ham ehtiyojlarini e'tiborga olish zarur: ularning ko'pchiligi majmuaviy ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'ladi.

Bunday kutilmagan holat, odatda, ota-onalar uchun og'ir hisoblanadi. Boshida ular o'zlarini ayblashadi, uyalishadi, o'z-o'ziga rahmini keltirib vaziyatdan chiqishga urinishadi. Ba'zida o'zini va bolani o'ldirish xohishi paydo bo'ladi. Natijada bunday holatni qabul qila olmaslik boladan voz kechishga, u

bilan baxtsiz hodisa yuz berishiga yoki uning begonadek bo'lib qolishiga olib keladi.

Onalar o'zlarini savollar bilan qiynashadi: "Nimani men noto'g'ri qildim?" Menga nima bo'ldi? Natijada qo'rqinchli javoblar topishadi. Men sog'lom bola tug'a olmayman. Mening bo'ksam juda tor, shuning uchun uning boshini ezib qo'rganman. Turmushga chiqmaganim ma'qul edi. Sog'lom farzandli ota-onalarni ko'rishga ko'zim yo'q! Ba'zida orqasidan quyidagi savollar tug'iladi: Men qanday baxtsiz odammanki, mening boshimga bunday fikrlar keladi. Uni sevuvchi ona kerak, biz esa undan voz kechmoqchi edik!

Afsus qilish bilan birga yolg'izlikka intiladi hamda sog'lom farzand ko'rish umidi ham so'nib boradi. Ular orzu qilgan farzand yo'qligini o'ylab ko'rib turgan vaqtlarida ularning yonlarida nogiron bola mavjud, uni parvarishlash zarur.

Achchiq haqiqatni qay tarzda engishlari faqatgina farzandlarning kelajagiga emas, balki butun oilaning barqarorligiga ta'sir etadi. Sir emaski, ota-onalar bu bolaga 2 xil munosabatda bo'lishlari mumkin: Sog'lom farzandlari kabi uni sevishadi, yaxshi ko'rishadi yoki undan jahllari chiqib, boladan voz kechishadi. Shuni tushunish mumkinki: bola kutilgan va sevimli, biroq uning nuqsoni kutilmagan va shuning uchun ota-onalar qayg'urishmoqda. Ko'pgina ota-onalar uni sog'lom ko'rish umidida yangi shifoxonalarga va shifokorlarga murojaat qilib ko'rishadi. Aybdorlik hislari va jahlini begunoh bolaga emas, boshqalarga qo'yimoqchi bo'lgan ota-onalar 2 yo'ldan birini tanlashadi: O'zida ayb sezgan holda butun umrini nogiron farzandiga xizmat qilishga bag'ishlaydi yoki aybni shifokorlarning sovuqqonligiga, ijtimoiy xizmatchilar, o'qituvchilarning ehtiyotsizligiga yuklashadi. Ba'zilar uni ham, buni ham qilishadi.

Ota-onalar tezroq o'zlarini qo'lga olgan holda hodisaga ko'nikishlari lozim, aks holda oila barqarorligiga putur yetkazishadi. Ko'pgina ota-onalar ushbu holatni o'zlari, mutaxassiss yordamisiz yengishga urinadilar, lekin bu bola bilan munosabatning buzilishiga, oila tinchligining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Axir oqibat ota-ona va farzandlari orasidagi ijtimoiy munosabat yo'lga qo'yiladi,

lekin farzandning iloji boricha nuqsonlarini yengishiga qo'shimcha yordam zarur bo'ladi.

Alohida ehtiyojga ega bolaga sog'lom bola singari uni sevishlari qanday bo'lsa shundayligicha barcha muammo va qiyinchiliklari bilan qabul qilishlari lozim. Bolani tan olish u bilan o'zaro aloqani o'rnatishdir. Uning oilasiga yoqadigan xursandchilik munosabatlarini yo'lga qo'yish bola rivojlanishi uchun eng yaxshi joy hisoblanadi. Shundagina u o'ziga ishongan holda olamga kirib keladi, u jamiyatga yaxshilik tilaydigan, foyda olib keladigan bo'ladi, bola qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bor yoki aqliy nuqsonlari bilan birga ijtimoiy jihatdan moslashadi. Har qanday sog'lom yoki kasal bolaga uning kelajak baxti va jamiyatdagi muvaffaqiyati uchun baxtli va to'liq oila kerak. Agar u baxtli bo'lsa va oilasidan o'zaro munosabat umidlari bo'lsa uning ta'lim olishi shunchalik osonroq kechadi.

Farzand nogiron tug'ilganligini shifokorlar to'g'ri qilib yetkaza olsalar va eng qiyin damlarida yordam bersalar, ota-onaga bu xabar unchalik zarba bo'lib tuyulmaydi. Oila uchun eng zarur narsa - bu ota-onaning o'zaro munosabatlari mustahkamligidir, shu bilan birga, bir-birlarini qo'llab-quvatlab yordam berishlaridir. Shunisi zarurki, ikkala ota-ona bolani parvarishlash bo'yicha javobgarlikni bir xilda olishlari kerak. Eng yomoni teng huquqlikning bo'lmasligi, ulardan biri o'z zimmasiga hamma og'irlikni olishi yoki teskarisi bola bilan ham shug'ullanish, barcha tashvishlarni, parvarishni onalar o'z bo'yinlariga olishadi, otalar esa qarshilik ko'rsatishmaydi. Ona to'liq to'qqiz oy farzandini ko'tarib yuradi, u sog'lom tug'ilishi uchun barcha maslahatlarni eshitadi, unga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqadi. Tabiiyki, barcha aybdorlik hislarini u o'z zimmasiga oladi va bolaning azob-uqubatlari, parvarishini o'zi bajaradi. Achinarlisi, bunday vaziyat tug'ilishiga shifokorlar ham aybdordir, chunki ular suhbatga faqatgina otaning o'zini chaqirishadi va bu salbiy xabarni xotiniga o'zi yumshoqroq qilib aytishni taklif etishadi. U bolaning bunday holati onasiga tegishli ekanligini, otasining vazifasi esa uni parvarishlash ekanini ko'rsatib o'tadi.

Hayotda ota-onalar o'zaro juda yaqin bo'lib, bir-birlarini quvonch va tashvishda bir xilda qo'llab-quvvatlashlari kerak. Eri shuni yaxshi tushunishi kerakki, u xotiniga o'zining muammolarini ochiqchasiga aytishi ayoli uchun juda muhimdir. Boshidanoq ota-onalar shuni bilishlari kerakki, biron-bir narsaga xohish faqat farzandlarida emas, balki ularning o'zlarida ham bo'lishi va o'zlarining nikohlaridan rohatlanib yashashlari lozim. Ular bir-biri bilan o'zaro aloqaga zordirlar, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazishga, do'stlari bilan uchrashishga, jamoaviy hayotni yuritishga, boshqa farzandlarini ham parvarishlashga haqlidirlar. Alohida ehtiyojga ega bolaga, uning aka-opalariga va ota-onasiga doimo me'yoriy oila zarurdir. Nogiron farzand ustida keragidan ortiq qayg'urish qattiq charchashga olib keladi va oila tarqalib ketishi bilan tugashi ehtimoldan holi emas. Otalar bolasidan xafa bo'lishadi, chunki onasining barcha diqqatini u egallab oladi, avval esa ushbu e'tibor unga, ya'ni otasiga qaratilgan edi. Faqatgina diqqat-e'tibor alohida ehtiyojga ega bolagagina qaratilsa uning aka va opalariga uyning qiziq joyi qolmaydi va ular sekin-asta uzoqlashib ketishadi.

Yo'q: Alohida ehtiyojga ega bolaning talablari xuddi sog'lom bolalarnikiday. Ularni ham sevish, parvarishlash, hayotda mustaqil bo'lishiga va jamoada o'z o'rnini topishiga yordam berish kerak.

Farzandining nuqson bilan tug'ilishini bilgach, ota-onalar qo'ni-qo'shnilarga, qarindosh-urug'larga nima deb aytish haqida o'ylab qoladilar. Javob bitta: haqiqat, shifokordan to'g'risini aytishini so'raysizmi, demak, siz ham shunday qilishingiz kerak. Ba'zi shifokorlar ota-onalarga rahmi kelib, undan bor haqiqatni yashirishadi, ota-onalar ham do'stlarini noqulay vaziyatga qo'ymaslik uchun ular ham shunday qilishadi. Tug'ruqxonadan kelganingizdan so'ng do'stlaringiz, qo'shnilaringiz go'dak haqida sizdan so'rashadi, agar o'sha vaqtda bor haqiqatni aytmasangiz, keyinroq yanada qiyin bo'ladi. Hamma so'rayotganlarga, shu jumladan, farzandlaringizga zo'rlamasdan. imkoni boricha to'g'risini, ya'ni shifokorlar fikricha, go'dakning qo'l va oyoqlari nozikligini yoki unda aqliy yoki jismoniy nuqsonlarni mavjudligini yoki unda hushidan ketishlar kuzatilishini, uni davolash ishlari boshlanganini ayting. Siz uyalishingiz kerak

emas, hech kim sizdan yordamini ayamaydi. Agar bolangizda "hammasi yaxshi", - deya yolg'on gapira boshlasangiz, o'zingiz va do'stlaringiz orasida devor qurishni boshlaysiz. Keyinchalik uyingizda mehmon kuta olmaysiz, chunki ularning o'zlari farzandingiz nuqsonini payqab qolishadi. Ular o'zlaridan so'rashadi: Balki hammasini bilasiz, lekin aytishga uyalasiz? Balki siz hech narsani payqamayapsiz? Lekin ular ko'zingizni ochishni xohlashmaydi. Sekin-asta jamoadan o'zingizni olib qocha boshlaysiz, do'stlaringiz ham bo'ladigan uchrashuvdan o'zlarini olib qochishadi.

Albatta, boshqa odamlar sizga yordam bermoqchiliklari noqulayliklar tug'diradi. Ba'zilar shifokor fikrining noto'g'ri ekanligini va uning o'zi ham kichkina bolada nima bo'lishini qaerdan bilishini yoki vaqt o'tishi bilan hammasi o'tib ketishini aytib, sizni tinchlantiradi. Siz minnatdorchiligingizni bildirgan holatda ularning fikrlari noto'g'ri ekanligini tushuntiring.

Agar siz to'g'risini borligicha aytsangiz, sizning atrofingizda yordam berishni xohlovchilar: do'stlar, qarindoshlar, qo'shnilar, do'kondagi sotuvchilar to'planadi va sizni qo'llab-quvvatlashadi. Agar boshqa yo'lni tutsangiz, sizga qiyin bo'ladi, tashqi dunyo bilan to'qnashishdan qo'rqasiz, oilangizning o'zini ichida yopiq holda qolib ketadi va bu juda yomondir. Agar jamiyat bilan aloqada bo'lsangiz har xil gap-so'zlarni yengib o'tishingiz osonroq kechadi. Sizga qaratilgan og'riqlardan xafa bo'lmang, ularga sizni tushunishlariga yordam bering. Nuqsonli farzandlari bor oila talablarini jamiyat e'tiboriga olib chiqish, ota-onaning tabiiy huquqiga aylanishi kerak.

Ota-onalar ko'pincha bizga hech kim yordam bermayati, deya shikoyat qilishadi. Agar ko'pchilikka yordam berish imkoniyati topilsa, ularga yordam berishgan bo'lar edi. Avval atrofingizdagilarni tanlab oling. Judayam mag'rur bo'lib, yordam so'rashdan uyalmang hamda yordamdan voz kechmang. Turmush o'rtog'ingiz bilan oqshomgi aylanishlardan o'zingizni mahrum qilmang. Tanishingizdan bolangiz bilan birga o'tirib turishini iltimos qiling va juftingiz bilan bir-biringizning diydoringizga to'ying. Siz o'zingizni bunday xursandchiliklardan turlicha: hech kim sizga yordam berishga ko'nmaydi, hech

kim bolangizga to'g'ri qaray olmaydi, balki unga biror narsa bo'lib qoladi va siz uning oldida bo'lishingiz kerak va h.k. sabablar bilan mahrum qilasiz.

Siz o'zingizni o'zingiz tashvishlarga to'ldirib yuborasiz, lekin bu bolaga yordam bermaydi, aksincha oilaviy xursandchiliklardan mahrum etadi. Agar ona doimo asabiy bo'lsa, oila baxtli bo'la olmaydi. Bir necha tarbiyachitoping. Agar birortasini ham bilmasangiz oilaviy shifokoringizdan, hamshirangiz, ishchilaringizdan so'rab ko'ring, ular sizga nimanidir tavsiya etadilar. Ba'zi qo'shnilar bir-birining bolalariga qarashadi, yordam berishadi, ularning hamruxligiga qo'shilsiz? Tarbiyachiga bolaning shikoyatlari tug'ilishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni qanday bartaraf etish mumkinligi haqida aytib bering. Bolani parvarishlash, hatto o'smirlarning ham qo'lidan keladi, agar ulardan iltimos qilinsa, xursand bo'lib yordam berishga rozi bo'ladilar. Agar jamiyatga yuzma-yuz kelib, nuqsonli insonlarning muammolarini bildirmasangiz, ular hech qachon ularning muammolarini bilishmaydi va tushunishmaydi hamda yordam berishmaydi.

Ota-onalar bolaning nuqsonlariga ko'nikib va u uchun qo'llaridan kelgan hamma narsani qilishga tayyor bo'lganlarida, avval ular nima qilmoqchi ekanliklarini aniq bilib olishlari kerak. Alohida ehtiyojga ega bola ulg'ayadi. Katta bo'lganda o'z o'rnini topishi jamiyatga qanday qo'shilishiga bog'liq. Agar uning hayotida do'stlari bo'lsa, jamiyatda me'yoriy yashay olsa, jamiyat hayotida qatnashsa va odamlar ichida dam ololsa, u baxtli bo'ladi. Aksariyat hollarda, do'stlarisiz, atrofdagilardan qochib, g'alati qiliqlar qilsa, unda u baxtsiz bo'ladi. SHuni ota-ona boshidanoq bilishi kerakki; har bir bola ulg'ayadi va o'zini kattalardek tuta olishi zarur. Agar bola yoshiga mos axloqni egallay olmasa unda bolaning ijtimoiy moslashishi qiyin kechadi yoki butkul moslasha olmaydi. Siz, albatta, so'rashingiz mumkin: agar bola o'zini qanday tutish kerakligi haqida fikr yuritish uchun yetarlicha aqlli bo'lmasa-chi? Javob shunday: bu haqda siz unchalik qayg'urmang, chunki bu to'g'ri emas. Jamiyatda o'zini to'g'ri tuta olishi uchun alohida aql kerak emas. Unga o'rgatayotganingizda shunday sharoitlar yaratingki, bola shu vaziyatlar orqali o'zini qanday tutish kerakligini o'rgansin. Shunda u

hayotda shunday sharoitlarga tushib qolganida o'zini qanday tutish kerakligini aniq biladi.

Bola eng birinchi va eng kerakli aloqani oila a'zolaridan o'rganadi va shundan boshlab ijtimoiy moslashishi boshlanadi. Odamlar bilan munosabatga kirishishida u birinchi olgan tajribasiga tayanadi, agar ular samarali bo'lsa, bu uning kelajakda shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Hissiy va ijtimoiy tarafdin qaraganda alohida ehtiyojga ega bolalar boshqalardan hech narsasi bilan farq qilmaydi. U sizning parvarishingizga, uni yaxshi ko'rishingizga muhtoj, lekin boshqa bolalardan ortiq emas. Unga ortiqcha rahm qilishingiz, erkalashingiz, hayotiy davolanishlarni olib borishingiz kerak emas. Albatta, bola hayotining boshida sizning muloqotingizga, erkalashlaringizga, parvarishlaringizga ehtiyoj sezadi. Bu narsalar faqat tinch, ijobiy hayotdagina o'z samarasini ko'rsatadi, chunki chaqaloq onasining ovozi va unga bo'lgan jismoniy muloqot orqali uning kayfiyatini yaxshi sezadi¹.

Biroq go'dak shaxs sifatida tez shakllana boshlaydi. Endi u yordamga muhtoj va passiv emas, agar unda qandaydir nuqsonlar kuzatilsa, uni diqqat bilan kuzatib boring, lekin uning eshitayotgani hamda kuzatayotganini e'tiborga oling. Ayni shu paytdan oilaviy munosabatlar boshlanadi, u endi sizni va olamni tushunib, idrok eta boshlaydi.

Bolaning rivojlanishi, uni qanchalik muhimligi haqida hozirgi kunda ko'p gapiriladi, lekin uning ota-ona bilan o'zaro aloqasining zarurligi to'g'risida kam gapirishadi. To'g'ri, ota-ona va bolaning o'zaro aloqasi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ikki xaftalik go'dakka qilinadigan oddiy aloqa 5-6 oylik bolaga va albatta undan ham ko'proq 5 yoshli bolaga o'tmaydi: "U hali kichkina yoki hali ulguradi yoki u hali tushunmaydi" tarzdgagi qarashlardan qoching. Bular orqali ota-ona farzandining kamchiliklarini yashirishga urinadi, buning oqibatida bola ham o'zi haqida shunday xulosalarga kela boshlaydi, o'zini kichkina deya hisoblaydi, shu bilan o'zining yordamga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Afsuski, bunday

¹ Психологическая помощь родителям в воспитании детей с нарушениями развития / Под ред. Савиной Е. А. – М.: ВЛАДОС, 2008.

munosabat bolani zaif qilib qo'yadi, natijada bola rivojlanishida erisha oladiga yutuqlardan orqada qoladi. Bola rivojlanishining qaysi tomoni yaxshiroq bo'lsa, uning o'sha tomoniga ko'proq e'tibor berish zarur, shundagina u ko'pgina to'siqlarni ikki barobar kuch bilan yenga oladi. Agar umuman teskari holat bo'lsa, ya'ni ota-ona bolani hadeb aybli, yordamga muhtoj qilib ko'rsatsa, u holda bola mustaqil bo'la olmaydi. Bolangiz to'g'ri rivojlanishi uchun uning har bir ijobiy harakatini rag'batlantirib turishingiz kerak. Shunda oydan-oyga, yildan-yilga sizning qo'l ostingizda bola avval erisha olmagan bilish ko'nikmalarini o'rganadi. Xuddi shu narsa haqiqiy ota-ona mehrini beradi. Bolani batamom o'zingizga qaram qilib qo'ymang.

Qachondir bola sizsiz qoladi, hattoki biror nuqsonga ega bo'lishiga qaramasdan egallagan bilim, malakalar unga mustaqil, sizga qaram bo'lmasdan jamiyatda boshqa odamlarga qo'shilgan holda yaxshi yashashiga zamin yaratadi. Shunday qilib, bola rivojlanishining oxirgi maqsadi, ya'ni mustaqil, qaram bo'lmasligi shunday ifodanlanadi: boshida bergan mehr, parvarishingiz orqali unda o'ziga ishonch uyg'onadi, so'ngra qadamma-qadam mustaqillikka o'rganadi.

Go'dakning ijtimoiy rivojlanishida onaning jismoniy va hissiy muloqoti muhimdir. Onasi bilan va keyinchalik boshqa insonlar bilan bo'ladigan muloqot bola xulqiga o'z ta'sirini ko'rsatish imkonini beradi. Go'dak hayotining birinchi oylarida, homilalik davrida onasining yonida, qorni to'q, o'zi issiq bo'lgani bois onasini rohat oluvchi tanbadek hisoblaydi. Go'dak uchun hattoki onasining hidi, ovozi, unga tegishi juda muhimdir. Uyg'oqlik paytida o'zini onasining oldida himoyalagandek sezadi va bundan taskin topadi, chunki u agarda nimadir bo'lsa onasi yordam berishini va unga yaxshi bo'lishini biladi. Bola ijtimoiy rivojlanishida onasining muloqoti zarurligi aniqdir, lekin bolaning aqliy rivojlanishida ham uning roli katta. Ta'lim berishni 5 yoshdan yoki maktabdan boshlash emas, balki tug'ilishi bilanoq boshlash lozim. Hamma zarur narsalarni ko'pincha bolalar o'zlari bilmagan holda onalaridan o'zlashtirib oladilar. Hayotda o'rab turgan ko'p narsalardan kerakli predmetni ajratib olish, bilim, ko'nikmalarini onasi u bilan qilgan muloqotdan bilib oladi. U, shuningdek, e'tiborli bo'lishga,

o'ylashga, oldindan topishga, o'z fikrini ifodalashga, intilishga o'rganadi. Bolaning qilgan harakatlarini onasi rag'batlantirib, kulib qo'yadi. U bundan zavqlanadi.

Ushbu holat uning keyingi ta'limi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Narsalarning darajasiga to'g'ri e'tibor bermasalar ularga hech nimani o'rgatib bo'lmaydi. Onasining yuzi unga yaqinlashganda go'yo butun dunyo yaqinlashgandek tuyuladi va bu kun sayin davom etadi. Shuningdek, onasining yuzi unga qiziqarli bo'lib ko'rinadi, uning shakli, rangi, ko'zlarining chaqnashi, tanish ovozi, hidi, yoqimli tegishi uni rom etadi. Tasavvur qiling, istalmagan farzand nimalarni his qiladi. Ko'p vaqt u bir o'zi yolg'iz yotadi, uni hech kim erkalamaydi, yoqimli bo'lgan ovozni eshitmaydi. Bu holat bolaning ulg'ayganida befarq, e'tiborsiz, baxtsiz va jamiyatga qo'shilmaydigan bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

O'yinlar bolaning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi, lekin hamma otalar ham farzandlari bilan to'g'ri o'ynashni bilishmaydi. Agar o'yin sharti qiziqarli bo'lib bolaga yoqsa, unda bu o'yinni bola faol va xohish bilan bajaradi. Bordi-yu o'yin shartlari zerikarli bo'lib, bolaga yoqmasa yoki qiyinlik qilsa, uni bajarish murakkab bo'lgan ishday qabul qiladi, natijada bajarishi uchun biror narsa va'da qilishga to'g'ri keladi. O'yin davomida ota-ona va bola bir xilda zavqlanishi kerak.

Bolaga tomosha qiladigan o'yinlar ham yoqadi: uning yuziga kattalar yuzlarini yaqinlashtiradilar, goho uzoqlashtirib boshini o'girib unga tilini chiqaradilar, berkinib olib va yana paydo bo'lishadi va hokazo. Yana "ovozli" o'yinlar, kattalar qo'shiq aytadi, hushtak chaladi, tili bilan turli ovozlar chiqaradi. Asta-sekin oddiy tizimli o'yinlarga o'tiladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ota ham bola bilan o'ynashi kerak. Ota bilan o'ynaydigan o'yinlar o'ziga yarasha qiziqarlidir. Uning ovozlari past, qarashlari o'zgacha. U bolasini osmonga otishni yaxshi ko'radi. Bu o'yinlar bolaning hayotiga o'zining turli ta'sirlarini o'tkazadi, shu bilan birga, erkakcha fe'l-atvor, xulqi bilan tanishishga imkon beradi. Ovozlariga qiziqtirish juda zarurdir. Buning uchun bolaga har xil ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar berilishi, qog'ozlarni g'ijimlash, qoshiq bilan piyola yoki patnisga

urish orqali tovushlarga o'rgatish mumkin. Doimo birgalikda shug'ullanayotganingizda u bilan gaplashing, jim o'tirmang, unga alohida so'zlarni qaytarishga majburligini bildirib, biror-bir tovushni mustaqil tinglashga, oddiy ona nuqtini eshitishga imkon bering. Keyinroq ularga taqlid qilib gugulashi va o'zining ovozi bilan sizni hayajonlantiradi. Hattoki artikulyasiya a'zolarida nuqsonlar bo'lsa ham nutqning tushunilishi, tabiiyki, ko'p qaytariladigan oddiy so'zlarning tushunarli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Agar bolangiz biror tovush chiqarsa, hatto oddiy ovoz bo'lsa ham uni qaytaring. Ozgina kutib turib yana qaytaring, asta-sekin bola sizning ovozingizni qaytarishga, qabul qilishga o'rganadi va uni eshitib sizga kulib qo'yadi. U tovushlar bilan o'ynay boshlaydi, keyinchalik bola atayin siz qaytarishingiz uchun turli ovozlar chiqara boshlaydi. Shunday qilib, siz bolangiz bilan xuddi koptok otib o'ynagandek, tovushlar bilan o'ynaysiz va rohatlanasiz. So'ngra tovushlarni o'zgartirishingiz mumkin, bunda bola sizning orqangizdan takrorlashga harakat qiladi. Tovushlarni to'g'ri chiqarishi uchun siz unga eshitish va o'zining nutqiy apparatidan to'g'ri foydalanishga o'rgating. Shunday qilib, u gapirishga o'rganadi. Har bir o'yinda ta'limning har bir shaklidek bolaning reaksiyasi va javobini kuting. Chidolmasdan boladan kutayotgan javob reaksiyasini uning o'rniga qilishingiz oson, lekin bolaning o'ziga bajarish imkonini berish zarurdir. Bolaga nima qilishni ko'rsatganingizdan so'ng kutib turing, u kutganingizdek topshirilgan vazifani bajarib beradi. Agar u sizning harakatlaringiz va tovushlaringizni qaytarishga urinsa, yana bir bor qaytarib uning navbati ekanini ko'rsatib kutib turing. Juda tez va ko'p qaytarilgan vazifalar bolada o'ynash xohishini yo'qotishi mumkin va u boshqa harakat qilmaydi. U hattoki tomoshabin bo'lib sizni tomosha qilishga qaror qiladi.

Bu yerda o'yinda foydalangan qoidalarni qo'llash kerak. Bolaning o'zi harakat qilishga imkon beruvchi barcha kuchlarni to'plash zarur. Faqatgina sabr emas, balkit vaqt ham zarur. Bolani uzoq vaqt muammolari bilan qoldirmaslik kerak, chunki u omadsizliklar natijasida intilish, xohishini yo'qotadi, lekin darrov yordam berishga ham shoshilmaslik kerak, bo'lmasa ular passiv qo'g'irchoqqa aylanib qolishadi. Ko'pgina urinishlardan so'ng siz bilan birga kerakli harakatlarni

bajaradi. Injiqlik qilsa ham bu ko'p davom etmaydi. Qachonki bular amalga oshirilganda, bola bajarilayotgan harakatlarga qo'shilganda unga yordam berishni kamaytirish, ayniqsa, vazifaning oxirida aralashmaslik kerak. Bolaga ishning oxirigacha yetkazishga imkon berish zarur. Masalan, bolaga qoshiqda ovqat eyishiga o'rgatayotganingizda u qoshiqni o'zi ushlashi kerak, siz esa uning qo'lidan tuting. Qoshiq lablariga tegay deganda qo'lingizni qo'yib yuboring. SHunday qilib, bola boshlagan ishini o'zi tugatishi kerakligini tushunadi. Bolaga o'ziga-o'zi xizmat qilish ko'nikmalarini tug'ilganidan boshlab o'rgatish zarur. Bolani emizganingizda oldin unga ko'kraklaringizni ko'rsatib, uning uchi lablariga tekkanida og'zini ochish kerakligini imlash lozim. Ko'krak uchi yoki so'rg'ichni uning og'ziga zo'rlab tiqmang. Chaqaloqni, ayniqsa, biror nuqsoni bo'lsa, u hech narsani tushunmaydi, deb o'ylash osondir, bolada qiziqish uyg'otmaslik uni hech qanday harakatlarga undamaslik natijasida siz unga xalaqit berasiz. Siz istasangiz, istamasangiz ham bola o'rganadi. Agar bolani o'z-o'ziga yordam berishga o'rgatmasangiz unda siz uni harakatsiz qilib qo'yasiz.

Bola sizga to'liq qaramligini bilish sizni xursand etishi mumkin, lekin bu xursandchilikning kichik nozik soyasidir, siz aksincha, unga o'zining kamchiliklarini engishga yordam bersangiz siz yanada ko'proq xursand bo'lasiz.

Bolaga ta'lim berishning barcha davrlarida sizning urinishlaringiz samarali bo'lishi uchun bir qator qoidalarga rioya eting:

- bola har qanday yoshda ham harakat qilishga tayyor bo'lishi kerak, ya'ni vazifa qiziqarli bo'lishi lozim. U diqqat bilan, xursand bo'lib sizga javob bersin. Shuning uchun u yoki bu harakatlarga juda qiziqqan paytda o'rgatish kerak. Masalan, bolaga mustaqil ovqat yeyishni uning qorni och paytida o'rgatish zarur, qorni to'q yoki o'yinqaroq paytida o'rgatish tavsiya etilmaydi;

- bolani oz-ozdan o'qitish kerak: agar uning zerikib qolganini sezsangiz tezda mashg'ulotni to'xtating. Bola bilan janjallashish mumkin emas, siz baribir yutqazasiz, ikkalangizga ham to'xtash maqsadga muvofiq;

- shunday qiling: ko'rsating, kuting, olqishlang, ko'rsating va h.k.;

- bolaning intilishini ko'rib, o'ziga kelib olishi uchun vaqt bering, olqishlang, maqtang, kulib qo'ying va h.k.;

- bolaning har bir harakatlariga yaxshi munosabatda bo'ling, uning har bir xatolariga tanbeh bermang, har bir, hattoki, eng kichik harakatlarini ham rag'batlantiring. Shunda u xohish bilan o'rganadi;

- oxirgi bosqichdan boshlab vazifani bajarishga o'rganing. Avval birgalikda bajaring, oxirgi qadamda esa bolani o'ziga mustaqil bajarishiga imkon bering. Shu bosqichni yaxshilab o'rganganidan so'ng oxirgidan bitta oldingisiga o'ting. Shunday qilib, bola avval egallagan harakat-ko'nikmalariga qaytadi va unda o'z kuchiga ishonch, omadni sezadi va o'zi bajara olishidan xursand bo'ladi;

- agar bola qarshiliklar ko'rsatsa, uni qiynamang, yaxshisi mashg'ulotni to'xtating. Siz uni qanchalik majburlasangiz u shunchalik qarshilik ko'rsatishini unutmang. Nima uchun? Chunki bola o'z kuchiga ishonib, sizni o'jarligi bilan jahlingizni chiqarib, bo'ysunishni xohlamaydi. Xafa bo'lganingizni ko'rsatib, uni xursand qilmang. Agar bola ovqat yeyishdan bosh tortsa, uning idishini tinchgina olib qo'ying (unga rahm qilmang, keyingi ovqatgacha hech narsa bermang, o'jarligi sizga emas, o'ziga zararligini tushunsin). Qattiqqo'llik? Umuman, unday emas, yaxshisi oxir-oqibat qattiqqo'llik qilish kerak. Aniq qoidalar tez va oson qabul qilinadi;

- sizdan sabr va vaqt talab etiladi. Agar nuqsonli, sekin harakatlanuvchi bolangizga etarlicha vaqt ajratmasangiz, farzandingiz kutilayotgan vazifani bajarishga ulgurmaydi. Natijada u sizga hech narsani tushunmayotgandek tuyuladi. Bu, ayniqsa, jismoniy nuqsoni bor bolalarga tegishlidir: ularning harakatlari sekin va qiyin, ba'zida bola ularni bajarishga qurbi yetmaydi;

- agar bolaning qo'l-oyoqlari butunlay ishlamasa, unga sizni tushungan yoki tushunmaganligini ko'rsatishga o'rgating. Masalan, boshini egib "ha", boshini chayqatib "yo'q" deyishi mumkin;

- harakatlaringizni to'xtatmang, hattoki tuzalish juda qiyin kechsa ham har bir yaxshilanish tomonlarini hisobga oling. Agar siz o'rgatishdan to'xtasangiz unda boshqa o'rganishga imkon bo'lmaydi. Agar siz bola biror narsani qila olish

imkoniyatiga ega emas, deya qaror qilsangiz, u bu ishni hech qachon qila olmaydi. Suzishni qanday o'rganganingiz esingizdami, bir muddat sizning qo'lingizdan kelmaydi, deb o'ylagansiz, boshqalar suzishiga qanday havas qilganingiz esingizdami?! Birdan siz ham suzishni o'rgandingiz, endi nimasi qiyin bo'lganini eslay ham olmaysiz¹.

Tabiiyki, bolaning kelajagi haqida ota-ona qayg'uradi. Bu holat doimiy bo'lib qolishi mumkin. Ota-onalarni quyidagi savollar qiynaydi: u gapiradimi, u yura oladimi, qachondir ishlay oladimi, bizdan keyin u qanday yashaydi? Bu savollarga oilaviy shifokor javob berishi lozim, faqat imkon bo'lganda. Javobni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan aytish darkor, chunki bola kichikligida hamma narsani oldindan aytib bo'lmaydi.

Biroq bolaning kelajagi haqida qayg'urmasdan, unga hozirdan biror kuch bilan yordam berish zarur. Tashvishlanish ko'pincha siz uchun buzuvchidir, chunki u barcha imkoniyatlardan foydalanishga xalaqit beradi, bu esa, albatta, bolaga o'tadi, natijada u baxtsiz bo'ladi. Hamma narsaga ishonavermasdan, bolaning holatini baholab, unga barcha imkoniyatlaringizni jamlab yordam bering. Hech narsa tashvishlaringizni tuzatmaydi, siz o'zingiz tushungan holda farzandingiz muammolariga doimiy yordam berib borsangiz samarali bo'ladi. Omad, hattoki, eng kichigi ham – bu umiddir. Umid qilish maqsad sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Bolangizga qanday yordam berishingiz haqida kerakli ma'lumotlarni o'qing, eshiting, so'rab, surishtiring. Siz uning asosiy o'qituvchisi hisoblanasiz. Mutaxassiss sizga yordam beradi, lekin sizning vazifangizni ular bajara olmaydi. Ulardan o'rganing. Shundagina bolangizga mukammal yordamni ta'minlay olasiz. Shuni unutmag, siz birinchi kundanoq bolangizga eng zarur ishni qildingiz, siz unga sevishni, diqqat-e'tiborli bo'lishni, olamni kuzatishni, ta'lim olishga xohishni uyg'otdingiz. Shuning uchun siz bir to'xtamga kelib, bolaning hozirgi holati, uning nimalarga muhtojligi yoki ehtiyoj sezishi mumkinligi haqida o'ylang, biroq u umuman me'yoriy holatga kelib qoladimi, deb o'ylash kerak emas. Achinish,

¹ Формирование активной жизненной позиции ребенка с отклонениями в развитии в условиях семьи//www.childpsy.ru

tanbeh, qo'rquv, nuqsoni tuzalib ketadi, deb kutib o'tirish ortiqchadir. Sizga zarur narsa – bilim, ko'nikma, sabr, bir fikrga kelish. Ammo bularga asta-sekin erishish zarur. Bola haqidagi tashvishlar sizni to'liq qamrab olishi noto'g'ri. Aks holda siz va butun oila a'zolaringiz baxtsiz bo'lib qolasiz.

Ota-onalar har doim:

- o'zlarining g'ulg'ulalarini bolalarga yuqtirmasliklari uchun hayotga bo'lgan ishonch, ichki xotirjamlikni his qilishlari;
- bolaning kuch va imkoniyatlariga ishonch bildirgan holda, bola bilan bo'lgan munosabatlarni uning g'alabalari ustida qurishlari;
- bola maqtovlarsiz rivojlana olmasligini doim bilishlari;
- imkon qadar bolaga har narsada yordam berishlarni qisqartirgan holda, o'zi bajarishini shakllantirish kerakligini yodda tutishlari lozim¹.

Oilada to'g'ri tashkil qilingan tarbiya jarayoni alohida ehtiyojga ega bolalarda ma'naviy va axloqiy tomondan xislatlarini, ularning ijobiy tushunchalarini, dunyoqarashini shakllantiradi, xulq-atvor madaniyatini, mehnatkash odamlar o'z vazifasiga to'g'ri munosabatda bo'lishini tarbiyalaydi. Shunday qilib, oila nuqsonli bolaning saqlanib qolgan barcha analizatorlaridan foydalanib, ijobiy imkoniyatlarga suyanagan holda, uning hissiy bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Bola nutqini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uning tevarak-atrofdagi hodisalarni chuqurroq o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bu esa, o'z navbatida uning ma'naviy kamol topishiga, estetik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Har qanday rivojlanishda turli xil nuqsonlari bo'lgan bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalash, nuqsonning oldini olish, uni erta aniqlash, o'z vaqtida tegishli mutaxassislariga murojaat qilish, muolaja, rehabilitatsiya va ta'lim-tarbiya ishlari uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Shu o'rinda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Farg'ona mintaqaviy filiali ota-onalarga ko'mak, najot beruvchi tashkilot sifatida alohida o'ringa ega. Filial O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 sentyabrdagi 267-sonli "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini yanada

¹ Полезные советы для родителей//<http://www.psycatalog.ru>

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining 0 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalari va ularning oilalariga ijtimoiy-pedagogik, psixologik, huquqiy va axborot-ta'limiy yordam ko'rsatadi. Bu yerda bolaning holati o'rganib chiqilib, kuchli tomonlariga tayanib bola bilan mashg'ulotlar o'tkaziladi. 2013-2016 yillar davomida filialga murojaat etgan bolalar va oilalar soni 3687 nafarni tashkil etib, ulardan 1886 nafari filial axborot-konsalting xizmatidan foydalangan, 1283 nafariga filial ijtimoiy xodimlari tomonidan ijtimoiy-pedagogik, psixologik, huquqiy va axborot-ta'limiy yordam ko'rsatilgan. Filialda bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni birgalikdagi ijodiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida ota-onalar klubi faoliyat olib boradi. Bu yerda ota-onalar va bolalar hamkorlikda qo'l mehnati yordamida turli xil ijodiy ishlarni amalga oshirishadi. Bu bilan bolada oilasiga, ota-onasiga keraklilik hissi, san'atning ma'lum bir turiga bo'lgan qiziqishlari va qobiliyatlari shakllanadi.

Shuningdek, 2013-2016 yillarda olib borilgan xizmatlar natijasida filial ijtimoiy xodimlari tomonidan 28 nafar bolani jamiyat hayotiga ijtimoiylashuvini amalga oshirish maqsadida umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalariga joylashtirishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Filialda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar tomonidan Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining ijtimoiy tizimi o'rganilib, aniqlangan muammolarga amaliy yordam ko'rsatiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2017 yil 1 yanvar holatiga 16 yoshgacha sog'liqni saqlash tizimlarida ro'yxatga olingan nogiron bolalar soni Farg'ona viloyatida 8118 nafar, Andijon viloyatida 8910 nafar, Namangan viloyatida 7648 nafarni tashkil etadi. Shulardan, Farg'ona viloyatida 1082, Andijon viloyatida 846, Namangan viloyatida 877 nafar bolalar uy ta'limida o'qitiladi. Bundan tashqari, filial xodimlari tomonidan bolalarning ijtimoiy himoyasida ishtirok etuvchi mutaxassislariga tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida seminar-treninglar, davra suhbatlari o'tkazilib kelinadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda alohida ehtiyojli bolalarning jamiyat hayotida o'z o'rnilarini topishlari uchun keng sharoitlar yaratilgan. Lekin yuqorida

ta'kidlanganidek, bolaning jamiyatga uyg'unlashuvida albatta oilaning o'rni juda katta. Chunki, oila bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilsa, jamiyat ham uni shundayligicha qabul qiladi. Demak, bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rni beqiyosdir.

11.2. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy madaniy moslashuvida kompleks yordamni tashkil etish

Hozirgi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish, hayotga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu masala bir qator mutaxassislar – pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar, huquqshunoslar, tibbiyot xodimlari diqqat-e'tiboridadir.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash g'oyat ma'suliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir.

Inson tug'ilgandan keyin ota-onasi bag'rida, o'z uyida yashaydi, o'sadi ulg'ayadi. Uy – bu shunday shaxsiy maydonki, u yerda bola o'zi xohlaganicha yashaydi, shaxsiy, oilaviy hayot kechiradi. U yerdan osudalik va tinchlik topishi mumkin. Bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Vaqti kelib, hayoti davomida ulg'aygan sari, uyidan tashqari boshqa yerda ham ma'lum bir vaqtini o'tkaza boshlaydi. Ota-ona bolaning keng dunyoqarashga ega bo'lishi, hayotini mazmunli o'tkazishi, bilimdon bo'lishi, tengqurlari bilan do'stlashishi uchun bo'sh vaqtlarida do'stlarinikiga, qarindoshlarinikiga, yozgi ta'tilda bolalar oromgohiga, bog'chaga, maktabga, musiqa va san'at, sport to'garaklariga va boshqa joylarga olib boradi, bayram tadbirlarini tayyorlab, ularda ishtirok etadi. Bog'cha, maktab, turli to'garaklar, ijodiy-badiiy markazlar katta hisobda bolaning madaniy va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, bolaning madaniy-ma'rifiy merosimiz bilan tanishish, uni hayotiga olib kirish yoki jamiyatning talablari va baholashiga moslashish imkonini yaratadi. Bo'sh vaqtini unumli o'tkazilishi shaxsiy va shaxsiy bo'lmagan funksiyalari birligini beradi,

shuningdek o'zini ko'rsatish, tanlash va o'z qiziqishlarini qondirish, ma'lum bir natijalarga erishish imkonini yaratadi. U boshqa insonlar bilan muloqotda bo'lishni va ularga moslashish ko'nikmalarini o'zida shakllantiradi.

Kundalik hayotda dam olish kunlari bolalar oila bilan birga faol dam olishi, bayram tashkil etishi, do'stlar va yaqinlari bilan uchrashishi, sayr qilishi, tabiatda hordiq chiqarishi, sport bilan shug'ullanishi, musiqa eshitishi, rasm chizishi, sevimli ish bilan shug'ullanishi imkonini beradi. Bu shunday vaqtiki, uni oldindan kutishadi, rejalashtirishadi va xursanchilik bilan o'tkazishadi.

Bo'sh vaqt bolalar uchun ijtimoiy moslashish, hayotida yangi tajribalarga ega bo'lish imkonini beradi, va ular uchun keng yo'l ochadi va shu bilan o'zlariga baho berishlarini oshiradi.

Aqliy yoki jismoniy rivojlanishdan orqada qolayotgan bolaning hayoti esa kattalarning qaramog'iga muhtoj bo'lganligi bois, doimiy ravishda oilasining, ota-onasining imkoniyatidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. Alohida ehtiyojli bolalarning aksariyati uy ta'limiga jalb etilib, kundalik faoliyati bilan o'z uyida shug'ullanishga va shu bilan birga bo'sh vaqtlarini doimiy ravishda o'z uyida o'tkazishga majbur bo'ladi. Alohida ehtiyojli bola va uning oilasi imkoniyatiga qarab, iloji boricha bolalarning hayotini to'ldirish uchun ko'p hollarda uydagi opa-ukalari yoki boshqa qarindoshlariga, agar ular bo'lmasa maxsus malakaga ega bo'lmagan uy xizmatchisi yordamiga murojaat etishadi. Agar buning ham imkoni bo'lmasa bola doimiy uyda yolg'iz qolib ketadi. Shu to'g'rimikan? Bugungi kunda oilada alohida ehtiyojga ega bo'lgan farzand dunyoga kelsa bolani sog'lom parvarish qilish, tarbiyalash, rivojlantirish yo'llari xaqida maslahatlar berib borish, ilk yoshdan, bosqichma-bosqich, yoshiga qarab bolani sensor-motor sohasini, bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borish, tibbiy jihatdan, psixologik va metodik yordam ko'rsatish, atrofidagi olamni faol o'rganishi, o'ynashi, qobiliyatini muntazam rivojlanishiga, tarbiyasiga, sog'ligiga ma'sul bo'lgan ota-onalarga va bunga ma'sul barcha mutaxassislar uchun metodik bazani yaratish muxim vazifalardan biridir.

Alohida ehtiyojli bolalar muammolarini yanada chuqurroq o'rganish va xal qilishda kompleks yordamning tashkil etilishi yuqori samarali bo'lib, uni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga sarflangan mablag'lar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Chunki bu jarayon maktab yoshiga kelganda maxsus ta'lim olishga majbur bo'lgan bolalar sonini kamaytiradi, maktabni tamomlayotgan alohida ehtiyojli o'smirlarning kelgusi hayotida kasb tanlash uchun zamin yaratadi, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar me'yorida rivojlanayotgan bolalar muhitiga ta'limiy va ijtimoiy integratsiyalanishini ta'minlaydi.

Agar nogironlikning ijtimoiy ta'rifiga nazar tashlasak «Nogironlik – bu jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlar tufayli yuzaga kelgan, natijada odamlarning faol hayot kechirishiga imkon bermaydigan jismoniy, aqliy, sensor va psixik buzilishlari bo'lgan shaxsning faoliyatiga to'siq yoki cheklashdir». Bu ta'rifda qiyinchiliklarning sababi nafaqat kasallikda, balki nogironligi bo'lgan bolaning me'yoriy hayotiy faoliyati uchun etarli sharoitni ta'minlab bermagan nomunosib jamiyat tuzumidadir.

Ko'zi ojiz bolalarning bemalol harakatlarishi va dam olishini amalga oshirishi uchun imkoniyatining cheklanishi uning kasalligi tufayli emas, balki piyodalar o'tish joylarida ovozli signallarning yo'qligi, yo'l ko'rsatuvchi itlarning etishmasligi, maxsus ta'lim xizmatlarining yo'qligida emasmi. Barcha bolalar kun davomida tayyorlov yoki oddiy maktablarga borishlari, to'garak yoki biror mashg'ulotlarga qatnashlari uchun uydan hiqish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek bo'sh vaqtlarini o'z istaklariga ko'ra o'tkazishlari zarur. Bularning barchasini nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus transport vositalari, panduslar bilan jihozlangan binolar, to'garak tashkilotlarida xonalarda bexatar jihozlar va moslamalar bilan hal etish mumkin.

Jamiyatning oldida turgan vazifa imkoniyati cheklangan, alohida ehtiyojli bolalar uchun bo'sh vaqtlarini mazmunli va unumli tashkil etish uchun imkoniyatni kengaytirish – bu ish bolalar qiziqishlari va imkoniyatlariga to'g'ri kelishi, shuningdek ushbu joylarning o'ziga hos shart-sharoitlariga mos kelishini anglatadi. Bu ijtimoiy integratsiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu asosda jamiyat tomonidan alohida ehtiyojli bolalarni bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishi uchun barcha harakatlarini funksional rejalashtirilishi va koordinatsiyasini talab etadi. Bo'sh vaqtini o'tkazish, rivojlanishi uchun bolalar markazlari, madaniyat va san'at saroylari, barkamol avlod markazlari, to'garaklar nafaqat sog'lom bolalarga, balki alohida ehtiyojli bolalarga ham mo'ljallanishi lozim.

Huddi shu singari alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning bo'sh vaqtni o'tkazishini tashkillash borasida ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olingan holda bolalar tashkilotlarining rahbarlari, mutaxassislari, to'garak rahbarlari, nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun tavsiyalar, uslubiy qo'llanmalar, ilmiy jihatdan asoslangan dasturlar zarur. Bunday yondashish va funksional rejalashtirish, turli mashg'ulot o'tish uchun mo'ljallangan bolalar tashkilotlari mutaxassislari harakatiga binoan, aqliy va jismoniy imkoniyati chegaralangan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning atrofda gilarni kuzatish va ahborat almashinish jarayoni natijasida yangi tajriba va bilimlarini egallashga yordam beradi. Bolalarning katta an'anaviy bayramlar, oila a'zolarining shaxsiy bayramlari, ijtimoiy tadbirlar, mahalliy va diniy bayramlardagi yil davomida uydagi va uning tashqarisidagi hayotga, masalan madaniy, diniy, musiqa, sport an'analari haqidagi tushunchalarni shakillanishiga ta'sir etadi. Bu jarayondan bolalar o'z funksional buzilishlari tufayli chetda qolishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Turli jamiyat tadbirlarida ishtirok etish o'ziga bo'lgan ishonchni, o'zini to'g'ri baholashni va umumiy tan olingan ijtimoilashuvni beradi. U yoki bu muhitda og'ir nogironligi haqidagi ba'zi fikrlarni yengib o'tishga sabab bo'ladi. Bu esa uning shaxsiy motivatsiyasini oshiradi, jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi imkoniyatini beradi.

Avvalom bor, jamiyat, ota-onalar va ularning bolalarini nafaqat davolashga, balki o'qishda va bo'sh vaqtida ularni rivojlantiruvchi dasturlariga yo'l ochib berish kerak. Alohida ehtiyojli bolaga yangi taasurotlarni olishga to'sqinlik qilish, bolaga faqat davolovchi muolajalar, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishigina emas, balki uni harakatlarini kuchaytiruvchi, ichki imkoniyatlarini yuzaga

chiqaruvchi yordamchi vositalar bilan imkon ham berish lozim. Yana bir misol, agar bola ko'rish nuqsoniga ega bo'lsa, bunday bolalarning sezish funksiyalari o'ta rivojlangan, eshitish qobiliyati mukammal bo'lishi mumkin. Bunday bolalarda musiqaga bo'lgan iqtidor yuqori darajada rivojlangan bo'lib uni yuzaga chiqarish mutaxassislar tomonidan harakat talab qilinadi. Ular bu bilan bolani shu yo'nalishdagi malakalarini egallashga va qo'llashga, qo'rqmaslikka va atrof olamni izlanib tushunishga o'rgatadi. Ularga madaniyat va ijtimoiy tadbirlarda yanada ko'proq ishtirok etish imkonini beradi va shu bilan aqliy buzilishga ega bolalarni mustaqil va jamiyatga ta'sir o'tkaza oladigan vakil sifatida anglashlariga olib keladi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Farg'ona mintaqaviy filiali mutaxassislari tomonidan bola organizmining kompensator imkoniyatlariga tayangan holda ko'rsatilayotgan majmuaviy tibbiy, psixologik-pedagogik, rivojlantiruvchi chora-tadbirlar bolaning maksimal darajadagi reabilitatsiyasini ta'minlashda va hayotga ijtimoiy va madaniy moslashtirishda katta samara beradi. Filial mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan bunday mashg'ulotlar shu kungacha uch mingdan ortiq bolalar va ularning ota-onalariga ijobiy natijalar berayotgani tasdiqlandi.

RBIMM Farg'ona mintaqaviy filiali mutaxassislarining olib borayotgan ish faoliyatining tahliliga ko'ra bolalarni fiziologik va intellektual rivojlanishi, hayotga ijtimoiy moslashishi uchun barcha choralarni kompleks tarzda qo'llash lozim, jumladan:

- Bolaning psixofiziologik rivojlanishiga to'g'ri baho berish: jismoniy rivojlanish, hissiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, nutqning rivojlanishi, ijtimoiy rivojlanish;

- Mashg'ulotlarni vrachlar va pedagoglar tomonidan individual yoki guruhli (LFK, massaj, basseyn, fitoterapiya, pedagogik mashg'ulotlar, montessori, sensor xonasida, art-terapiya, ertak terapiya, musiqa terapiya va b.) tanlab belgilash;

- Bolaning rivojlanishi uchun uning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish va to'g'ri rejalashtirish, ota-onalar klubida ish olib borish, bolaning iqtidorini aniqlash va to'garaklarga yo'naltirish;

- Tibbiy-pedagogik, psixologik reabilitatsiyada: pediater, bolalar nevrologi, defektolog, LFK instruktori, psixolog, ota-onalarning hamkorligida muhokama bilan ishlashi maqsadga muvofiq, chunki yaxshi rivojlanish uchun muhim shartlardan biri – bu uni sevuvchi yaqinlari, ota-onalarining bola uchun yaratgan muhitidir.

Filial mutaxassilari tomonidan olib boriladigan qo'yidagi mashg'ulotlardan: artterapiya – tasviriy san'at, rasm chizish, qumda rasm chizish, loydan buyumlar yasash, ganchkorlik, to'qish va tikish, musiqaterapiya - raqsga tushish, qo'shiq aytish, teatrdan ertak saxnalashtirish, ippoterapiya (ot bilan muloqot orqali davolash) va boshqa usullar yordamida bolalardagi nuqsonlarni imkon darajada bartaraf etish va yuqotish, iqtidorini aniqlash, rivojlantirish uchun keng foydalaniladi.

Bu mashg'ulotlar boladagi eshitish sezgisini va undagi ruhiy holatini ijobiy tomonga o'zgartirib, ulardagi emotsional ruhiy holatini faollashtirishga yordam beradi. Musiqa va san'at maktablari zaminida tashkil etilgan to'garaklar nafaqat bola ruhiyatiga, balki ba'zi giperfaol bolalarni tinchlantirish, diqqatini jamlash maqsadida qo'llanilishi mumkin.

Barcha bolalarga, ular qatorida alohida ehtiyojli bolalarga ham shodlik ulashmoq, o'zining ijodiy qobiliyatini, zehni, ijodiy yondashuvini, faolligini namoyon qilish imkoniyatini berish lozim. Har bir bola oilasida bo'lajak tadbirlarga tayyorlanishi uni shodlik bilan kutish hissini uyg'otadi. Reja asosida tuzilgan serqirra musiqaviy dasturlar, xilma-xil sahnalashtirilgan tomoshalar shodlik tuyg'ularini uyg'otadi, o'yinlar, qo'shiq aytish kayfiyatni ko'taradi. Bu kabi tadbirlar bolalarda idrok qilish kuchini oshiradi. Qo'shiq she'rlarni o'qishda, yod olishda turli hodisalarga o'zlarining munosabatlarini bildiradilar, bu bola xotirasida uzoq saqlanishi mumkin bo'lgan taassurotlar va foydali terapiya manbaidir.

Bugungi kunda Halq ta'limi tasarrufidagi bolalar Barkamol avlod markazlari, madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi musiqa va san'at maktablari hamda madaniyat va dam olish markazlari mavjud bo'lib, ular tomonidan alohida ehtiyojli bolalarning qamrab olinishi yetarli darajada emas. Bizning maqsadimiz bolalarni shu muassasalardagi tashkilotlarni imkon qadar barcha bolalarga, shular qatorida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga moslashtirish, Respublikaning shahar yoki tumanlarida Halq ta'limi, O'MKHT, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, NNTlar yordami bilan turli bolalar klublari yoki rivolantiruvchi to'garaklari, mashg'ulot o'tish uchun mo'ljallangan bolalar tashkilotlari mutaxassislari yordamida, aqliy va jismoniy imkoniyati chegaralangan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning jamiyat bilan birga bo'lishi, atrof muhitga moslashishi, kuzatishi, ishtirok etishi va ahborat almashinish jarayoni natijasida yangi tajriba va bilimlarini egallashi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

11.3. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga yangicha nigoh

Har tomonlama rivojlangan sog'lom avlodni tarbiyalash har bir davlatning o'ta dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Istalgan davlatning kelajagi, uning taraqqiyoti va gullab yashnashi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi qaerda va qanday amalga oshirilishi, bola shaxsining qay tarzda shakllanayotganiga bevosita bog'liq

O'zbekiston Respublikasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatning diqqat markazida bolalar va ularning oilalarini himoya qilish va yaqindan ko'maklashish vazifasi turadi, chunki oila jamiyatning asosiy bo'g'imi, hujayrasi hisoblanadi.

Ota-onalarning orziqib kutgan sog'lom farzand o'rniga alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolani qo'llariga olganlarida, jamoat joylarda ularga to'g'ridan-to'g'ri farzandlarining boshqalarga o'xshamasligini ko'rsatganlarida yoki tibbiyot xodimlarining "farzandingizning imkoniyati cheklangan", deb tashxis qo'yishlari natijasida ruhiy-emotsional holatlar yuzaga keladi.

“Nogiron”, ushbu soʻz ortida inson butkul koʻrinmaydi, balki ota-onalarning ularni oʻgʻil yoki qizlari hech qachon oddiy bolalar kabi boʻla olmasligidan qoʻrquv va afsus nadomat yashirinadi. Shu kabi “taʼriflashlar” ortida hamma odamlar birdek qadrli ekanligini tushunish hamda tan olishni istamasligimiz yashirinadi.

“Nogiron, choʻloq, aqli past...”, bu kabi xaqoratomuz va xunuk soʻzlardan foydalanishni toʻxtatishimiz, inson qadr-qimmatini uning qoʻllari va oyoqlari bor-yoʻqligi, hatto qanday koʻrinishi, gaplashishi va oʻzini tutishida ham emasligini anglab yetishimiz darkor.

Biz oʻzimizdan farqli boʻlgan odamlarga nisbatan achinish, qoʻrquv, uyat va nohushlikni his qilish hamda namoyon etishni toʻxtatishni gʻoyat istardik. Va yana xohlardikki, alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalarning qarindoshlari va yaqinlari ular haqida “qila olmaydi”, “bora olmaydi” deyishni toʻxtatishlari kerak emasmikan?

Har qanday bola mehribon, baxtli va mustaqil boʻlishi mumkin, har qanday bola shaxs sifatida rivojlanadi, faqat bu rivojlanish oʻziga hos ravishda kechadi. U barchamiz kabi hurmatlashga, sevimli hamda jamiyatimizning toʻlaqonli aʼzosi boʻlishga munosibdir. Alohida ehtiyojga ega boʻlgan bola har qanday bola kabi kasal boʻlishi, nimanidir uddalay olmasligi, muloqot va oʻqishida qiyinchilikni his qilishi, shuningdek, jismonan faol yoki sust, muloqotchan va qiziquvchan, hattoki juda iqtidorli boʻlishi mumkin.

Shu oʻrinda jamiyatimizda alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalarga nisbatan qanday soʻzlar ishlatishimizga bir nazar tashlasak:

Kasalvand, choʻloq, tugʻma nogiron, invalid, nogironlik aravachasiga mihlangan, aqli past, debil, idiot, daun, tutqanoq, koʻr, kar, soqov, psih, jinni, tentak kabi inson har qanday holatda boʻlsada, nafsoniyatiga tegadigan atamalar.

Vaholanki, alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalarga nisbatan quyidagicha murojaat etsak maqsadga muvofiq boʻlar edi:

Tugʻilgandan nogironligi belgilangan bola, maxsus aravachadan foydalanadigan bola, aqliy rivojlanishdan orqada qolgan bola, taʼlim olishda

qiynaladigan bola, ko'rish qobiliyati zaif bola, eshitishi zaif bola, nutqi rivojlanmagan bola, ruhiy rivojlanishidan orqada qolgan bola kabi terminlarni qo'llashimiz darkor.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda azal-azaldan bolaning ruhiy, aqliy va jismoniy tarbiyasiga alohida ahamiyat berilib, ularni mukamallikka yetkazishga harakat qilingan. Jismoniy harakatlari chegaralangan, turli sabablarga ko'ra nogiron bo'lib qolgan bolalarni jamiyatga qo'shilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, kerak bo'lsa atrofdegilar va tengqurlari ham ular bilan mehr-oqibatli bo'lishini ta'minlash rag'batlantirish va taraqqiy ettirish jamiyatning komillik darajasini belgilab beradi.

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash g'oyat ma'suliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning barchasi sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgandir.

Insonning ijtimoiy barkamolligi uning atrof olamga qanday moslashganligi, jamiyatda o'zini qanday his etishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o'zaro aloqadorligi, harakatini buzadigan salbiy omillar miyasining etilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakillanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, bartaraf etish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 19 fevraldagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risidagi PQ 2133-sonli qarori ijrosini ta'minlash, Respublikada ambulator-poliklinika muassasalarida ilk yoshdagi bolalarga tibbiy-pedagogik hizmatlarni rivojlantirish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirining 16.05.2014 yildagi №172 sonli buyrug'iga asosan, markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalar qoshida ilk yoshdagi bolalarga tibbiy-pedagogik yordam hizmati tashkillanishi ko'zda tutilgan. Bu borada Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi

markazi Farg'ona mintaqaviy filiali hamkorligida Farg'ona shahar ko'p tarmoqli poliklinikasida "Erta aralashuv xizmati" kabineti tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar erta aralashuv xizmatida 31 nafar 0 yoshdan- 3 yoshgacha bo'lgan alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar aniqlandi hamda ular "Erta aralashuv xizmati" dan foydalanishdi. Bolalarga va ularning oilalariga pediater, bolalar nevrologi, logoped-defektolog, davolovchi jismoniy mashqlar (LFK) instruktori tomonidan beminnat xizmat ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga RBIMM Farg'ona mintaqaviy filialida ham bir yil davomida 100 dan ortiq 3 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda ularning ota-onalariga keng qamrovli majmuaviy xizmat ko'rsatildi.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni erta korreksiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlari butun dunyoda jumladan, O'zbekistonda ham maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda.

Barvaqt aralashuv tizimining rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning hayot sifatini oshirishdagi ahamiyati kattadir.

Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, asab tizimining egiluvchanligi, buzilgan funksiyalarning kompensatsiyalanish imkoniyatlari erta kompleks yordamining zarurligini ko'rsatadi. Maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlar orqali psixik va motor funksiyalardagi nuqsonlarni bartaraf etish hamda ularning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi vaqtda ma'lum bir sabablarga ko'ra homiladorlik yoki tug'ilish jarayonida jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarish bilan dunyoga kelgan go'daklarga passiv, yordamga muhtoj, faoliyat ob'ekti emas, balki hamkorlikdagi faoliyatning faol sub'ektlari, atrofdagi ijtimoiy muhit bilan eng avvalo, ota-onalar bilan o'zaro aloqadorlik jarayonida rivojlanayotgan, bu ijtimoiy o'zaro aloqadorlikni izlovchi va o'zining rivojlanish jarayonida jadal ishtirok etuvchi sub'ekt sifatida qarala boshladi.

Barvaqt yordam xizmati yuqori samarali bo'lib, uni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga sarflangan mablag'lar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Chunki bu xizmat maktab yoshiga kelganda maxsus ta'lim olishga majbur bolalar sonini

kamaytiradi. Bunday xizmat alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni me'yorida rivojlanayotgan bolalar muhitiga ta'limiy va ijtimoiy integratsiyalanishini ta'minlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha ilk rivojlanish davridagi korreksiyalash ishlari natijasida perinatal patologiyaga ega bo'lgan bolalarning 30 foizi 6 oylikda me'yorda rivojlanish ko'rsatgichlariga erishadilar, 90 foiz bolalarda esa turg'un ijobiy natijalar kuzatiladi, shu asosida maktabgacha davrda bola me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari jamoasiga qo'shib ketadi.

Erta, barvaqt psixologik-pedagogik korreksiyalash – bu fanlararo bilimlarning yangi sohasi bo'lib, go'daklikdan to'liq yoshdagi tibbiy, genetik va ijtimoiy rivojlanishda orqada qolish xavfi guruhiga kiruvchi bolalarga kompleks yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy asoslaridir.

Barvaqt yordam tashkil etishning asosiy maqsadi: ilk yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilasini maxsus yordam bilan qamrab olish, bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni tashxis qilish va korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarning yuzaga kelishini oldini olish, bolalarni me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasiga integratsiya qilish, rivojlanishi orqada qolayotgan yoki orqada qolish xavfi mavjud bo'lgan bolani aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaga bunday bolani tarbiyalash, rivojlantirish yo'llari haqida maslahatlar berib boriladi, erta rivojlantirishning yakka dasturi tuziladi. Ilk yoshdagi bolani sensor-motor sohasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib boiladi. Oilaga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatiladi.

Barvaqt aralashuv xizmati ishining zaruriy sharti ota-onalarning mutaxassislarga teng hamkor sifatida jalb etishdir. Ota-onalar bolaga yordam berish dasturida faol ishtirok etadilar.

Xalqimizda “kasalni davolashdan ko'ra oldini olgan afzal” degan naql bor, albatta, bolaga ilk yoshidan e'tiborli bo'lish nafaqat mutaxassislarning, balki ota-onalarning ham zimmasiga yuklanadi. Barvaqt aralashuv xizmatlari esa bu borada ularga malakali yordam ko'rsatishi bilan qimmatli bo'ladi.

Inklyuziya bu – alohida ehtiyojli o'quvchilarni ehtiyojlarini qondirish, ta'lim, madaniyat va jamiyatda bo'lib o'tayotgan jarayonlarga keng jalb etish va

ta'lim olish yo'lida bo'lgan qiyinchiliklarni yengillashtirish bo'yicha olib boriladigan chora tadbirlardir.

Alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim muassasalarga inklyuziyasini ta'minlash (jalb qilish) ularni jamiyatning to'laqonli a'zolariga aylantirish vazifasi qo'yilgan.

Inklyuziyaning maqsadi:

Bolalar, ota-onalar, mutaxassislar va fuqarolarga alohida ehtiyojli bolalar ikkinchi darajali emasligini va ular havfsiz ekanligini anglatmoqlikdir.

Inklyuziv ta'lim – alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim sifatini takomillashtirish va ularni maktabgacha ta'lim muassasa hamda umumta'lim maktablariga integratsiya qilishni ta'minlash. Oqilona jamiyat, taraqqiyot yo'lida hech qanday, hattoki kichik omildan ham voz kechmaydi – aksincha, barcha omillardan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Alohida ehtiyojli bolalar jamiyatimizning ma'lum bir qismini tashkil etar ekan, ulardagi iqtidor, salohiyatdan oqilona foydalanish, mamlakatimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu degani alohida ehtiyojli bolalarga yangicha nigoh bilan qarab, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish kerak!

Mundarija

KIRISH	5-6
I Bob. Bolalar va yoshlarning ijtimoiy himoyasi va ta'minoti. Ijtimoiy ish amaliyotining asosiy tamoyillari	
1.1. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibi.	6-9
1.2. Bolalarni ijtimoiy himoyasi.	9-15
1.3. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy vazifalari.	15-19
II Bob. Bolalar ijtimoiy ish ob'ekti	
2.1. Bolalarni ijtimoiy ishning ob'ekti sifatida o'rganish.	20-24
2.2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va o'smirlar toifalari.	24-38
2.3. Bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar qatlamiga kirishining sabablari.	38-44
2.4. O'smirlilik davrining qiyinchiliklari.	44-51
III Bob. Islohatlar jarayonida yoshlarning ijtimoiy muammolari	
3.1. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi sifatida.	52-55
3.2. Yoshlarning ijtimoiy stratifikatsiyasi. Islohotlar jarayonida ijtimoiylashuv jarayonining xususiyatlari.	55-60
3.3. Yoshlarda jamiyatdagi jarayonlar mexanizmi va jamiyat institutlari o'rtasidagi ijtimoiy tajribani o'rganishni shakllanishi.	61-68
IV Bob. Ijtimoiy xavfli bolalar bilan ishlash	
4.1. «Ijtimoiy xavf» tushunchasi.	69-73
4.2. Ijtimoiy xavfli oilalar tipologiyasi.	73-77
4.3. Ijtimoiy xavfli oilalar bilan ishlash.	77-82
4.4. Ijtimoiy xavfli oilalar va bolalarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy ish xodimlarining vazifalari.	82-86
V Bob. Asotsial xodisalarni oldini olish va yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish	
5.1. Deviantlik tushunchasi va deviant xulq-atvor turlari.	87-101

5.2. Jinoyatchilikni oldini olish bolalar va yoshlar bilan ijtimoiy ish. . . .	101-107
5.3. Yoshlar o'rtasida alkogolizm va giyohvandlikni oldini olish.	107-112
5.4. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi.	112-116
VI Bob. Bolaga va yoshlarga nisbatan nomunosib va ehtiyotsiz munosabat	
6.1. Bolalar va yoshlarga nisbatan noloyiq munosabat.	117-130
6.2. Noloyiq munosabatning bolalar ruhiyatiga ta'siri va oqibatlari. . . .	130-142
6.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolalarni noloyiq munosabatdan himoya qilish va muhofazalash tizimi.	142-144
VII Bob. Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolganlar bilan ishlashda ijtimoiy ishchining roli va majburiyatlari	
7.1. Qiyin hayotiy vaziyatlarga tushganlarni aniqlash usullari	145-149
7.2. Oila bilan ishlashga tashkiliy tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari.	149-154
7.3. Ijtimoiy ishchining ko'nikmalari.	155-163
7.4. Ijtimoiy ish xodimining rollari va funksiyalari.	163-184
VIII Bob. Ota-onalar qarovsiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish nazariyasi va huquqiy asoslari	
8.1. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ishda kasbiy axloq	185-189
8.2. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ishlashning huquqiy asoslari	189-208
8.3. Ota-ona qaramog'isiz va yetim holda qolgan bolalarni mustaqil hayotga moslashuvi (adaptatsiyasi)ni ta'minlashning asosiy jihatlari. . . .	208-214
IX Bob. Ota-onalar qarovsiz qolgan bolalarni joylashtirish shakllari	
9.1. Hissiy bog'langanlik nazariyasi.	214-219
9.2. Internat muassasaga joylashtirishning salbiy oqibatlari.	219-228
9.3. Bolani patronat oilaga joylashtirish.	228-242
9.4. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka, oilaga tarbiyaga berish.	243-250

X Bob. Ijtimoiy ish (yordamga muhtoj bolalar bilan qonunni buzishga bo'lgan moyillik profilaktikasi) bo'yicha mutaxassis faoliyatining o'ziga xosligi	
10.1. Bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari. Bola ijtimoiylashuviga omillar ta'siri. Shaxs tushunchasi.	251-259
10.2. Bolalar uylaridagi ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari: jismoniy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik.	259-266
XI Bob. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti	
11.1. Alohida ehtiyojli bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida oila va uning o'rni.	267-283
11.2. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ijtimoiy madaniy moslashuvida kompleks yordamni tashkil etish.	283-289
11.3. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga yangicha nigoh.	289-294

Содержание	5-6
Глава 1. Социальное обеспечение и защита детей и молодежи. Основные принципы практики социальной работы	
1.1. Состав системы социальной защиты населения	6-9
1.2. Социальная защита детей	9-15
1.3. Основные задачи молодежной государственной политики	15-19
Глава 2. Дети как объект социальной работы	
2.1. Изучение детей как субъекта социальной работы	20-24
2.2. Категории нуждающихся детей и подростков	24-38
2.3. Причины попадания детей и подростков в группу нуждающихся категорий	38-44
2.4. Трудности подросткового периода	44-51
Глава 3. Проблемы молодежи в в процессе реформ	
3.1. Молодежь как социально-демократическая группа	52-55
3.2. Социальная стратификация молодежи. Особенности социализации в процессе реформирования	55-60
3.3. Изучение зарубежного опыта по адаптации молодежи в обществе	61-68
Глава 4. Работа с детьми «группы риска»	
4.1. Понятие «социального риска»	69-73
4.2. Типология детей группы «социального риска»	73-77
4.3. Работа с семьями группы риска	77-82
4.4. Задачи социального работника в оказании помощи детям и семьям группы риска	82-86
Глава 5. Формирование здорового образа жизни и предотвращение асоциального поведения	
5.1. Виды девиантного поведения и понятие девиантного поведения	87-101
5.2. Социальная работа с детьми и молодежью по предотвращению	

преступности	101-107
5.3. Профилактика алкоголизма и наркомании в молодежной среде	107-112
5.4. Здоровы образ жизни молодежи	112-116
Глава 6. Небрежное обращение с детьми и молодежью	
6.1.Небрежное обращение с детьми и молодежью	117-130
6.2. Влияние на детей небрежного обращения	130-142
6.3. Системы правовой защиты детей от небрежного обращения	142-144
Глава 7. Роль и обязанности социального работника в работе с детьми попавшими в трудную жизненную ситуацию	
7.1. Методы определения трудно жизненной ситуации	145-149
7.2. Основные понятия организационной системы работы с семьей	149-154
7.3.Навыки социального работника	155-163
7.4. Роли и функции социального работника	163-184
Глава 8. Теория и правовые основы работы с детьми, оставшимися без попечения родителей	
8.1. Профессиональные ценности работы с детьми оставшимися без попечения родителей	185-189
8.2. Правовые основы социальной работы с детьми, оставшимися без попечения родителей	189-208
8.3. Основные аспекты адаптации детей, оставшихся без попечения родителей	208-214
Глава 9. Виды размещения детей, оставшихся без попечения родителей	
9.1. Теория привязанности	214-219
9.2. Негативные последствия размещения детей в интернатные учреждения	219-228
9.3. Размещение детей в патронатной семье	228-242
9.4. Воспитание детей в семьях, родители которых были детьми оставшимися без попечения родителей	243-250

Глава 10. Основные аспекты деятельности социального работника (профилактика противоправного поведения детей, нуждающихся в помощи)	
10.1. Особенности развития личности ребенка. Влияние различных факторов на социализацию ребенка	251-259
10.2. Основные направления работы в интернатных учреждениях . . .	259-266
Глава 11. Практика социальной работы с детьми нуждающихся в помощи	
11.1. Роль семьи в развитии ребенка нуждающегося в помощи	267-283
11.2. Организация комплексной помощи детям в социокультурной адаптации	283-289
11.3. Новый взгляд на детей нуждающихся в помощи	289-294

Content	5-6
Chapter 1. Social security and protection of children and youth.	
Basic principles of social work practice	
1.1. The composition of the social protection system	6-9
1.2. Social protection of children	9-15
1.3. The main objectives of youth state policy	15-19
Chapter 2. Children as an object of social work	
2.1. The study of children as a subject of social work	20-24
2.2. Categories of children and adolescents in need	24-38
2.3. Reasons for children and adolescents falling into the group of needy categories	38-44
2.4 Difficulties in adolescence	44-51
Chapter 3. Problems of youth in the reform process	
3.1. Youth as a Social Democratic Group	52-55
3.2. Social stratification of youth. Features of socialization in the reform process	55-60
3.3. Studying foreign experience in youth adaptation in society	61-68
Chapter 4. Working with children at risk	
4.1. The concept of "social risk"	69-73
4.2. Typology of children of the social risk group	73-77
4.3. Work with families at risk	77-82
4.4. The tasks of a social worker in helping children and families at risk	82-86
Chapter 5. The formation of a healthy lifestyle and the prevention of antisocial behavior	
5.1. Types of deviant behavior and the concept of deviant behavior	87-101
5.2. Social work with children and youth on crime prevention	101-107

5.3. Prevention of alcoholism and drug addiction in the youth environment	107-112
5.4. Healthy youth lifestyle	112-116
Chapter 6. Negligent Handling of Children and Youth	
6.1. Negligent treatment of children and youth	117-130
6.2. Impact on children of neglect	130-142
6.3. Legal child protection systems against neglect	142-144
Chapter 7. The role and responsibilities of a social worker in working with children in difficult situations	
7.1. Methods for identifying difficult life situations	145-149
7.2. Basic concepts of the organizational system of work with the family	149-154
7.3. Social worker skills	155-163
7.4. Roles and functions of a social worker	163-184
Chapter 8. Theory and legal principles of work with children left without parental care	
8.1. Professional values of working with children without parental care	185-189
8.2. Legal basis for social work with children without parental care	189-208
8.3. The main aspects of the adaptation of children without parental care	208-214
Chapter 9. Types of placement of children without parental care	
9.1. Attachment theory	214-219
9.2. Negative consequences of placing children in residential institutions	219-228
9.3. Placement of children in a foster family	228-242
9.4. Raising children in families whose parents were children left without parental care	243-250
Chapter 10. The main aspects of the activities of a social worker	

(prevention of illegal behavior of children in need of help)	
10.1. Features of the development of the personality of the child. The influence of various factors on the socialization of the child . . .	251-259
10.2. The main directions of work in boarding schools	259-266
Chapter 11. The practice of social work with children in need of help	
11.1. The role of the family in the development of a child in need of help	267-283
11.2. Organization of comprehensive assistance to children in socio-cultural adaptation	283-289
11.3. A new look at children in need of help	289-294
